

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

YUSUPOV R.K.

IJTIMOYIY ISHGA KIRISH

O‘quv qo‘llanma

SAMARQAND 2020

UDK 361.1 (075)

BBK 65.051

U. 91

Yusupov R.K. Ijtimoiy ishga kirish. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand :
SamDU nashri, 2020. – 260 bet.

Ijtimoiy ish – o‘z hayotiy muammolarini mustaqil hal etishga, aksariyat hollarda yashashga qiynalgan insonlarga yordam ko‘rsatishga yo‘naltirilgan faoliyatning o‘ziga xos turidir. Jahon tajribasida aholining zaif qatlamlari - ehtiyojmand qariyalar, imkoniyati cheklangan insonlar, muammoli oilalar, qiyin hayotiy muammolarga duch kelgan insonlar, shu jumladan, bolalarga yordamni malakali mutaxassislar – ijtimoiy soha xodimlari tashkil etadilar va amalga oshiradilar.

Bu soha ijtimoiy jihatdan muhim professional soha bo‘lib, u jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta‘minlash vazifasini bajaradi. Shuningdek, davlatning zamonaviy ijtimoiy siyosatini amalga oshirishini, zaif aholi qatlamlariga ijtimoiy xizmatlarning sifati va ommabopligini ta‘minlash uchun xizmat qiladi. Mazkur o‘quv qo‘llanma “Ijtimoiy ishga kirish” fanining namunaviy va ishchi dasturi asosida yozilgan bo‘lib, unda ijtimoiy ishning nazariy va tashkiliy asoslari, rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy ishning rivojlanish va taraqqiyot bosqichlari kabi masalalar yoritib berilgan. O‘quv qo‘llanma ijtimoiy ish yo‘nalishi professor-o‘qituvchilari, talabalari hamda ijtimoiy ish sohasi bilan qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo‘ljallangan.

Ma’sul muharrir: SamDU O‘zbekiston tarixi kafedrası professori, t.f.d. **Nabiev F.H.**

Taqrizchilar: SamDU Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrası mudirif.f.n., dots. **Negmatov I.N.,**
SamDU Sotsiologiya va ijtimoiy ishkafedrası dots. **Sherov M.B.**

SamDU kengashining 2020 yil 29 sentabrdagi 2-sonli qarori bilan nashr etishga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9943

© Yusupov R.K.

KIRISH

O‘zbekistonda yangi bo‘lgan “ijtimoiy ish” sohasi xodimlari ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarga ijtimoiy yordam, g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularning jamiyatga moslashishi va integratsiyalashuviga ko‘maklashish bo‘yicha kasbiy salohiyatli ko‘makni amalga oshiruvchi malakali mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyojning kuchayib borishi munosabati bilan jamiyat taraqqiyatida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O‘zbekistonning munosib o‘rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan mamlakatni rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi va uning beshta ustivor yo‘nalishi barqaror taraqqiyotni ta‘minlashda muhim dasturilamal bo‘ldi. Harakatlar strategiyasining bosh maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta‘minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

O‘zbekistonda, hayotimizning barcha jabhalarida bo‘lganidek, ta‘lim tizimida ham katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, oliy ta‘lim tizimini tubdan o‘zgartirishda ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassislarni o‘qitish va bu sohani rivojlantirishdagi muammolarni hal qilish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon hamjamiyati e‘tirof etayotgan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish, hududiy iqtisodiyot, mintaqaviy rivojlanish va mahalliyashtirish dasturlari ijrosini ta‘minlash asosida yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali aholining turmush farovonligini oshirishga qaratilgan “Ijtimoiy sohani

rivojlantirish” deb nomlangan to‘rtinchi ustuvor yo‘nalish doirasida keng qo‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda bu borada Respublikamizda zamonaviy ijtimoiy himoya tizimini barpo etish yo‘lida puxta o‘ylangan islohotlarni amalga oshirish mamlakatimiz ijtimoiy taraqqiyoti hamda aholi farovonligini ta‘minlash imkoniyatini bermoqda.

Harakatlar strategiyasida aholini ijtimoiy muhofaza qilish, ularga qulay ish sharoitlarini yaratib berish chora-tadbirlarini amalga oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi¹. Harakatlar strategiyasini besh bosqichda amalga oshirish nazarda tutilmoqda, bunda yillarga beriladigan nomlarga muvofiq har yili uni amalga oshirish bo‘yicha Davlat dasturi tasdiqlanadi.

Ushbu dasturiy hujjat ko‘plab sohalarda o‘z yechimini kutayotgan masalalar va ularni hal etishga doir izchil chora-tadbirlarni qamrab olgani bilan ahamiyatlidir. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning bir qator asarlarida²ta’kidlanganidek, ijtimoiy sohani rivojlantirishda aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiyasi, gaz bilan

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. – Тошкент: “Адолат”, 2018. – 112 б.

²Мирзиёев Ш.М.Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз. Мазкур китобдан Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2016 йил 1 ноябрдан 24 ноябрга қадар Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри сайловчилари вакиллари билан ўтказилган сайловолди учрашувларида сўзлаган нутқлари ўрин олган /Ш.М.Мирзиёев. – Тошкент : “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.; Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги bosqichga кўтарамиз – Тошкент : Ўзбекистон, 2017. - 592 б.; Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. – 400 б.; Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент : Ўзбекистон, 2017. - 56 б.; Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Тошкент : Ўзбекистон, 2017. - 104 б., ва бошқ.

ta'minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini ko'tarish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mazkur o'quv qo'llanma "Ijtimoiy ishga kirish" fanining namunaviy va ishchi dasturi asosida yozilgan bo'lib, unda ijtimoiy ishning nazariy va tashkiliy asoslari, rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy ishning rivojlanish va taraqqiyot bosqichlari kabi masalalarni qamrab olgan.

Ijtimoiy ish o'z hayotiy muammolarini mustaqil hal etishga, aksariyat hollarda yashashga qiynalgan insonlarga yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan faoliyatning o'ziga xos turidir. Jahon tajribasida aholining zaif qatlamlari - qariyalar, imkoniyati cheklangan insonlar, muammoli oilalar, qiyin hayotiy muammolarga duch kelgan insonlar, shu jumladan bolalarga yordamni malakali mutaxassislar–ijtimoiy soha xodimlari tashkil etadilar va amalga oshiradilar.

Bu soha ijtimoiy jihatdan muhim bo'lgan professional soha bo'lib, u jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlash vazifasini bajaradi, shuningdek, davlatning zamonaviy ijtimoiy siyosatini amalga oshirishini, zaif aholi qatlamlariga ijtimoiy xizmatlarning sifati va ommabopligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. O'quv qo'llanmani yaratishda O'zbekistonda ijtimoiy ish ixtisosligi bo'yicha taniqli olimlar M.H.G'aniyeva, M.Bekmurodov, N.M.Latipovalarning³, bir qator chet ellik mutaxassislarning asarlaridan uslubiy jihatdan foydalanildi⁴.

³Ганиева М.Х. Введение в социальную работу. – Ташкент; НУУз, 2011; Ганиева М.Х. Основы социальной работы. Учебное пособие. – Ташкент: CHASHMAPRINT, 2009. – 112 с.;Хрестоматия по учебному курсу «Основы социальной работы». Распространение программы переподготовки по социальной работе и продвижение профессии «социальная работа» в Узбекистане». / Составители: М.Х. Ганиева, М.Х. Карамян. - Ташкент: МинВУЗ-РЦСАД- ТашГИК-ЮНИСЕФ, 2008; Bekmurodov M. Oliy ma'lumotli ijtimoiy xodimlarni tayyorlashda ta'lim muassasalarining roli. - T.:2008 y.; Латипова Н.М.Социальная защита семей и детей в Узбекистане. – Ташкент, Navro'z, 2018.

⁴Кравченко А.И. Социальная работа. – М.: Изд-во Проспект, 2008; Тетерский С.В. Введение в социальную работу. - М., Академический проект, 2003. — 493 б. (элект.вар.);

“Ijtimoiy ishga kirish” o‘quv qo‘llanmasi ijtimoiy ish va ijtimoiy pedagogika ixtisosligi bo‘yicha ta’lim olayotganlar, ijtimoiy xizmatchilar, psixologlar, bolalar harakatlari va Yoshlar ittifoqi tashkilotchilari, ijtimoiy-pedagogik ixtisosliklar bo‘yicha bakalavrlar, magistrlar, ijtimoiy soha mutaxassislarini tayyorlash dasturlari va o‘quv rejalarini tuzuvchilar uchun mo‘ljallangan. Undan, shuningdek, o‘rtamaxsus o‘quv yurtlarining “ijtimoiy xizmatchi” ixtisosligi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalari ham foydalanishlari mumkin.

Павленок П.Д. Введение в профессию «Социальная работа»: Курс лекций. - М., 1998;
Тони Видмар. Валентина Хухлина. Сборник «Практики социальной работы». – М.: Изд-во Моск. гуманитар. ун-та, 2018.

1-MAVZU. IJTIMOIIY ISH VA IJTIMOIIY TA'MINOT TUSHUNCHALARINING MOHIYATI.

Reja:

- 1.1. Ijtimoiy ishga kirish o'quv kursining tuzilishi, maqsadi.**
- 1.2. Ijtimoiy ish obyekti va predmeti.**
- 1.3. Ijtimoiy ta'minot tushunchasi va uning ijtimoiy ish bilan aloqadorligi.**

Ijtimoiy ishga kirish o'quv kursining tuzilishi, maqsadi.

Mustaqillikning qo'lga kiritilishi bilan O'zbekistonda ijtimoiy ish professional faoliyat turi sifatida to'liq rivojlanana boshladi va uning qaytadan shakllanishi ijtimoiy hayotning barcha sohalariga birday tegishli bo'lgan haqqoniy o'zgarishlar davriga to'g'ri keldi.

Ijtimoiy ish tuzilishiga ko'ra, keng ma'noda ijtimoiy hodisa sifatida ijtimoiy yordamning o'ziga xos modelidir. Uni jamiyat aniq bir tarixiy davrda ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanishining xususiyatlariga mos ravishda ro'yobga chiqaradi. Tor ma'noda esa ijtimoiy ish ijtimoiy zaruriy faoliyat bo'lib, kishilar, ijtimoiy guruhlariga shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishlariga yordam berishga qaratilgandir.

Ijtimoiy ish tushunchasi – butun dunyoda qabul qilingan ibora bo'lib, u insonning insonga gumanistik munosabatini bildiradi. Ijtimoiy ish kursining maqsadini quyidagicha ifodalash mumkin. Ijtimoiy ish insonlarning huquqi va imkoniyatlarini oshirish jarayonida, insonlarning o'ziga, oila a'zolariga, ishlab chiqarish tashkilotlariga va ularning jamoat birlashmalariga ko'mak beradi hamda ularning o'zaro munosabatlariga, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy darajalarining o'sishiga bevosita ta'sir etib, hayotiy faoliyatlarining yaxshilanishiga olib keladi.

Ijtimoiy ish o'quv kursini o'qitishdan maqsad, har bir shaxs o'z hayoti hamda mehnat faoliyati davomida unga, hayotiga, sog'lig'iga, mehnat qobiliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday turdagi xavf-xatarga duch kelmasligi yoxud hayotida, uning oila a'zolari orasida noxush vaziyatlar ro'y bermasligi xavfidan xoli emas.

Boshqacha qilib aytganda, har bir kishi o‘zi yoki oila a‘zosi bilan ijtimoiy xavf-xatar (kasallik, qarilik, nogironlik, boquvchisidan mahrum bo‘lish va h.k.) yuz bermasligiga kafolat bera olmaydi. Mazkur holat bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, ishlab chiqarish jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Ayniqsa, bugungi bozor iqtisodiyoti jarayonlari sharoitida mulkchilikning turli shakllari joriy qilinib, tadbirkorlikka keng yo‘llar ochilganda hamda kishining o‘z aqliy va ijodiy qobiliyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish imkoniyati yaratilgan sharoitda aholi o‘rtasida, ularning yoshi, jinsi, salomatligi, mehnat qobiliyati, daromadi va boshqa shu kabi xususiyatlariga ko‘ra tabaqalashuv, farqlanish yuz berishi tabiiydir.

Mamlakatimiz aholisi ham mazkur jarayondan chetda emas. O‘z o‘rnida savol tug‘ilishi mumkin: fuqarolarni shunday xatar hamda vaziyatlarda himoyalash, ular uchun ijtimoiy kafolatlarning eng kam darajasini belgilash vazifasini kim va qanday usullarda hamda vositalarda hal etadi? Shu o‘rinda aytish kerakki, mazkur vazifalar davlatning ijtimoiy funksiyalari bilan bog‘liq bo‘lib, unda bevosita aholini ijtimoiy himoya qilish tadbirlari, ularni amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqilgan bo‘ladi. Ayni paytda bu har qanday demokratik davlatning eng asosiy belgisi hisoblanadi.

Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy huquqlaridan biri, bu – ularning ijtimoiy ta‘minot olishga bo‘lgan huquqi, xususan, fuqarolar keksayganlarida, mehnat qobiliyatlarini yo‘qotganlarida yoki boquvchisidan mahrum bo‘lganlarida hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda normal turmush kechirishini ta‘minlaydigan darajada moddiy ta‘minot yoxud boshqacha shakldagi ijtimoiy yordamlar olish huquqlaridir⁵.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar, boquvchisini yo‘qotganlar, yolg‘iz keksalar, umuman, ko‘makka muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash, davlatimizning ustuvor vazifasi bo‘lib qoladi. Jamiyatning rivojlanganlik darajasi odatda bir qator demografik omillarga, jamiyatdagi keksalar va bolalarning ahvoriga, ularning o‘zini qanday his etishiga, yordam va qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘lgan barcha odamlar toifasiga

⁵ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 2017. 4-бет.

davlatning qanday munosabatda bo'lishiga qarab belgilanadi. Ijtimoiy zaif kishilarga, ya'ni keksalar, nogironlar, yolg'iz, nochor kishilar va aholining boshqa toifalariga yordam berish jamiyatning yuksak ma'naviyati va madaniyligidan dalolat beradi.

Yaqinlariga yordam berish, hamdard bo'lish va xayr-ehson qilish azaldan turli mamlakatlar xalqlariga xosdir. Ushbu fazilatlar O'zbekiston xalqiga ham xos bo'lib, milliy qadriyatlar, an'analar va urf-odatlarining asosini tashkil etadi. Bugungi globallashuv sharoitida ushbu qadriyat va an'analarni asrash va rivojlantirish juda dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa yoshlar ongida insonparvarlik va demokratik qadriyatlarni mustahkamlash zarurligi bilan uzviy bog'liq yangi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish bosqichiga chiqqan bir pallada ayniqsa muhimdir.

Mamlakatni isloh qilish, bozor munosabatlari sharoitlarida jamiyatdagi har bir kishining munosib hayot kechirishini ta'minlash sifatida tushuniladigan shiorga aylanmoqda. Jamiyatning barcha qatlamlari ijtimoiy birdamligi va javobgarligi bunga erishishning zarur omili hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib, ijtimoiy ishni kasb va akademik fan sifatida o'rganish nihoyatda muhim va foydali ekanligini ta'kidlash joizdir. Mamlakatimizda yangi "Ijtimoiy ish xodimi" kasbiga ehtiyojni shakllantirish aholi ehtiyojmand qatlamlarining u yoki bu toifalariga nisbatan ijtimoiy ish amaliyoti bilan shug'ullanadigan, ularga har tomonlama yordam ko'rsatadigan muassasalar, xalqaro va jamoat tashkilotlarining keng tarmog'ining tashkil etilishi bilan izohlanadi. Dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida ijtimoiy ish instituti yuz yildan ortiq vaqt mobaynida faoliyat olib bormoqda va ayni paytda jahonning yetakchi universitetlari bunday tayyorgarlikni amalga oshiradi.

Ijtimoiy ish ijtimoiy hodisa sifatida keng ma'noda ijtimoiy yordamning o'ziga xos modelini ifodalaydi. Buni jamiyat ijtimoiy, siyosiy va madaniy taraqqiyoti xususiyatlariga qarab aniq bir tarixiy davrda amalga oshiradi. Tor ma'noda ijtimoiy ish shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengib o'tishda odamlarga, ijtimoiy guruhlariga yordam berishga yo'naltirilgan ijtimoiy zarur faoliyatdir.

Ijtimoiy ish obyekti va predmeti. Bugungi sharoitda “Ijtimoiy ish” - butun dunyo hamjamiyatida qabul qilingan insonning insonga munosabatini, insonning jamiyatga moslashishini yengillashtirish uchun qaratilgan faoliyatni anglatuvchi atamadir. Bu faoliyat ming yillar oldin xayriya va insonlarning diniy burchi sifatida yuzaga kelib, XX asrda maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan kasbga aylandi. Yangi asr boshiga kelib, kelajakni tadqiq etish xalqaro Akademiyasi tomonidan amalga oshirilgan “Jahon mamlakatlari 2002-2010 yillarda - muammolar va echimlar” loyihasi ishtirokchilari ta’kidlaganlaridek, XX asrda ishchi va oldingi asrlarda dehqon ommaviy kasb bo‘lgan bo‘lsa, XXI asr ijtimoiy ish xodimi asri bo‘lishi bashorat qilingan⁶.

Ayni paytda ijtimoiy ishning teran insonparvarlik manbalarini qayd etgan holda diniy xayriya bilan shug‘ullanadigan kishilar va zamonaviy ijtimoiy ish xodimi o‘rtasidagi farqni ko‘rsatish ham zarur. Zero, ma’naviy burch tuyg‘usi va ko‘rsatilayotgan yordamning kattaligi va uzoq muddatligi bilan o‘lchanadigan ezgu ishlar qilishga intilish, barcha xayriya bilan shug‘ullanadigan kishilarga katta kuch bag‘ishlaydi.

Demak, hozirgi paytda ijtimoiy ish keng ma’noda ijtimoiy hodisa sifatida ijtimoiy yordamning o‘ziga xos modelidir. Uni jamiyat aniq bir tarixiy davrda ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanishining xususiyatlariga mos ravishda ro‘yobga chiqaradi. Tor ma’noda esa ijtimoiy ish ijtimoiy zaruriy faoliyat bo‘lib, odamlar, ijtimoiy guruhlariga shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishda yordam berishga qaratilgan.

Ijtimoiy ishning tarkibiy qismlarini ketma-ketlikda qarab chiqishda tarixiylik, mantiqiylik, tizimlilik muhim ahamiyatga egadir. Ijtimoiy ishning subyektlari(ijtimoiy xizmatlar) muhimligiga qaramasdan, obyekt(vujudga kelgan muammo)larning ham hosilasi va yetakchisidir. Ijtimoiy ish obyektlari u yoki bu jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, hatto siyosiy sharoitlari ta’sirida shakllanadi. Subyektlari(ijtimoiy

⁶ National Association of Social Workers (approved 1996, revised 1999). Code of Ethics for Social Workers. Washington, DC: NASW; International Federation of Social Workers and International Association of Schools of Social Work. (2004). Ethics in Social Work, Statement of Principles. Retrieved January 2, 2008 from <http://www.ifsw.org>

xizmatlar) esa xuddi shu obyektiv sharoitlar ta'sirida yuzaga kelsalar-da, shu bilan birga, siyosiy va boshqa ijtimoiy institutlar tomonidan, uning ustqurmaviy jihatidan shakllantiriladi.

Obyekt(vujudga kelgan muammo)larning xarakterli xususiyati shundan iboratki, obyektlar vujudga kelgan muammolardan kelib chiqib, hal etish kerak bo'lgan masalalar darajasi bilan aniqlanadi. Subyektlar (ijtimoiy xizmatlar) esa ana shu asosda shakllanadi, tashkil topadi. Ijtimoiy ishning tarkibiy qismlari "obyektlar-subyektlar" nisbatida qarab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy ish subyektlari tavsifini uning barcha jihatlarini hisobga olgan holda, xususan, amaliy va ilmiy hamda o'quv predmeti sifatida qarab chiqish lozim. Chunki ular ijtimoiy hayot fenomenining bir-biri bilan zich bog'langan va bir-biri bilan aloqador faoliyat turlari hisoblanadi.

Obyektni subyekga, uning predmetli-amaliy faoliyatini bilish deb izohlash mumkin. U obyektiv voqeylikka shunchaki o'xshash emas, balki subyekt bilan o'zaro aloqa va ta'sir qiluvchi qismidir.

Subyekt – predmetli-amaliy faoliyat va bilishning ifodalovchisi (individ, ijtimoiy guruh) bo'lib obyektga qaratilgan faollik manbaidir.

Ijtimoiy ishda obyektlar va subyektlarni tushunishda 3 ta muhim bo'lgan jihatni ta'kidlash lozim:

birinchidan, ularning o'zaro farqlari;

ikkinchidan, ularning organik o'zaro aloqasi va ta'siri;

uchinchidan, ularning joy almashish imkoniyatlari.

"Ob'ekt" hamda "sub'ekt" tushunchalari o'zaro bog'liqlikda bo'lishi mumkinligini ham nazarda tutish kerak. Obyektli-subyektli munosabatlar ijtimoiy ishni asosan amaliy faoliyat sifatida tavsiflaydi.

Ijtimoiy ishga kirishni fan sifatida o'rganishimizda obyektli-predmetli munosabatlar bilan ish ko'ramiz. Agar obyekt ijtimoiy ishning amaliy muayyan bir turi sifatida qabul qilinsa, predmeti esa shu obyektning (mijoz-individ, oila, jamoa, ijtimoiy guruh) tomonlarini tashkil etadi. Ta'bir joiz bo'lsa, buni ijtimoiy ish qonuniyatlari deb ham hisoblashimiz mumkin.

Ijtimoiy ishga kirish o'quv fani sifatida (aniqrog'i o'quv jarayonida) tahlil qilinganda, tinglovchilar, talabalar obyekt, subyektlar esa – o'qituvchilar, tarbiyachilar hisoblanadi. Shu bilan birga, bu yerda obyekt-subyekt munosabatlari haqida fikr yuritganda, ayniqsa (tinglovchilar) talabalar mustaqil ilmiy tadqiqot va boshqa faoliyati (shu jumladan amaliy) jonli misol bo'la oladi.

Ijtimoiy ishning obyektini keng ma'noda izohlanganda barcha odamlar hisoblanadi. Bu aholining barcha qatlamlari va guruhlarining hayotiy faoliyati ko'p jihatdan jamiyat taraqqiyotining darajasi, ijtimoiy sohaning ahvoli, ijtimoiy siyosatning mazmuni, uni amalga oshirish imkoniyatlari bilan aniqlanadigan shart-sharoitlarga bog'liqdir. Umuman, aholini ijtimoiy himoya instituti doirasida ijtimoiy ish obyektini va subyektini masalasi yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Bu esa ijtimoiy siyosatni yanada oydinlashtiradi. Chunki har bir inson o'z hayotining har qanday davrida o'zining istak, ehtiyojlari, hatto qiziqishlarini to'laroq qondirilishiga intilishini ham nazarda tutish kerak. Shu bilan birga, odam hayot faoliyatining har bir sohasida istak-ehtiyoji bir xil qondirilmasligi mumkin. Oddiy qilib aytganda, har bir inson u yoki bu darajada jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishga, yordamga, himoyaga muhtoj bo'lishligini anglatadi.

Aholi turli xil tabaqa, qatlamlarga mansub bo'lib ularning ba'zilar hayotning qiyin, murakkab vaziyatiga duch kelganda o'zining ijtimoiy muammolarini hal etolmaydigan darajada bo'lishi mumkin. Ijtimoiy huquq aynan aholining ana shu guruhlari, qatlamlariga alohida e'tiborni qaratishni nazarda tutadi.

Umuman, "Ijtimoiy ishga kirish" fanida tabaqalashtirilgan yondashuv, ya'ni ularni tasniflash, guruhlashtirish quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin:

1. Sog'lig'i tufayli hayotiy muammolarini mustaqil hal eta olmaydiganlar guruhi. Bularga nogironlar yoki imkoniyati cheklangan kishilar (katta yoshdagilar, bolalar), radiatsiya ta'siriga uchragan shaxslar, nogiron farzandlari bo'lgan oilalar, psixologik tanglik, psixologik qattiq hayajonga tushib qolgan, o'z joniga qasd qilishga moyil katta-kichik yoshdagilar va hatto bolalar.

2. Ekstremal-eng past yoki eng yuqori darajadagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadigan sharoitga tushib qolgan odamlar guruhi. Bu guruhga Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslar, jahon urushi davrida front ortida ishlagan kishilar (ularning iqtisodiy ahvoli keksalik va sog'ligining yomonligi, ehtiyojmandligi bilan izohlanadi), turli konfliktlarda va tinchlik davrida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning bevalari, bolalari.

3. Keksalik nafaqa yoshiga yetib ishdan ketganligi tufayli hayotning qiyin vaziyatiga tushib qolganlar-yolg'iz kishilar, pensionerlar, himoyaga muhtoj oilalar;

4. Deviant xulq - atvorining turli shakllari va turlari bilan bog'liq guruhlar. Bu toifaga:

- deviant xulqli bolalar va o'smirlar;
- oilada shafqatsiz munosabat va zo'ravonlikka uchragan bolalar;
- sog'ligi va jismoniy va aqliy o'sishga ta'sir etgan sharoitlarda yashaydiganlar;
- spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarini iste'mol qiluvchi oila a'zolari.

5. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar. Ya'ni:

- ota-onasiz, qarovchisiz qolgan yetim bolalar;
- daromadi past bo'lgan-kambag'al oilalar;
- ko'p bolali oilalar;
- balog'at yoshiga yetmagan ko'p bolali oilalar;
- yosh oilalar;
- nikohi buzilgan, ajralgan, yolg'iz oilalar;
- noxush psixologik vaziyatga tushgan oilalar;
- o'zaro ziddiyat(konflikt)ga tushib qolgan oilalar;
- shuningdek, ota-onalari pedagogik jihatdan zaif bo'lgan oilalarni kiritish mumkin.

6. Bolalarning favqulodda vaziyatga tushib qolganlar holati(yetimlik, sayoqlik va turli ofat yoki texnogen halokatga uchragan va hokazo)da. Bu guruhga quyidagilar kiradi:

- bolalar uylari, maktab-internatlarni bitirib mustaqil hayotga yo'l olganlar bo'lib, ular iqtisodiy mustaqillik va ijtimoiy yetuklikka

yetishmaganlar;

-yetim qolgan yoki ota-onaning qarovisiz qolgan bolalar;

-nazoratsiz qolgan bolalar va o'smirlar.

7. Darbadarlik, boshpanasiz qolganlar. Bu guruhga aniq yashash joyi bo'lmagan odamlar, migratsiya tufayli ro'yxatdan o'tgan qochoqlar, majburan yashash joyidan ko'chib o'tganlar.

8. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarning ijtimoiy huquqi bilan bog'liq holatlarga tegishli bo'lganlar guruhi.

Yuqorida keltirilgan guruhlariga ajratish yoki bo'lish yagona holat emas. Ko'rsatilgan guruhlarni ehtimol yanada aniqroq guruhlariga bo'lish yoki, aksincha, ancha kengroq kategoriyalarga ajratish mumkin—bu esa ijtimoiy ish kasbi mutaxassislarining maxsus yoki tanlov o'quv kurslarining maqsadi va vazifalariga, amaliyot jarayonini o'tash bilan bog'liq masalalarni hal etishga uzviy bog'liqdir.

Ijtimoiy ishga kirish o'quv fanining obyektlari oldida turgan u yoki bu masalalarni yechishga qaratilgan kishilar, muassasalar, tashkilotlar, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy ishning subyektlari ekanligini inobatga olgan holda, jumladan, ijtimoiy ishning tarkibiy qismini e'tiborga olib, turli asos bo'yicha quyidagicha darajalash (differensiya qilish) mumkin: ijtimoiy ish kasbi mutaxassisining amaliy faoliyati, ilmiy va o'quv jarayoni (ijtimoiy ishdagi o'quv fanlari).

“Ijtimoiy ishga kirish” o'quv fanining subyektlari deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

1. Davlat o'zining turli darajadagi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati ko'rinishdagi tuzilmalari bilan ijtimoiy ish faoliyati bilan yuritadi. Bu tuzilmalarda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, shuningdek, hududiy darajadagi ijtimoiy ish boshqarish organlari (tumanlar, shaharlar, viloyatlar, respublika tuzilmalarida ijtimoiy himoya organlari) mahalliy organlar alohida o'rin tutadi.

2. Turli ijtimoiy xizmat nodavlat-notijorat tashkilotlar; oilalar va bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatishning hududiy markazlari; balog'atga yetmaganlar uchun ijtimoiy tiklash (reabilitatsion) markazlari; ota-ona qarovisiz qolgan bolalarga yordam ko'rsatish markazlari; imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun reabilitatsion markazlar; bolalar

va o'smirlar uchun ijtimoiy boshpanalar; aholiga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish markazlari; telefon orqali ekstrim (shoshilinch) yordam berish markazlari va boshqalari.

3. Davlat korxonalari, tashkilotlari, muassasalari, oliy ta'lim muassasalari va hokazolarning ma'muriyatlari va ularning bo'limlari.

4. Jamoat, xayriya va boshqa tashkilotlar, muassasalar: kasaba uyushmalari, bolalar fondining Qizil yarim oy (Qizil xoch) jamiyatining bo'limlari, xususiy ijtimoiy xizmatlar, tashkilotlar va hokazolar.

5. Amaliy ijtimoiy ish bilan professional tarzda yoki jamoatchilik yo'li bilan shug'ullanuvchi kishilar. Haqiqatda ular ijtimoiy ishning ko'rsatilgan subyektlarining ikki xil vakillaridir. Bunda ularni ikki guruhga ajratish mumkin: tashkilotchi-boshqaruvchilar va, biz yuqorida ko'rib chiqqan, ijtimoiy ishning obyektlariga bevosita yordam ko'rsatuvchi, madad ko'rsatuvchi mijozlarni himoya bilan ta'minlovchi ijrochilar, amaliy ijtimoiy ish xodimlari. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda jahonda 500 mingga yaqin professional ijtimoiy ish xodimlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ijtimoiy ish xodimlari alohida guruh bo'lib, ular aniq professional va ma'muriy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lishlari zarur.

6. O'qituvchilar, shuningdek, bilimlar, ko'nikmalar, mahoratlarini mustahkamlashga yordam beruvchilar: talabalar amaliyotining rahbarlari, murabbiylar, amaliy ijtimoiy ish xodimlari va ijtimoiy ish sohasining turli tashkilotlari, muassasalari, korxonalarida talabalar (tinglovchilar)ning amaliyot o'tashlariga yordam beruvchi boshqa xodimlar.

7. Ijtimoiy ishni tadqiq etuvchilar: ilmiy xodimlar turli usullarni qo'llagan holda ijtimoiy ishning holatini tahlil qiladilar, ilmiy dasturlar ishlab chiqadilar, shu sohada mavjud bo'lgan va paydo bo'layotgan yo'nalishlarni qayd etadilar, ijtimoiy ishning muammolari bo'yicha ilmiy hisobotlar, darslik, o'quv qo'llanma, kitoblar, maqolalar chop etadilar. Bu jarayonda mamlakatning ilg'or oliy ta'lim muassasalari kafedralari, laboratoriya xonalari, ilmiy muassasalari, ijtimoiy ish sohasi muammolari bo'yicha ilmiy dissertatsiyalarini himoya qilish bo'yicha ilmiy kengashlar muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy ish kundalik muammolarni hal qilishda yordam berishgagina emas, balki ehtiyojmandlarda qiyinchiliklarni yengib o'tish xususiyatlarini va o'ziga-o'zi yordam berish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan ham filantropiya, xayr-saxovat ko'rsatish jamg'armalari va faoliyatning shunga o'xshash boshqa turlaridan farq qiladi. Buni istalgan hayotiy vaziyatda odamni o'z muammolarini o'zi faol hal qilishga o'rgatish deb aytish mumkin.

Zamonaviy jamiyat misli ko'rilmagan texnik yuksalayotgan hozirgi davrda odam boshqarmaydigan axborot texnologiyalari joriy etilmoqda, intellektual mulk(robot)lar sohiblari, aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimiga singib ketadigan ishchi kuchi ajralib chiqmoqda. Taxminiy hisoblarga ko'ra, hozirgi vaqtda AQSHda yollanma ishchi bo'lib ishlaydiganlarning deyarli 15 foizi oila, ta'lim, sog'liqni saqlash, qariyalar, ruhiy kasallar, bolalarga yordam berish singari amaliy ishlarda, axloq tuzatish muassasalarida ish bilan ta'minlangan⁷.

Bu ijtimoiy ishga kirish ixtisosligiga eng umumiy yondashishdir. U tegishli sohadagi xodim turli sohalarda zarur bilimga ega bo'lishini talab qiladi. U yordam so'rab murojaat qiladigan odamlar haqida tasavvurga ega bo'lishi, foydalanilishi mumkin bo'lgan tashkilotlar va muassasalarni, amaldagi milliy qonunchilikni, moliyalashtirish manbalarini, ushbu sohada faoliyat olib boradigan boshqa mutaxassislar faoliyatini va bunday holatlarda ko'rsatiladigan xizmatlarni bilishi kerak.

Ijtimoiy ish xodimlari professional kasb xodimlari sifatida keng doiradagi muammolarga duch kelmoqda. Alkogolizm, mulkchilik huquqlarining buzilishi, bolalarga zo'ravonlik (yomon muomalada bo'lish), oilalar inqirozi, ruhiy va jismoniy kasalliklar, jamiyatdan begonalashish shular jumlasidandir. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun ijtimoiy ish xodimlaridan bugungi zamon chuqur va maxsus darajadagi oliy ta'lim tayyorgarligini talab qiladi. Ijtimoiy ish xodimlari tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'libgina qolmay, balki kasbga doir

⁷ Русин Т. Профессия социального работника в США. В кн.: Гендерный калейдоскоп. - М.: Академия, 2002. С. 504-505.

axloqiy normalar va tamoyillarga rioya qilishga shaxsan tayyor bo‘lishlari zarur.

Bularning barchasi bo‘lg‘usi ijtimoiy ish xodimlarining bevosita faoliyatida zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga erishishlari uchun hamda ishlayotgan ijtimoiy ish xodilarining malakasini oshirishi uchun oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida ta‘lim olishari va o‘qitilishida qabul qilish kvotalari sonini ko‘paytirishni talab qiladi.

Ijtimoiy ta‘minot tushunchasi va uning ijtimoiy ish bilan aloqadorligi. Ijtimoiy ta‘minot muayyan holatlar (yuridik faktlar) yuzaga kelganda aholining barcha qatlamlariga davlat byudjeti va maxsus yoki turli byudjetdan tashqari fondlardan beriladigan moddiy yordamlar hamda natural holda ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlardan iborat. Jahon tajribasida aholining zaif qatlamlari-keksalar, imkoniyati cheklangan insonlar, inqiroz holatidagi oilalar, qiyin hayotiy muammolarga duch kelgan insonlar, barcha ehtiyojmand aholi qatlamlariga, shu jumladan, bolalarga yordamni malakali mutaxassislar – ijtimoiy ish xodimlari tashkil etadilar va amalga oshiradilar.

Ijtimoiy ish xodimlari mijozlarni o‘rab turgan muhitni tushunish, qaror qabul qilish, qaror mas‘uliyatini anglash va tashkilotchilik hamda targ‘ibot orqali ularning hayotiy vaziyatlariga ta‘sir qilish maqsadida ularning o‘z ichki resurslarini rivojlantirishga harakat qilishadi. Ijtimoiy ish xodimlari, shuningdek, jamiyatda ijtimoiy adolatni ta‘minlashga harakat qilishadi. Shu bois, ijtimoiy ish sohasida ijtimoiy adolat alohida o‘rin egallaydi. So‘nggi vaqtlarda ijtimoiy ish alohida e‘tibor qaratilgan inson huquqlari konsepsiyasi nuqtayi nazaridan tahlil etilishi kuchaymoqda. Darhaqiqat, eslatish joizki, “ijtimoiy himoya” atamasi birinchi marta 1935 - yilda AQSHning “Ijtimoiy xavfsizlik bo‘yicha Qonun”deb nomlangan huquqiy hujjatida qo‘llanilgan edi.

Insonlar uchun zamonaviy ish kasbiga ega bo‘lish ijtimoiy jihatdan muhim bo‘lgan professional kasb sohasi bo‘lib, u jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta‘minlash vazifasini bajaradi, shuningdek davlatning zamonaviy ijtimoiy siyosatini amalga oshirishini, ehtiyojmand aholi qatlamlariga ijtimoiy xizmatlarning sifatli va manzilliligini ta‘minlash

uchun xizmat qiladi. Aynan shu fan, "Ijtimoiy ishga kirish" fani mavzularini o'rganishdan ko'zlanadigan maqsad:

-jamiyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy masalalarning mohiyati va xususiyatlarini bilish;

-davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlarini tushunish;

-ijtimoiy ishning o'ziga xos faoliyat turi sifatidagi xususiyatlarini bilish;

-ijtimoiy ishning etik me'yorlari va qadriyatlarini tushunish;

-ijtimoiy ish nazariyalarini ijtimoiy ishchi tomonidan amaliy faoliyatga tatbiq qilish orqali bilish;

-ijtimoiy ishda tadqiqot metodlari va ular bilan bog'liq demografik malakalar bilan tanishtirishdan iboratdir.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib kursning vazifalari:

-talabalarni ijtimoiy ishning professional faoliyat sifatidagi mohiyati, uning obyekti va predmeti, asosiy kategoriyalarini bilishi zarurligi;

-ijtimoiy ishchining rollari va vazifalari, etikasi tamoyillarini tushunishi;

-ijtimoiy ishning asosiy metodlari va nazariyalarini o'zlashtirishdan iborat ekanligini tushunish kabilar belgilanadi.

Ijtimoiy ta'minot tushunchasi va uning ijtimoiy ish bilan aloqadorligini uning o'quv fani sifatida belgilanishida ko'rinadi. Zero, ijtimoiy ish va ta'minot, ijtimoiy himoyalash tushunchalarining mazmuni turlicha talqin qilinadi. Bugungi kunda asosan ijtimoiy ish faoliyatini olib borish tashkilot vazifasi sifatida ko'rib chiqilsa, yana bir holatda bu soha ijtimoiy ish xodimi kasbini o'qitishdagi o'quv fani sifatida qaralmoqda. Ijtimoiy ishning eng umumiy ta'rifi-bu shaxs, guruhlar yoki hamjamiyat hayotida ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha professional faoliyat. Buyuk Britaniya ijtimoiy soha xodimlari uyushmasi ijtimoiy ishning quyidagi ta'rifini berdi: ijtimoiy ish-bu ularga ta'sir qiladigan shaxsiy, ijtimoiy va vaziyatga bog'liq qiyinchiliklarni belgilashda kishilarga va hamjamiyatlarga yordam

beradigan kasbiy faoliyatdir⁸. Demak, oydin bo‘ladiki, ijtimoiy ishning eng umumiy ma‘nosi-individ, guruh yoki jamiyat hayotidagi ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda professional faoliyat, ijtimoiy ta‘minotni amalga oshirishdir.

Ijtimoiy ta‘minot atamasi keng ma‘noda aholi farovonligiga qaratilgan barcha tashkiliy muammolarni o‘z ichiga oladi. Unga ta‘lim, sog‘liqni saqlash, rehabilitatsiya, keksalar va bolalarning ijtimoiy muhofazasi, ijtimoiy yordam, ijtimoiy sug‘urta, jismoniy va aqliy nogiron shaxslarga xizmat ko‘rsatish, psixoterapiya, maslahat berish va ijtimoiy farovonlikni ta‘minlashga qaratilgan xizmatlar kiradi. Bu borada ijtimoiy ish va ijtimoiy ta‘minot bir xil ma‘no va mazmuni anglatadi.

Ijtimoiy ta‘minot sohasidagi faoliyat bu –

- ehtiyojmand kishilarni uy-joy bilan ta‘minlanish;
- ichkilik yoki giyohvand moddalarga tobe bo‘lgan kishilar rehabilitatsiyasi;
- ruhiy muammoli shaxslar bilan ishlash;
- yolg‘iz keksalar hayoti sifatini yaxshilash;
- jismoniy yoki aqliy nuqsonli shaxslarni rehabilitatsiya qilish maqsadida professional – texnik xizmatlar ko‘rsatish;
- kam ta‘minlangan oilalarning moliyaviy ehtiyojlarini yaxshilashga yordam berish;
- jinoiy xatti-harakat qilgan shaxslarning ijtimoiy hayotga moslashishi va rehabilitatsiyasini amalga oshirish;
- kamsitish va zo‘ravonlikning barcha shakllariga barham berish.

Shunday qilib, ijtimoiy ta‘minot – bu fuqarolar ayrim toifalarini davlat byudjeti hamda byudjetdan tashqari maxsus jamg‘armalar mablag‘lari hisobidan davlatning moddiy ta‘minlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy yordam ko‘rsatish shakli. Ijtimoiy himoya g‘oyasining asosini shunday qarashlar tashkil etadiki, butun insoniyatni ijtimoiy himoyalash

⁸ Ганиева М.Х Ижтимоий иш асослари. Методик қўлланма. – Тошкент, РБИММ нашри, 2010. – 30 бет.

tizimidagi ko'maklarni va madadlarni tashkil etishni jamiyat a'zolarining ma'naviy burchi sifatida qabul qiladi.

Ijtimoiy ta'minot tushunchasi va uning ijtimoiy ish tushunchalarining farqi shundaki, ijtimoiy ish - bu kasb, fan va ta'lim fani bo'lsa, ijtimoiy ta'minot - qonunchilik tomonidan fuqarolarni keksalikda, kasallikda, to'liq yoki qisman mehnatga layoqatsizlikda, boquvchisini yo'qotganda, shunigdek, ko'p farzandli oilalarga, ehtiyojmand aholiga moddiy ta'minot va xizmat ko'rsatish tizimidir.

Ijtimoiy ishda ehtiyojmand aholi ta'minotini amalga oshirishning asosiy maqsadi shundaki, u jamiyatdagi barcha insonlarning ehtiyojlarini qondiradi. Ijtimoiy ta'minot barcha demografik qatlam va yosh guruhlarining hayot farovonligini oshiradi. Ijtimoiy ta'minotni amalga oshirish faoliyati zarur ijtimoiy institut hisoblanadi, chunki hozirgi kunning asosiy talabi kishilarni davlatdan rozi bo'lishlarini va ular farovonligini ta'minlashni talab qiladi. Har bir inson ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog'liq bo'lmagan sharoitlarga ko'ra tirikchilik uchun mablag' bo'lmay qolgan boshqa hollarda ta'minlanish huquqiga ega (Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi 25-modda).

Ijtimoiy ish xodimlari Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (1948-yil 10-dekabr) to'g'risida bilimga ega bo'lishlari lozim. Biroq, ushbu hujjatlardan tashqari, ijtimoiy ish xodimlariga o'z kasblarining inson huquqlari bilan aloqadorligini yaxshiroq tushunishlariga ko'maklashuvchi boshqa hujjatlar ham bor.

Ijtimoiy ish xodimlari Milliy assotsiatsiyasi tomonidan qabul qilingan Axloq kodeksi shunday hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjatning ko'p bo'limlari induvidial xulq-atvorga, masalan, konfidentsiallikka amal qilish, mijoz bilan shaxsiy aloqadorlik tamoyili va boshqalarga taalluqli bo'lsa, boshqa bo'limlari inson huquqlarini amalga oshirishga tegishli. AQSH ijtimoiy ish xodimlarining katta qismi mazkur Kodeksdan qo'llanma sifatida foydalanadilar. Ushbu Kodeks ularga o'z kasblarini inson huquqlari bilan bog'lab faoliyat ko'rsatishlariga yordam beradi.

Respublikamizga yangi ijtimoiy ish xodimi kasbining kirib kelishi huquqiy demokratik jamiyat qurilishiga katta hissa qo‘shishi mumkin. Faqat buning uchun, birinchi navbatda, jamiyatimiz oldida bu soha bo‘yicha mutaxassis kadrlarni tayyorlash va xalqimizga bu soha bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini keng olib borish masalalari dolzarb hisoblanadi. Shu bois quyidagi glossariyni keltirishni zarur deb hisobladik:

O‘zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Glossariy
Ijtimoiy ish	Социальная работа	Social work	O‘z - o‘ziga g‘amxo‘rlik qila olmaydigan insonlarni va oilalarni, xususan, zaif qariyalarni, nogironlarni va ruhiy kasallanganlarni o‘ziga xos ravishda parvarish qilishdir.
Ijtimoiy xizmatlar	Социальные услуги	Social services	Inson kapitalini investitsiyalash, ya’ni shaxsning takror ishlab chiqarish, ma’naviy salohiyatini tiklash va kengaytirishga qaratilgan investitsiyalarni amalga oshirish.
Ijtimoiy himoya	Социальная защита	Social security	Keng ma’noda, aholining barcha qatlamlariga nisbatan qo‘llaniladigan hamda ijtimoiy xatar (risk) yuz berganda moddiy va boshqa yordam ko‘rsatishga qaratilgan chora-tadbirlar yig‘indisidan iborat. Tor ma’noda aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni ko‘zda tutadi.
Ijtimoiy himoya tizimi	Система социальной защиты	System of social security	Mehnat qobiliyatini yo‘qotib, o‘zi ishlab topa olmaydigan yoki qaramog‘ida bolalari, boqimandalarga ega bo‘lgan shaxslarga nafaqa berish tizimi.

Nazorat savollari

1. Hozirda O‘zbekistonda “Ijtimoiy ishga kirish” fanining dolzarbligi nimalarda aks etadi?
2. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta’minot tushunchalarining umumiy jihati nimada?

3. Ijtimoiy ta'minot tushunchasiga tarif bering va uning maqsadlarini tavsiflang.

4. Ijtimoiy himoyaning xalqaro tashkilotlari qaysilar?

5. Bizning jamiyatimizda ijtimoiy ta'minot sohasida qanday o'zgarishlar olib borilmoqda?

6. "Ijtimoiy ishga kirish" o'quv kursining ahamiyati nimalarda ko'zga tashlanadi?

2 - MAVZU: IJTIMOYIY ISH VA YORDAM KO‘RSATISH KASB SIFATIDA.

Reja:

- 2.1. Ijtimoiy ish ijtimoiy hodisa sifatida.**
- 2.2. Ijtimoiy ishchi faoliyatining mazmuni.**
- 2.3. Ijtimoiy ishga turdosh tashkilotlar va ularning faoliyati.**
- 2.4. Ijtimoiy soha xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilishda
Xalqaro mehnat tashkilotining o‘rni.**

Ijtimoiy ish ijtimoiy hodisa sifatida. Yurtimizda mustaqillik tufayli barcha sohada bo‘lgani kabi ijtimoiy ish sohasida ham keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Ijtimoiy ish kasbi xodimlari tomonidan ham fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidan borayotgan O‘zbekistonda inson omili eng oliy qadriyat deb baholanib, uning huquq va manfaatlarini himoyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tirof etishmoqda. Darhaqiqat, O‘zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning asosini ijtimoiy ish tashkil etadi. O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish barcha yillar davomida iqtisodiy islohotlar dasturida uzluksiz ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi, ya’ni islohotlarning barcha bosqichlarida eng muhim hisoblanadigan vazifalar qatoriga kiradi.

Mamlakatda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti barpo qilishda davlat tomonidan kuchli ijtimoiy himoya siyosati olib borilmoqda. Kuchli ijtimoiy siyosat O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘lining yetakchi tamoyillaridan biri hisoblanadi. “Fuqarolik jamiyati institutlarining yanada rivojlanishiga erishish, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning ochiq-oshkoraligi va samaradorligini taminlashda, ularning rolini kuchaytirishda “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal etish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarning davlat tuzilmalari bilan o‘zaro

munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish kabi masalalar bo'yicha huquqiy normalar ko'zda tutilgan.

Jumladan, inson huquqlarini himoyalash bo'yicha ijtimoiy ish xodimining o'rnini tadqiq etish dolzarbligi quyidagilar bilan ham izohlanadi:

Birinchiidan, qadimdan ijtimoiy soha har bir millatning o'ziga xos urf-odati, mentaliteti, qadriyatlari asosida rivojlanib kelgan. Ayniqsa, bu azaliy qadriyat sifatida xalqimiz orasida ming yillardan buyon davom etib keladi. Albatta, har bir millatning o'ziga xos turmush tarzi, qoidalari mavjud bo'lib, uning ma'naviyatining asosiy o'zagini tashkil etadi. Insoniyat jamiyati taraqqiyotida milliy qadriyatlar asosida, urf-odatlar bilan axloq-odob o'rtasidagi munosabat, bir-biriga yordam, birodarlik asosida tuzilgan bo'lib, bu turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Aynan bu kabi omillar ijtimoiy ish xodimi kasbiy - axloqiy fazilatlari sifatida e'tirof etiladi.

Ikkinchiidan, jahon xalqlari global muammolarini hisobga olib, ko'pchilik fikrini qo'llab-quvvatlagan holda ushbu ijtimoiy ish soha hujjatlarida huquqiy normalar o'z ifodasini va mazmun mohiyatini topmoqligi zaruriy majburiyat deb tan olinadi. Ijtimoiy ish xodimlari Milliy assotsiatsiyasi ijtimoiy ish xodimi kasbini "insonlar, guruhlar yoki hamjamiyatlarga ijtimoiy faoliyatlari uchun imkoniyatlarni oshirish yoki tiklash masalasida va ushbu maqsadlarni bajarishda imkon beruvchi ijtimoiy sharoitlarni yaratishda ularga yordam ko'rsatuvchi ijtimoiy faoliyat" deb ta'riflaganlar.⁹ Ijtimoiy xizmat xodimining kasbi jahon andozalariga xos kasb bo'lib, ayniqsa, bu kasb rivojlangan mamlakatlarda o'zining ifodaviy ko'rinishiga ega bo'lgan zaruriy kasb sanaladi. Chunki har bir yordamga muhtoj inson kimdandir madad olishga chora izlaydi. Ana shu paytda ijtimoiy xizmat xodimining faoliyati zarur sanalib, insoniylik nuqtayi nazaridan yondoshiladi va yordamga muhtoj insonlarga o'z ijtimoiy yordamini ko'rsatadi.

⁹ Ким Л., Исаева Д.,Таджиева С., Собирова Д. "Болалар ва оилалар билан ижтимоий иш амалиёти" курси бўйича хрестоматия. – Тошкент, - JAHON PRINT нашриёти. 2012йил. 6-бет.

Uchinchidan, insonparvarlik tuyg'ularini o'zida mujassam etgan o'zbek xalqi urf-odatlaridagi ko'rinishlar va unsurlar ijtimoiy ishning ma'lum bir yo'nalishini va tamoyillarini aks ettiradi, bugungi kunning talablariga javob beruvchi tamoyillarga uyg'unlashib ketadi. Ajdodlarimiz o'z nasllarini umumbashariy tuyg'ular, Sharq falsafasi, milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiya qilib kelganlar. Ota-bobolarimiz asrlar davomida tilimizni, dinimizni va milliy urf-odatlarimizni asrab-avaylab, ana shu ma'naviy-axloqiy mezonlar asosida sog'lom avlodni voyaga etkazganlar. Bu bilan ular millat taraqqiyotiga, davlat mustahkamligiga va mamlakatning sivilizatsiya sari yo'l tutishiga zamin yaratganlar. Yuqorida ta'kidlangan ishlarning bardavomligi ijtimoiy ishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ijtimoiy ish kasbi ijtimoiy o'zgarishlarga, insoniy munosabatlardagi muammolarni hal etishga, shuningdek, odamlarning turmush farovonligini yaxshilash uchun imkoniyatlar va inson huquqlarini himoya qilishda erkinliklarni in'om etishga yordam beradi. Inson xulq-atvori va ijtimoiy tizimlar nazariyasidan foydalangan holda ijtimoiy ish atrof-muhit bilan hamkorlik qiluvchi odamlar mavjud bo'lgan joylarda yuzaga keladi.

To'rtinchidan, inson huquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillari ijtimoiy ishning negizini tashkil qiladi. Ushbu ta'rif va izohlar keng axloqiy tamoyillar va inson huquqlari tamoyillari asosida ishlab chiqilgandir. Bugungi kunda ham inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, har tomonlama sog'lom, barkamol avlodnivoyaga yetkazish davr talabi sifatida jamiyatimiz diqqat markazida turibdi. Buning uchun, birinchi navbatda, bolalar huquqlarini himoyalash, ularga nisbatan ko'rsatiladigan zulm, zo'ravonliklarning oldini olish muhim ahammyat kasb etishini misol tariqasida ko'rish mumkin. Chunki insonni shakllanishining bosh bo'g'ini bo'lgan bolalik davri katta ijtimoiy ahamiyatga egadir.

Ijtimoiy siyosat tushunchasining mazmun - mohiyatiga e'tibor qaratsak, davlatning ijtimoiy siyosati mavjud aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash, aholi bandligi va mehnatga oid munosabatlarni tartibga solish, ijtimoiy


demografik guruh sifatida yoshlar huquqlari kafolatlarini ta'minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, aholi turmush farovonligini ko'tarish, ta'lim va fan sohasidagi samarali islohotlarni amalga oshirish kabi jamiyat hayotidagi ustuvor vazifalarni qamrab oladi. Shu tufayli ijtimoiy ish ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lishini davlatning "Ijtimoiy siyosati"da ham o'zini ko'rsatadi. "Ijtimoiy siyosat"-davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ijtimoiy sohadagi barcha jarayonlarni tartibga soladi, shuningdek, inson omilining to'la namoyon bo'lishiga yordam beradigan va mujassam qiladigan jarayon. Demak, ijtimoiy siyosat keng ma'noda jamiyatning siyosiy tizimi, siyosiy hayoti, davlat hokimiyati, uning ichki va tashqi faoliyati, siyosiy tashkilotlar va harakatlarning hokimiyatga munosabati, uni boshqarishda siyosiy manfaatlarni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlarini o'zida ifoda etadi. Bugungi kunda jamiyatimiz ijtimoiy hayotida tobora o'z o'rnini topib borayotgan ijtimoiy ish kasbi egalari yurtimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatni tashkil etuvchi asosiy kuch ekanligi yaqqol sezilmoqda. Natijada ijtimoiy ish ijtimoiy hodisa sifatida o'z o'rnini mustahkamlamoqda. Shuningdek bugungi kunning dolzarb masalasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 - yil 7 - fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'lgan "Harakatlar strategiyasi"dagi to'rtinchi yo'nalish - ijtimoiy sohalarni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida belgilab berilgan vazifalar yaqqol misol bo'la oladi.

Ijtimoiy ishchi faoliyatining mazmuni haqida fikr yuritganimizda qadimdan ijtimoiy soha har bir millatning o'ziga xos urf-odati, mentaliteti, qadriyatlari asosida rivojlanib kelganligiga e'tibor qaratishimiz lozim. Ayniqsa, bu azaliy qadriyat sifatida bizning xalqimiz orasida ming yillardan buyon davom etib keladi. Albatta, har bir millatning o'ziga xos turmush tarzi, qoidalari mavjud bo'lib, uning ma'naviyatining asosiy o'zagini tashkil etadi. Insoniyat jamiyati taraqqiyotida milliy qadriyatlar asosida, urf-odatlar bilan axloq-odob o'rtasidagi munosabat, bir-biriga yordam, birodarlik asosida tuzilgan

bo‘lib, bu turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Aynan bu kabi omillar ijtimoiy ish xodimi kasbiy axloqiy fazilatlari sifatida e‘tirof etiladi.

Ijtimoiy ishchi faoliyatida uning mazmuni keng ma’nodan - ijtimoiy hodisa sifatida ijtimoiy yordamning o‘ziga xos modelidir. Uni jamiyat aniq bir tarixiy davrda ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanishning xususiyatlariga mos ravishda ro‘yobga chiqaradi¹⁰. O‘zbekistonda insonparvarlik, mehr muruvvatlilik, xayr saxovat ko‘rsatish tarixan azal azaldan shakllanib kelgan bo‘lib, agar bularni misol tariqasida olsak, ijtimoiy ish kasbi biz uchun yangi soha emasligini ko‘rishimiz mumkin. Demak, keng ma’nodan ijtimoiy ishning obyektini barcha insonlar hisoblanadi. Bu aholining barcha qatlamlari va guruhlarining hayotiy faoliyati ko‘p jihatdan jamiyat taraqqiyotining darajasi, ijtimoiy sohaning ahvoli, ijtimoiy siyosatning mazmuni, uni amalga oshirish imkoniyatlari bilan aniqlanadigan shart-sharoitlarga bog‘liqdir¹¹, ushbu shart-sharoitlarni rivojlantirish, modernizatsiyalash va takomillashtirish O‘zbekistonni yanada rivojlantirishga qaratilgan “Harakatlar strategiyasi”da o‘z aksini topgan. Biz buni quyidagi misolda kuzatishimiz mumkin.

Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari:



¹⁰ Ғаниева М.Х. ва муаллифлар жамоаси. Ижтимоий иш этикаси. Дарслик. – Тошкент, “Fan va texnologiya” нашриёти. 2015. - Б.-11

¹¹ Ғаниева М.Х. ва муаллифлар жамоаси. Ижтимоий иш этикаси. Дарслик. - Тошкент. “Fan va texnologiya” нашриёти. 2015. - Б.12.

Ijtimoiy ishchi faoliyatining mazmunini tor ma'noda ham kuzatamiz. Ijtimoiy ish tor ma'noda - ijtimoiy zaruriy faoliyat bo'lib, insonlar, ijtimoiy guruhlariga shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishida yordam berishga qaratilgan faoliyatdir¹². Ya'ni tor ma'noda ijtimoiy ishning obyektlari :

- sog'lig'i tufayli xayotiy muammolarni mustaqil hal eta olmaydiganlar guruhi;
- ekstremal-eng past yoki eng yuqori darajadagi ko'rchatkichlar bilan xususiyatlanadigan sharoitga tushib qolgan odamlar guruhi;
- keksalik nafaqa yoshiga yetib ishdan ketganligi tufayli hayotning qiyin vaziyatiga tushib qolganlar;
- deviant xulq - atvorning turli shakllari va turlari bilan bog'liq guruhlar;
- omadsiz, ishi yurishmay qolgan toifadagi oilalar;
- bolalarning favquloddagi ahvoli (yetimlik, sayoqlik, daydilik va hokazo);
- darbadarlik, boshpanasiz qolganlar va bundan boshqa ko'plab guruhlariga bo'lish mumkin¹³.

Ijtimoiy ishchi faoliyatining mazmunini yoritishda jahon xalqlari global muammolarini hisobga olib, bu sohadagi ijtimoiy ish kasbi mutaxassislarining fikrini qo'llab-quvvatlagan holda ushbu ijtimoiy ish sohasi hujjatlarida huquqiy normalar o'z ifodasini va mazmun-mohiyatini topmoqligi bugungi sharoitda zaruriy majburiyat deb tan olinadi. Bejiz emaski, ijtimoiy ish xodimlari Milliy assotsiatsiyasi ijtimoiy ish xodimi kasbini "insonlar, guruhlar yoki hamjamiyatlarga ijtimoiy faoliyatlari uchun imkoniyatlarni oshirish yoki tiklash masalasida va ushbu maqsadlarni bajarishda imkon beruvchi ijtimoiy

¹² Ганиева М.Х. ва муаллифлар жамоаси. Ижтимоий иш этикаси. Дарслик. - Тошкент. "Fan va texnologiya" нашриёти. 2015. - Б.11

¹³ Ганиева М.Х. ва муаллифлар жамоаси. Ижтимоий иш этикаси. Дарслик. - Тошкент. "Fan va texnologiya" нашриёти. 2015. - Б. 13

sharoitlarni yaratishda ularga yordam ko'rsatuvchi ijtimoiy faoliyat" deb ta'riflaganlar¹⁴.

Ijtimoiy xizmat xodimining kasbi jahon andozalariga xos kasb bo'lib, ayniqsa, bu kasb rivojlangan mamlakatlarda o'zining ifodaviy ko'rinishiga ega bo'lgan zaruriy kasb sanaladi. Chunki har bir yordamga muhtoj inson kimdandir madad olishga chora izlaydi. Ana shu paytda ijtimoiy xizmat xodimining faoliyati zaruriy sanalib, insoniylik nuqtayi nazaridan yondoshiladi va yordamga muhtoj insonlarga o'z ijtimoiy yordamini ko'rsatadi.

Ijtimoiy ishchi faoliyatining mazmunini ochib berish jarayonida seziladiki, O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardayoq kuchli siyosatni amalga oshirdi. Jumladan, kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, qariyalar, yetim-yesirlarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berila boshladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmonlari, o'nlab huquqiy-me'yoriy hujjatlarning qabul qilinganligi, shuningdek, bir qator yillarning "Inson manfaatlari yili", "Oila yili", "Ayollar yili", "Onalar va bolalar yili", "Qariyalarni qadrlash yili", "Mehr va muruvvat yili", "Ijtimoiy himoya yili", "Xalq bilan muloqat va inson manfaatlari yili" deb e'lon qilinishi mamlakatda ijtimoiy sohaning bir yo'nalishi bo'lgan "aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish"ga qanchalik katta e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi. Ayni paytda O'zbekistonda aholining muhtoj qatlamlariga xizmat qiluvchi ijtimoiy ta'minot bo'limlari, bolalar uchun mehribonlik uylari va ehtiyojmandlar uchun "Saxovat uylari" yoki nogironlar uylari, turli jamg'armalar hamda aholi keng qatlamlari uchun ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa ko'plab davlat va nodavlat tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, boshqa mamlakatlarda uchramaydigan O'zbekistonda o'ziga xos institut – mahalla tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmat shakllari ham mavjud. "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari

¹⁴Ким Л., Исаева Д.,Таджиева С., Собирова Д."Болалар ва оилалар билан ижтимоий иш амалиёти" курси бўйича хрестоматия.Т.- ЈАҲОН PRINT нашриёти.2012-йил.6-бет

to'g'risida"gi Prezident Farmoni (2020y.18.02.PF-5938-son,) qabul qilindi. Farmonga muvofiq, har bir mahallada "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyiliga asoslangan yangi tizim joriy etildi. Farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) bo'linmalari tashkil etildi. Jamiyatda "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyilining to'laqonli va samarali joriy etilishida har tomonlama ko'maklashish, oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan yaqin hamkorligini o'rnatish vazirlikning asosiy vazifa va faoliyat yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Farmonga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi hamda "Mahalla" o'quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot markazi negizida "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilib, vazirlik tuzilmasiga o'tkazildi. Ma'lumot uchun, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi rahbar organlarining ushbu tashkilotlarni tugatish haqidagi qarorlari qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamoat birlashmasi shaklidagi "Nuroniy" jamg'armasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) bo'limlarini tugatish haqidagi qarorlari qabul qilindi¹⁵.

Shunday qilib, ijtimoiy ishchi faoliyatining mazmuni quyidagilarda ko'rinadi:

- shaxslar, oilalar, guruhlar va hamjamiyatlarga yordam berish (ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy reabilitatsiya, ijtimoiy profilaktika);

¹⁵“Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Президент Фармони (ПФ-5938-сон, 2020 й.18.02.) қабул қилинди. "Халқ сўзи", 2020 йил 20 февраль. https://nrm.uz/contentf?doc=615382_&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana

- zarur ijtimoiy muhofaza va aholini himoya qilish bo'yicha turli davlat va jamoatchilik tashkilotlari hamda muassasalari faoliyatining integratsiyasiga ko'maklashish;

- ijtimoiy va psixosijtimoiy muammolarni o'rganish;

- aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlari muammolarini hal qilish bo'yicha ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, bu dasturlarning samaradorligini baholash.

Ijtimoiy ishchi faoliyatining mazmunini ochib berishdagi ijtimoiy muammo nima? Birinchi ijtimoiy muammo – bu insonlardagi mavjud hamda zarur (istalgan) ehtiyojlarini qondirish uchun sharoitlarning nomutanosibligi, ijtimoiy guruhlar, jamoatchilik hamda butun bir jamiyatning hayotini murakkablashtiruvchi va uni bartaraf etish bo'yicha jamoatchilik kuchi hamda sa'y - harakatini talab etuvchi ijtimoiy hodisa. Ikkinchi ijtimoiy muammo, jamoatchilik muammolari - insonga to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita ta'sir etuvchi masala yoki vaziyatlar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha jamoatchilik sa'y harakatini talab etuvchi murakkab va jiddiy bo'lgan muammolar. Uchinchi muammo, bu ijtimoiy muammolarning turli davrlarda, turli jamiyatlarda bir - biridan farq qilishidir.

Ijtimoiy ishchi faoliyatining mazmunini yoritishda zamonaviy ijtimoiy muammolar mavjud:

- Alkogolizm.
- Kambag'allik.
- Uysizlik.
- Ishsizlik.
- Bolalaro'rtasidagi qarovchisini yo'qotish yoki nazoratsizlik.
- O'limning yuqoriligi muammosi.
- Atrof - muhitning ifloslanishi.
- Nogironlik.
- Inflyatsiya.
- Korrupsiya.
- Migratsiya jarayonlari, mehnat migratsiyasi muammosi.
- Narkomaniya.
- Bola huquqlarining buzilishi.

- Oiladagi zo‘ravonlik.
- Tug‘ilish ko‘rsatkichining pasayib ketishi.
- Qochoqlarning va majburan ko‘chib o‘tganlarning holati.
- Jazoni o‘tayotganlar va boshqa deprivatsiyalangan insonlarning ahvoli.
 - Nogironligi mavjud bo‘lgan insonlarning muhtojlik yoki ehtiyojmandlik holati.
 - Ayollarning jamiyatdagi holati.
 - Qonunbuzarlik.
 - Voyaga etmaganlar orasida qonunbuzarlik.
 - Fohishalik.
 - Qariya insonlarning holati.
 - VICH-infeksiya, koronavirus va boshqa shu kabi kasalliklar tarqalishi.
 - Suitsid.
 - Ijtimoiy notenglik.
 - Terrorizm.
 - Traffik, odam savdosi.
 - Texnogen talofatlar xavfi.
 - Jamiyatdagi insonlar hayoti darajasi ko‘rsatkichlari.

Ijtimoiy ishga turdosh tashkilotlar va ularning faoliyati.

Ijtimoiy ishchi faoliyati odamlar bilan bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) darajada bog‘liq bo‘lgani bois, ijtimoiy ishchi o‘z kasbini tashkiliy-boshqaruv va ma‘muriy faoliyat darajasida ham amalga oshirilishi mumkin.

Ijtimoiy ishchi xodim sifatida, quyidagi tashkilotlar bilan sherikchilikda, hamkorlikda ishlashi mumkin:

- aholini ijtimoiy himoyalash tizimi tashkilot va muassasalari (Muruvvat, Sahovat uylari, ijtimoiy ta‘minot muassasalari va boshqalar);
- xalq ta‘limi (Mehribonlik uylari, Saxovat uylari, Vasiylik va homiylik organlari, umumta‘lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan

maktabgacha va maktab muassasalari, yordamchi ta'lim muassasalari va boshqalar);

- sog'liqni saqlash (oilaviy poliklinikalar, maxsus tibbiyot muassasalari, rehabilitatsion markazlar, tibbiy-pedagogik-psixologik komissiyalar va h.k.);

- hokimiyatlar huzuridagi voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar, ixtisoslashtirilgan kasbiy-texnik kollejlari, litseylar va boshqalar;

- ijtimoiy ta'minot, aholi bandligi va mehnat munosabatlarining ijtimoiy himoya bo'yicha boshqarmalarining viloyat, shahar va tuman organlari, ichki ishlar organlari;

- tuman, shahar va viloyat hokimiyatlari;

- mahalla va oila bilan ishlash boshqarmalari;

- jamoatchilik tashkilotlari va uyushmalari.

Boshqa tashkilotlar va xizmatlar bilan o'zaro harakat, aholining ijtimoiy himoyasi tizimida hamkasblar bilan hamkorlik (psixologlar, huquqshunolar, pedagog, tibbiyot xodimlari, mahalla va oila bilan ijtimoiy muhofazaga turdosh organlar xodimlari, tartibni muhofaza qilish organlari xodimlari va boshqalar bilan) jarayonida ijtimoiy ish kasbi xodimi quyidagilarga alohida e'tibor qaratadi:

- hamkasblari bilan ochiq hamkorlikda ishlaydi va ularni hurmat qiladi;

- mijoz yordamiga muhtoj bo'lgan turli tashkilotlar va muassasalar vakillari bilan aloqa o'rnatadi, o'zaro harakat qiladi va hamkorlikni olib boradi;

- jamiyatning turli institutlari ijtimoiy xizmatlar faoliyatiga jalb etilishiga va mijozlarga yordam va ko'mak beruvchi ijtimoiy xizmatlar tarmoqlarini yaratishga ko'maklashadi;

- boshqa kasb egalari va aholi tomonidan qiyin hayotiy ahvolga tushib qolgan odamni to'g'ri qabul qilishlari va tushunishlariga yordam beradi;

- mijoz bilan ishga jalb etilgan mutaxassislar bilan, maxfiylik qoidalariga rioya qilish va mijozning eng yaxshi manfaatlarini ko'zlash sharti bilan ma'lumotlar bilan almashadi;

- manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan nizoli masalalar to‘g‘risida xabar beradi;
- rahbariyat yoki tegishli mas‘uliyatli tuzilmalarga aholining turli toifalariga ijtimoiy yordam berish va ko‘maklashish jarayonida vujudga kelayotgan imkoniyatlar yoki amaliy qiyinchiliklar to‘g‘risida xabar beradi;
- ijtimoiy himoya bo‘yicha faoliyatni olib borish uchun o‘zini qobiliyatsiz yoki yetarlicha tayyor emas deb sezganda, rahbariyatga maslahat va yordam olish uchun murojaat qiladi;
- rahbariyat yoki tegishli mas‘uliyatli tashkilotlarga hamkasblari xizmat ko‘rsatish standartlarini suiiste‘mol qiladigan, xavfsiz bo‘lmagan amaliyotlar qo‘llanilishi to‘g‘risida xabar beradi.

Ijtimoiy ish faoliyati sohasiga kiritilgan tashkilotlar faoliyati va ularning mazmunan yaqinligi mavzusini yoritishda, dolzarb muammolar mavjud. Bular bir nechtani tashkil etadi. Birinchidan, hech bo‘lmaganda, 2016-yilgacha mavjud bo‘lgan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi faoliyatini qayta tiklash kerak. 2016 yil mart oyida vazirlikning ijtimoiy himoya vazifasi olib tashlangan, faqatgina mehnat masalalari qoldirilgandi, ammo bu funksiya boshqa mas‘ul organga ham berilmadi. Modomiki, xalqaro tajriba asosida, XXI -asr talablariga mos keladigan tizimni ishlab chiqishimiz kerak.

Ayni paytda O‘zbekichstonda ijtimoiy himoya masalasiga javobgar yagona organ yo‘q. Bu funksiya har xil idoralar orasida taqsimlanib ketgan. Sog‘liqni saqlash vazirligi nogironligi bo‘lgan insonlarga, “Muruvvat” va “Saxovat” uylariga qaraydi. Xalq ta‘limi vazirligi maxsus maktab internatlar, mehribonlik uylariga javobgar. Mehnat vazirligi nogironligi bo‘lganlarni mehnatga yo‘naltirish bilan shug‘ullanadi. Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi nogironlik nafaqalari bilan ishlaydi. Ijtimoiy himoya bo‘yicha yagona mas‘ul organ tashkil qilinishi va tizim bilan bog‘liq barcha vakolatlar unga berilishi kerak. Mazkur organda ijtimoiy ish

bo‘limi tashkil etilishi, ijtimoiy xodimlar tayyorlash masalasi ham ko‘rilishi dardkor¹⁶.

O‘rni kelganda ta’kidlab o‘tish joizki, dastlabki ijtimoiy ish xodimlari G‘arbiy Yevropadagi va Shimoliy Amerikadagi universitetlarida ta’lim olib boshlagan edilar, ilk ijtimoiy ish xodimlari 1903 - yilda o‘quv yurtlarini bitirganlar.

MDH mamlakatlarida 1990 - yillarda ijtimoiy ishga o‘qitish ishlari boshlangan. Masalan, Rossiyada ijtimoiy ish xodimiga o‘qitish 1991 - yildan buyon amalga oshirilmoqda, ayni vaqtda 200 dan ortiq oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy ish xodimlarini o‘qitish ishlari olib borilmoqda.

O‘zbekistonda Ijtimoiy ishga o‘qitish ishlari 2004 - yilda Toshkent davlat madaniyat institutida, 2005–yildan Farg‘ona va Samarqand davlat universitetlarida, 2010 yillardan boshlab esa O‘zbekiston Milliy universitetida boshlandi. 2015-2018 - yillarda Namangan va Guliston universitetlarida ham ijtimoiy ishga o‘qitish ishlari boshlangan.

2007 - yildan 2010 - yilga qadar O‘zbekiston respublikasi bolalarni ijtimoiy himoyalash va adaptatsiyalash markazi tizimidagi mutaxassislar uchun ijtimoiy ish bo‘yicha qayta o‘qitish kurslari tashkil qilingan.

Ijtimoiy soha xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilishda Xalqaro mehnat tashkilotining o‘rni. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish muammolari alohida mamlakatlar vakolati hisoblanmaydi. Muammoning aksariyat qismi insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi tufayli xalqaro ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bu muammolar bilan turli xalqaro tashkilotlar – Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) singari mustaqil tashkilotlar faol shug‘ullanadi.

XMT 1919 yili Birinchi jahon urushiga yakun yasalgan Versal shartnomasi deb nom olgan tinchlik bitimi tufayli tashkil topgan. Bu tashkilot 1946 - yili BMTning birinchi ixtisoslashtirilgan agentligi

¹⁶<https://kun.uz/news/2020/05/27/oqsayotgan-ijtimoiy-himoya-tizimi-xato-qayerda#0>

bo'ldi. Bugungi kunga qadar XMT tomonidan 187 ta konvensiya qabul qilingan¹⁷.

XMT ijtimoiy tinchlikni qaror toptirish va saqlash, inson huquqlarini muhofaza qilish, ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish va mehnat sohasidagi bir qator o'ziga xos masalalarni hal qilish maqsadida tashkil etilgan. U o'z faoliyati mobaynida muzokara jarayonini rivojlantirish, yuzaga keladigan ijtimoiy-mehnat muammolari va nizolarni muzokaralar, bitimlar asosida bartaraf qilish va ko'pincha mehnatning aniq muammolarini hal etish borasida katta tajribaga ega hamda beqiyos amaliy ishni amalga oshirgan. XMT ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish, sog'lom ijtimoiy-mehnat munosabatlarini qaror toptirishda zarur bo'ladigan organlar va mexanizmlarni yaratish hamda mustahkamlashda hukumatlar, tashkilotlar, xodimlar va tadbirkorlarga yordam ko'rsatadi.

XMTning bosh maqsadi - ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga, xodimlarning farovonligini oshirish va mehnat sharoitlarini yaxshilash, inson huquqlarini muhofaza qilishga yordam berishdan iborat.

Ko'zlangan maqsaddan kelib chiqib, XMTning asosiy vazifalari quyidagilar belgilangan:

– ijtimoiy-mehnat muammolarini hal etishga yo'naltirilgan siyosiy dasturlarni ishlab chiqish;

– qabul qilingan siyosatni amalga oshirish va ularga rioya etilishini nazorat qilish maqsadida konvensiya va tavsiyalar ko'rinishidagi xalqaro mehnat me'yorlarini ishlab chiqish hamda qabul qilish;

– ishtirokchi mamlakatlarga bandlikni oshirish va ishsizlikni kamaytirish muammolarini hal qilishda yordam berish;

– inson huquqlarini muhofaza qilish (mehnat qilish, birlashish huquqi, majburiy mehnatdan, kamsitishdan muhofaza qilish va boshqalar);

– kambag'allikka qarshi, xodimlarning turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy ta'minotni rivojlantirish uchun kurash;

¹⁷Ўлмасов А., А.Вахабов. Иқтисодиёт назарияси. –Тошкент: “Шарқ”, 2008. 138-б.

– mehnat shart-sharoitlarini va ishlab chiqarish muhitini yaxshilash, xavfsizlik texnikasi va mehnat gigienasi, atrof-muhitni muhofaza qilish va qayta tiklash sohasidagi dasturlarni ishlab chiqish;

– xodimlar va tadbirkorlarga tashkilotlarda ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo‘yicha hukumat bilan hamkorlikda ishlashlarida yordam berish;

– xodimlarning eng zaif guruhlarini (ayollar, yoshlar, nogironlar, keksalar, migrant-xodimlar) muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish¹⁸.

Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishning milliy tizimi har bir mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishidagi o‘ziga xosligini hisobga olgan holda XMTning me‘yorlovchi faoliyati ta‘siri ostida shakllanadi. Xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish borasida xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilingan muhim tamoyillarga quyidagilar kiradi:

– ijtimoiy muhofazaning umumiy tavsifi, ijtimoiy kafolatlarni amalga oshirishdagi imtiyozlar. Turli xalqaro hujjatlarda, xususan, XMTning 67-, 118-, 157-Konvensiyalarida kishining ijtimoiy himoyalani huquqining ta‘minlanishi qat‘iy yozib qo‘yilgan;

– aholining tegishli ijtimoiy guruhlarini qamrab oluvchi kishilar guruhi yoki mamlakat barcha aholisining ijtimoiy sug‘urta asosidagi u yoki bu ta‘minot turidan manfaatdorligi;

– ijtimoiy sug‘urtaning majburiy va ixtiyoriy shakllarining birligi, teng huquqliligi va shakllarining turli-tumanligi. Ijtimoiy himoyaning zaruriy darajasi ta‘minlanadi va ishlovchining imkoniyati uning himoyalani darajasiga ta‘sir ko‘rsatadi;

– kishilarning sog‘ligi va ularning moddiy ahvoliga xavf soluvchi, barcha oldindan ko‘rilmagan holatlarda ishlovchi xodimlar va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy sug‘urtalashning huquqiy va tashkiliy imkoniyatlarini yaratish;

– ijtimoiy sug‘urtaning turli tizimining bir vaqtning o‘zida amal qilishidagi mustaqilligi va o‘z-o‘zini idora qilish sharoitida majburiy

¹⁸Кукушина В.С. Социальная защита населения. Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2007. –С.141.

ijtimoiy sugʻurta boʻyicha toʻlovlar darajasi va tizim barqarorligining davlat tomonidan kafolatlanishi;

– sugʻurtalangan shaxs va ish beruvchi moliyaviy ishtirokining majburiyigi, zaruriy holatlarda davlat subsidiyalarining jalb etilishi. Sugʻurtalangan shaxsga uning sugʻurta badallarini toʻlashdagi moliyaviy ishtiroki tufayli hosil boʻlgan mablagʻdan unga turli shakldagi moddiy yordam va xizmatlar koʻrsatishi taʼminlanadi;

– olingan mablagʻlarni saqlashdagi alohida tartib, davlat byudjetidan alohidalik, shuningdek, sugʻurtalovchi va sugʻurtalanuvchilar vakillari orqali mablagʻlardan foydalanish ustidan nazorat qilish.

Xalqaro mehnat konferensiyasining 26-sessiyasida qabul qilingan “XMT maqsad va vazifalari toʻgʻrisida”gi deklaratsiyada tashkilot faoliyatiga asosiy yondashuvlar tasdiqlanib, unda quyidagi tamoyillar ajratib koʻrsatilgan:

– mehnat tovar hisoblanmaydi;

– soʻz erkinligi va birlashish erkinligi doimiy taraqqiyotning zaruriy sharti hisoblanadi;

– har qanday joydagi qashshoqlik umumiy farovonlik uchun xavf hisoblanadi;

– muhtojlikka qarshi kurash har bir davlatda hamda hukumat vakillari bilan teng huquqlardan foydalanadigan xodimlar va tadbirkorlar vakillarining doimiy va kelishilgan harakatlari vositasida xalqaro koʻlamda hech qanday bir susaytirishlarsiz olib borilishi kerak, bunda yuqorida aytilganlar umumiy farovonlikka yordam berish maqsadida demokratik qarorlarni muhokama va qabul qilish uchun birlashadi.

Aholining ish bilan bandligi sohasida XMTning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

– muvozanatlangan va qoʻshimcha iqtisodiy oʻsishga koʻmaklashish yoʻli orqali aholining ish bilan bandligiga yordam berish;

– ish bilan samarali bandlik vositasida kambagʻallik darajasini pasaytirish;

– mehnat bozorida faol siyosat oʻtkazish;

– ish bilan bandlikning barqarorligini ta'minlash orqali ish haqi barqarorligining oqilona nisbatiga erishish;

– xodimlarning eng zaif guruhlari: ayollar, yoshlar, migrantlarni muhofaza qilish¹⁹.

XMTning asosiy faoliyati xodimlar sog'lig'iga zararli mehnat sharoitlarini yaxshilash, xodimlar va ular oila a'zolariga ijtimoiy kafolatlarning minimal miqdorini aniqlash bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Keyinchalik bu tashkilotning ijtimoiy muhofaza muammolariga yondashuvi ancha kengayib, tibbiy xizmat ko'rsatish, mehnatni tashkil etish va xodimlarni kasbga tayyorlashning turli masalalarini ham qamrab oldi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng XMT ikkita muhim hujjat: "Daromadni taqsimlash tug'risida"gi 67-tavsiyanoma va "Tibbiy xizmat to'g'risida"gi 69-tavsiyanomalarni qabul qilganidan keyin, ijtimoiy muhofazaning keng va barcha ishlarni qamrab oluvchi tizimini yaratish imkoniyati tug'ildi.

Bu hujjatlar xodimlar sog'lig'iga yoki ularning moddiy faravonligiga xavf tug'iladigan vaziyatlarda ijtimoiy kafolatlash uchun javobgarlikni davlatlar va hukumatlar zimmasiga yuklaydi.

XMT tavsiyalarida o'zaro yordam va ijtimoiy sug'urta dasturlarini yagona ijtimoiy muhofaza tizimiga biriktirish, jumladan, alohida xodimlar guruhiga va ularning oila a'zolariga asosiy kafolatlar berishning turli usullaridan keng foydalanish taklif etilgan. XMT faoliyatining rivojlanishi jarayonida ijtimoiy muhofazaning milliy tizimlarini yaratishga oid shart-sharoitlar ishlab chiqildi.

Bunda ijtimoiy siyosatning asosiy tamoyillari quyidagilarni nazarda tutadi:

– barcha xodimlarga mehnat qilishga tayyorgarlik ko'rish va unda ishtirok etish, har qanday asosdagi kamsitishlardan xoli tarzda teng foydalanish ta'minlanishi kerak;

– milliy siyosat va dasturlar fuqarolarni, birinchi navbatda, ularni o'z manfaatlari, shuningdek, mamlakat ehtiyojlarini nazarda tutib, mehnat layoqatlarini rivojlantirishga undashi kerak;

¹⁹Холмуродов С.Э., Шоюсупова Н.Т. Иқтисодий социология. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДИУ, 2006. 201-б.

– ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida yoshlar va katta yoshdagilar butun hayotlari mobaynida kasbiy tayyorgarlik ko‘rish talablariga javob berishi kerak;

– kasbiy tayyorgarlik milliy siyosati va dasturlarini hukumat tadbirkorlar hamda xodimlar tashkilotlari bilan hamkorlikda milliy dastur asosida ishlab chiqishi va amalga oshirishi kerak²⁰.

XMT ko‘p shug‘ullanadigan eng keskin masalalardan biri inson huquqlarini himoya qilish hisoblanadi. Tashkilot turli mamlakatlarda inson huquqlarining buzilishini ko‘rib chiqish bilan shug‘ullanadigan nazorat organlarining butun bir tizimiga ega hamda uning butun faoliyati inson huquqlari, mehnat qilish huquqi va majburiy mehnatdan muhofaza qilish, normal mehnat qilish shart-sharoitiga ega bo‘lishi, kamsitilishdan muhofaza qilish, kasaba uyushmalariga birlashish huquqi va boshqalarga daxldor deyish mumkin.

XMT faoliyatining asosiy yo‘nalishi aholini, shu jumladan, xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishdir. XMT ijtimoiy muhofazani ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy yordamga bo‘ladi. Ijtimoiy muhofazani bunday guruhlashning dastlabki bosqichlarida uning yangi shakllarining vujudga kelishi asosan birinchi jahon urushidan keyingi davrlarga to‘g‘ri keladi. Birinchi jahon urushining oqibatlari sanoati rivojlangan mamlakatlarni ijtimoiy himoyalashning yangi shakllarini ta’minlash yo‘llarini izlashga majbur qildi va 1919-yili Versal shartnomasi doirasida ta’sis etilgan XMT faoliyatida o‘z ifodasini topdi. Xodimlarni ijtimoiy xatarlardan himoyalash darajasining oshishi XMT faoliyatining asosiy yo‘nalishiga aylandi. Hattoki, tashkilotning birinchi ishlab chiqqan va qabul qilgan Konvensiyasi ijtimoiy himoyaning asosiy masalalariga bag‘ishlangan.

XX asrning 30-yillaridan boshlab XMT xodimlarning huquqlari uchun ijtimoiy sug‘urtaning barcha asosiy tomonlarini belgilovchi quyidagi Konvensiyalarni qabul qildi: №24 – Sanoatda kasallik bo‘yicha sug‘urtalash (1927 - y.); №25 – Qishloq xo‘jaligida ishlovchilarni sug‘urtalash (1927 - y.); №37. Sanoatda nogironlik holatlarida

²⁰Тўйчиева С., Норбекова.Ш. Ижтимоий сиёсат – Ўқув қўлланма– Ташкент, 2010. 102-б.

sug'urtalash (1933 - y.); №39 – Sanoatda boquvchisini yo'qotganlik holatlarida sug'urtalash (1933 - y.); №40 – Qishloq xo'jaligida boquvchisini yo'qotganlik holatlari bo'yicha sug'urtalash (1933 - y.); №56 – Dengizchilarni kasallik bo'yicha sug'urtalash (1936 - y.).

1944 yilda XMTning yangi doktrinaga yo'naltirilgan ikkita muhim xalqaro Nizomni – “Daromadlarning ta'minoti to'g'risida” 67-sonli tavsiyanoma va “Tibbiy xizmat ko'rsatish to'g'risida”gi 69-sonli tavsiyanomalarni qabul qilishi ijtimoiy himoya tizimi rivojida muhim qadam qo'yilishiga asos bo'ldi²¹. Bu tavsiyanomalar kishilar sog'lig'iga yoki ularning moddiy ahvoliga xavf soluvchi barcha oldindan ko'zda tutilmagan holatlarda davlat va hukumatning barcha aholiga ijtimoiy kafolat ko'rsatishiga yo'naltirilgan.

Tavsiyanomada ijtimoiy sug'urta va o'zaro yordam dasturlarini himoyaning yagona tizimiga birlashtirishni taklif etildi, shuningdek, xodimlarning alohida guruhlari va ularning oila a'zolariga asosiy kafolatni ko'rsatishning turli mexanizm va usullarini kengroq qo'llash uchun asoslar tayyorladilar. Shu tarzda sog'liqni saqlash, ta'lim, bandlik kabi ijtimoiy siyosat jihatlari bilan aloqa o'rnatish yo'li orqali bir tomondan, ijtimoiy sug'urtaning milliy tizimini asta-sekin yaratish uchun va ikkinchi tomondan ijtimoiy himoyaning keng qamrovli tizimini joriy qilish uchun imkoniyat yaratildi.

Ta'kidlash lozimki, XMT ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minotning milliy tizimini yaratish ko'pgina omillarga, xususan, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liq va o'ziga xos yondashuvni talab etadi, degan nuqtayi nazarni ilgari suradi. Shuning uchun XMTning tavsiyalari umumiy xarakter kasb etadi, masalan bu (1952 - y.) “Ijtimoiy ta'minotning eng kam me'yorlari to'g'risida”gi 102-sonli Konvensiyada aniq namoyon bo'ladi. Unda ijtimoiy himoyaning asosiy shakllari, ijtimoiy himoya ko'rsatiladigan aholi toifalari va himoya choralari bir qator miqdor va sifat tavsiflari berilgan. Xususan, 102-sonli Konvensiya eng kam himoya shakllariga daromadlarning pasayishi, sog'liqni yo'qotish yoki vafot etish

²¹MOT: Конвенции и рекомендации, принятые Международной конференцией труда. – Женева: МБТ, 1991.

holatlarida to'lov shaklida ko'rsatiladigan yordamni kiritadi. XMT hujjatlarida tibbiy yordam, kasallik, ishsizlik, qarilik, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar bilan bog'liq nafaqalar, oilaviy nafaqa, homiladorlik va farzand tug'ilganlik bo'yicha nafaqa, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha nafaqa, o'zaro yordam nafaqasi ijtimoiy sug'urta va ta'minotning asosiy shakllari sifatida keltiriladi va ular birgalikda zamonaviy ijtimoiy himoyaning asosini tashkil etadi.

XMTning bu sohadagi "Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yorlari to'g'risida"gi 102-sonli Konvensiya (1952 - y.); "Ijtimoiy ta'minot sohasidagi teng huquqlilik to'g'risida"gi 118-sonli Konvensiya (1962 y.); "Keksa xodimlar to'g'risida"gi 162-sonli Konvensiya (1980 - y.); "Ijtimoiy ta'minot sohasida huquqlarni saqlash to'g'risida"gi 157-sonli Konvensiya (1982 - y.) va 167-sonli tavsiyanomalari (1983 - y.) va boshqalar urushdan keyingi davrda qabul qilingan.

Ijtimoiy yordam, ijtimoiy sug'urtaning milliy tizimi mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishidagi o'ziga xosligini hisobga olgan holda XMTning me'yorlovchi faoliyati ta'siri ostida shakllandi.

Shular bilan bir qatorda, mehnat qilish shart-sharoitlari, xavfsizligi, gigienasi, ishlab chiqarish va atrof-muhit kabilar ham XMT faoliyatining muhim yo'nalishlari hisoblanadi. Bular XMTning ko'plab konferensiyalarida muhokama qilingan va uning Konvensiya hamda tavsiyalarida o'z aksini topgan. XMTning bu sohadagi faoliyati mehnatning umumiy shart-sharoitlarini, uni tashkil etish va muhofaza qilishni, ishlab chiqarish, xavfsizlik texnikasi hamda mehnat gigienasi sohalarini yaxshilashga, mehnatni insoniylashtirish va ishdan qoniqishni oshirishga, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda yaxshilashga yo'naltirilgan.

Mehnat shart-sharoitlari, ishlab chiqarish muhitini yaxshilash to'g'risidagi qonunchilik hamda uni hayotga tatbiq etish harakati mehnatni yanada insoniyroq qilish maqsadida zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishga yo'naltiriladi. Bunda, avvalo, xodimlarning jismoniy hamda aqliy layoqatlariga, mehnat qurollarini loyihalash va mehnatni tashkil etish, haddan tashqari ish bilan ko'mib yuborish va charchash

holatlarini bartaraf qilishni ham o'z ichiga oluvchi iqtisodiy tamoyillarga muvofiq keladigan shart-sharoitlarni yaratish nazarda tutiladi.

XMTning aksariyat me'yoriy hujjatlarida aholini, shu jumladan, xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish masalasi o'z aksini topgan. Jumladan, 121-, 148-, 155-Konvensiyalar, 31-, 97-, 112-, 156-, 164-tavsiyalarida davlat ijtimoiy siyosatining muhim yo'nalishlari sifatida quyidagilar ko'rsatilgan:

- mehnat shart-sharoitlari va uni muhofaza qilish sohasida qonunlar hamda boshqa me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va mehnat gigienasi sohasida davlat va boshqa turdagi nufuzli hamda vakolatli organlarni tashkil qilish, ular faoliyatini muvofiqlashtirish;

- xavfsiz texnika va texnologiyani ishlab chiqish hamda joriy etishni rag'batlantiradigan, xavfsiz mehnat va ishlovchilarni ijtimoiy muhofazalash shart-sharoitlarini shakllantirishga yordam beradigan samarali xo'jalik mexanizmlarini yaratish;

- xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishni, baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan sug'urta qilish tizimlarini, kasalliklarning oldini olish, jabrlanganlarni tibbiy va kasbiy rehabilitatsiya qilishga mo'ljallangan, asosan, tadbirkorlar badallari hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan xizmat va markazlarni tashkil etish yo'li bilan ta'minlash;

- mehnat shart-sharoitlari va uni muhofaza qilish, xodimlarni o'qitish va kasbiy tayyorlash. Ularning axborot ta'minoti muammolari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda amalga oshirish;

- turli jamoachilik tashkilotlari va birlashmalari, uyushmalar va alohida shaxslarning mehnatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan faoliyatlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlar bilan barcha darajadagi boshqaruv xodimlari o'rtasida mehnatni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlikka yordam berish²².

Shu bilan birga, 155-Konvensiyada milliy siyosatni ishlab chiqish, amalga oshirish va qayta ko'rib chiqish, ish natijasida, ish jarayonida

²²Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти. Дарслик. – Т.: МЕҲНАТ, 2009. 237-б.

yoki unga aloqador holatda yuzaga keladigan baxtsiz hodisalar, sog‘liqqa shikast yetkazishlarni yo‘q qilish hamda uni imkon qadar kamaytirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi ta’kidlangan.

Asosiy muammolarni taqsimlash, ularni hal qilish va natijalarni baholash uslubiyotini aniqlash maqsadida mehnat xavfsizligi va gigienasi sohasidagi majburiyatlarni davlat, tadbirkorlar, xodimlar bilan boshqa shaxslar o‘rtasida taqsimlash milliy siyosat tamoyillari doirasiga kiradi. Milliy darajadagi chora-tadbirlar shu sohada barcha faoliyatni muvofiqlashtirishni, mehnat xavfsizligi va gigienasi bo‘yicha kasbiy tayyorgarlikni, ilmiy-tadqiqot ishlari o‘tkazilishini, shuningdek, inspeksiya tizimi yaratilishini ta’minlashi kerak.

Mehnat muhofazasi sohasidagi yana bir ijtimoiy kafolat xodim hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘ilgan holatda xodimning ishni boshlashdan bosh tortish yoki ishni to‘xtatish huquqidir.

Shuni ta’kidlash lozimki, XMT o‘z faoliyatida, xususan, xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish sohasida amal qiladigan eng muhim tamoyil kelishilgan milliy ijtimoiy siyosatni ishlab chiqishda uch tomonlama hamkorlik, ya’ni “davlat-tadbirkorlar-xodimlar” hamkorligidir. Bunday yondashuv qarorlarni ishlab chiqishning barcha bosqich va boshqaruv darajalarida kelishuvga erishishning muhim shartidir. Qarorlar qabul qilish jarayonida ijtimoiy sheriklarning ishtirok etishi ikkita afzallikni ta’minlaydi: qarorlarning asoslanganligini mustahkamlaydi va bu qarorlar mahsulini adolatli taqsimlashni ta’minlaydi.

Tadbirkorlar va ishchilarning faol hamda mustaqil tashkilotlari mehnat shart-sharoitlari va ijtimoiy muhofazalashning boshqa barcha tarkibiy qismlarini yaxshilashda muhim rol yo‘naydi. Ularning ta’sir doirasi, avvalo, axborot olish va u bilan ishlash, kadrlarni tayyorlash, xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishning iqtisodiy-huquqiy mexanizmlarini (ijtimoiy sug‘urta tizimini, mehnatni muhofaza qilish qo‘mitalarini) yaratishni qamrab oladi. Ish beruvchilar va ishchilar vakillarining hamkorlikdagi intilishlari bilan ishlab chiqilgan tavsiyalar ko‘p hollarda jamoa shartnomalari va chegarali tarif bitimlarini tuzishda tadbirkorlar bilan kasaba uyushmalari o‘rtasidagi muzokaralarda

pirovard qarorlarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aytib o'tilgan ikkala tomon (bir vaqtda va hamkorlikda) vakillarining mehnatni muhofaza qilish masalalarida parlament a'zolari va hukumatga maslahat berishlari, qonunchilik va boshqa me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda turli milliy qo'mitalar ishida ishtirok etishlari o'zini oqlaydigan hamda maqsadga muvofiq amaliyot sifatida tan olinadi.

XMTning "Ishchilar sog'lig'ini muhofaza qilish to'g'risida"gi 97-sonli Tavsiyanomasi (1959 y.) ish joyida xodimlar sog'lig'ini muhofaza qilishning ikki asosiy uslubi: zararli va xavfli ishlab chiqarish omillaridan muhofazalashning texnik chora-tadbirlari hamda ishlovchilar sog'lig'ini tibbiy kuzatishni nazarda tutadi. Bu usullarga muqobil sifatida qaralmaydi, ular bir vaqtda qo'llaniladi, bir-birini to'ldirib turadi.

XMT ijtimoiy sohada katta ishlarni olib boradi. Masalan, 1952 - yilda qabul qilingan "Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yorlari to'g'risida"gi 102-sonli Konvensiya muhim me'yoriy hujjat hisoblanadi. Bu hujjat aholining barcha qatlamlarini va ijtimoiy sug'urta hamda ta'minotning hamma turlarini qamrab oluvchi ijtimoiy ta'minotning universallik tamoyilini ilk bor xalqaro huquqda tasdiqladi. Konvensiya turli nafaqalar minimal me'yorini oldingi ish haqi daromadlar umumiy summasidan foizlarda belgilaydi. Unda nafaqalarni hisoblashda asos qilib olinadigan turli xodimlar toifalari ish haqi va daromadlarini aniqlash mezonlari ko'rsatib o'tilgan.

Ijtimoiy ta'minot masalalari XMTning texnik yordam dasturlarida ham katta o'rin egallaydi. Rivojlanayotgan har bir mamlakat XMTning ijtimoiy ta'minot bo'yicha maslahatchilaridan yordam oladi. Ko'pgina iqtisodiy rivojlangan davlatlar ham bu sohadan milliy qonunchilikni ishlab chiqishda XMT tajribasidan foydalanadi.

Umuman, XMTning butun faoliyati aholining mehnat faoliyati, ish bilan bandlik va ijtimoiy muhofaza sohasidagi xalqaro tan olingan huquqiy me'yorlarni davlatlar qonunchiligi hamda amaliyotiga joriy qilishga yo'naltirilgan. Bu me'yorlarning tan olinishi hamda ulardan foydalanilishi har bir davlatning xalqaro hamjamiyatning to'la huquqli

a'zosi hisoblanishidan hamda o'zida bu sohadagi umumtan olingan standartlarni rivojlantirayotganligidan dalolat beradi.

O'zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Glossariy
Ijtimoiy yordam tizimi	Система социальной помощи	Social safety net	U tor ma'noda kambag'allikka qarshi kurash maqsadida to'lanadigan pulli nafaqalar tizimidir. Keng ma'noda esa, kam ta'minlanganlarga yo'naltirilgan barcha turdagi ijtimoiy harajatlarni qamrab oladi.
Ijtimoiy sug'urta	Социальное страхование	Social insurance	Pensiyaga chiqish va ishsizlik bilan bog'liq ish haqini yo'qotishlarni vaqtinchalik qoplash. Majburiy badallar asosida davlat tomonidan tashkil etiladigan pulli nafaqalar tizimidir. Ushbu nafaqalarning asosiy turlariga quyidagilar kiradi: ishsizlik nafaqasi, mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi, homiladorlik va tug'ishdan keyin to'lanadigan nafaqalar, yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiyalar.
Ijtimoiy ta'minot	Социальное обеспечение	Social welfare	Vaqtinchalik mehant qobiliyatini yo'qotganlik, ishsizlik hamda ayollar va bolalarga, shuningdek, keksalarga nafaqalar to'lashning davlat tizimi.
Ijtimoiy xizmatlar	Социальные услуги	Social services	Inson kapitalini investitsiyalash, ya'ni shaxsning takror ishlab chiqarish, ma'naviy salohiyatini tiklash va kengaytirishga qaratilgan investitsiyalarni amalga oshirish.

Nazorat savollari

1. "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunni ta'firlang.
2. Inson huquqlarini himoyalash bo'yicha ijtimoiy ish xodimining o'rni nimalar bilan izohlanadi?
3. Ijtimoiy siyosat tushunchasining mazmuni so'zlab bering.

4. Ijtimoiy siyosat tushunchasinining mohiyatini soʻzlab bering.
5. Ijtimoiy ishchi faoliyatida uning mazmunini taʼfirlang.
6. Ijtimoiy ish faoliyati sohasiga kiritilgan tashkilotlar faoliyatini soʻzlab bering.
7. Davlat tashkilotlari bilan ishlash nazariyasi, jarayoni va uslublari nimalardan iborat?
8. Jamoatchilik bilan ishlash nazariyasi, jarayoni va uslublari nimalardan iborat?
9. Ijtimoiy xizmatlar mohiyatini tushuntirib bering?

3-MAVZU: IJTIMOIIY ISH SOHASINING NAZARIY ASOSLARI

Reja:

3.1. Ijtimoiy ish sohasining nazariy asoslari.

3.2. Ijtimoiy ish nazariyasining tadqiqot usullari.

Ijtimoiy ish sohasining nazariy asoslari.Ijtimoiy ish - hamma uchun darkor bo'lgan ishlar sifatida xodimlarning kasbiy malakasini talab etib, ijtimoiy foydali faoliyat turidir. Ijtimoiy ish kasbining boshqa turdagi xizmatlardan farqli jihatlari quyidagilar hisoblanadi:

- ishsizlar uchun maxsus mo'ljalangan vaqtinchalik ish o'rinlarini yaratadi;
- zarur hollarda bunday ish o'rinlarini kam sarf qilgan holda sezilarli miqdorda oshirish mumkin;
- xodimlar ommaviy tarzda ishdan bo'shatilgan hollarda ish miqdori va hajmini ham tez oshirishi mumkin;
- to'liq bo'lmagan ish kunini va moslashuvchan jadvali ishlarni tashkillashtirish mumkin;
- bunday ish o'rinlarini yaratish mintaqa uchun iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik foydali hisoblanadi;
- o'qishni tugatgan va o'ziga doimiy ish topa olmagan yoshlar uchun mehnat qilishiga, ish topish bilan joylashish imkonini beradi.

Mahalliy boshqaruv idoralari, bandlik xizmatining taklifi va ishtirokida aholi vaqtinchalik bandligini ta'minlash maqsadida haq to'lanadigan ijtimoiy ishlarni korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda, xususiy korxonalarda, bitimlar asosida boshqa korxonalar, muassasa, tashkilotlarda tashkillashtiradi. Ijtimoiy ishda ishtirok etish istagini bildirgan shaxslar bilan muddatli mehnat shartnomasi tuziladi, bunday bitim tuzishga ustuvor huquqdan ishsizlik bo'yicha moddiy yordam olmaydigan ishsiz fuqarolar foydalanadi.

Ijtimoiy ishda band fuqarolar amalda bajaradigan ishga haq oladi, lekin qonun hujjatlarida belgilangan ish haqidan kam bo'lmaydi. Ijtimoiy ishni moliyalash qaysi korxonalar, muassasa, tashkilot uchun bajarayotgan bo'lsa, shular tomonidan, shuningdek, mahalliy byudjet

hisobidan va bandlik jamg'armasi mablag'i hisobidan moliyalashtirilib, mijoz to'liq qanoatlantiriladi.

Ijtimoiy ish sohasining nazariy asoslari deyilganda:

1) inson, olam haqidagi obyektiv bilimlarni ishlab chiqish, to'plash va tizimlashtirish bo'yicha inson faoliyati sohasi;

2) tarixan rivojlanayotgan bilimlar majmui;

3) ijtimoiy institut, uning doirasida ilmiy bilim tarmoqlari rivojlanadi;

4) ijtimoiy ong shakllaridan biri;

5) bilimning ayrim tarmog'i kabilar tushuniladi.

Ijtimoiy ish sohasi mavjud olam hodisalari va qonuniyatlari haqidagi tasavvurlarni ishlab chiqadi. Nazariy va empirik bilim tarzida tashkillashtiradi. Ijtimoiy ongning boshqa shakllarida Ijtimoiy ish sohasi hayotni aks ettirish turlari obyektivligi, ya'ni bilimning nisbatan chinligi, uning aniq maqsadga erishishga yo'naltirilgan vositaligi, samaralilik tushunchasini umumlashtirish bilan bir-biridan farqlanadi. Ijtimoiy institut sifatida Ijtimoiy ish sohasi nisbatan muxtor ilmiy uyushmada qatnashuvchilarni birlashtirishni ko'zda tutuvchi birgalikdagi mehnat shaklidan iborat bo'ladi.

Ma'lumki, muayyan sohada zarur vakolatga ega va yangi bilim yaratish jarayonida qatnashuvchi shaxslar majmui ilmiy jamiyat deb ataladi. Ular qandaydir muammoviy sohani ishlab chiqadi va fanning ijtimoiy boshlang'ich hujayrasi hisoblanadi, o'z a'zolari faoliyatini me'yoriy nazorat qiladi, hozirgi kunda dolzarb hisoblangan, muhim va yechish mumkin bo'lgan muammolar doirasini belgilaydi. Uning vositasida ilmiy faoliyat yuzaga chiqariladi, tadqiqotchilarning yangi avlodi tayyorlanadi.

Ijtimoiy ish sohasi nazariy va amaliy tadqiqotlarga ajraladi. Nazariy izlanishlarga chin va ijodiy asoslangan bilimlarni olish uchun ko'rsatmalar xos bo'lsa, amaliysi uchun samara va natija xosdir. Fanning qismlanishi - uning tabiiy, texnik, ijtimoiy (ijtimoiy va gumanitar) fanlarga ajralishidir. Bu guruhlar o'zaro anglash qoidalari va faoliyatni ijtimoiy tashkillashtirish shakllari bilan o'zaro farqlanadi. Fanni rivojlantirish jarayonida uning maxsus vazifalarini bajarish

sohasining kengayishi va shunga muvofiq jamiyat faoliyati majmui boshqa sohalari bilan bog‘liqligi kuchayishi yuz beradi. Asosiylari ichidan madaniy-dunyoviy bilish, kasbiy-ta’limiy va ishlab chiqarish amaliyot funksiyalarini ajratish mumkin.

Fanning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanishi sezilarli ijtimoiy resurslarni, qimmat tushuvchi tajriba uskunalari va boshqalarni talab qiluvchi ommaviy ilmiy faoliyatga o‘tish bilan bog‘liqdir. Masalan, jamiyat va ijtimoiy munosabatlardagi sobiq eski tuzumlarda yuz bergan tanglik shu ittifoqqa kirgan barcha nomiga “tengdosh” respublikalarda fan rivojiga salbiy ta’sir o‘tkazdi. O‘zbekistonda mustaqillikka erishilgandan so‘ng bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitlarida fanning rivojiga alohida e’tibor qaratildi.

Ijtimoiy ish sohasining inson, ijtimoiy guruh va uni qurshab turgan olamdagi o‘rni haqidagi obyektiv tarixiy va amaliy bilimlarni yaratish, to‘plash va tizimlash bo‘yicha bilimning alohida tarmog‘i. Tarixan ijtimoiy ish sohasining bilim tarmog‘i va ijtimoiy institut sifatida XIX asrda yuzaga kelgan. Fanlararo tavsifga egadir. Ijtimoiy ish sohasining nazariy asosini tarix, sotsiologiya, psixologiya, demografiya, tibbiyot, huquqshunoslik, pedagogika, falsafa, etika va estetikaning muayyan qismlari tashkil etadi. Ikkinchi tomondan ijtimoiy ish amaliy tavsifga ega, ayrim fuqarolar va ijtimoiy guruhlarni qo‘llab-quvvatlash, muhofazalash, tuzatish va tiklash bo‘yicha ijtimoiy ishlar usuli va texnikasini ishlab chiqadi, fanga keng joriy etadi.

Ijtimoiy ish sohasining nazariy asoslari (nazariya - qarash) ilmiy bilimning ancha rivojlangan shakli, borliqning muayyan sohasidagi qonuniyatli va sezilarli aloqalarning yaxlit ifodasini beradi. Ijtimoiy ish sohasining nazariy asoslari chin bilimning yaxlit rivojlanayotgan tizimi (har xil unsurlarni o‘z ichiga oladi)ni, u murakkab tuzilishga ega bir qator vazifalarni ham o‘z ichiga oladi. Hozirgi zamon fani metodologiyasida Ijtimoiy ish nazariyasi quyidagi asosiy unsurlari bilan farqlanadi:

- boshlang‘ich asoslar - nazariy tushunchalar, tamoyillar, qonuniyatlar, boshqarish, aksiomalar va h.k.;

- ideallashtirilgan obyekt - o'rganilayotgan narsalar ahamiyatli xossalarning abstrakt modeli (masalan, "mutlaq qora jism", "ideal gaz" va h.);

- Ijtimoiy ish nazariyasi mantiqi rasmiy, tayyor bilim tuzilishini oydinlashtirishga qaratiladi va dialektik bilimdagi hukm (kategoriya)lar, qonunlar, tamoyillar va boshqa shakllarning o'zaro bog'liqligini tadqiq etishga yo'naltirilgan;

- muayyan Ijtimoiy ish nazariyasi formal va dealektal mantiq tamoyillariga muvofiq keltirib chiqarilgan qonunlar va tasdiqlar majmui;

-Ijtimoiy ish nazariyasining asosiy unsuri - qonun, shuning uchun unga o'rganilayotgan ob'ektning butun yaxlitligi va muayyanligi mohiyatini ifoda etuvchi qonunlar sifatida qaralishi mumkin.

Ijtimoiy ish nazariyasining asosiy funksiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- sintetik funksiya - ayrim ishonchli bilimlarni yagona, yaxlit tizimga birlashtirish;

- tushuntiruvchi - sababiy va boshqa bog'liqliklarni, muayyan hodisa bog'likligi xilma-xilligini, uning ahamiyatli tavsiflarini, uning kelib chiqishi va rivojlanishini aniqlash;

- metodik - uning barcha shakllarida yangi bilimga erishishning vositasi sifatida;

- oldindan aytib berishga qobiliyatlilik, ya'ni oldindan ko'ra bilish funksiyasi;

-amaliylik, zero har qanday Ijtimoiy ish nazariyasining so'nggi vazifasi - amaliyotga tatbiq etilishdir, mavjud borliqni o'zgartirish bo'yicha "harakatga rahbarlik" qilishdir.

Ijtimoiy ish nazariyasining tadqiqot usullari. Ijtimoiy ish nazariyasining tadqiqot usullari deganda ijtimoiy ish kasbining faoliyat shakli tushuniladi. Ijtimoiy ish kasbini nazariy jihatdan tasavvur qilish va undan foydalanish usullarini qo'llay olish juda muhim tamoyil sifatida qabul qilinadi. Ijtimoiy ish nazariyasini tadqiq etishning tamoyillari uch vazifani - konstitutsiyalovchi, tartibga soluvchi va

uyg'unlashtiruvchi vazifalarni bajaradi. Shu sabab, quyidagilar ijtimoiy ish nazariyasining asosiy tamoyillari hisoblanadi:

- 1) insonparvarlik tamoyillari (insonni oliy qadriyat deb tan olish);
- 2) adolat tamoyillari (inson qobiliyatlarini amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlash);
- 3) vakolatlilik tamoyili (ijtimoiy ishlar nazariyasi va amaliyotini chuqur bilish);
- 4) altruizm tamoyili (o'zganing manfaatini o'zining manfaatidan ancha yuqori deb tan olish);
- 5) shaxsiy yondashish tamoyili (har bir ijtimoiy muammoda muayyan shaxs manfaatlarini ko'ra olish layoqati);
- 6) mujassamlik tamoyili (turli darajadagi ijtimoiylikni yuzaga keltiruvchi bir-biri bilan ijtimoiy bog'liqlik);
- 7) vositachilik tamoyili (ijtimoiy ishlarni davlat ijtimoiy siyosatining ifodasi tarzida tushunish);
- 8) uzluksizlik tamoyili (huquqiy ishlarning muntazam davomiylikdagi, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan deb tushunish);
- 9) jalb etishlik tamoyili (mijozning e'tiborini tortish uquvi);
- 10) ishonch tamoyili (mijoz bilan o'zaro ishonchli munosabatlarni o'rnatish uquvi).

Ijtimoiy ishlar integral tavsifiga ko'ra unda iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy, ma'muriy, psixologik, ijtimoiy-ruhiy, tibbiy-ijtimoiy, pedagogik va boshqa ta'lim-tarbiyaviy usullardan foydalaniladi.

Ijtimoiy ish nazariyasining tadqiqiy tamoyillari-muayyan sohalarda jamiyat hayotini bashoratlash, rejalashtirish va boshqarish uchun o'rganilayotgan ijtimoiy jarayonlar, hodisalar, faktlar to'g'risida yangi bilimni olishga yo'naltirilgan nazariy va metodik tartiblar majmuidir. Ijtimoiy ish nazariyasining tadqiqiy tamoyillari dasturni ishlab chiqish, uni amalga oshirishda muhim ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilishning aniq metodikasi ham ishlab chiqiladi, empirik axborot ishonchliligi va uning natijalari ilmiy talqinining muammolari shu bilan hal etiladi. Ijtimoiy ish nazariyasining tadqiqiy tamoyillarining to'laqonliligi faqat ijtimoiy jarayonlarning u yoki bu qonuniyatini, u qanchalik aynan aks ettirishi bilan emas, balki u ilmiy

asoslangan bashoratlar ijtimoiy siyosat sohasida qarorlar qabul qilish uchun amaliy tavsiyalar bilan yakunlanganlik darajasi bilan ham belgilanadi.

Shunday qilib, ijtimoiy ish nazariyasining hayotga tatbiq etilishi - nazariy tadqiqot, amaliy tajribani umumlashtirish, ijtimoiy eksperimentning tizimli tavsifi, muayyan ishlanmani amalda qo'llashga taalluqli taklif mohiyati; aniq ijtimoiy modellar, ijtimoiy tadqiqotlar, iqtisodiy hisob-kitoblar, ma'muriy yangiliklar va hokazolarga asoslangan bashoratlar bilan belgilanadi.

Ijtimoiy ish sohasidagi ijtimoiy ish nazariyasining hayotga tatbiq etilishi, ijtimoiy dasturlar, ijtimoiy takliflar va loyihalar ishlab chiqish, ijtimoiy ishlarning muayyan shartlari, usullari, texnika va texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi. Demak, ijtimoiy ish nazariyasining hayotga tatbiq etilishi asosida aniq, amaliy qimmatga ega ijtimoiy muammolar yotishi kerak.

Ijtimoiy ish nazariyasining hayotga tatbiq etilishining asosiy tamoyillari bo'lib, ijtimoiy dinamika turli tizimlarining mutanosiblashuvi (davlat boshqaruvi va turli ijtimoiy kichik tuzimlar) hisoblanadi. Shu kabi, bashoratlash va dasturuy-maqсадli rejalashtirishga atroflicha yondashish, kreativ (yangicha) yondashish ham kiradi. Ijtimoiy ish nazariyasining hayotga tatbiq etilishining asosiy usullari sifatida me'yoriy, resursiy(mavjud manba) usullar, tarmoq modellari usuli, metrik usul, ekspert va maqsadli usullar, iqtisodiy-matematik va axboriy-tashkiliy modellashtirish usullaridan foydalaniladi.

Ijtimoiy ish sohasidagi ijtimoiy ish nazariyasining hayotga tatbiq etilishi yo'nalishlari orasida ijtimoiy himoya konsepsiyasi va dasturini, ijtimoiy siyosatni amalga oshirish vositasini, ijtimoiy ishlarni amalga oshirishdagi jihozlar va texnologiyalarni yaratish yoki ishlab chiqishni, uning kommunikativ va pedagogik texnikasini samarali qilishni, ijtimoiy innovatsiyalar turli shakllarini ishlab chiqishni, joylardan olingan ma'lumotlar asosida yangi takliflarni shakllantirishni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Ijtimoiy ish nazariyasining hayotga tatbiq etilishi butun jamiyat ijtimoiy tuzilishini, uni sertifikatsiyalashni, iqtisodiy

salohiyatini, milliy, jinsiy, kasbiy, demografik yosh bo'yicha aholi tarkibini, uning migratsiya jarayonlarining o'ziga xos tomonlarini hisobga olishni qat'iy talab qiladi.

O'zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Glossariy
Ijtimoiy deprivatsiya	Социальная депривация	Social deprivation	Insonning o'z orzulari va haqiqiy (real) holati o'rtasidagi uzilishni sezishi, his etishi.
Globallashuv	Глобализация	Globalization	Butunjahon iqtisodiy, siyosiy va madaniy integratsiyalashuvi va unifikatsiyalashuvi.
Oila	Семья	Family	Jamiyatning boshlang'ich hujayrasi, er-xotinlik munosabatiga asoslanadi va bir-birlari bilan qon-qarindoshlik munosabati bilan bog'liq kishilarning ixtiyoriy birlashgan guruhidan iborat bo'ladi.
Ijtimoiy ishlar bo'yicha mutaxassis	Специалист по социальным делам	Specialist for social affairs	Keksalar va mehnatga yaroqsiz fuqarolarga ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha alohida bilim va malakalarga ega bo'lgan mutaxassis.
Ijtimoiy xizmatlar	Социальные услуги	Social services	Mijozga amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan yordamni ko'rsatish bo'yicha xatti - harakatni ifodalaydi. Turli mulkchilik shaklidagi ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar, muassasalar, jumladan, yuridik shaxs tashkil qilmasdan aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar ijtimoiy xizmatlar bozorida faol qatnashadilar.

Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy ish kasbining boshqa turdagi xizmatlardan farqli jihatlari nimalardan iborat?
2. Ijtimoiy ish sohasining nazariy asoslari deyilganda nimani tushunasiz?
3. Ijtimoiy ish nazariyasining asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
4. Ijtimoiy ish nazariyasining tadqiqot usullari deganda nimani tushunasiz?
5. Ijtimoiy ish nazariyasining tadqiqiy tamoyillari nimalardan iborat?
6. Ijtimoiy ish nazariyalarini ta'riflab bering.
7. Ijtimoiy ishning tarkibiy qismlari nimalardan iborat bo'ladi?
8. Ijtimoiy ish tizimining vazifalari nimalardan iborat?
9. Ijtimoiy ish tizimining amal qilish tamoyillarini tushuntirib bering.
10. Ijtimoiy ta'minot tizimida ijtimoiy-iqtisodiy adolat mohiyatini tushuntirib bering?
11. Ijtimoiy ta'minot tizimida ijtimoiy adolatsizliklarning namoyon bo'lish xususiyatlari (ayollar, kamsitish, fenemenestik harakat, irqiy kamsitish) nimalardan iborat bo'ladi?
12. Irqiy kamsitishga misollar keltiring.
13. Ijtimoiy ish va fuqarolar huquqlarining ta'minlanish mohiyatini tushuntirib bering.

4-MAVZU: IJTIMOIIY ISHNING ODOB VA AXLOQ MUAMMOLARI.

Reja:

- 4.1. Ijtimoiy ishning asosiy qadriyat va tamoyillari.**
- 4.2. Ijtimoiy ishda ijtimoiy ish etikasi.**
- 4.3. Ijtimoiy ishning axloq kodeksi.**

Ijtimoiy ishning asosiy qadriyat va tamoyillari. Ijtimoiy ishning asosiy qadriyat va tamoyillari bu dunyoviy bilim sirlarini egallashdir. O'quv qo'llanmadagi ma'ruzalar tanqidiy fikrlashimizga ko'mak berib, muammolarning yechimini topishga yordam beradi, shuningdek, atrofimizni o'rab turgan borliqni to'liq tushunishimizga, anglashimizga yordam beradi. Ijtimoiy ish sohasining xizmatchilari o'z mehnat faoliyatlarini amalga oshirishning kundalik jarayonlarida turli xil axloqiy dilemmalarning yechimini topish uchun izlanadilar. Bu muammolarning yechimini topish uchun ijtimoiy ish xodimi o'z kasbining asosiy qadriyat va tamoyillarini chuqur bilishlari, bu sohadagi eng so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lishlari zarur bo'ladi. Ushbu nuqtai-nazar bilan yondashuv nafaqat masalaning huquqiy amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan jihatlarini, balki odob-axloqqa oid bo'lgan tomonlarini ham ko'proq bilish zarurligini talab qiladi.

Ijtimoiy himoya qilish siyosatining yuritilishi, bu sohani tadqiq etish va amaliyotini o'rganish bo'yicha talabalarga o'qitilayotgan o'quv kurslari: ona tili va adabiyoti, xorijiy tillar, davlat huquqi, tarix va iqtisodiyot, sotsiologiya va psixologiya, matematika va fan tarixi, madaniyat va san'at tarixi – bu fanlarning barchasi talabalarni o'tmish bilan tanishtiradi, dunyoqarashining kengayishiga xizmat qiladi, ijtimoiy ish kasbini egallovchining hayotiy faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy ishning asosiy qadriyat va tamoyillari dunyo bo'yicha tashkil topgan quyidagi tashkilotlar faoliyati bilan bog'liq holda o'rganiladi.


Bu quyidagilar:

1. Ijtimoiy ish xodimlarining xalqaro federatsiyasi (IIXF).

2. Ijtimoiy ish bo'yicha maktablar(o'quv bilim yurtlari)xalqaro assotsiatsiyasi (IIXA).

Ijtimoiy ish xodimlari xalqaro federatsiyasi (IIXF) va Ijtimoiy ish bo'yicha maktablar(o'quv bilim yurtlari) xalqaro assotsiatsiyasi (IIXA) o'zaro kelishuviga ko'ra ijtimoiy ishning asosi bo'lib hisoblanadi. Ular kadrlarni kasbga tayyorlash jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni bajaradi va amaliyotda ham shu darajada o'z faoliyatini aks ettiradi. Ijtimoiy ish doimiy xavf va tasodifiy qiyinchiliklarga ega bo'lib, kayfiyatning buzilishiga olib keluvchi natijalarning kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatuvchi ko'rsatkich sifatida ham xizmat qiladi. Bu tarzda natijalar, albatta, bilim, qadriyat va ko'nikmalarning egallanishidagi yetishmovchilik yoki kamchiliklar hamda ularni qo'llay olishga nisbatan moyillikning mavjud emasligidan kelib chiqishi mumkin.

Ijtimoiy ishdagi kompetentlikning asosiy tamoyillari quyidagi sxemada aks ettiriladi:



IIXF va IIXA ishining etika borasidagi maqsadi-ijtimoiy ish bo'yicha tashkilotlar, ijtimoiy ish bo'yicha maktablar, shuningdek, shu sohadagi talabalar tomonidan etik muammolarning muhokama va tahlili

jarayonini ta'minlashga ta'sir qilishdan iboratdir. Bundan tashqari, ijtimoiy ishchilar duch keladigan ba'zi etik muammolar ular ishlayotgan muayyan hudud uchun xos bo'lib, boshqalari o'zga mamlakatlar uchun umumiy bo'lishi mumkin. Shu jihatdan IIXF va IIXA umumiy tamoyillar darajasida to'xtalgan holda ularni umumiy tasdiqlatirishlardan ko'zlangan asosiy maqsadlari butun dunyodagi ijtimoiy ishchilarning o'z ishlari davomida hal etadigan aniq qarorlarini chiqarishda ular duch keladigan muammo va dilemmalar borasida o'ylab ko'rishlariga rag'batlantirishdan iborat.

Ijtimoiy ish etikasi: tamoyillar jihatidan yondashilganda, 1994 - yilda Kolombo shahri (Shri-Lanka)da Ijtimoiy xodimlar xalqaro federatsiyasi umumiy yig'ilishida "Ijtimoiy ish etikasi: tamoyillar va nazariyasi" nomli hujjat qabul qilindi. Bu hujjat ikki qismdan iborat. "Ijtimoiy ish tamoyillarining xalqaro deklaratsiyasi" va "Ijtimoiy xodimlarning xalqaro axloqiy andozalari". Bu hujjatlarning qabul qilinishi Federatsiya tomonidan uzoq yillar davomida orqaga surib kelindi, bunga ajablanmasa ham bo'ladi. Bu tashkilotga a'zo bo'lgan yuzlab mamlakatlarning a'zolari diniy va siyosiy qarashlari bo'yicha juda xilma-xil. Ularni yo'llagan davlatlar o'zlarining tuzilishi, boshqaruv shakllari, madaniyati bo'yicha xilma-xil bo'lib, o'zlarining an'analariga va ijtimoiy ishning shakllanish tarixiga ega. Qizg'in munozaralardan keyin umumiy xulosaga kelishga muvaffaq bo'lindi, shuning natijasida mazkur deklaratsiyalar dunyoga keldi.

Bugungi zamonda ijtimoiy ish xodimi kasbining odob-axloq me'yorlarini ko'proq tushunishlari va ularga so'zsiz amal qilishlari talab qilinadi. Ijtimoiy ish xodimi o'z faoliyatida kasbiy etikaga (odob-axloq me'yorlari) qat'iy amal qilishlari, zarur bo'lganda huquqiy va axloqiy tamoyillarni aniq bir holatlarda qo'llay bilishlari nihoyatda muhimdir. Xuddi shu kabi, ijtimoiy himoyalash jarayonida paydo bo'lgan muammoli vaziyatlarda, ularni zudlik bilan bartaraf etish choralarini qo'llay olishlari kerak bo'ladi.

"Ijtimoiy ishning axloqiy tamoyillari deklaratsiyasida" quyidagi tamoyillar bayon qilingan:

- Har bir odam noyob hodisa bo‘lib, unga axloq nuqtayi nazaridan e’tibor berish lozim.

- Har bir odam o‘z ehtiyojlarini qondirishda boshqalarning huquqlariga zarar yetkazmasdan harakat qilish huquqiga ega va u jamiyat farovonligini oshirishga o‘z hissasini qo‘shishi lozim.

- Har bir jamiyat, boshqaruv shaklidan qat’iy nazar, o‘zining har bir a’zosini maksimum darajada noz-ne’matlar bilan ta’minlashga intilishi lozim.

- Ijtimoiy soha xodimlari ijtimoiy adolat tamoyillariga doxildir.

- Ijtimoiy soha xodimi o‘zining bilimlarini, ko‘nikma va malakalarini alohida odamlar, guruhlar, jamoa va jamiyatlar taraqqiy etishi uchun, shaxsiy-ijtimoiy nizolarni hal qilish, ularning oqibatlarini bartaraf etish uchun sarf qilishi lozim.

- Ijtimoiy ish diskriminatsiyani rad etish asosiga quriladi. Demak, u mijozlarning jinsi, yoshi, millati, diniy e’tiqodi, tili, siyosiy e’tiqodlari, jinsiy yo‘naltirilganligidan qat’iy nazar, amalga oshiriladi.

Ijtimoiy ishda ijtimoiy ish etikasi. “Ijtimoiy ishning etikasi: tamoyillarining tasdiqlanishi” deb nomlangan hujjat 2004 - yil oktabrda Adelaidada (Avstraliya) IIXF(Ijtimoiy ish xodimlari federatsiyasi) va IIMXA(Ijtimoiy ish mutaxassislari xalqaro assosiatsiyasi)larning umumiy uchrashuvida tasdiqlangan.

Ijtimoiy ish insonga hamda uning va atrofdagilarning ehtiyojlarini qondirishda muhim amaliyot kasb etishini e’tiborga olgan holda bajariladigan xizmat ko‘rsatishning turi bo‘ladi. Ijtimoiy ish xodimlari nafaqat alohida odamlarga ko‘mak beradi, balki kengroq, global darajada ham o‘zgarishlar yasashga intiladilar.

O‘zbekistonda olib borilayotgan demokratik huquqiy davlat barpo etish siyosati o‘z navbatida ijtimoiy ish xodimlariga bo‘lgan talabni yuzaga keltiradi va bu soha vakillariga bir qator mas’uliyatli vazifalarni yuklaydi. Bu vazifalarga qo‘yidagilarni misol tariqasida ko‘rsatish mumkin:

- ijtimoiy ish xodimlarining halol va madaniyatli inson bo‘lishligining zarurligi;

- himoyasidagi insonlarni millati, irqidan va dinidan qat'iy nazar, barchasini baravar ko'rib muomalaga kirish;
- ijtimoiy ish xodimi madaniyatining tamoyillariga amal qilish;
- ijtimoiy ish xodimning qanday vaziyat bo'lishidan qat'iy nazar, insonparvarlik xususiyatlarini amalga oshirishga kuch va g'ayrat topishligi;
- ayniqsa, mustaqil ravishda o'zini o'zi himoya qilishga qodir bo'lmagan odamlarni, masalan, ehtiyojmand ishchi, layoqatsiz bolalar va yoshlar hamda aqliy taraqqiyoti buzilgan yoki sekinlashgan kishilarni qabul qilingan ma'naviy sog'lom qonunchilik doirasida himoyalashga doir ish olib borish;
- turli etnik guruhlar va jamiyatdagi insonning asosiy huquqlariga qarama-qarshi bo'lmagan an'analar, madaniyatlar, mafkuralar, e'tiqodlarni hurmat qilish va dunyoviy bilimni, zamonaviy fanlarni hamda jahon tillarini bilish.

Yuqorida qayd etilgan maqsadlarning barchasi ijtimoiy ish kasbining zaruriy omillari sanaladi va bu kasb egasidan vijdonan yondashishlik talab qilinadi. Ushbu soha vakillarini respublikamizda mavjud huquqiy-me'yoriy hujjatlar ham to'la qo'llab-quvvatlaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham o'zida xalqaro inson huquqlari borasida to'plangan ijobiy tajriba tamoyillarini mustahkamlagan. Bundan ko'rinib turibdiki, hozirgi zamon davlatlarining inson huquqlari masalasidagi faoliyatlariga asos bo'lib xizmat qiladigan tamoyillar ham nazariy, va ham amaliy ahamiyatga molikdir, ularni qisqacha quyidagicha ifodalash mumkin:

- inson huquqlari har bir insonga tavallud topishi bilan tabiiy ravishda uzviy taalluqli, mansub bo'ladi, shu bois ular tabiiy huquqlardir, ular bo'linmas va insondan ajralmas huquqlardir;
- inson huquqlari oliy qadriyat hisoblanib, ularni hurmat qilish, himoya etish va ularga rioya etish xar bir davlatning majburiyatidir;
- inson huquqlari barcha odamlarning tengligiga asoslanadi va umumiy-universal xarakterga ega;
- inson huquqlari - ayni paytda hokimiyat ustidan nazorat qilishning vositasi hisoblanib, u davlat hokimiyati tomonidan sodir

etilishi mumkin bo'lgan o'zboshimchaliklarni cheklab turadi, zero davlat inson huquqlari bilan belgilab berilgan erkinlik doirasidan chetga chiqishi mumkin emas;

- inson huquq va erkinliklarini ta'minlash-shaxsni u yoki bu belgiga asoslanib hech bir insonning kamsitilishiga olib kelmasligi shart;

- inson huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish-boshqa shaxslarning huquq va erkinliklariga zarar yetkazmasligi, zinhor buzmasligi shart;

- inson huquq va erkinliklari butun mamlakat hududida yagona bo'lishi kerak;

- insonning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari o'zaro tengdir, ya'ni huquqlar tizimida pog'onaviylik-ierarxiya bo'lmasligi lozim;

- kollektiv (jamoaviy) huquqlar individ (yakka shaxs) huquqidan ajralmasdir va ular o'zaro bir-biriga zid kelishi, shaxsning huquqiy maqomini cheklashi mumkin emas;

- inson huquqlari faqat qonun, ya'ni yuqori yuridik maqomga ega bo'lgan hujjat bilangina tartibga solinishi lozim;

- inson huquq va erkinliklari faqat qonun bilan, Konstitutsiya va boshqa xalqaro hujjatlarda ko'rsatilgan hollardagina cheklanishi mumkin.

Shunday qilib, ta'kidlash lozimki, inson huquqlari masalasiga doir xalqaro amaliyot tayanadigan yuqorida zikr etilgan tamoillar qator nufuzli xalqaro hujjatlarda o'zining ifodasini topgan:

-1948 - yilda qabul qilingan Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi;

-1966 - yilda qabul qilingan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt va va boshqa shu kabi hujjatlar.²³

Bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida qo'lga kiritilgan olamshumul g'alabalardan biri-inson huquqlarining har tomonlama himoyalanihi va rivojlanishidir. Inson huquqlari insoniyat taraqqiyotining mezoni sifatida

²³ Ахмадшаева М.А. "Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва инсон ҳуқуқлари. –Т.: 2005.- 11-бет.

mustahkamlanib, jahondagi barcha davlatlarda rivojlanib bormoqda. Muayyan bir davlatda inson huquqlari ta'minlanishi ushbu davlatning har tomonlama yuksalishi, turmush tarzining yaxshilanishi, iqtisodiy farovonlik darajasining o'sishi, xalqaro munosabatlarda mavqeyining yuksalishiga xizmat qiladi. Zero, inson huquqlari kishilik jamiyatining barcha jabhalarini qamrab olib, ularni ta'minlagan davlat ijtimoiy inqiroz bilan bog'liq bo'lgan turli nomuvofiqliklardan xoli bo'lib, chinakam demokratik huquqiy davlat sifatida shakllanishi mumkin.

Inson huquqlariga asoslangan demokratik jamiyatining xalqaro miqyosda e'tirof etilgan tamoyillari bor. Tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do'stlik, insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysinishi, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, davlatning asosiy idoralari saylanishi, ularning saylovchilar oldida hisobot berishi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi, tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat idoralarning saylovchi tashkilotlar oldida javobgarligi va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Ma'lumki, inson huquqlari haqidagi g'oyalar kishilik jamiyatida davlat, davlatchilik, huquq kabi kategoriyalar insoniyat paydo bo'lishidan mavjud bo'lib, ularning insonlar turmush tarziga keng kirib borishi ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Mazkur institut XX asrning ikkinchi yarmida ikkinchi yarmidan so'ng umume'tirof etilgan qadriyat sifatida xalqaro huquqiy hujjatlar asosida mustahkamlanib, amaliyotga singdirila boshlandi.

Hozirda zikr etilgan hujjatlarning o'ziga xos huquqiy poydevori-Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi 90dan ortiq davlatlarning Konstitutsiyasida o'z ifodasini topdi, 180dan ortiq mamlakatlar tomonidan "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi Pakt ratifikatsiya qilindi. Bugungi kunda BMT tomonidan 70 ga yaqin, Yevropa Kengashi tomonidan 160 tadan ziyod, YUNESKOda 70 dan ortiq, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti tomonidan 30 dan ortiq, turli mintaqaviy tashkilotlar tomonidan ham ko'plab inson huquqlariga oid xalqaro shatnomalar, konvensiyalar, paktlar qabul qilindi. Akademik A.X.Saidov e'tirof etishicha: "Inson huquqlari - bu

demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisidir. Inson huquqlari - har bir davlatning demokratik taraqqiyoti darajasini ko'rsatuvchi muhim mezondir. Shuning uchun ham, inson huquqlari xalqaro huquqda va milliy huquqiy tizimda muhim o'rin tutadi”²⁴.

Ijtimoiy ishning axloq kodeksi. Ijtimoiy ishchilarning axloq to'g'risidagi bilimlari kasbiy amaliyotining muhim qismi hisoblanadi. Ularning axloqiy xushmuomalalik bilan yo'l tutishga intilishlari va qobiliyatlari taqdim etilgan xizmatlar sifatining muhim jihati hisoblanadi. IIXF(Ijtimoiy ish xodimlari federatsiyasi) va IIMXA(Ijtimoiy ish mutaxassislari xalqaro assotsiatsiyasi)larning axloqqa qaratilgan maqsadlari bu ijtimoiy ish tashkilotlari, ijtimoiy ish maktablari va ijtimoiy ish sohasi bilan shug'ullanadigan talabalar tomonidan axloqiy muammolarning tahlili va muhokama jarayonlarini osonlashtirish, bajarilishiga yordam berish hisoblanadi. Ijtimoiy ish xodimlari duch keladigan axloqiy muammolarning ba'zilar o'zlari yashaydigan hududga xos bo'lishi, boshqalari esa barcha davlatlar uchun umumiy bo'lishi mumkin.

Umumiy tamoyillarga rioya qilgan holda, umumtasdiqlangan IIXF va IIMXA o'z oldilariga butun dunyo ijtimoiy ish xodimlarining o'zlari duch keladigan muammolar va dilemmalar orasida fikr yuritishi va mulohazalarni kuchaytirishi, rag'batlantirishi hamda ular tomonidan aniq qabul qilinadigan qarorlar, xulosalarni axloqiy muammolar majmuasining umumiy bilimlariga asoslanishini maqsad qilib qo'ydilar.

Ijtimoiy ish sohasi axloqiy tomonlarining muammoli jabhalari quyidagilar hisoblanadi:

- nizolarni barcha tomonlariga sodiq va xolis bo'lgan holda bartaraf qilish zarurligi;

- ijtimoiy ishchilar yordamchilar sifatida harakat qilishlari bilan bir vaqtning o'zida yordam ko'rsatilishi jarayonini nazorat qilishi zarurligi;

- ijtimoiy ishchilar o'zlari ish olib borayotgan mijozlarining talab-ehhtiyojlarini himoya qilish majburiyati va jamiyat talablari bilan o'z faoliyatlarini ko'rsatilgan xizmat ma'qulligi va samaradorligi asosida

²⁴ Инсон ҳуқуқлари. -Т.: Адолат, 1997. 6-бет.

muvofiqlashtirilishi muammosi uchrasa, ijtimoiy ish xodimi va mijoz o'rtasida nizoga yo'l qo'yimaslik zarurligi;

- jamiyat ixtiyorida bo'lgan resurslarning cheklanganligi.

Ijtimoiy ishning axloq kodeksida ijtimoiy xodimlar har bir odam va ijtimoiy guruh huquqlarini, uning mustaqilligi va sha'nini hurmat qilar ekan, "BMT ning inson huquqlari xartiyasi" va boshqa xalqaro hujjatlarga asoslanishadi, bu hujjarlar ijtimoiy ish mijozlarning daxlsizligini himoyalash tamoyiliga asoslanadi, bunga tanlov erkinligi va kasbiy sir, mijozning o'z huquqlari va shaxsiy hisob jildi mohiyatini tushuntirib berishga bo'lgan huquqi ham kiradi.

Ijtimoiy xodimlar kasbiy sir saqlaydilar, hatto u amaldagi qonunchilikka zid bo'lsa ham. Ijtimoiy ish mijozning ishtiroki va u bilan hamkorlikka asoslanadi. Ijtimoiy xizmatchilar o'zlari duch keladigan har qanday murakkab vazifani hal qilishda mijozlar bilan hamkorlik qilishlari lozim, bunda mijozning manfaatlarini eng yaxshi usulda himoya qilish uchun harakat qilish kerak. Ijtimoiy soha xodimlari xizmatlaridan foydalanayotgan shaxslar o'z muammolarini hal etishda juda faol ishtirok etishlari lozim. Mijozlar har doim ijtimoiy soha xodimi tomonidan ana shu birgalikdagi harakatlarning maqsadi va oqibatlari (xatar va foyda) haqida ma'lumot olishlari zarur. Demak, ijtimoiy ish mijozlarining ixtiyoriyligi tamoyiliga asoslanadi. U har qanday majburiylikni minimum darajaga tushirish uchun yo'naltirilgan bo'ladi.

Ishtirokchilardan bir guruhining muammolarini boshqa guruh muammolari hisobiga hal qilish zaruriyati tug'ilganda, har doim muqobil guruhning manfaatlarini batafsil ko'rib chiqish, har ikki guruhni to'la eshitib bo'lgandan keyingina, tamoyil tanlashga asoslanishi kerak. Ijtimoiy soha xodimlari muqobil guruhning har ikkisini ham malakali vakillar bilan ta'minlashlari zarur.

Ijtimoiy ishning axloq kodeksiga ko'ra, qaror qabul qilish jarayonida, ijtimoiy ish xodimi odob-axloqqa oid muammolar tahliliga quyidagicha yondashuvi kerak²⁵:

²⁵[Mattison M.](#) Ethical decision making the person in the process. [Soc. Work.](#) 2000 May;45(3):201-212.

1. Muammoni aniqlab, unga oid ma'lumotlarni to'plash. Ijtimoiy ish xodimi odob-axloqqa oid muammoni aniqlar ekan, ijtimoiy himoyaga oid ma'lumotlarni to'playdi va qaror qabul qilish uchun mijozning holatini tushunishga harakat qiladi.

2. Ijtimoiy ish xodimi o'z ish faoliyatiga aniqlik kiritadi: muammoli vaziyatni qanday hal qilishning amaliy harakatlarini qo'llash mumkin, uning odob-axloqqa oid bo'lgan jihatlarini yodda tutish.

3. Muammo yechimining qaltis jihatlarini bilish asnosida ijtimoiy ish qadriyatlarini saqlash.

4. Ijtimoiy ishchi kasbiy faoliyat axloqiy kodekslariga e'tibor qilib, muammoning yechimiga ta'sir ko'rsatayotgan omillarni aniqlashi mumkin.

5. Ijtimoiy ish xodimi o'z mehnat faoliyatining imkoniyatlari salmog'ini, zarurligini, ta'sir kuchini oldindan ko'ra bilishi.

6. Barcha ijtimoiy himoyalashning ko'rinishlarini bir-biri bilan taqqoslab ko'rib, eng samarali shaklini tanlab olishi.

7. Ijtimoiy ish xodimi muammoni to'liq hal etish bosqichiga yetib kelganda, o'z hatti-harakatining to'g'riligini asoslab olishi shart hisoblanadi.

Ijtimoiy ish o'z fuqarolarini kamsitadigan, terrorizm, qiynoqlar va shunga o'xshash shafqatsiz vositalardan foydalanadigan biror shaxs, guruh, siyosiy kuchlar yoki hokimiyat tuzilmalarini qo'llab-quvvatlashga mutlaqo zid va qarama-qarshidir.

Ijtimoiy ishning axloq kodeksi talablari asosiga binoan "Ijtimoiy ishning xalqaro axloqiy andozalari"da 5 guruh ko'rsatilgan bo'lib, bular:

- axloqiy xulq-atvor andozalari;
- mijozlar bilan o'zaro munosabatlar;
- agentliklar va tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlar;
- hamkasabalar bilan o'zaro munosabatlar;
- kasbga munosabatlar kabi.

Axloqiy xulq-atvor andozalari quyidagilardan iborat. Har bir inson betakror ekani, inson xulq-atvorini va unga ko'rsatiladigan yordam xarakterini belgilaydigan sharoitlar noyob ekanini tushunishga intiling.

Buning uchun kasbiy qadriyatlarni tatbiq qiling, bilim va ko'nikmalingizni takomillashtiring va hech qachon kasbingiz obro'sini tushiradigan xatti-harakatlarni sodir qilmang.

Shu bilan birga shaxsiy va kasbiy imkoniyatlaringizga ortiqcha baho bermang. Paydo bo'layotgan muammolarni hal qilishda bilimlaringiz, ko'nikmalingiz va ilmiy bilish metodlaridan foydalaning. Har doim jamiyat hayotining sifatini yaxshilashga xizmat qiladigan siyosatning asosiy yo'nalishlarini va ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqishda kasbiy tajribangizdan foydalaning. Albatta, ijtimoiy ehtiyojlar, shaxsiy, guruh va jamoa, milliy va xalqaro ijtimoiy muammolarning mohiyati va xarakterini aniqlang, ularni tushuntiring. O'zingizni huquqiy shaxs sifatida ham, kasbiy uyushma, agentlik yoki tashkilot vakili sifatida ham bajarayotgan harakatlaringizni tushunarli shaklda aniq va ravon izohlay olishni uddalang.

“Ijtimoiy ishning xalqaro axloqiy andozalari”ga binoan mijozlar bilan o'zaro munosabatlar quyidagilardan iborat:

1. Mijozlarga nisbatan majburiyatlaringizni birinchi o'ringa qo'ying, biroq boshqa odamlarning axloqiy jihatlarini ham hurmat qiling.

2. Mijozning o'zaro ishonch, sir va konfidensiallikka, axborotdan mas'uliyatli foydalanishga bo'lgan huquqlarini himoya qiling. Axborot to'plash va uni boshqa shaxslarga berish faqatgina mijozning manfaatlari yo'lida amalga oshiriladigan kasbiy faoliyat doirasida yuz berishi mumkin, bu harakatlarning zarurligi haqida mijoz oldindan xabardor qilinmay turib va uning roziligisiz boshqalarga berilmaydi. Bundan mijoz o'z xatti-harakatlari uchun mas'ul bo'la olmaydigan va bu harakatlar boshqa shaxslar uchun jiddiy xavf tug'diradigan holatlar mustasno. Mijoz o'zi haqidagi ijtimoiy xodimda mavjud bo'lgan har qanday axborot bilan tanishish huquqiga ega.

3. Mijozning shaxsiy intilishlari, tashabbuslari, xususiyatlarini qadrlang va hurmat qiling. Agentlik va ijtimoiy muhit doirasida ijtimoiy xodim mijozga o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatli bo'lishda ko'maklashadi. Biror sababga ko'ra mana shu darajada kasbiy yordam

ko'rsatilishini imkoni bo'lmasa, bu haqda mijozga xabar beriladi va u o'z bilganicha harakat qiladi.

4. Mijozga (alohida odamga, guruhga, jamoaga, jamiyatga) o'zini namoyon qilishi va shaxsiy salohiyatini maksimal rivojlantirishda yordam bering, shu bilan birga, boshqa odamlarning ham huquqlarini mazkur darajada saqlang. Mijozga xizmat ko'rsatish asosida uning mutaxassis bilan muloqotlarida o'zining qonuniy istaklari va foydasiga erishish uchun foydalanish zarurligini tushuntirish yotadi.

Xuddi shuningdek, "Ijtimoiy ishning xalqaro axloqiy andozalari"da belgilanganidek, agentliklar va tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlar quyidagilardan iborat:

1. Ijtimoiy siyosatlari, metodlari va amaliyoti mijozlarga sifatli yordam ko'rsatish va kasbiy ijtimoiy ishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan agentliklar va tashkilotlar bilan mustahkam hamkorlikda ishlash.

2. Agentlik yoki tashkilotning nizomdagi maqsadlari va vazifalariga to'la mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish; ijtimoiy ishning eng yuksak andozalariga erishish maqsadida amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatni, uning uslubiyati va amaliyotini ishlab-chiqishga o'z hissasini qo'shish.

3. Mijoz taqdiriga to'la mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish; Ijtimoiy siyosatga, uning uslubiyati va amaliyotiga zarur o'zgarishlarni tegishli agentliklar va tashkilotlar orqali kiritish; barcha imkoniyatlardan foydalansangiz-u, biroq o'zgartirishlarni kiritishning imkoni bo'lmasa, unda yuqori tashkilotlarga yoki manfaatdor keng jamoatchilikka murojaat qilish.

4. Mijozga yoki jamoaga ijtimoiy ish samaradorligi to'g'risidagi hisobotni mijozlarga, agentlik va tashkilotlar oldida vujudga keladigan muammolarni davriy tahlil qilish, shuningdek, shaxsiy faoliyatingizni tahlil qilish shaklidagi kasbiy hisobot sifatida taqdim qilish.

5. Ijtimoiy ish axloqiy tamoyillari harakati, qo'llanilishi va amaliyotiga zid bo'lgan harakatlarni qilmaslik.

“Ijtimoiy ishning xalqaro axloqiy andozalari”da ko‘rsatib o‘tilganidek, hamkasabalar bilan o‘zaro munosabatlar quyidagilardan iborat:

1. Hamkasblaringiz va boshqa mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi va amaliy faoliyatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, ularga ijtimoiy ish samaradorligiga erishishlarida qo‘ldan kelgan yordamni berish.

2. Hamkasblar va boshqa mutaxassislarning turlicha fikrlari va amaliy yondashuvlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, tegishli instansiyalar(tashkilot, firma, korxonalar, mahalla, va h.k.)da tanqidiy mulohazalarni to‘la mas’uliyat bilan bayon qilish.

3. Hamkasblar, boshqa mutaxassislar va ko‘ngillilar orasida bir-birlarini o‘zaro mukammallashtirish va o‘zlarini namoyon qilish maqsadida bajarilayotgan bilimlar, ko‘nikmalar, g‘oyalar olishga va tarqatishga bo‘lgan harakatlarga ko‘maklashish.

4. Mijozlar manfaatlarini yoki axloq normalari buzilishi to‘g‘risidagi har qanday ma’lumotlarni tegishli idoralarga yetkazish.

5. Hamkasblarni adolatsiz xurujlardan himoya qilish.

Ijtimoiy ish xodimining kasbiga munosabati quyidagilardan iborat:

1. Kasbning qadrini, bilimlar va metodologiyasini himoya qilish, ularni ommalashtirish va takomillashtirishga o‘z hissasini qo‘shish.

2. Ijtimoiy ishdagi professionalizm(kasbga layoqatlilik)ni ko‘tarish, uni har tomonlama takomillashtirishga harakat qilish.

3. Kasbini o‘rinsiz tanqiddan himoya qilish, kasbining zarur ekani to‘g‘risidagi ishonchni mustahkamlash uchun imkoni bor ishlarning barchasini qilish.

4. Kasbini uning nazariyalari, usullari va amaliyotini konstruktiv (asosli amaliy tajriba) tanqid qilish.

5. Yangi va mavjud bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy ishning yangicha yondashuvlari va usullarini ishlab chiqishni har tomonlama rag‘batlantirish.

Va nihoyat, ijtimoiy ish xodimining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Mijoz shaxsining sha'ni va noyobligini hurmat qilib, uni harakatga, ijodga undash.

2. Mijozga quloq tuta bilish, sabr-toqat ko'rsatish, muammo va vaziyatni tushunish, uning o'rniga o'zini qo'ya bilish, nazokat va odob ko'rsata bilish.

3. Muloqotli bo'lish, ochiq bo'lish, mijozni gapirtira bilish, birgalikda muammolarning yechimini aniqlash, atrofdegilar uchun kerakli va qiziqarli bo'lish.

4. Mijoz va uning atrofdegilar o'rtasida vosita, bog'lovchi (mustahkam halqa, dillarni bog'lovchi zanjir) bo'lish, mijozga ko'rsatilayotgan xayriya yordami orqali uning sha'ni pastga urilishiga yo'l qo'ymaslik.

5. Mijoz bilan ishlashda norasmiy bo'la bilish, mijozning o'z muammolarini hal qilishida maslahatchi, ko'makchi vazifasini bajarish, o'zaro munosabatlarni tenglik asosida qurish.

6. Doimo insonparvarlik va mehribonlik nuqtayi nazaridan yondashish. Mijozni muhokama qilmaslik va unga tanbeh bermaslik; shaxs yoki odamlar guruhiga g'ayriinsoniy va diskriminatsion yondashuvlarning oldini olish; mijozni jismoniy yoki ruhiy o'ng'aysizlikdan, asabiylashishdan, xavfdan va xatarlardan himoya qilish.

7. O'z xulq-atvorining yuksak axloqiy andozalarga mosligini saqlash, har qanday makrlar, birovlarni aldash, nopok xatti-harakatlarni istisno qilish. Doimo, faqatgina mijoz manfaatlari yo'lida harakat qilish.

8. O'ziga ko'makchilarni topa bilish, ijtimoiy ishni rivojlantirishda jamoatchilik ko'magini ta'minlash.

9. Faqatgina o'zi vakolatli bo'lgan doirada ish yuritish, o'z ishining sifati uchun shaxsan mas'ul bo'lish; tashqi ta'sir va bosimlarga berilmasdan, mijozni qo'llanilayotgan tadbirlar, unga ko'rsatilayotgan yordam xarakteri, yozuvlar, to'planayotgan ma'lumotlar haqida xabardor qilish.

10. O'zining kasbiy munosabatlaridan shaxsiy maqsadlar yo'lida foydalanmaslik, vaziyatlarni muhokama qilish va baholashda faqat kasbiy maqsadlar bilan ishtirok etish, mijoz ishonib bildirgan sirni

hurmat qilish va uni fosh etmaslik. Ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haqni faqat qonuniy asoslarda olish. Bajarilgan ish uchun qimmatbaho sovg‘alar olmaslik.

11. Kasbiy bilimlari, mahorati, malakasini uzluksiz oshirib borishga intilish. O‘z amaliy faoliyatini kasbiy bilimlar asosida tashkil etish.

12. Kasbning obro‘si, pokligini himoya qilish va orttirishga intilish. Kasbiy o‘zaro munosabatlar va o‘zaro ta’sir jarayonida hamkasblar ishonchiga hurmat bilan qarash, nazokat va adolatni saqlash. Kim bo‘lishidan qat’iy nazar, hamkasbi axloqqa zid harakat qilsa, unga qarshi choralar ko‘rish.

Ijtimoiy ishning axloq kodeksiga ko‘ra odatda, sovuqqonlik deb baholanadigan kasbiy me‘yorlarni buzish yoki xatolar “beg‘amlilik, malakasizlik yoki oldindan o‘ylangan niyat tufayli kasbiy me‘yorlarni buzish” sifatida baholanadi. Ijtimoiy soha xodimlari maxfiylikni buzganliklari, bolalar bilan yomon munosabatda bo‘linayotgani haqidagi shubha to‘g‘risida xabar bermaganlari, suiste‘molliklar, so‘z bilan haqoratlar yoki jismoniy zo‘ravonlik, tahdid singari holatlarga befarqlik, xatti-harakatlar yordamida haqoratlash, davolash yoki axloq tuzatish muassasasiga xatar natijasida yotqizish tufayli erkinlikning cheklagani uchun sud tomonidan ta’qib qilinishi mumkin.

O‘zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Glossariy
Nazariya	Теория	Theory	bu aniq va mantiqiy ketma-ketlikda g‘oyalarni va faktlarni tashkil etishdir.
Stereotiplar	Стереотипы	Stereotypes	muayyan guruh a’zolarining o‘zlarini tutishida o‘ziga xos xarakterga ega ekanligini anglatadi.

Kamsitish	Дискриминация	Discrimination	bu ziyon yetkazishga undovchi va ziyon yetkazishni qo'llab-quvvatlaydigan harakat hisoblanadi. Kamsitish o'z e'tiqodidan kelib chiqib tanlangan shaxslar yoki guruhlariga zarar yetkazadigan harakatlarni o'z ichiga oladi. Eng kuchli guruh a'zolarga zarar yetkazmagan shaxslar bo'lsa ham, kamsitish ta'siridan aziyat chekishi ehtimoli bo'ladi.
Ijtimoiy davlat	Социальное государство	The welfare state	davlatning Konstitutsiyaviy – huquqiy maqomi. Unga ko'ra, ijtimoiy davlat inson va fuqaroning iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklari hamda davlatning tegishli majburiyatlari Konstitutsiyaviy huquq yo'li bilan kafolatlaydi.

Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy ishning asosiy qadriyatlarini nima?
2. Ijtimoiy ishning asosiy prinsiplarini bilasizmi?
3. Ijtimoiy ishda ijtimoiy ish etikasi deganda nimani tushunasiz?
4. Ijtimoiy ishning axloq kodeksini qanday tushunasiz?
5. “Ijtimoiy ish etikasi: tamoyillar va andozalar” hujjati qachon qabul qilingan?
6. Ijtimoiy ish axloqiy tamoyillarining xalqaro deklaratsiyasida qanday vazifalar aks ettirilgan?
7. Mijozlar bilan o'zaro munosabatlarda nimalarga amal qilinadi?
8. Agentliklar va tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlar qanday yo'lga qo'yiladi?
9. Hamkasblarga va o'z kasbiga munosabat deganda nimani tushunasiz?

5-MAVZU: IJTIMOIIY ISH KASBINING YO‘NALISHLARI. IJTIMOIIY ISHCHINING FUNKSIYALARI VA ROLLARI

Reja:

5.1. Ijtimoiy ish kasbining yo‘nalishlari va mijozlari.

5.2. Ijtimoiy ishchining funksiyalari va rollari.

5.3. Ijtimoiy ishchining professional majburiyatlari.

Ijtimoiy ish kasbining yo‘nalishlari va mijozlari. Ijtimoiy ish xodimining faoliyatida, ular kasbiy mehnat yo‘nalishlarining asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

-shaxslar, oilalar, guruhlar va hamjamiyatlarga yordam berish (ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy rehabilitatsiya, ijtimoiy profilaktika);

-zarur ijtimoiy muhofaza va aholini himoya qilish bo‘yicha turli davlat va jamoatchilik tashkilotlari hamda muassasalari faoliyatining integratsiyasiga ko‘maklashish;

-ijtimoiy va psixosijtimoiy muammolarni o‘rganish;

-aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlari muammolarini hal qilish bo‘yicha ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, bu dasturlarning samaradorligini baholash.

Ijtimoiy ish qo‘llab-quvvatlash, himoya qilish, tuzatish va rehabilitatsiya qilish vositasida qiyinchiliklarni yengib o‘tishda ularga yordam beradi. Bu tashxis qo‘yish uchun yuborilgan huquqbuzarliklarni tuzatish va nazorat qilish bilan bog‘liq patronaj, ijtimoiy yordam, ijtimoiy ta‘minot, ijtimoiy ta‘lim faoliyatidir.

Kasbiy faoliyat sifatida ijtimoiy ish uch soha yo‘nalishini o‘z ichiga qamrab oladi. Birinchidan, bu shaxsiy va oilaviy darajalardagi ijtimoiy terapiyadir. Ikkinchidan, bu turli tasnifdagi guruh bilan olib boriladigan ijtimoiy faoliyatdir. Va, uchinchidan, bu jamoada, yashash joyida olib boriladigan ijtimoiy faoliyatdir.

Ijtimoiy ishning yo‘nalishlari haqida fikr yuritar ekanmiz, ta‘kidlash joizki, ijtimoiy yordam va ko‘mak zarur bo‘lgan guruhlar yoshiga qarab bolalar, yoshlar, keksa fuqarolarga tasniflanishi mumkin. Yana bir yo‘nalish, gender, madaniy yoki o‘xshash ijtimoiy muammolar

bo'yicha amalga oshiriladi. Jamiyatdagi diniy guruhlar, yolg'iz otalar, yakka onalar, otalar, sobiq alkogoliklar yoki giyohvandlar guruhlari. Ko'p hollarda ijtimoiy ish xodimlari ijtimoiy illatga aylangan yoki jinoiy xususiyatga ega bo'lgan guruhlardagilar-balog'atga yetmasdan jinoyatchilik yo'lga tortilgan, darbadarlik(sayoqlik), odam savdosi-fohishabozlik, jamiyatga qarshi yo'nalishdagi guruhlar bilan ishlashlariga to'g'ri keladi.

Zamonaviy ijtimoiy ish turli-tuman ko'rinishlarga ega bo'lib bormoqda. Bular orasida ko'p sonli bo'lgan kasbiy guruhlarni, boshqaruv sohasidagi ijtimoiy soha xodimlarini, oila, bola tarbiyasi bilan shug'ullanadigan mutaxassislarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ijtimoiy ishning zamonaviy yo'nalishlaridan, bu-shaxs va guruhlar bilan psixoterapivtik va ruhshunoslik usullarida ishlashga ixtisoslashgan ijtimoiy xodimlar: ijtimoiy xizmat agentliklari(masalan,xorijga ishga joylashtirish), go'daklar uylari, internat yoki tibbiy muassasalar tizimidagi ijtimoiy ish xodimlari, shuningdek, nogironlar bilan ishlaydigan mutaxassislar va bu hali ijtimoiy xodimlar kasbiy yo'nalishlarining to'liq ro'yxati emas, uni yana to'ldirish ham mumkin. Bugungi kunda faqat O'zbekiston misolida aholini kabag'allikdan olib chiqishda qancha ijtimoiy ishchilarning vazifalari o'z yechimini kutmoqda. Xuddi shuningdek, ijimoiy qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshirishga to'sqinlik qiluvchi muammolardan biri bu ushbu sohani respublikamizda davlat tomonidan tartibga soluvchi va bu borada tegishli muvofiqlashtirish vakolatlariga ega bo'lgan yagona organning mavjud emasligidir²⁶.

Ijtimoiy ish kasbiining mijozlari deganda, bu aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami, ko'mak, yordam, xizmat ko'rsatish va muhofazaga ehtiyojmand bo'lgan odamlarga munosabat qilish zarurligi tushuniladi:

- bolalar va yoshlar: ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar, alohida ehtiyojli bolalar, OIT(ortirilgan immunitet tanqisligi) bilan azoblanayotgan bolalar, huquqiy xatar guruhidagi yoki qonun bilan

²⁶ Вафоев У. Ижтимоий ҳимоя йўналишидаги бошқарувни такомиллаштириш қанчалик муҳим? // Ҳалқ сўзи, 2020 йил 26 май, №110 (7612).

nizoga kirgan bolalar, institutsional muassasalarining tarbiyalanuvchilari va bitiruvchilari, ixtisoslashtirilgan o'quv va o'quv-tarbiyaviy muassasalarning o'quvchilari va bitiruvchilari, nazoratsiz qolgan bolalar, shafqatsiz yoki sovuqqon munosabatni boshidan kechirgan, zo'ravonlikning guvohi bo'lgan bolalar, trafik(odam savdosi, qullik), mehnatning eng yomon shakllari va barcha turdagi ekspluatatsiyaga tortilgan bolalar, tabiiy ofatlar, qurolli nizolardan azoblangan bolalar va boshqalar;

- oilalar va ayollar – kam ta'minlangan oilalar, ko'p bolali oilalar, ota-onasidan biri yo'q, to'liq bo'lmagan oilalar, a'zolarining birida OIT bo'lgan oilalar, alohida ehtiyojli a'zosi bo'lgan oilalar, krizis vaziyatidagi (oila a'zolaridan birining o'limini, ajrashish, nizolar, uydagi zo'ravonlik, ko'chib o'tishni boshidan kechirgan va h.k.) oilalar, tabiiy ofatlar, qurolli nizolar, texnogen o'zgarishlar tufayli jabr tortgan oilalar, tutingan oilalar va oilaga bolalikka olinganlar;

- nogironligi bo'lgan odamlar va ularning oilalari;

- ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj keksa va yoshi ulug' odamlar;

- murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan odamlar;

- ish, turar-joyini yo'qotgan, yaqin insonining o'limi yoki og'ir kasalligini boshidan kechirgan, surunkali kasalliklari bo'lgan odamlar va ehtiyojmand ijtimoiy himoyaga zarur bo'lganlar;

- OIT bilan yashayotgan odamlar;

- spirtli ichimlik yoki giyohvand moddalarga tobelligi bo'lgan odamlar;

- penitensionar muassasalardan chiqqan va jazoni o'tash muassasalaridan ozod qilingan, yopiq muassasalardan jazoni ijro etib qaytgan odamlar va hakazolar.

Ijtimoiy ishchining vazifalari va rollari. Ijtimoiy ish xodimi o'z faoliyatida odamlar bilan bevosita muloqotda bo'lib, mijozlarga ijtimoiy yordam beradi. Muloqotda ijtimoiy ishchining tashkiliy-boshqaruv layoqati va ma'muriy faoliyat ko'rsata olish qobiliyati namoyon bo'ladi. Bu esa ijtimoiy ishchining qanday vazifalarni amalda bajarayotganini ko'rsatadi:

-aholini ijtimoiy himoyalash tizimi tashkilot va muassasalari (Muruvvat, Saxovat uylari, ijtimoiy ta'minot muassasalari va boshqalar)da, xalq ta'limi (Mehribonlik uylari, vasiylik va homiylik organlari, umumta'lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan maktabgacha va maktab muassasalari, yordamchi ta'lim muassasalari va boshqalar)da, sog'liqni saqlash (oilaviy poliklinikalar, maxsus tibbiyot muassasalari, rehabilitatsiya markazlari)da ijtimoiy himoyalash funksiyalarini bajarishi;

-tibbiy, pedagogik-psixologik komissiyalar va h.k., hokimiyatlar huzuridagi voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar, ixtisoslashtirilgan kasbiy-texnik kollejlari va litseylar va boshqalarda ishlashi;

-xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, aholi bandligi va mehnat munosabatlari bo'yicha boshqarmaning viloyat, shahar va tuman organlari, ichki ishlar organlarida ijtimoiy himoyalash bilan bog'liq vazifalarni bajarishi;

-tuman, shahar va viloyat hokimiyatlari qoshidagi yagona darcha va xalq qabulxonalarida. "Yuksalish harakati"da faoliyat olib borishi;

-mahalla, mahalla va oila bilan ishlashning joylardagi organlarida xizmat filiali;

-NNT(nodavlat notijorat tashkilot)larda, jamoatchilik tashkilotlari va uyushmalarda faoliyat ko'rsatishlari mumkin.

Ijtimoiy ishchilar amaliyot bilan shug'ullanganlarida biror narsaga muhtojlik sezgan odamlar uchun keng doiradagi xizmatlarni taqdim etadilar. Boshqa faoliyat sohaslarining vakillari, shu jumladan, volontyorlar mijozlar guruhiga ijtimoiy xizmatlarni taqdim etishda qatnashgan taqdirda, mazkur kasb-kor bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos amaliy rollarni bajarish uchun ijtimoiy ishchi maxsus tayyorganlik ko'rgan bo'lishi lozim.

Ijtimoiy ishchi xodimlar ijtimoiy ish lug'ati(Ijtimoiy ish lug'ati, Barker, 1987)ga binoan, rol degan tushuncha izohida ko'rsatiladiki, bu "muayyan mavqega ega bo'lgan kishiga tayin etilgan madaniy sharoitlarga bog'liq xulq-atvor turidir". Bu tushunchaga amal qilib, rolli xulq-atvor ko'proq inson egallagan mavqega va o'zi ishlab turgan faoliyat sohasiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ijtimoiy ishchining

xulq-atvori va roli alohida olingan bir ishchi bilan emas, balki ijtimoiy ishning o'zi bilan qiyoslanadi. Rolning qanday bajarilishi esa juda individual jarayon bo'lib, ijtimoiy ishchining yordam ko'rsatish vaziyatida qo'llaydigan bilim va malakalarining betakror yig'indisiga bog'liq bo'ladi.

Ijtimoiy ishda har xil rollarni bajarish uchun ko'plab vazifalarni amalga oshirish zarur. Ijtimoiy ishda ko'plab vazifalarni eng maqbul tarzda amalga oshirish, o'ziga xos kasbiy rol bilan bog'liq bo'lgan faoliyat yoki belgilangan majburiyat, vazifa sifatida ta'riflanishi mumkin. Shunday qilib, ijtimoiy ishchining samarali ish olib borishi uchun ijtimoiy ishchilar tomonidan bajariladigan rollarni tushunish va ulardan kutiladigan faoliyat turlari va ijtimoiy himoyada amalga oshirish vazifalarini egallash muhim ahamiyatga egadir. U yoki bu rol hamda bu rolga xos bo'lgan ijtimoiy himoyada amalga oshirish vazifalari ijtimoiy ishchiga uning agentligi (xizmat ko'rsatadigan firma, NNT) doirasida belgilab qo'yilgan amaliy faoliyat sohasiga, metodologik yo'nalganligi va majburiyatlariga bog'liq bo'ladi.

Kasbiy rollarni belgilash odamlarga yordam berishga qaratilgan jismoniy terapiya, tibbiy parvarishlash, maslahat berish kabi ko'pgina kasblarning rollari ijtimoiy me'yorlar, xizmat turlari, shuningdek, shu toifadagi faoliyat uchun ruxsat beradigan ma'muriy qoidalar va qonunlar tomonidan belgilangandir. Ijtimoiy ish sohasi ijtimoiy ishchi tomonidan bajarilishi kutiladigan rollarini shakllantiradi. Odamlar odatda o'z kasbiy rollari doirasidan tashqariga chiquvchi imkoniyatlar va qobiliyatlarga ega bo'lsalarda, bu kasb sohasining har bir vakili hech bo'lmaganda ijtimoiy ishda belgilangan rollarni bajarishga tayyor bo'lmog'i kerak.

Ijtimoiy ish kasbida ishchilarning quyidagi kasbiy rollarini alohida ajratib ko'rsatish qabul qilingan:

- ijtimoiy ish xizmati brokeri;
- ijtimoiy ish va moslashtirish tashkilotlarining tajribalari o'qituvchisi;
- ijtimoiy ishda maslahatchi;
- Keys menedjer;
- ijtimoiy o'zgarishlar agenti;

– o‘z kasbining ustasi.

Ijtimoiy ish xodimi mijozlar bilan olib boriladigan ijtimoiy ish amaliyotida bir qator majburiyatlarga amal qilishi lozim. Hozirgi vaqtda dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida ijtimoiy ishchilar quyidagi kasbiy rollari bilan farqlanadi:

-mijozni aniqlovchi (Outreach Worker): qiyinchilikni boshidan kechirayotgan yoki tavakkalchilik holatida bo‘lgan odamlarni yoki odamlar guruhini aniqlaydi. Maqsad: muammolarni yaratuvchi atrof-muhit sharoitlarini aniqlash, payqash hamda sezish;

-baholovchi(Evaluator): axborotni yig‘adi, odamlarni, jamoaning muammolarini baholaydi. Maqsad: axborotlarni yig‘ish va qayta ishlash;

-axborot menejeri(Data Manager): mijoz to‘g‘risida olingan ma‘lumotlarni tahlil va tasnif qiladi. Maqsad: harakat uchun qaror qabul qilishga ko‘maklashish;

-broker(Broker): odamlarni mijoz muammolarini hal qiladigan xizmatlarga yo‘naltiradi. Maqsad: ijtimoiy xizmatlarning ishini muvofiqlashtirish, odamlarga o‘zlarining salohiyatidan foydalanish imkonini berish;

-vositachi, bufer(Mediation): nizoga kirishgan tomonlar - ikki odam, odam va guruh yoki ikki guruh o‘rtasida turadi. Maqsad: kelishmovchiliklarni yo‘qotish va odamlarni birgalikda samarali ishlashga o‘rgatish;

-sagarbar etuvchi(Mobilizer): odamlar guruhi harakatini muammoni hal qilish maqsadida ishni tashkil etadi. Maqsad: muammolarni hal etish uchun mijozlarning kuchlarini birlashtirish;

-advokat, himoyachi(Advocate): yordamga muhtoj odamlarning huquqlari uchun kurashadi. Maqsad: xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, mijozlarga yordam berish, qonunlarga va ijtimoiy ishning mavjud bo‘lgan amaliyotiga o‘zgartirishlar kiritish;

-o‘qituvchi(Teacher): insonlarga axborot va bilimlar beradi. Maqsad: insonlarga o‘zlarining muammolarini mustaqil yechishlarida, bilimlarini rivojlantirishda yordam berish;

-axloq-odobni tuzatuvchi(Behaviour Change): odamlar yoki guruhlar axloq-odob stereotiplariga, ko‘nikmalariga va idrok etishlariga

o'zgartirishlar kiritadi. Maqsad: mijozni psixologik-pedagogik tomondan qo'llab-quvvatlash;

-hamjamiyatni loyihalovchi (Community Planner): guruhlarini, agentliklarini, xizmatlarini, hukumatlarini rejalashtirishda, ularning faoliyat dasturlarini ishlab chiqishda va amalga oshirishda yordam beradi. Maqsad: ijtimoiy ishni dasturlash;

- maslahatchi (Counselor): boshqa ijtimoiy xizmatchilarga yoki xizmatlarga yordam ko'rsatadi. Maqsad: ijtimoiy ishning mutaxassislariga mijozlarning muammolarini hal qilishdagi bilimlarini oshirishda yordam berish;

-ma'mur (Administrator): muassasaga yoki hamjamiyatga tashkiliy va moliyaviy yordamni tashkil etadi. Maqsad: boshqaruv qarorlari qabul qilish.

Muhimi, ijtimoiy ishchi u yoki bu lavozimga xos bo'lgan majburiyatlarni bajarar ekan, bitta yoki ko'pincha bir nechta rolni bajarishi mumkinligini tushunish lozim. Har qanday amaliy rolni bajarishda bir qancha farqli ijtimoiy himoyada amalga oshirish vazifalardan foydalanishga zarurat tug'ilishi mumkin. Shuningdek, har xil rollarni bajarishda ham bitta o'ziga xos ijtimoiy himoyada amalga oshirish vazifalari yoki faoliyatdan foydalanish mumkin. Masalan, odam ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha brokerlik rolida ham, maslahatchi yoki mijozga xizmat ko'rsatuvchi tibbiyot xodimi rolini bajargan taqdirda ham bitta ijtimoiy himoyada amalga oshirish vazifalarini - mijozning vaziyatini baholashini bajarishi mumkin. Biroq bundan keyingi sahifalarda har bir ijtimoiy himoyada amalga oshirish vazifalari faqat bir martadan ta'riflanadi.

1. Xizmat sohasi brokeri.

Maqsadi. Mijozlarni tegishli ijtimoiy xizmat va boshqa resurslar bilan bog'lash.

Ta'rifi. Boshqa "yordam beruvchi" kasblar orasida ijtimoiy ish ko'proq odamlarga o'zlarining ijtimoiy muhitlari bilan ta'sirchan o'zaro munosabatlar o'rnatishlariga yordam berishga qaratilgan. Bu esa ijtimoiy ishchini shunday holatga qo'yadiki, u mijozning ehtiyojlari va jamiyat resurslari o'rtasidagi aloqani ta'minlab beruvchi birinchi

professional xodim bo'lib qoladi. Xuddi ko'chmas mulk agenti yoki sug'urta agenti kabi ijtimoiy ishchi mijozning ehtiyojlarini aniqlab, unga tegishli resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishiga yordam beradi. Ba'zan ishchining o'zi bunday resurs yoki xizmatlarni taqdim etsa, ba'zan mijozni agentlikdagi boshqa xodim bilan bog'lab qo'yadi, gohida esa mijozning ehtiyojlarini qondirishi mumkin bo'lgan boshqa agentlikni topib beradi.

Ijtimoiy xizmatlar sohasi brokeri sifatida ijtimoiy ishchi turli mavjud resurslarni yaxshi bilishi va bunday resurslardan foydalanish shart-sharoitlari, yutuqli jihatlari va chegaralanishlari doimiy ravishda baholanib borishi lozim. Resurslar ijtimoiy ta'minotni (masalan, pul, oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy) yoki ijtimoiy xizmatlarni (masalan, maslahat berish, guruhiiy mashg'ulotlar, ijtimoiy rehabilitatsiyani) o'z ichiga olishi mumkin.

Funksiyalari - ijtimoiy himoyada amalga oshirish vazifalari.

Mijozning vaziyatini baholash. Brokerlik rolini bajarishdagi dastlabki qadam mijoz yoki mijozlarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini aniq va teran anglashdan iboratdir. Ijtimoiy ishchi mijozning himoyalanganligi, madaniyati, tashqi ko'rinishi, barqarorligi, o'z-o'zini hurmat qilishi, aqliy saviyasi va o'zgarishlarga tayyorligi kabi omillarni baholay olishi lozim.

Resurslarni baholash. Ijtimoiy ishchi mijozlarning talablariga javob berishi mumkin bo'lgan mavjud resurslarni yetarlicha aniq baholashi kerak. U taklif etilayotgan dasturlar, o'z agentligidagi xodimlarning imkoniyatlari, u yoki bu mijozga ko'rsatiladigan xizmatlarning imkoniyatlarini belgilaydigan ko'rsatkichlar bilan yaxshi tanish bo'lmog'i kerak. Ijtimoiy ishchi mijozga resurslardan foydalanish imkoniga ega bo'lishiga yordam berish yo'lini bilishi zarur.

Ma'lumot berish. Ba'zan brokerlik roli ijtimoiy ishchidan mijozga yoki mijoz guruhlariga ma'lumot berishni talab qiladi. Ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish bo'yicha o'ziga xos ma'lumotlar zaxirasi sifatida namoyon bo'lgan ishchi, mavjud resurslar haqidagi bilimlarini o'rtoqlashgan holda odamlarga yordam beradi. Ayrim holatlarda, ijtimoiy ishchi nafaqat o'z mijozlariga, balki jamoatchilikka taqdim

etilayotgan xizmatlar to'g'risida hamda mavjud ehtiyojlar va taqdim etilayotgan xizmatlar o'rtasidagi tafovutlar haqida ma'lumot beradi.

Mijozni yo'naltirish. Ijtimoiy ishchi qaysi resurslar mijozning talablarini qondirishga qodir ekanligini aniqlashi mumkin. Bu esa mijozni bir qancha resurs manbalariga yo'naltirishni taqozo etishi mumkin. Ta'sirchan yo'naltirish ijtimoiy ishchidan mijozning unga berilgan ko'rsatmalarga amal qilish motivatsiyasi va qobiliyatini, shuningdek, resurs egalarining mijoz talablariga javob berish qobiliyati va imkoniyatini aniq tushunish va baholashni talab qilishi mumkin. Mazkur ikki omilga bog'liq ravishda ishchi mijozlarni yo'naltirish, ijtimoiy himoyada amalga oshirish vazifalarini u yoki bu darajada faollik bilan bajarishi mumkin.

Mijozni himoya qilish. Resurslar mijozlarning talablariga yetarlicha javob bera olmagan holatlarda ijtimoiy ishchi o'z mijozlarining himoyachisi yoki advokati, ijtimoiy himoyada amalga oshirish vazifalarini bajarib, ular bilan birgalikda yoki ularning nomidan ish olib borishi mumkin. U mijozlarning ehtiyojlarini qondirishni ta'minlash uchun muzokaralardan, vositachilikdan yoki undan-da samarali usullardan foydalanishi mumkin.

Xizmat tizimlarini birlashtirish. Brokerlik rolini bajarish ishchining ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimidagi turli jabhalar o'rtasida doimiy o'zaro hamkorlikni ta'minlashi bilan ham bog'liqdir. Jabhalar orasidagi aloqani kuchaytirish uchun ijtimoiy ishchi qiziqishlar bo'yicha tizimli muloqot, turli agentliklar orasida muloqot kanallarini o'rnatish, resurslardan birgalikda foydalanish haqidagi masalalarni muhokama qilish, agentliklar o'rtasidagi axborot almashinuvida ishtirok etish hamda faoliyatni muvofiqlashtirish kabi faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkin.

2. Ijtimoiy va moslashuvchanlik ko'nikmalari o'qituvchisi.

Maqsadi. Mijozlarda murakkab hayotiy vaziyatlarni hal etishga yordam beradigan ko'nikmalarni rivojlantirish va mijozlarning ijtimoiy hayotida ushbu ko'nikmalardan foydalanishlarini kengaytirish.

Ta'rifi. Ijtimoiy ishning kattagina qismi mijozlarga qanday qilib hayotdagi muammoli vaziyatlarni hal etish va inqirozlarning vujudga

kelishiga to'sqinlik qilishni o'rgatishni o'z ichiga oladi. Bunda mijoz bilan ishlash jarayonida ishchi o'z kasbiy ta'limini olish paytida olgan bilimlarining bir qismini unga yetkazadi. Barker(Ijtimoiy ish lug'ati,1987)ning ijtimoiy ish lug'atida ta'riflanganidek, o'qituvchilik roli "mijoz yoki mijoz guruhlariga zaruriy moslashuvchanlik ko'nikmalarini o'rgatish majburiyatidir. Bunga tegishli axborotni mijoz uchun tushunarli bir ko'rinishda taqdim etish orqali maslahat berish va turli muqobil variantlarni taklif etib, ularning oqibatlarini tushuntirish orqali, xulq-atvorini modellashtirish va muammoli vaziyatlarni hal etish texnikalarini o'rgatish orqali erishilishi mumkin".

Amaliy ijtimoiy ishning asosiy maqsadi mijozlarga samarasiz va natijasiz xulq-atvorlarni o'zgartirishlariga yordam berishdan iboratdir. Mijozlarga amal qilinishi lozim bo'lgan turli ijtimoiy qoidalar va me'yorlarni o'rgatish, ijtimoiy va kundalik turmush ko'nikmalarini o'qitish, rollarni bajarishning ta'sirchan usullarini ko'rsatish va ularda o'z xulq-atvorini tushunishni rivojlantirish-bunday maqsadga erishish usullaridan biridir. Ko'nikmalar va maxsus bilimlarni o'rgatish norasmiy shart-sharoitlarda mijoz bilan o'zaro hamkorlik paytida yoki, aksincha, oila byudjetini tashkil etish yoki ota-onalar uchun kurslar kabi qisqa ta'lim kurslarda amalga oshirilishi mumkin. Metodni tanlash ijtimoiy ishchidan mijozlarning o'zlari uchun yangi bilimlarni egallashga tayyorliklarini va ularning qobiliyatlarini baholashda yuksak kasbiy mahoratni talab etadi.

Funksiyalari - ijtimoiy ko'nikmalar va kundalik hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish. Ijtimoiy ishchilar mijozlarga o'z hayotlaridagi konkret vazifalarni samaraliroq bajarishga o'rganishlariga yordam berish zarur bo'lganda kerak bo'ladilar. Oila byudjetini tuzish va boshqarish, jamoat transportidan foydalanish, turar joy muammolarini hal etish, shaxsiy gigiena va o'z-o'zini parvarishlash, samarali muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, bularning hammasi ijtimoiy ishchilar o'qituvchilik faoliyatidan namunalardir.

Xulq-atvorni o'zgartirishga yordam berish. Ba'zan amaliy ijtimoiy ish mijozga yangi va maqbulroq xulq-atvor ko'rinishlarini hosil qilish zarurati bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy ishchi mijozga samaraliroq

shaxslararo xulq-atvorni o'rgatishda rollarni modellashtirish, qadriyatlarni aniqlashtirish yoki xulq-atvorni o'zgartirishning turli texnikalari kabi faoliyat turlaridan foydalanishi mumkin. Ijtimoiy ishchi kengroq doiradagi tuzilmalar bilan ish olib borib, masalan, ijtimoiy ish agentligi direktorlar kengashiga u yoki bu ijtimoiy muammoning mijozlarga ko'rsatgan ta'siri haqida ma'lum qilishi yoki mazkur agentlikdagi mijozlarni himoya qilish guruhi o'zining ish strategiyasini qayta ko'rib chiqib, avvalgi unchalik samarali bo'lmagan strategiyani o'zgartirishiga yordam berishi mumkin.

3. Maslahatchi. Tibbiyot xodimi.

Maqsadi. Mijozlarga o'zlarining ijtimoiy ko'nikmalar va kundalik hayotiy ko'nikmalarni o'rgatishlari va his-tuyg'ularini tushunishlari orqali, muammoli ijtimoiy vaziyatlarda o'z xulq-atvorlarini boshqarish yoki shaxs sifatida o'sish uchun o'zlari xohlagan faoliyat jihatlarini o'rganish orqali ularga o'z ijtimoiy faoliyatlarini o'zgartirishlariga yordam berish.

Ta'rifi. Ehtimol, ijtimoiy ishchining eng ko'zga tashlanadigan roli - bu maslahatchi yoki tibbiyot xodimi rolidir.

Ijtimoiy ishchi mijozga o'zaro hamkorlikka va turli ijtimoiy shart-sharoitlar natijasida vujudga keladigan stresslarga nisbatan munosabatlarini o'zgartiradigan xatti-harakatlarni amalga oshirishiga yordam beradi. Ushbu rolni bajarish uchun ijtimoiy ishchi inson xulq-atvori to'g'risidagi asosiy bilimlarga ega bo'lishi, atrof-muhitning insonlarga ko'rsatadigan ta'sirini tushunishi, mijozlarning ehtiyojlarini baholashga va muayyan stressli vaziyatlarda odamlarga yordam beradigan zaruriy chora-tadbirlarni tanlashga qodir bo'lishi, tegishli texnikalarni qo'llay olishi, mijozni butun o'zgarishlar jarayoni bo'ylab yo'naltira olishi lozim.

Funksiyalari-ijtimoiy ko'nikmalar va kundalik hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish. Psixosotsial baholash va aniqlash. Dastlabki baholash - bu har qanday chora-tadbir bilan bog'liq bo'lgan faoliyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Mijozning barcha vaziyatlari aniq tushunilgan bo'lishi, mijoz muayyan yordam ko'rsatish mezonlariga mos kelishi yoki kelmasligi aniqlangan bo'lishi kerak. Shuningdek,

mijozning o'zgarish qobiliyati aniqlangan bo'lishi lozim. Ijtimoiy ishchi mijozning verbal va noverbal xulq-atvorini diqqat bilan kuzatib, uning ijtimoiy faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy omillarni aniqlaydi. Vaziyatga baho bergach, ijtimoiy ishchi mijozni ham, uni o'rab turgan ijtimoiy muhitni ham tushunish uchun u yoki bu konseptual asosdan foydalangan holda xulosa chiqarib, "tashxis qo'yadi" va maqbul deb topilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqadi.

Uzoq vaqt davom etadigan barqarorlashtiruvchi g'amxo'rlik ko'rsatish. Maslahatchi tibbiyot xodimining roli hamda uning ijtimoiy vaziyatni o'zgartirish bo'yicha sa'y-harakatlari bilan chegaralanmaydi. Ba'zan tegishli xizmat nogironlar, yoshi qaytgan odamlar yoki tuzalmas kasalikka chalingan bemorlarga maslahat berishda uzoq vaqt davom etadigan qo'llab-quvvatlash va g'amxo'rlik ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy davolash. Ijtimoiy ishchilar mijozlarga "davolanishga yoki ayrim kasalliklar, mehnatga yaroqsizlik va muammolarni bartaraf etish"ga yordam berib, ular bilan ish olib boradilar (Ijtimoiy ish lug'ati, Barker, 1987). Ushbu funksiyani bajarish mijozga odamlar va guruhlar o'rtasidagi o'zaro hissiy munosabatlarini tushunishga yordam berish, mijozning o'zaro ijtimoiy munosabatlar o'rnatish bo'yicha sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash, mijozning o'z muammolarni hal qilishi va shaxs jihatdan kamol topishi bo'yicha sa'y-harakatlarini yo'naltirish, nizolarni hal etishda vositachilik qilishni o'z ichiga qamrab oladi. Muammolarni hal etish bilan aloqador bo'lgan terapiya va faoliyat turlari chora-tadbirlarning individual, guruhiy va oilaviy yondashuvlarini o'z ichiga olishi mumkin.

Tadqiqot ishlarini qo'llash. Tadqiqot ijtimoiy ishchi tomonidan bajariladigan har qanday amaliy rolning ajralmas qismini tashkil etsa-da, u maslahatchi tibbiyot xodimi rolini bajarishda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Bevosita xizmat ko'rsatishning mazkur darajasida tadqiqotning qo'llanilishi ikki xil shaklda bo'ladi. Birinchidan, ijtimoiy ishchi doimiy ravishda o'z ishini va qo'llayotgan chora-tadbirlarining ta'sirchanligini baholab borishi lozim. Ushbu ma'noda u mijozlar, o'z agentligi, jamoatchilik va bevosita kasb-kori oldida hisobot beradi. Ikkinchidan, ijtimoiy ishchi doimiy ravishda ma'lumot to'plashi

va ijtimoiy xizmatlarning yangidan barpo qilingan yoki zamonaviylashtirilgan turlaridan foydalangan holda hal etilishi mumkin bo'lgan yangi ijtimoiy muammolarning vujudga kelishini aniqlash uchun o'zining amaliy tajribasini baholab borishi zarur.

4. Keys menejer.

Maqsadi. Mijozlarni doimiy ravishda tegishli agentliklar va xizmatlar bilan bog'lash, shuningdek, xizmatlarni muvofiqlashtirish yo'li bilan sifatli xizmat ko'rsatishga erishish va uzluksizlikni ta'minlash.

Ta'rifi. Gumanitar xizmat ko'rsatish tizimi mijozlar uchun, ayniqsa, uzoq vaqt davomida ehtiyojlarini qondirish talab qilinadigan mijozlar uchun juda murakkab bo'lib, unga murojaat qilish va uning ishini tushunish qiyindir. Bu yerda ijtimoiy ishchining muhim roli mijoz uchun zarur bo'lgan xizmatlardan foydalanish imkoniyatini izlab topish va ta'minlashdan iborat bo'ladi. Zarur bo'lsa, ijtimoiy ishchi o'z mijozining huquqlarini himoya qiluvchi rolini bajaradi. Ko'p qirrali xizmat ko'rsatish zarurati paydo bo'lganda ijtimoiy ishchi keys menejer sifatida turli tashkilotlar va agentliklar bilan aloqalar o'rnatish grafigini tuzish va rejalashtirish yo'li bilan xizmatlarni muvofiqlashtiruvchi rolini bajaradi. Ijtimoiy ishchi bu ma'noda mijoz va ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar tarmog'i o'rtasida vositachi vazifasini bajaradi.

Keys menejerning roli shunday ta'riflanadi: Individual va guruh xizmat ko'rsatish bo'yicha rejani ishlab chiqish, bajarish va bajarilishini tekshirishga yo'naltirilgan faoliyat. Bu faoliyat o'z ichiga mijozni o'rab turgan ijtimoiy muhit tizimini konseptualashtirishni, shuningdek, xizmatlarni belgilash, taqdim etish hamda mijozni boshqa turdagi ijtimoiy xizmat manbalariga (yuridik, sog'liqni saqlash xizmatlari va h.) yo'naltirishni qamrab oladi. Shuningdek, u mijozni o'z muammolarini hal etish jarayoniga jalb qilish, taraqqiyotni muvofiqlashtirish va kuzatib borish, mijozning huquqlarini himoya qilish hamda xizmat provayderlari bilan muzokaralar olib borganda uning nomidan ish olib borishni o'z ichiga oladi.

Keys menejer rolini bajarayotganda ijtimoiy ishchi ham terapevtik, ham boshqaruv texnikalaridan foydalana olishi lozim. Bunday ish

mijozga ko'rsatiladigan xizmatlarning maqsadini shakllantirishiga, xizmatlardan foydalanish imkonini qo'lga kiritishiga yordam berishda hamda bunday xizmatlarning davomlilikini va tegishli darajadagi sifatini ta'minlashda shaxslararo muloqot ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Shu bilan bir paytda ijtimoiy ishchi, umuman, butun o'zaro hamkorlik jarayonini muvofiqlashtirib, menejer sifatida faoliyat yuritadi.

Funksiyalari - ijtimoiy ko'nikmalar va kundalik hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish. Keys menejerning besh tayanch funksiyasi mavjud. Konkret voqeani baholash. Ijtimoiy ishning boshqa rollaridagi kabi ijtimoiy ishchi mijoz yoki yordam talab qilgan oilaning o'z boshidan kechirgan vaziyatiga aniq baho berishi lozim. Bu ma'lumot to'plash hamda mijoz va uni o'rab turgan shart-sharoitlarni baholashni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Yordamni rejalashtirish. Mijozlar va jarayonning boshqa ishtirokchilari bilan birgalikda ijtimoiy ishchi mijozning ehtiyojlarini qondirish uchun imkoniyatlarni ta'minlashi mumkin bo'lgan har xil xizmat turlarini belgilashi mumkin. Aynan xizmat ko'rsatish tizimi vakillarini oila a'zolari bilan birgalikda rejalashtirish jarayoniga jalb qilishi keys menejment rolini boshqa ijtimoiy amaliy ish rollaridan ajratib turadi.

Iste'mol qilinadigan xizmatlar bilan aloqa qilish. Brokerlik rolidagi kabi keys menejer ham o'z mijozlarini tegishli resurslar bilan bog'lashi kerak. Biroq bu yerda farq shunda ko'rinadiki, ijtimoiy ishchi xizmatlarni taqdim etish jarayonining o'zida faol ishtirokchi bo'lib qolaveradi. Mijozni tegishli tashkilotlarga "shunchaki yo'naltirishga" qarama-qarshi o'laroq keys menejer mijozning boshqa resurslardan foydalanishini muvofiqlashtirishga ko'proq ahamiyat beradi.

Xizmatlarni taqdim etishni nazorat qilish. Mijoz bir guruh agentliklar va alohida ishchilarning xizmatlaridan foydalangan taqdirda zarur xizmatlar haqiqatan ham muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganligiga ishonch hosil qilish uchun keys menejer ushbu jarayon qatnashchilari bilan aloqada bo'lib turadi. Bu yerda mazkur funksiya bilan bog'liq bo'lgan yetti asosiy vazifa tafovut qilinadi:

1. Sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishning maqsadli va aniq

yo‘nalganligini qo‘llab-quvvatlash uchun jarayonning dastlabki rejaga mutanosibligini hamda xatti-harakatlar tizimi ichida aniq axborot oqimining ta‘minlanishini kuzatib borish.

2. Kutilmaganda vujudga keladigan muammolarni aniqlashni tezlashtirish uchun, zarur bo‘lsa, mijoz nomidan ish yuritgan holda xizmat ko‘rsatish jarayonida mijozga “ergashish”.

3. Inqirozli vaziyatda yoki xizmat provayderlari bilan nizo yuzaga kelganda mijoz va uning oilasiga yordam berish uchun mijozga maslahat va ma‘lumot berish.

4. Mijoz va uning oilasi o‘z muammolarini yaxshiroq eplay olishlari va taqdim etilayotgan xizmatlardan foydalana olishlari uchun doimiy ravishda hissiy qo‘llab-quvvatlab turish.

5. Dastlabki rejani amalga oshirish jarayoni hamda mijozning ilgariylashi bilan bog‘liq hujjatlarni tartibli saqlash uchun barcha zaruriy qog‘oz ishlarini yuritish.

6. Mijozning istak va havaslari jarayonning barcha ishtirokchilariga ma‘lum bo‘lishi va tegishli xizmatlarni ko‘rsatish davom etishi uchun chora-tadbirlarning umumiy rejasiga kiritilgan dasturlar va norasmiy manbalar orqali mijoz, uning oilasi va tegishli ishchilar o‘rtasida vositachi vazifasini bajarish.

7. Sifatli axborot almashinuvini ta‘minlash va yordam ko‘rsatish tarmoqlari o‘rtasidagi nizolarni imkon qadar kamaytirish uchun xizmatlarni taqdim etish dasturlari o‘rtasida vositachi vazifasini bajarish.

Aniq bir ish bo‘yicha himoyalash va ish olib borilishini ta‘minlash. Zaruriy yordam ko‘rsatilmagan va yordam ko‘rsatish rejalashtirilmagan taqdirda keys menejerning ijtimoiy ko‘nikmalar va kundalik hayotiy ko‘nikmalarni o‘rgatishi o‘z mijozlarining himoyachisi bo‘lib, ularning nomidan ish olib borish va turli gumanitar tashkilotlarning murakkab ish qoidalari va me‘yorlarini muhokama qilib, tegishli choralarni ko‘rishdir. Ishchining majburiyati mijozning qonuniy haq-huquqi bo‘lmish xizmatlardan foydalanishni ta‘minlashdir. Bu mazkur mijozga xizmat ko‘rsatish zarurligiga tegishli tashkilotlarni iqror etish va ishontirish maqsadida olib boriladigan faol muzokara jarayonini o‘z ichiga olishi

mumkin.

5. Ish yuklamasi hajmi menejeri.

Maqsadi. Mijozlarga imkon qadar samarali yordam bera olish va o'z ish beruvchilari oldida javobgarlikni his eta olish uchun o'z yuklamasining hajmini boshqarish.

Ta'rifi. Ijtimoiy ishchilar samarali xizmat ko'rsatish bilan birga, ayni paytda o'zlari ishlab turgan agentlikning talablari, me'yorlari va siyosatiga mos kelishga intilishlari lozim. Boshqacha qilib aytganda, ular ta'sirchanlik va mahsuldorlik o'rtasidagi muvozanatni saqlashlariga to'g'ri keladi.

So'nggi yillarda ijtimoiy ishchilarning moliyaviy manbalar oldida hisobot berishlariga ko'proq ahamiyat berilayotgan bo'lsa-da, ijtimoiy ishchilar o'z faoliyatlarining butun tarixi mobaynida kichik hajmdagi byudjet bilan taqdim etadigan xizmatlarini imkon qadar ko'paytirib, kengaytirishlari lozim edi. Ular odatda bajaradigan katta hajmdagi ishlarini shunchaki samaraliroq tarzda boshqarishlari kerak. Ish hajmini boshqarishning bir qismi xizmat ko'rsatish bo'yicha sa'y-harakatlarini qanday tashkil etish masalasi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi qismi ishchi qanday qilib qanday holatda axborotni taqdim etishi va, umuman, agentlik ishida qatnashishi bilan aloqadordir.

Funksiyalari - ijtimoiy ko'nikmalar va kundalik hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish. Xizmatlarni rejalashtirish. Amaliy faoliyatni samarali ravishda tashkil qilish qobiliyati ishchi taqdim etadigan xizmatlarni imkon qadar ko'paytirishning ajralmas qismidir. Xizmatlarni rejalashtirish o'z yuklamasining hajmini baholash hamda ishni imkon qadar samarali ravishda amalga oshirish bo'yicha rejalar tuzishni o'z ichiga oladi. Bu yerda faoliyatlarni amalga oshirishda ustuvor yo'nalishlarni belgilash, tartib-qoidalarini o'rnatish hamda har bir faoliyat turini bajarish uchun ajratilgan real vaqt miqdorini aniqlash zarurdir.

Vaqtни boshqarish. Vaqtни samarali boshqarish ham ijtimoiy ishchi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Agentliklar kam holatlarda tegishli xodimlar bilan to'liq ta'minlanganligi bois odatda ijtimoiy ishchilar juda katta hajmdagi ishni bajarishlariga to'g'ri keladi. Agar ishchi har bir

mijoz va har bir faoliyat turiga tegishli e'tibor berishi lozim bo'lsa, u holda u o'zining vaqtidan hamda u yoki bu shoshilinch topshiriq uchun ajratilgan ish soatlaridan foydalanish bo'yicha afzalliklarni aniq taqsimlab chiqishi shart.

Xizmatlar sifatini nazorat qilish. Ijtimoiy ishchilar ko'rsatiladigan xizmatlarning sifatini kuzatib borishlari lozim. O'z ish hajmini boshqarishning tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy ishchi muntazam ravishda taqdim etayotgan xizmatlarning samaradorligini baholab boradi. Shuningdek, ko'pincha ijtimoiy ishchilar o'z hamkasblarining ishlarini baholash jarayonida ishtirok etadilar. Bu ish hamkasblar va volontyorlar bilan birga "agentlik arxividagi qaydlarni ko'rib chiqish, ish sifatini baholash, faoliyat sharhiga bag'ishlangan yig'ilishlarni o'tkazish"ni o'z ichiga olishi mumkin.

Ma'lumotlarga ishlov berish. Ijtimoiy ishchi agentlikning me'yorida faoliyat yuritishini ta'minlaydigan ma'lumotlarga ishlov berish uchun javobgardir. Xizmat ko'rsatish jarayoni aniq-ravshan hujjatlashtirilishi lozim: yordam ko'rsatish resurslari bilan ish olib borish hujjatlarini aniq yuritish, barcha sarf-xarajatlar ham tegishli shakllarga kiritilishi kerak. Bundan tashqari, mahsuldorligi yuqori bo'lgan tashkilotlar xodimlar o'rtasida yaxshi muvofiqlashtirish va o'zaro hamkorlikni talab qiladilar. Agentlikning ish jarayonlari va tartib-qoidalari hamma uchun aniq va tushunarli bo'lmog'i kerak. Bu agentlik xodimlari o'rtasida tarqatiladigan xizmatga oid ko'rsatmalar tayyorlashni, ishchilarning yig'ilishlarga muntazam tashrif buyurishlarini, shuningdek, agentlik ichida muloqotni yaxshilashga qaratilgan boshqa faoliyatlarni amalga oshirishni talab etadi.

6. Xodimlar shtatini rivojlantirish tashkilotchisi.

Maqsadi. Treninglar, faoliyatni nazorat qilish maslahat berish va menejment vositasida agentlik xodimlarining kasbiy rivojlanishini ta'minlash.

Ta'rifi. Ijtimoiy ishchilar ko'pincha o'rta qatlamdagi rahbarlik lavozimlarini egallaydilar. Mazkur ijtimoiy ko'nikmalar va kundalik hayotiy ko'nikmalarni o'rgatishlarida ular o'z xodimlarining faoliyatlarini kengaytirish uchun kuch sarflaydilar. Ba'zan bu kotibalar,

qabulxonada ishlovchilar, volontyorlar va boshqa xodimlar bilan ish olib borishni o'z ichiga olishi mumkin. Biroq, shunga qaramay, ko'pincha bunday rolda ijtimoiy ishchi, albatta, asosiy diqqat-e'tiborini bevosita mijozlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchilar bilan ish olib borishga qaratadi.

Xodimlarni rivojlantirish o'qituvchilik rolini ijro etishda qo'llaniladigan ko'pgina ko'nikmalarni talab qiladi, chunki ijtimoiy ishchi bu yerda ham ma'lumotlar va muayyan bilimlarni boshqalarga yetkazadi. Biroq ushbu holatda bilimlar xodimlarga va qo'l ostidagi ishchilarga ularning faoliyatlarini yaxshilash maqsadida yetkaziladi. Xodimlarni rivojlantirish o'quv ehtiyojlarini aniq baholashga asoslanadi. Ta'limning o'zi individual instruktaj, nazorat, maslahat shakliga ega bo'lishi hamda o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish yoki ularda ishtirok etishni o'z ichiga olishi mumkin.

Funksiyalari - ijtimoiy ko'nikmalar va kundalik hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish. Xodimni yo'naltirish va o'qitish. Xodimni agentlik ishi va har xil o'ziga xos vazifalar bo'yicha teranlik bilan tuzilgan reja asosida o'qitish va yo'naltirish zarur. Har bir ishchining o'quv talablariga javob berish uchun bunday yo'naltirish imkon qadar individuallashtirilishi lozim, bu esa o'z navbatida mazkur ishchining mahoratini uzluksiz ravishda baholab borishni taqozo etadi. Ushbu ijtimoiy ko'nikmalar va kundalik hayotiy ko'nikmalarni o'rgatishni bajarishning tipik vazifalari orasida ishdagi natijalarni aniqlash, "ishchini agentlikning tashkiliy siyosati va ish jarayonlariga yo'naltirish, konkret ishlar bo'yicha qaydlarni ko'rib chiqish hamda o'tkazilgan ishning sifatini baholash"ni ajratish mumkin.

Xodimlarni boshqarish. Xodimlarni boshqarish faoliyati yangi xodimlarni tanlashdan boshlab, to ularning ishlash muddatlarining oxirigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olishi mumkin. Bunday faoliyatning ko'pgina turlari boshqa ishchilarning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, aniq bir ishlar bo'yicha topshiriqlarni tanlash nafaqat ishchining qobiliyatlari bo'yicha hukm chiqarishni, balki mos ravishda uning kasbiy o'sishiga yordam beradigan holatlarni tanlashni ham qamrab oladi. Shuningdek, u mazkur

holat yuzasidan ishlarni bajarish uchun ishchiga zarur bo'lgan qisqa ta'lim yoki instruktajning qandaydir rejasini tuzishini taqozo etadi, bu esa, o'z navbatida, ishchining kasbiy sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, xodimlarni rivojlantirish rolini bajarish ijtimoiy ishchidan seminarlar, konferensiyalar o'tkazish uchun muayyan mablag' ajratishni talab etishi mumkinki, bunda agentlik ishchilari o'z ko'nikmalarini takomillashtirib, muayyan bilimlarini chuqurlashtirish imkoniga ega bo'ladilar.

Ishni nazorat qilish. Kasbiy nazorat xodimlar faoliyatini mazkur agentlik uchun o'ziga xos bo'lgan tartib-qoidalarni bajarishda taqdim etiladigan xizmatlarning sifatini oshirishga yo'naltirishni o'z ichiga oladi. Nazorat xodimlar faoliyatini bevosita kuzatib borish, topshiriqlarni belgilash jarayonini o'rganish, ish standartlarini ishlab chiqish, ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash uchun ishdagi zarur o'zgartirishlarni muhokama qilish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Maslahat berish. Maslahat berish - bu maslahatchi va maslahat oluvchi o'rtasida taxminan teng munosabatlarni o'rnatish vositasida bilim, ko'nikma va kasbiy yondashuvlarni yetkazish faoliyatidir. Agar buni oldingi band bilan, ya'ni agentlik ma'muriy ierarxiyasining bir bo'lagi bo'lgan ishni nazorat qilish bilan solishtirilsa, unda maslahat o'zaro teng munosabatlardagi ikki kasb ustasi darajasida berilishi ma'lum bo'ladi. Maslahat oluvchi maslahat beruvchi bilan teng bo'lganligi bois olgan maslahatlaridan foydalanish yoki foydalanmaslik huquqiga ega. Maslahat berish (agentlikning dasturiy maqsadlariga bog'liq bo'lgan nazorat qilishga qarama-qarshi o'laroq) ishchining o'quv ehtiyojlariga yo'naltiriladi va shu ma'noda kasbiy o'sish va rivojlanishning muayyan modeliga mos keladigan ta'lim vositasi hisoblanadi.

7. Ma'muriyat boshlig'i.

Maqsadi. Gumanitar xizmatlarni taqdim etish bo'yicha tashrif siyosati, xizmatlar va dasturni rejalashtirish, ishlab chiqish va amalga oshirish.

Ta'rifi. Ma'muriyat boshlig'i rovida ijtimoiy ishchi ijtimoiy ish agentligining siyosati va dasturini bajarish majburiyatini bo'yniga oladi.

Bu rolni bajarar ekan, ishchi bosh ma'muriy lavozim egasi bo'lishi yoki uning ma'muriy oddiy ijtimoiy ishchi sifatidagi majburiyatlarining bir bo'lagi bo'lishi mumkin. Ijtimoiy ish lug'ati (Barker, 1987) ma'muriy jarayonga quyidagicha ta'rif beradi: "tashkilot siyosatini konkret xizmatlarga aylantirish uchun zarur bo'lgan tashkilotdagi ijtimoiy ta'minot sohasidagi faoliyatlarning muvofiqlashtirilgan yig'indisidir. Shuningdek, bu mazkur tashkilot maqsadlarini amalga oshirishga yetaklovchi tashkilotning bir-biriga bog'liq bo'lgan aniq vazifalari, xizmat ma'suliyati va faoliyatlarini bajarishda rejalashtirish, belgilash, baholash va vositachilik qilish bilan bog'liq bo'lgan amaliy ish metodi hamdir".

Ma'muriyat boshlig'i boshqa kishilar tomonidan yaratilgan siyosat, dastur va qonunlarni ro'yobga chiqarishi lozim. Agentlik direktorlar kengashi yoki tanlangan rahbarlar odatda agentlik faoliyati uchun zarur bo'lgan mablag'larni taqsimlaydilar va umumiy yo'nalishlarni belgilaydilar. Shundan so'ng, odatda, ko'ngilli tashkilotlarda ham, davlat tashkilotlarida ham tashkilotni boshqaradigan ma'muriyat boshlig'i va ijrochi direktorni tayinlaydilar. Uning birlamchi majburiyatlari bo'lib xodimlar bilan ish olib borish, ish jarayonlarini o'rnatish, agentlik ishini boshqarish, ko'rsatiladigan xizmatlarni ishlab chiqish va baholash, yuqori tashkilotlar va xodimlar o'rtasida vositachilik qilish hisoblanadi. Tashkilot tuzilishining hajmi va murakkabligiga qarab ma'muriyat boshlig'i ma'muriy funksiyalarining hammasini yoki ayrimlarini bajarishi mumkin, ammo ularning sifati uchun har doim bevosita javobgardir.

Funksiyalari. Menejment. Menejment funksiyasi ma'muriyat boshlig'idan aniq dasturlar, bilimlar yoki, umuman, butun tashkilot faoliyatini nazorat qilishni talab etadi. Menejment tashkilot rahbarlik kengashi ishini ta'minlashni, xodimlarni tanlash va saralashni, bajarilayotgan faoliyatlarni yo'naltirish va muvofiqlashtirishni, ustuvor yo'nalishlarni belgilash bo'yicha ish olib borishni, tashkiliy tuzilmani tahlil etishni, xodimlar o'rtasidagi nizolarni hal etishni, tashkilot faoliyati uchun zarur resurslar izlab topishni o'z ichiga qamrab oladi. Bundan tashqari, menejment byudjetini tuzish va rejalashtirish,

resurslardan foydalanish bo'yicha hujjatlarni yuritish, agentlikka tegishli bo'lgan jihozlar va binoning maqbul holatini ta'minlash bilan bog'liqdir.

Ichki va tashqi muvofiqlashtirish. Ma'muriyat boshlig'ining birlamchi vazifasi, bu agentlik ishini muvofiqlashtirishdir. Bu vazifa ichida agentlik ishining ta'sirchan va samarali dasturlarini tuzish nazarda tutiladi. Ko'pincha bu umumiy ish jarayonining tarkibiy qismlari bo'lgan agentlik ishidagi har xil bo'limlar va dasturlar bilan muhokama qilishni talab etadi. Shuningdek, agentlik ishiga yangi dasturlarni integratsiya qilishni ta'minlash uchun xodimlar bilan ish olib borish ham zarurdir. Shu bilan birga, ma'muriyat boshlig'i tashqi tashkilotlar va jarayon ishtirokchilari bilan o'zaro hamkorlik qilishda agentlikning birlamchi vakili bo'lib xizmat qiladi. Bir tadqiqotda bunday tashqi vazifalar "xodimlarni tashqi bosimdan himoya qiluvchi bufer rolini bajarish, xizmat iste'molchilari bilan muzokaralar olib borish, agentlik dasturlari faoliyatini davom ettirish uchun ularni jamoatchilikka tushuntirish" tarzida ta'riflanadi. Shunday qilib, ma'muriyat boshlig'i nafaqat yuqori rahbarlik organlari bilan tashqi faoliyatni amalga oshiradi, balki shuningdek mazkur agentlik jamoatchiligi bilan aloqa qilishda ham asosiy rol o'ynaydi.

Ta'sirchan ma'muriyat boshlig'i tashabbuskor bo'lmog'i kerak. Ko'p sa'y-harakatlar va anchagina vaqt mavjud dasturlar ishini ta'minlash uchun ajratilishi kerak bo'lsa-da, ma'muriyat boshlig'i har doim mijozlar ehtiyojlari tahlilini baholash, ijtimoiy himoya yo'nalishlarni kuzatib borish, rahbar tashkilotlari tomonidan ko'rib chiqilishi uchun xizmat ko'rsatish bo'yicha muqobil ishlanmalar tuzish yo'li bilan yangi xizmatlar paydo bo'lishiga ehtiyojni baholab borishi kerak.

Dasturni baholash. Oxir-oqibatda ma'muriyat boshlig'i ish sifati nazorati uchun mas'uldir. U agentlik dasturlarini nazorat qilish va baholash bo'yicha ish olib borishi kerak. Ma'muriyat boshlig'i dasturlarni hujjatlashtirish va muvaffaqiyatini baholash uchun ma'lumot to'plash tizimini barpo qiladi. Bundan tashqari, ma'muriyat boshlig'i tashkiliy, kasbiy, davlat yoki federal standartlarga mutanosiblikni tekshirish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirishi kerak. Shunday qilib,

dasturni baholash kelajakda yangi dasturlarni ishlab chiqish bilan ham, mavjud dasturlarning muayyan standartlarga mos kelishi mavzusi bilan ham bog‘liqdir.

Ijtimoiy ishchining professional majburiyatlari. Ijtimoiy ishchi professional kasb darajasiga ko‘ra quyidagilarga majbur:

-ijtimoiy-tibbiy, yuridik, psixologik-pedagogik, moddiy va boshqa yordamga, ma‘naviy, jismoniy va psixik salomatligining muhofazasiga muhtoj oilalar, bolalar va alohida shaxslarni aniqlash;

-ijtimoiy himoyaga muxtoj oilalar, bolalar va katta odamlarning hayot sharoitlarini o‘rganish hamda ularning huquqiy hamda ijtimoiy himoyasini uyushtirish;

-mijozlarning ehtiyojlarini aniqlash va zarur bo‘lgan hollarda qo‘shimcha xizmat olish uchun boshqa tashkilotlarga yuborish: tibbiy va ta‘lim muassasalariga joylashishga, moddiy, ijtimoiy-maishiy va boshqa yordam olishda ko‘mak berish;

-mijozlarda yuzaga kelgan qiyinchiliklarni, nizoli vaziyatlarni belgilash, ularga bu qiyinchiliklar, nizolarni hal qilishda ko‘maklashish va ijtimoiy himoyalash;

-mijoz yoki mijozlar bilan ijtimoiy ishning zamonaviy nazariyasi va modellarini qo‘llab, mijozning kuchli tomonlariga urg‘u berish va uning atrofidagi imkoniyatlarni izlaganicha ularning muammolarini hal qilish bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri ish olib borish;

-ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni joylashtirish bo‘yicha ishlarni uyushtirish va uyg‘unlashtirish (masalan, asrab olish yoki bolani tutingan oilaga joylashtirish va h.k.);

-mijozlar (ozodlikdan mahrum qilish joylaridan qaytgan shaxslar, institutsional va ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiyaviy muassasalarni bitirayotganlar)ning ijtimoiy moslashuvi va rehabilitatsiyasi yuzasidan ishlarni uyushtirish va uyg‘unlashtirish;

-mijozlarni ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasi va yuzaga kelgan hayotiy qiyinchiliklarni mustaqil hal qilishlari uchun zaruriy hayotiy ko‘nikmalarga o‘rgatish;

-mijozlarga bolalarning oiladagi farovonligini yaxshilash uchun bolalarning ehtiyoji va yoshga oid rivojlanishi, bolalar bilan shafqatsiz

va beparvo munosabat va h.k. masalalar yuzasidan mijozlarning ota-onalari ularning malakasini rivojlantirish bo'yicha maslahatlar berish;

-mijozlarga istalmagan axloqni o'zgartirish va ijtimoiy maqbul axloqni egallashi masalalari bo'yicha maslahat berish;

-oilalarga bolalar, bemorlar va keksa odamlarni parvarish qilish qoidalari hamda malakalarini o'rgatishda yordamlashish va uni tashkil etish;

-odamlarning zaif guruhlariga nisbatan mavjud stereotiplarni susaytirish maqsadida ta'lim dasturlari va OAV orqali jamiyatning xabardorligini oshirish hamda professional ijtimoiy ishni targ'ib qilish.

Ijtimoiy ishchi professiogrammasi professor M.X.Ganiyeva boshchiligidagi ijtimoiy ish mutaxassislari, M.X.Karamyan, L.E.Kim va A.V.Shubinalar ishtirokida ishlab chiqilgan. Professiogrammani ishlab chiqishdagi muhokamada ijtimoiy ish bo'yicha O'zbekiston ijtimoiy ish xodimlarining Milliy komanda a'zolari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining konsultantlari, shuningdek, Shima Barkin va Go'zal Kamalova (BMTning O'zbekistondagi Bolalar jamg'armasi YUNISEFning "Bola himoyasi" dasturi vakillari) ishtirok etdilar.

Ma'lumot uchun bilish kerakki, professiogramma ijtimoiy ish bo'yicha loyihalar doirasida ishlab chiqildi: "Ijtimoiy ish bo'yicha qayta tayyorlash dasturini rivojlantirish" (O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi – Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi – Toshkent davlat madaniyat instituti – BMTning O'zbekistondagi Bolalar jamg'armasi YUNISEF – 2007), "O'zbekistonda "ijtimoiy ish" kasbini ilgari surish va ijtimoiy ish bo'yicha qayta tayyorlash dasturlarini tarqatish" (Toshkent davlat madaniyat instituti – Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi – YUNISEF, 2008), "O'zbekistonda bola himoyasi sohasida "ijtimoiy ish" (Toshkent davlat madaniyat instituti – Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi – YUNISEF, 2009).

Yuqorida qayd etilgan professiogrammaga ko'ra ijtimoiy ishchining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- va'zxonlik qilmaslik, buyruq bermaslik, ta'qiqlamaslik;

- mijoz shaxsining sha'ni va sharafini hurmat qilib uni harakatga, tashabbusga, ijodga undash;

- mijozni tinglay bilish, sabr-toqat ko'rsatish, muammo va vaziyatni tushunish, uning o'rniga o'zini qo'ya bilish, nazokat va odob ko'rsata bilish;

- muloqotmand bo'lish, ochiq bo'lish, mijozni "gapirtira bilish", birgalikda muammolarning yechimini aniqlash;

- atrofdagilar uchun kerakli va qiziqarli bo'lish;

- mijoz va uning atrofidagilar o'rtasida vosita, bog'lovchi halqa(uzilmas zanjir) bo'lish, mijozga ko'rsatilayotgan xayriya yordami orqali uning sha'ni pastga urilishiga yo'l qo'ymaslik;

- mijoz bilan ishlashda norasmiy bo'la bilish, mijozning o'z muammolarini hal qilishda maslahatchi, ko'makchi vazifasini bajarish; o'zaro munosabatlarni tenglik asosidagi dialogga qurish;

- doimo insonparvarlik va mehribonlik nuqtayi nazaridan yondashish;

- mijozni muhokama qilmaslik va unga tanbeh bermaslik;

- shaxs yoki odamlar guruhiga g'ayriinsoniy va diskriminatsion yondashuvlarning oldini olish;

- mijozni jismoniy yoki ruhiy o'ng'aysizlikdan, asabiylashishdan, xavfdan va haqoratlardan himoya qilish;

- o'z xulq-atvorining yuksak axloqiy andozalarga mosligini saqlash, har qanday makrlar, birovlarni aldash, nopok xatti-harakatlarni istisno qilish;

- doimo faqatgina mijoz manfaatlari yo'lida harakat qilish;

- o'ziga ko'makchilarni topa bilish, ijtimoiy ishni rivojlantirishda jamoatchilik ko'magini ta'minlash;

- faqatgina o'z vakolati bo'lgan doirada ish yuritish, o'z ishining sifati uchun shaxsan mas'ul bo'lish;

- tashqi ta'sir va bosimlarga berilmaslik;

- mijozni qo'llanilayotgan tadbirlar, unga ko'rsatilayotgan yordam xarakteri, to'planayotgan ma'lumotlar haqida xabardor qilish;

- o'zining kasbiy munosabatlaridan shaxsiy maqsadlar yo'lida foydalanmaslik;

- vaziyatlarni muhokama qilish va baholashda faqat kasbiy maqsadlar bilan ishtirok etish;
- mijoz ishonib bildirgan sirni hurmat qilish va uni fosh etmaslik;
- ko'rsatilgan xizmatlar uchun haqni faqat qonuniy asoslarda olish;
- bajarilgan ish uchun qimmatbaho sovg'alar olmaslik;
- kasbiy bilimlari, mahorati, malakasini uzluksiz oshirib borishga intilish;
- o'z amaliy faoliyatini kasbiy bilimlar asosida tashkil etish;
- kasbning obro'si va pokligini himoya qilish va orttirishga intilish;
- kasbiy o'zaro munosabatlar va o'zaro ta'sir jarayonida hamkasblar ishonchiga hurmat bilan qarash, nazokat va adolatni saqlash;
- kim bo'lishidan qat'iy nazar, hamkasbi axloqqa zid harakat qilsa, unga qarshi choralar ko'rish.

Bundan tashqari, malaka tavsifi bilan belgilangan majburiyatlarni bajarish uchun ijtimoiy ish xodimi o'zining quyidagi huquqlaridan keng foydalanadi:

- mijozlarning manfaatlarini qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyati organlarida ifodalash va himoyalash;
- maxsus ma'lumot to'g'risidagi diplom yoki sertifikat bo'lgani taqdirda davlat yoki xususiy ijtimoiy amaliyotni yuritish;
- mijozlar ehtiyojlari bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash, aholi orasida sotsiologik so'rovlar, diagnostik tadqiqotlar o'tkazish;
- mijozlarning ijtimoiy va shaxsiy muammolarini hal qilish to'g'risidagi rasmiy so'rovlar va iltimoslari bilan jamoat tashkilotlariga, davlat muassasalariga murojaat qilish;
- o'z faoliyati doirasidagi u yoki bu muammoning holati to'g'risida davlat idoralari axborot berish;
- ijtimoiy tashabbus va faollik ko'rsatganlari uchun ota-onalar, oilalar, ijtimoiy ish volontyorlarini taqdirlash to'g'risida korxonalar va

muassasalar, tijorat tuzilmalari va jamoat birlashmalariga takliflar kiritish;

- oiladagi tarbiya, ijtimoiy ishdagi tajribani ommaviy axborot vositalari yordamida targ‘ib qilish uchun faol ish yuritish;

- muayyan ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan jamoat tashabbuskorlik harakatlariga boshchilik qilish.

Sovuqqonlik deb baholanadigan kasbiy me‘yorlarni buzish yoki xatolar “beg‘amlilik, malakasizlik yoki oldindan o‘ylangan niyat tufayli kasbiy me‘yorlarni buzish” sifatida baholanishini hech qachon yoddan chiqarmaslik kerak. Shu sababdan ijtimoiy ish xodimlari maxfiylikni buzganlari, bolalar bilan yomon munosabatda bo‘linayotgani haqidagi shubha to‘g‘risida xabar bermaganlari, suiiste‘molliklar, so‘z bilan haqoratlash yoki jismoniy zo‘ravonlik tahdidi singari holatlarga befarqlik, xatti-harakatlar yordamida haqoratlash, davolash yoki axloq tuzatish muassasasiga xato (bilib-bilmay, adashish) natijasida joylashtirish tufayli erkinlikni cheklagani uchun sud tomonidan ta‘qib qilinishi mumkin.

O‘zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Glossariy
Ijtimoiy muammolar	Социальные проблемы	Social problems	Insonga va jamiyatga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi va keng jamoatchilik doirasida hal qilinishi lozim bo‘lgan yetarlicha jiddiy muammolar
Ijtimoiylashuv	Социализация	Socialization	Inson tomonidan jamiyatda mukammal hayotga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘zlashtirib borish jarayoni
Madaniy tafovutlar	Культурные различия	Cultural differences	An’analar va qadriyatlarning bir-biridan farqlanishi, ayrim aholi qatlamlarida boshqalariga qaraganda kuchliroq yoki aksincha bo‘lishi

Ijtimoiy ishning asosiy vazifasi	Основная функция социальной работы	The main function of Social Work	Insonlarning farovonligini oshirish va kishilarning asosiy ehtiyojlarini qondirishdan iborat bo'lib, bunda asosiy e'tibor ijtimoiy adolat mezonlarini ta'minlash, kishilarning ehtiyojlarini to'laroq qondirilishi, jumladan, hojatmand va qashshoqlikda kun kechiruvchilarning imkoniyati va huquqiy erkinliklarini kengaytirishga qaratiladi
Tashxislash funksiyasi	Функция диагностики	Diagnostic function	Ishtimoiy xizmatchining aholining alohida qatlamlari, darajalarining o'ziga xos xususiyatlari va ularga mikromuhitning yo'naltirilganligi hamda "ijtimoiy tashxis" qo'yishida o'z ifodasini topadi.

Nazorat savollari

1. Ijtimoiy muammolarning vujudga kelish sabablarini ayting?
2. Qanday omillar ijtimoiy muammolarni vujudga keltiradi?
3. Ijtimoiy ishning asosiy vazifalari nimadan iborat?
4. Ijtimoiy ish qanday tamoyillarga tayanadi?
5. Ijtimoiy ish kasbining maqsadi nima?
6. Ijtimoiy ish kasbining qanday uslublarini bilasiz?
7. Aholining turli guruh va qatlamlari bilan ijtimoiy ish olib borish qanday xususiyatlarga ega?
8. Ijtimoiy ish bilan bog'liq bo'lgan qanday kasblarni bilasiz?
9. Ijtimoiy ish kasbining yo'nalishlari nimalardan iborat?
10. Ijtimoiy ish kasbining mijozlari deyilganda nimalar tushuniladi?
11. Ijtimoiy ishchining kasbiy mahorati nimalardan iborat?
12. Ijtimoiy ishchining rollari deganda nimalar tushuniladi?
13. Ijtimoiy ishchining professional majburiyatlarini qanday tushunasiz?

6-MAVZU: ZAMONAVIY DUNYODA AHOLINI IJTIMOIIY QO‘LLAB-QUVVATLASH MODELLARI.

Reja:

6.1. Xorijda aholini ijtimoiy himoya qilish: tushuncha, maqsad va vazifalar. Ijtimoiy himoya turlari.

6.2. Chet ellar ijtimoiy himoya modellari: liberal, sotsial-demokratik, konservativ (korporativ).

6.3. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy himoya tizimining funksiyalari va prinsiplari.

Xorijda aholini ijtimoiy himoya qilish: tushuncha, maqsad va vazifalar. Ijtimoiy himoya turlari. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj aholini kafolatli himoya qilish eng muhim siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vazifadir. Har bir mamlakat ijtimoiy himoya tizimining sifat va miqdor ko‘rsatkichlari jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining darajasidan dalolat beradi.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 25-moddasida “Har bir inson ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog‘liq bo‘lmagan sharoitlarga ko‘ra tirikchilik uchun mablag‘ bo‘lmay qolgan boshqa hollarda ta‘minlanish huquqiga ega”²⁷ ekanligi ko‘rsatilgan.

Bu aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi tomonidan ta‘minlanadi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi uchta asosiy shaklga ega:

- ijtimoiy ta‘minot;
- ijtimoiy sug‘urta;
- ijtimoiy yordam.

Ijtimoiy ta‘minot – bu fuqarolar ayrim toifalarini davlat byudjeti hamda byudjetdan tashqari maxsus fondlar mablag‘lari hisobidan moddiy ta‘minlashga yo‘naltirilgan davlatning ijtimoiy yordam ko‘rsatish shaklidir. Fuqarolarga bunday yordam davlat tomonidan ijtimoiy jihatdan muhim deb e‘tirof etilgan hollarda ko‘rsatiladi.

Tarixan ijtimoiy ta‘minotga ehtiyoj jamiyat paydo bo‘lishi bilan tug‘ildi. Har qanday jamiyatda – uning iqtisodiy va siyosiy tuzilishidan

²⁷Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар. – Т.: Адолат, 2004. – Б.35.

qat'i nazar–o'zlariga bog'liq bo'lmagan vaziyatlar sababli tirikchilik kechirish uchun mablag' topishga qodir bo'lmagan aholi toifalari bo'ladi. Ularga, eng avvalo, bolalar va keksa, ehtiyojmand kishilar kiradi. Bundan tashqari, ijtimoiy yordamga muhtojlar safini vaqtincha yoki bir umr mehnatga layoqatsizligini yo'qotgan odamlar to'ldirishi mumkin. Jamiyat rivojlanishi va ijtimoiy aloqalar murakkablashishi bilan ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan fuqarolar qatoriga iqtisodiy sabablar oqibatidagi ishsizlar, kambag'allar, shuningdek inflyatsiyaning yuqori sur'atlaridan moddiy ahvollari og'irlashganlar kiradi.

Ijtimoiy ta'minot deyilganda quyidagilar anglanadi:

- fuqarolarga qarilikda mehnat faoliyati, mehnat qobiliyati va boquvchisini yo'qotganligi uchun ko'zda tutilgan moddiy ta'minotdan tashqari ularning normal turmush va madaniy standartlarini kafolatlaydigan taqsimlash shakli;

- fuqarolarni yoshi, kasallanishi, nogironligi, ishsizligi, boquvchisini yo'qotganligi, bolalarni tarbiya qilish uchun hamda qonunda belgilab qo'yilgan boshqa holatlar bo'yicha moddiy ta'minlash tizimi;

- bir tomondan fuqarolar, ikkinchi tomondan davlat, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati tashkilotlari tomonidan daromadlari yo'qotilishi yoki kamayishi vaziyatlari paydo bo'lganda fuqarolarga maxsus fondlar, byudjet mablag'lari hisobiga tibbiy yordam ko'rsatish, pensiya, nafaqalar va moddiy ta'minlashning boshqa shakllari asosida tarkib topayotgan ijtimoiy munosabatlar jamlanmasi.

Ko'pchilik xorijiy davlatlarda ham qonunchilik ijtimoiy ta'minotning quyidagi olti turini nazarda tutadi:

- pensiyalar;
- nafaqalar;
- ijtimoiy ta'minot kompensatsiyasi;
- imtiyozlar;
- ijtimoiy va tibbiy xizmatlar;
- hayotiy zarur ashyolar.

Yuqorida qayd etilgan bu turlarning har biri, odatda yana qator turlarga bo‘linadi. Bunda ijtimoiy ta‘minot turlari barqaror xususiyatga ega bo‘lgani holda ularning boshqa turlari muayyan siyosiy, iqtisodiy va boshqa sharoitlarga bog‘liq ravishda o‘zgarib boradi.

Ushbu ijtimoiy himoya ko‘rsatish shaklida avvaldan ma‘lum to‘lovlar bajarilganmi yoki yo‘qmi, shuningdek, shaxslarning moddiy holati–muhtojligi e‘tiborga olinmagan holda davlat tomonidan ijtimoiy ta‘minot taqdim etiladi. Mazkur ijtimoiy himoyaning moliyaviy manbalari–bu umumiy va maxsus soliqlar hisobidan shakllanadigan davlat byudjetidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri olinadigan mablag‘lardir.

Aholining ijtimoiy ta‘minoti tizimidagi eng muhim shakl– ijtimoiy sug‘urtadir.

Ijtimoiy sug‘urta – davlat tomonidan belgilab qo‘yilgan, nazorat qilinadigan va kafolatlanadigan, davlat maqsadli, byudjetdan tashqari ijtimoiy sug‘urta fondi, shuningdek boshqa jamoaviy va xususiy sug‘urta fondlari mablag‘lari hisobiga keksa yoshdagi, mehnatga layoqatsiz fuqarolarni moddiy ta‘minlash, qo‘llab quvvatlash tizimidir.

Ijtimoiy sug‘urta – pul nafaqalari tizimi bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

- ishsizlik nafaqasi;
- mehnatga layoqatsizlik nafaqasi;
- homiladorlik va tug‘ish nafaqasi;
- qarilik bo‘yicha, nogironlik hamda boquvchisini yo‘qotganligi bo‘yicha pensiya.

Ijtimoiy sug‘urtaning quyidagi turlari farqlanadi:

1. Majburiy ijtimoiy sug‘urta. Bu iqtisodiy faol aholini o‘z daromadini mehnatga layoqatsizligi tufayli (kasallik, baxtsiz hodisa, keksalik) yoki ishsiz qolgani sababli yo‘qotish xavfidan ijtimoiy himoyalash institutidir. Mazkur tizimning moliyaviy manbalari–ish beruvchilar, xodimlarning sug‘urta to‘lovlari - badallari hisoblanadi. Ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisalarni sug‘urtalash tizimlari bundan mustasno, ular faqat xodimlarning badallari hisobidan ta‘minlanadi.

Ijtimoiy sugʻurta tizimlari doirasidagi pensiya va nafaqa pullari fuqaroning sugʻurta huquqiga koʻra, shuningdek uning va ish beruvchining ushbu tizimlarning moliyalashtirilishidagi ishtirokidan kelib chiqqan holda beriladi.

Ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning muhim jihati–mahrum boʻlgan ish haqining oʻrnini qoplash omilidir. Unga koʻra, pensiya va va nafaqa miqdorlari avvalgi ish haqi va badallar miqdori bilan bogʻliq boʻlib, maʼlum sugʻurta davri mavjudligi har qanday muhtojlik tekshiruvlarsiz belgilanadi.

Majburiy sugʻurta toʻlovlari miqdori jamiyatda shakllangan ijtimoiy kafolat darajalari bilan bogʻliq va ular xodim bilan ish beruvchi oʻrtasida, davlat ishtirokida tuziladigan shartnomalar asosida shakllanadi.

2. Ixtiyoriy qoʻshimcha (kasbiy) ijtimoiy sugʻurta. Sugʻurtaning bu turi iqtisodiyotning alohida tarmoqlari yoki korxonalar doirasida yollanma xodimlar uchun uzoq muddatli tarmoqli va jamoa shartnomalari asosida tashkil etiladi. Odatda, ixtiyoriy qoʻshimcha ijtimoiy sugʻurta tizimi xususiy tushga ega boʻladi, biroq ular maxsus qonunchilik bilan tartibga solinadi. Bunda sugʻurtalanuvchilar uchun ijtimoiy kafolatlar tizimi yaratiladi. Jumladan, bir korxonada ishlashning eng kam muddati belgilanadi, ushbu muddat tugagach, xodimda qoʻshimcha ijtimoiy himoya turlaridan foydalanish huquqi paydo boʻladi. Masalan, pensiya taʼminoti, sugʻurtalanuvchi oʻz ish joyini oʻzgartirgan holda sugʻurta boʻyicha qoʻlga kiritgan huquqlari saqlanib qoladi.

Ijtimoiy himoyaning ushbu instituti tashkiliy-huquqiy shakllari alohida korxonalarning pensiya tizimlari hisoblanadi. Buning uchun pensiya huquqlarini amalga oshirishni kafolatlash maqsadida zahira pensiya jamgʻarmasi tuziladi. Korxonada yoki mustaqil pensiya kassasi mablagʻ ajrata olmagan holda jamhurma toʻlov majburiyatini oʻz zimmasiga oladi.

Hozirgi davrda nodavlat pensiya jamgʻarmalari rivojlanib bormoqda. Ular oʻzining huquqiy maqomiga koʻra ijtimoiy taʼminotning

notijirat tashkiloti bo‘lib, majburiy ijtimoiy sug‘urta tizimiga ixtiyoriy qo‘shimcha shakl sifatida faoliyat olib boradi.

3. Fuqarolarning xususiy sug‘urtasi. Sug‘urtaning bu turi shartnoma asosida rasmiylashtiriladi, uning doiralari, amal qilishi muddatlari, jismoniy shaxslarning moliyaviy imkoniyatlari, tavakkalchilik turlari bilan cheklangan bo‘ladi. Ushbu sug‘urta shakli uchun fuqarolarning o‘zlari mas’ulligi xosdir.

Xorijda aholini ijtimoiy himoya qilish haqida fikr yuritar ekanmiz, eslatib o‘tish joizki, “Ijtimoiy himoya” atamasi birinchi marta 1935 - yilda AQSHning “Ijtimoiy xavfsizlik bo‘yicha Qonun” deb nomlangan huquqiy hujjatida qo‘llanilgan. Mazkur qonunga ko‘ra, mamlakat har bir fuqarosining ishsizlik yoki daromadni yo‘qotish, shuningdek, uning keskin kamayib ketishi (kasallik tufayli, farzand tug‘ilishi natijasida, ishlab chiqarish jarohati oqibatida, nogironlik sababli) bois iqtisodiy va ijtimoiy ne‘matlardan mahrum bo‘lishdan himoya qiluvchi chora-tadbirlar tizimi ijtimoiy himoya deb e’tirof etilgan. Bundan keyin bu atama Yangi Zelandiyaning 1938 - yili qabul qilingan qonun hujjatida qo‘llanilgan.

“Aholini ijtimoiy muhofaza qilishi” tushunchasining iqtisodiy mazmunini aniqlashda Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va Xalqaro mehnat byurosi (XMB) ekspertlarining alohida nuqtayi nazari mavjud. Ular ijtimoiy himoya masalasiga ikki tomonlama yondoshadilar. Ya’ni keng ma’nodagi ijtimoiy himoya-inson hayoti va faoliyatining deyarli barcha sohalarini qamrab oluvchi (ijtimoiy himoya predmeti) va tor ma’nodagi ijtimoiy himoya-ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy yordam (ijtimoiy himoya mexanizmi sifatida). Bu o‘rinda ijtimoiy himoyaning bu ikki turi o‘rtasida jiddiy farq yo‘qligini ham ko‘rsatib o‘tish lozim.

Yuqoridagilardan aholining ijtimoiy himoyasi—bu davlat tomonidan aholining munosib turmushni, ya’ni jamiyat rivojining zamonaviy bosqichidagi standartlariga mos bo‘lgan moddiy ta’minotni va insonning erkin rivojlanishini ta’minlash maqsadida davlat tomonidan kafolatlanadigan va amalga oshiriladigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy tavsifdagi chora-tadbirlar majmuasi ekanligi to‘g‘risida xulosa chiqarish mumkin.

Davlat ijtimoiy yordami–mehnatga layoqatsizligi, ishsizligi, daromad manbai mavjud bo‘lmaganligi sababli mustaqil ravishda o‘zini moddiy ta‘minlay olmagan shaxslarga davlat tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam hisoblanadi. Bu yordam turining hajmi shaxs daromadi yoki aholining umumiy turmush darajasi bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Ijtimoiy yordam doirasidagi nafaqa va yordam pullari faqat amaldagi qonunchilikda belgilab qo‘yilgan aholi toifalariga beriladi. Mazkur himoya institutining asosiy jihati–bu aholining kam ta‘minlangan guruhlariga (bolalikdan nogiron, boshqa nogiron bo‘lgan shaxslar, pensiya olish uchun zarur sug‘urta maqomiga ega bo‘lmagan fuqarolarga)davlatning ijtimoiy-shartnomasiz yordam ko‘rsatishidir.

Jismoniy shaxs tomonidan ijtimoiy yordam olishi uning ijtimoiy mehnat faoliyatidagi ishtirokiga bog‘liq bo‘lmaydi. Ushbu tizimning ijtimoiy yordam pullari muhtoj shaxsning daromadi tekshirilganidan keyin, unga tirikchilik o‘tkazishning eng kam darajasini ta‘minlash maqsadida beriladi. Bunga shaxsda tirikchilik o‘tkazishning eng kam darajasi hajmida mablag‘ning mavjud emasligi asos bo‘ladi.

Ijtimoiy himoya tizimida nafaqa va yordam puli miqdori oila a‘zolarining daromadlarini hisobga olgan holda belgilanib, bu ularning umumiy daromad hajmi o‘rnatilgan tirikchilik ko‘rishning eng kam miqdoriga etishi(ta‘minotiga yetarli minimum darajasi) uchun tayinlanadi. Ijtimoiy himoya ushbu institutining moliyaviy manbai hududiy va mahalliy byudjetlar hisoblanadi. Bu mablag‘lar umumiy soliq tizimi va maxsus maqsadda yig‘iladigan soliq hisobidan shakllanadi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining shakllanishi va uning insonni rivojlantirishdagi roli o‘z tarixiga ega. Misol, XIX asr o‘rtalaridan boshlab ijtimoiy huquqlar fuqarolik huquqlari bilan bir qatorda insonning tabiiy huquqlarining ajralmas qismi sifatida e‘tirof etila boshlandi. Lekin ijtimoiy huquqlarning tabiati va mohiyati to‘g‘risidagi tasavvurlar keyingi uch asr davomida jamiyat va davlatning tadrijiy rivojlanishi jarayonida hamda asosiy siyosiy doktrinalarni modernizatsiyalash davomida to‘xtamasdan rivojlanib bormoqda.

Xorij mamlakatlarida ijtimoiy ishning rivojlanishiga xos misol, Tomas Morning “Utopiya” (1516 - yil) asaridan²⁸ boshlab tenglik va adolat tushunchasiga davlat tuzilishi bilan bog‘liq ravishda qaraladigan bo‘ldi.

Jamiyatning teng imkoniyatlarga ega bo‘lishda ijtimoiy adolatsizlikka munosabatlari davlatni tenglikni amalda ta‘minlash bo‘yicha ma’suliyatni o‘z zimmasiga olishini talab etadi. Shuning uchun davlat qonun yo‘li bilan shart-sharoitlarning tengligi yagona mezonlarini belgilaydi hamda ayrim toifadagi odamlar noqulay ijtimoiy ahvolini qoplash uchun teng sharoitlarni iqtisodiy jihatdan ta‘minlash ma’suliyatini o‘z zimmasiga oladi.

Xorijda ijtimoiy ishning rivojlanishini yoritishda “Adolat” tushunchasiga to‘xtalib o‘tamiz. “Adolat” tushunchasi uning asosiy ikki turi – kommutativ va taqsimlash adolatini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

1. Kommutativ adolat–huquqlarning rasmiy tengligidir. Rasmiy tenglikning asosiy g‘oyasini juda qadimiy prinsip – “Har kimga–xizmatiga yarasha” yoki zamonaviy “Har kimga–mehnatiga yarasha” tashkil etadi.

Ijtimoiy siyosatda kommutativ adolat shaxsiy sug‘urta mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Bunda nafaqa to‘lash qo‘shimcha ijtimoiy ne‘matlar uchun xizmatlar ko‘rsatish, masalan veteranlarni ijtimoiy qo‘llab–quvvatlash uchun badallar to‘lashni qoplashni nazarda tutadi.

2. Taqsimlash adolati. Ijtimoiy siyosatda taqsimlash adolati bevosita tenglik g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘lib, alohida ahamiyatga egadir.

Mazkur sohada xorijlik eng mashhur tadqiqotchilardan biri J.Rolz²⁹ taqsimlash adolatiga ta’rif berar ekan, barcha ijtimoiy ne‘matlar–erkinlik va imkoniyat, daromad, mulk, o‘z qadr–qimmatini

²⁸Томас Мор (Sir Thomas More, кўпроқ Saint Thomas More сифатида танилган, 1478-1535) - инглиз мутафаккири, ёзувчи.

²⁹Жон Ролз (John Bordley Rawls, 1921-2002) - америкалик файласуф, АҚШнинг ҳозирги даврдаги сиёсати негизини ташкил қиладиган ички ва халқаро ҳуқуқнинг либерал-давлат концепциясининг асосчиси. Асосий асарлари: “Адолат назарияси” (“A Theory of Justice”; 1971), “Сиёсий либерализм” (“Political Liberalism”; 1993), “Халқлар қонуни” (“The Law of Peoples”; 1999)

hissi teng taqsimlanishi zarur deb hisoblangan. Bunda mazkur ne'matlardan qaysidir birini yoki hammasini notekis taqsimlashga faqat hammaning manfaati yo'lida istisno tariqasida yo'l qo'yilishi mumkin.

Taqsimlash adolati, eng avvalo, iqtisodiy sohada amaldagi tengsizlikni ta'minlashga qaratilgan hamda ne'matlarni boylar va kambag'allar o'rtasida qayta taqsimlashni nazarda tutadi. Hozirgi vaqtda taqsimlash adolati ko'pincha ijtimoiy adolat deb yuritiladi.

Kommutativ adolatdan farqli ravishda taqsimlash adolatini tashqi kuchlarning aralashivisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Kingadir nimanidir berish uchun, bu narsani kimdandir olish kerak. Buning uchun esa hokimiyat zarur. Mansab, amal, davlatga esa, kurashsiz erishilmaydi. Davlat o'z zimmasiga taqsimlash adolatini amalga oshirish vazifasini olar ekan, buni qayta taqsimlash orqali bajaradi. Ana shunday qayta taqsimlash insonning maqbul turmush tarzi, ijtimoiy muhofaza qilinishi va eng kam miqdordagi ijtimoiy ne'matlarga ega bo'lishidan iborat himoya qilinishi insonning o'z ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan tabiiy huquqlarini ta'minlaydi.

Biroq, kommutativ adolat g'oyalari tenglik prinsipiga zid kelib qolishini ham hisobga olish lozim. Odamlarning bir-biridan tabiatan farq qilinishi tengsizlik paydo bo'lishining birlamchi mohiyati bo'lib, buni imkoniyatlardagi tenglik bilan to'la qoplab bo'lmaydi. "Har kimga – xizmatiga yarasha" prinsipini amalga oshirishga intilinar ekan, kommutativ adolat odamlarning tabiiy tengsizligini yanada chuqurlashtiradi. Ana shunday hollarda davlat, agar u o'zining oldiga ijtimoiy maqsadlarga erishish va ijtimoiy himoyalashni bajarish vazifasini qo'yar ekan, ya'ni ijtimoiy davlat ekanligini amalga oshirishga harakat qilar ekan, o'z zimmasiga adolatning turli usullarini amalga oshirish ma'suliyatini olishi mumkin.

Yana bozor munosabatlari rivojlanishi tarixiga qaytsak, XIX asrning o'rtalariga kelib davlat tomonidan ijtimoiy himoyalash rolining ortishi bilan davlatning ijtimoiy mohiyati nazariyasi qayta ko'rib chiqishni talab eta boshladi. Davlatning yangi, ijtimoiy xususiyatini mustahkamlab qo'yish zaruriyati paydo bo'ldi. 1850 - yilda

Lorens fon Shteyn³⁰ tomonidan kiritilgan “ijtimoiy davlat” tushunchasi huddi shu maqsadga qaratilgan edi. Lorens fon Shteyn ijtimoiy davlat barcha ijtimoiy sinflar va alohida shaxslar uchun huquqlardagi mutlaq tenglikni o‘z hokimiyati vositasi bilan qo‘llab-quvvatlashi shart deb ko‘rsatgan. Shuningdek, uning fikricha, davlat barcha fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiy etishiga yordam ko‘rsatishi zarur, zero bir shaxsning rivojlanishi boshqa shaxsning rivojlanishi sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyatda ijtimoiy davlat to‘g‘risida fikr-mulohazalar bildirilganda, bevosita ana shu ma’noda gap boradi.

“Ijtimoiy davlat” atamasining paydo bo‘lishi davlatchilik tabiati o‘zgarishini prinsipial jihatdan anglash bo‘ldi. Mazkur tushuncha “Ijtimoiy shartnoma sifatidagi davlat”, “Hokimiyatning oliy shakli sifatidagi davlat”dan ijtimoiy funksiyalarni zimmasiga olgan davlatga o‘tilishini aks ettirdi.

Germaniyada XIX asrning 80 - yillarida “ijtimoiy davlat” atamasi bilan bir qatorda boshqa tushuncha - “farovonlik davlati” paydo bo‘ldi. “Farovonlik davlati” siyosati o‘zining barcha fuqarolari turmushini yaxshilashga yo‘naltirilganligini anglatardi. Bunday siyosatning asosini fuqarolarga ijtimoiy huquqlarni kafolatlash, davlatning esa o‘z zimmasiga ijtimoiy mas’uliyatni olishi deb hisoblangan.

Ijtimoiy davlat prinsipi qator mamlakatlarning rasmiy doktrinasiga aylandi. Bu prinsip Veymar respublikasining 1919 - yilgi konstitutsiyasida va Chexoslavakiyaning 1920 - yilgi konstitutsiyasida huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan edi.

Germaniyada esa 1871 yilda tarixda birinchi marta ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalardan davlat ijtimoiy sug‘urtasi joriy etildi. 1880 yilda ushbu davlat tibbiy yordam ko‘rsatishni moliyalashtirishni

³⁰Лоренц фон Штейн (Lorenz von Stein, 1815-1890) — немис файласуфи, хукукшунос, тарихчи, иқтисодчи, “ижтимоий давлат” ғоясининг муаллифи. Асосий асарлари: “Францияда ижтимоий ҳаракатнинг 1789 йилдан ҳозирги кунгача тарихи” (“Geschichte der sozialen Bewegung in Frankreich von 1789 bis auf unsere Tage”, 1850), “Бошқарув тўғрисидаги таълимот” («Die Verwaltungslehre», 1865—1868), “Германияда давлат ва хукук тўғрисидаги фаннинг бугунги ва эртанги куни” (“Gegenwart und Zukunft der Rechts- und Staatswissenschaft Deutschlands — Stuttgart”, 1876).

boshladi, 1883 yilda esa kasallanish bo'yicha nafaqa to'lashga kirishildi. Germaniyada 1910 - yilda majburiy pensiya sug'urtasi ham joriy etildi.

Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalardan ijtimoiy sug'urtalash Avstriyada 1887 - yilda, Fransiyada 1898 - yilda, Norvegiyada - 1894 yilda, Yangi Zelandiyada 1900 - yilda, Shvetsiyada 1901 - yilda yo'lga qo'yildi. XIX asrning 70 - yillaridan boshlab Ikkinchi jahon urushiga qadar Yevropa va Amerikadagi barcha mamlakatlarda davlat sug'urtasi ijtimoiy xavf mavjud sohalarni to'la qamrab oldi. Davlat fuqarolarning farovonligi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi. Jamiyatning barcha a'zolari ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishdan foydalanishlari ta'minlandi. Shu bilan bir qatorda, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy yordam ko'rsatish davlat tizimi yaratildi, ijtimoiy dasturlarni byudjetdan moliyalashtirish yo'lga qo'yildi, davlat ijtimoiy sug'urtasi sifatidagi ijtimoiy siyosatning yangi mexanizmlari amal etish boshladi.

XX asrning birinchi choragiga kelib, ko'pgina mamlakatlarda ijtimoiy qonunlar qabul qilindi, ijtimoiy davlat prinsiplari joriy etila boshlandi. Ijtimoiy qonunchilikning paydo bo'lishi hamda uning boshqa huquqiy-normativ hujjatlari bilan bevosita bog'lanishi ijtimoiy normalar va standartlarning huquqiy asosini yaratish zaruriyatini tug'dirdi.

1930 yilda "ijtimoiy huquqiy davlat" tushunchasi paydo bo'ldi. Ijtimoiy huquqiy davlatning asosiy g'oyasi davlat tomonidan fuqaro huquqlarining ijtimoiy kafolatidir. Ijtimoiy davlatning uning huquqiy mohiyati bilan bog'lanishi davlat ijtimoiy funksiyalarini mustahkamlab qo'yishda olg'a qarab katta qadam bo'ldi. Davlatning ijtimoiy himoyalash vazifalari faqat huquqiy asoslarga ega bo'lib qolmasdan, shu bilan birga, davlatning o'zining huquqiy asosini ham mustahkamladi.

Insonning shaxsiy huquqlari davlat butun huquqiy tizimining tamal toshiga ham aylandi. Davlatning huquqiy tizimi hokimiyatni-saylov huquqi, davlatning siyosiy tabiatini-fuqarolar huquqi, ijtimoiy majburiyatlarini va ijtimoiy funksiyalarini-ijtimoiy huquqlar orqali belgilab qo'yildi.

Ijtimoiy davlat to'g'risidagi tasavvurlarni rivojlantirishda 1942 - yilda U.Beverijning³¹ Buyuk Britaniya parlamentidagi "Erkin jamiyatdagi ish bilan to'liq bandlik" deb nomlangan mashhur ma'ruzasi asos bo'ldi. Ushbu ma'ruzada "farovonlik davlati"ning asosiy tamoyillari ko'rsatildi hamda birinchi marta kafolatlangan yagona milliy eng kam daromad g'oyasi ilgari surildi.

Bu maqsadlarga erishishda davlatning ijtimoiy siyosati uning mehnatga layoqatli aholini ish bilan bandligini to'la ta'minlashga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosati bilan chambarchas bog'liq bo'lishi zarur edi. Shu vaqtdan boshlab "farovonlik davlati" ijtimoiy davlat sinonimiga aylandi. Mazkur bosqichda "farovonlik davlati" ijtimoiy himoyalash vazifasining namoyon bo'lishi ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda o'z ifodasini topdi.

Davlatning yangi ijtimoiy funksiyasi-ijtimoiy xizmatlarning xususiyati shundan iborat ediki, davlat insonga u tomonidan turmush kechirishning muayyan standartlariga erishish imkoniyati yo'qligini shunchaki qoplabgina kolmasdan, balki mazkur standartlarga erishishi uchun shart-sharoitlarni faol shakllantirishi zarur edi. Bunda davlat barcha ijtimoiy guruhlar uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratish mas'uliyatini o'z zimmasiga olardi. Amalda bu davlatning nofaol bo'lgan ijtimoiy siyosatdan faol ijtimoiy siyosatga o'tishini anglatardi.

Davlatning ijtimoiy tabiati birinchi marta Germaniya Federativ Respublikaning 1954 - yilgi konstitutsiyasida o'z ifodasini topdi. Ushbu konstitutsiyada "Germaniya Federativ Respublikasi demokratik va ijtimoiy huquqiy federativ davlat" deb belgilab qo'yildi. Mazkur qoida amalda hukumatning inson uchun munosib bo'lgan turmush darajasini ta'minlash, barcha ijtimoiy guruhlar asosiy hayotiy ehtiyojlarini

³¹Уильям Генри Беве́риж (William Henry Beveridge, 1st Baron Beveridge, 1879-1963) – инглиз иқтисодчиси. Асосий асарлари: "Ишсизлик: саноат муаммоси ("Unemployment: A problem of industry", 1909); "Англияда ўн иккинчи асрдан ўн тўққизинчи асргача нархлар ва иш ҳақи" ("Prices and Wages in England from the Twelfth to the Nineteenth Century", 1939); "Ижтимоий суғурталаш ва уюшма хизматлари" "(Беве́риж ҳисоботи" деб ҳам аталади) ("Social Insurance and Allied Services", 1942), "Иш билан тўла бандлик ва эркин жамият" ("Full Employment in a Free Society", 1944); "Иш билан тўла бандликнинг иқтисодий назарияси" ("The Economics of Full Employment", 1944).

qondirishga yo'naltirilgan siyosat o'tkazish mas'uliyatini bildirardi. Ijtimoiy davlat maqomi 1958 - yilda Fransiyada, 1972 - yilda Shveysariyada, 1975 - yilda Shvetsiyada, 1978 - yilda Ispaniya va Turkiyada joriy etildi.

Davlatning ijtimoiy himoyalsh vazifalari va uning ijtimoiy maqomi qator xalqaro hujjatlar: Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 55-moddasi, Yevropa Kengashi Ustavining 1-a va 1-b-moddalari, 1973 - yilgi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi paktda mustahkamlab qo'yilgan.

Mazmun jihatidan "ijtimoiy davlat" bilan "farovonlik davlati" tushunchalari o'rtasidagi yaqinlikka qaramasdan ularda rivojlanishning ob'yektiv shart-sharoitlari va davlat qurilishining milliy amaliyoti aks etgani holda muayyan farqlar ham mavjudligini ko'rsatish lozim.

"Ijtimoiy davlat" tushunchasini talqin etishdagi farqlar ayniqsa "farovonlik davlati" tushunchasi o'rniga "yalpi farovonlik davlati" tushunchasi paydo bo'lgandan so'ng yaqqol sezila boshlandi.

"Yalpi farovonlik davlati" g'oyasi XX asr 50-60-yillarida rivojlangan davlatlarda turmush darajasi keskin oshishi asosida paydo bo'ldi. Bu paytga kelib ijtimoiy xavflarni sug'urtalash tizimi odamlarning o'z kelajaklaridagi mavhumlikni amalda to'la qoplaydigan bo'ldi. Davlatning avvalgi shakllaridan farqli ravishda "yalpi farovonlik davlati" butun aholiga turmush sifatining nisbatan teng va yuqori darajasini ta'minlash mas'uliyatini zimmasiga oldi.

Biroq, jamiyat barcha a'zolari uchun yagona farovonlikni ta'minlash rejalari iqtisodiy, demografik cheklovlar va sug'urta mexanizmi inqirozi sababli jiddiy muammolarga duch keldi. XX asr 70-yillaridan boshlab ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy ta'minot uchun xarajatlar daromadlarga nisbatan yuqoriroq sur'atlarda ortadigan bo'ldi. Bu esa hamma joyda soliqlarni va ijtimoiy ta'minot tizimiga majburiy badallarni oshirishni talab etdi. Iqtisodiyotga bunday bosim, o'z navbatida, uning samaradorligi yo'lida to'siq bo'ldi hamda majburiy badallar va soliqlar yukini kamaytirish zaruratini tug'dirdi. Oqibatda ijtimoiy dasturlar va nafaqalar qisman qisqartirildi. Eng asosiysi -ushbu holat davlat ijtimoiy siyosatini isloh qilish zaruratini tug'dirdi.

Moliyaviy muammolar ijtimoiy yordam ko'rsatishning manzilliligi (tanlanishi) tamoyilining keng yoyilishiga sabab bo'ldi. Moliyaviy resurslar yetarli bo'lmagan, ehtiyojlar ortadigan inqiroz davrlarida eng muhtoj fuqarolarga nafaqalarni aniq maqsadli taqdim etish zarurati paydo bo'ladi. Hozirgi davrda nafaqalarning manzilliligi prinsipi ko'pgina mamlakatlarda joriy etilgan. Bunda ana shu nafaqalarning miqdori daromadlar yoki ta'minlanganlik umumiy darajasiga bog'liq ravishda o'zgarib boradi. Xorij tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, aholini ijtimoiy muhofaza qilish aholining ehtiyojmand qatlamlariga pensiya, nafaqa, imtiyozlar, moddiy yordam berish, xizmatlar ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.

Ayni zamonda jahon tajribasi ijtimoiy himoya tizimining to'rtta asosiy tarkibiy qismini ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

1. Mehnatga layoqatli bo'lmaganligi, ish joyi, daromad manbalari mavjud emasligi sababli o'z-o'zini mustaqil ravishda moddiy jihatdan ta'minlashga qodir bo'lmagan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilish.

2. Davlat ijtimoiy va pensiya ta'minoti. Bu iqtisodiy faol aholining ish joyini yo'qotish yoki pensiya yoshiga yetishi bilan daromaddan mahrum bo'lish xavfidan ijtimoiy himoya qilish tizimi bo'lib, majburiy ijtimoiy sug'urtalash shaklida amalga oshiriladi.

3. Ixtiyoriy qo'shimcha (kasbiy) sug'urtalash. Bu alohida tarmoqlar va korxonalar doirasida uzoq muddatli jamoa bitimlari asosida amalga oshiriladi.

4. Fuqarolarning ixtiyoriy ravishda o'z-o'zini shaxsiy sug'urtalashi.

Aholining ijtimoiy muhofazaga ehtiyojmand sub'yektlariga quyidagi guruhlar kiradi:

- pensionerlar. Aholining bu guruhi pul ta'minoti huquqiga ega fuqarolar bo'lib, ularning bu huquqi tegishli qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Muayyan yoshga (erkaklar 60 yosh, ayollar 55 yosh, ayollarga nisbatan ayrim hollar bundan istisno) etgan fuqarolar pensiyaga chiqish huquqiga egalar.

Nogironlikning tegishli guruhi belgilangan shaxslar, oila boquvchisining qaramog'idagi mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari,

shuningdek, boquvchisidan ajragan bolalar (14 yoshgacha bo'lgan bolalar) parvarishi bilan mashg'ul shaxslar, uzoq vaqt muayyan kasbiy faoliyatni bajarib kelgan xodimlarning ayrim toifasi;

- ichki ishlar idoralarida harbiy xizmatni o'taganlar, ularning oila a'zolari ham aholining pensiya ta'minoti huquqiga ega toifasiga kiradi. Snu bilan birga, aholining bu toifasiga korxonalar, muassasa, tashkilotda ishlayotgan pensiya oluvchi fuqarolar ham kiradi;

- nogironlar. Aholining bu toifasiga jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi, turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslar kiradi. Bu toifadagi shaxslar hayot faoliyatini cheklashga olib kelgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj qilib qo'ygan jarohat yoki nuqsonlar, kasalliklar bo'yicha aniqlanadi.

Organizm funksiyasining buzilish darajasiga bog'liq holda va hayot faoliyati cheklanganligiga ko'ra birinchi va ikkinchi guruh nogironligi belgilanadi. Nogiron bolalar jismoniy yoki aqliy, sezgi nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj 18 yoshgacha bo'lgan shaxslardir. 16 yoshgacha bo'lgan bolalarni nogiron deb topish tibbiy-maslahat komissiyalari tomonidan, 16 yoshdan 18 yoshgacha esa tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

- kam ta'minlangan oilalar. Ular daromadlari tirikchilikning eng kam miqdoridan yuqori bo'lmagan oilalardir. Kam ta'minlanganlik (kambag'allik) chegarasi mutaxassislar tomonidan me'yoriy iste'mol savatchasi miqdoridan kelib chiqib belgilanadi. Hozirgi vaqtda yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizimga o'tilishi munosabati bilan bu chegarani belgilash ancha murakkab masala hisoblanadi. Kam ta'minlangan oilalarga ko'p bolali, boquvchisini yo'qotgan, nafaqaxo'r yoki pensioner bo'lgan oilalar ham kiradi;

- ishsizlar. Aholining bu toifasiga ishsiz va daromad topish manbai bo'lmagan mehnatga layoqatli fuqarolar kiradi. Bu toifadagi fuqarolar aholining ish bilan bandligi xizmatida ishsiz sifatida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tishlari talab qilinadi.

Aholining ijtimoiy muhofazaga ehtiyojmand sub'yektlariga, shuningdek, quyidagilar ham kiradi:

- homilador va yosh bolalarga qarash bilan bandligi tufayli ishlamayotgan ayollar;

- kasallik tufayli vaqtincha ishlamayotgan fuqarolar;

- o'quvchi - yoshlar;

- mehnatga layoqatsiz shaxslarning parvarishi bilan band bo'lgan, ishlamayotgan mehnatga layoqatli fuqarolar ham kiradi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimida quyidagi darajalarni ajratib ko'rsatish qabul qilingan:

- aholini davlat tomonidan muhofaza qilish;

- aholini davlat hokimiyatining mahalliy organlari tomonidan muhofaza qilish;

- aholini ijtimoiy birlashmalar, shu jumladan, kasaba uyushmalari tomonidan muhofaza qilish;

- xodimlarni ish beruvchilar tomonidan muhofaza qilish;

- oilaviy himoya va o'zini o'zi himoya qilish.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilishda davlat hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki, boshqa institutlar aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasida davlat tomonidan belgilangan maqsadlarga erishishda davlatga ko'maklashadilar. Davlat aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqa institutlari bilan munosabatlarini ijtimoiy sherikchilik asosida yo'lga qo'yadi.

Demak, ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minot bir ma'noli emas, balki turdosh tushunchalardir. Ulardan ilmiy ta'riflar sifatida foydalanilganida ijtimoiy himoya ijtimoiy ta'minotning tarkibiy qismi sifatida o'z ichiga oladi, bundan tashqari, u inson hayot faoliyatining normal shart-sharoitlarini ta'minlovchi mehnat, sog'liq va tabiiy muhitni muhofaza qilish, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori kabi kafolatlarni qamrab oladi.

Chet ellar ijtimoiy himoya modellari: liberal, sotsial-demokratik, konservativ (korporativ). Ijtimoiy himoya modellari deganda ijtimoiy himoyaning tur va shakllarini tushinish nazarda tutiladi. Daniyalik sotsiolog Gesta Esping-Andersen tasnifiga ko'ra,

ijtimoiy himoyaga nisbatan jahonda mavjud yondashuvlardagi jiddiy farqlar mavjud bo‘lib, ularning modellari haqida tasavvur hosil qilish ijtimoiy ish xodimiga ularni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Gesta Esping-Andersen ijtimoiy davlatlarning uch asosiy modelini:

- liberal;
- konservativ (korporativ);
- sotsial-demokratik modellarini bir biridan farqlaydi³².

AQSH, Kanada, Avstraliya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarga xos bo‘lgan liberal modelning shakllanishi xususiy mulk hukm surgan, bozor munosabatlari yetakchilik qilgan sharoitda, liberal mehnat axloqi ta’sirida amalga oshgan. Bu model faoliyatining asosiy shartlari quyidagilardir:

- bozor munosabatlariga davlatning mumkin qadar kam aralashuvi;
- davlat tomonidan tartibga solish choralarining kam qo‘llanilishi, bunda makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish doirasidan chetga chiqmaslik;
- yalpi ichki mahsulot (YaIM)da iqtisodiyot davlat sektori ulushining ozligi. Fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash rivojlangan sug‘urta tizimlari hisobidan amalga oshiriladi. Bu jarayonga davlat mumkin qadar kam, minimal aralashadi, u asosan muayyan kafolatlarni tartibga solish bilan shug‘ullanadi. Sug‘urta to‘lovlarining miqdorlari, odatda, uncha katta bo‘lmaydi. Transfert to‘lovlari, ya’ni davlat byudjetidan aholining har xil guruhlariga nafaqalar va subsidiyalar tarzida bevosita o‘tkaziladigan soliqlardan olingan moliyaviy mablag‘lar miqdori ham ko‘p emas.

Ishlab chiqarish munosabatlari sohasida tadbirkorlik ishlab chiqarish faoliyatining rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lishi. Korxonalar egalarining ishlab chiqarishni rivojlantirish va unda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, shu jumladan, keraksiz bo‘lib qolgan xodimlarni ishdan bo‘shatish huquqlari

³²Esping-Andersen G. The three worlds of welfare capitalism. Princeton New Jersey:Princeton University Press, 1993. – P 25.

biron-bir tarzda cheklanmaydi. Bunday holatning o'ta liberal shakli AQSHga xosdir. Bu yerda 1948 - yildan beri amal qiladigan mehnat bitimlari to'g'risidagi qonun yoki "Vagner qonuni"ga binoan, korxonalar ma'muriyati ishlab chiqarish qisqargan yoki modernizatsiya qilingan holda xodimlarni ogohlantirishsiz yoki ikki-uch kun oldin ogohlantirish yo'li bilan, mehnat staji va malakasini hisobga olmasdan bo'shatishga haqli.

Bu model iqtisodiy barqarorlik yoki o'sish sharoitida o'zining asosiy vazifasini bajaradi, biroq ishlab chiqarish pasaygan va majburiy qisqartirilgan, ijtimoiy dasturlarning aksariyat qismidan voz kechilgan sharoitda ko'pgina ijtimoiy guruhlar, avvalo xotin-qizlar, yoshlar va qariyalar og'ir ahvolga tushib qoladi.

Konservativ (korporativ) model ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarga xosdir. Ularning orasida kontinental Yevropaning Avstriya, Germaniya, Italiya, Fransiya kabi mamlakatlari bor. Bu yerda davlat mavqeyi ancha kuchli: ijtimoiy tadbirlarga byudjetdan ajratiladigan mablag'lar xodimlar va ish beruvchilarning sug'urta badallariga taxminan teng, qayta taqsimlashning asosiy kanallari yo davlat ixtiyorida, yo uning nazorati ostida. Ayni vaqtda davlat fuqarolarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash vazifasini sug'urta himoyasi tizimiga topshirishga harakat qiladi. Shu tufayli ijtimoiy nafaqalar miqdori mehnatdan olingan daromadlarga va tegishli ravishda sug'urta to'lovlariga qilingan ajratmalarning miqdorlariga bog'liq bo'ladi. Korxonalarining egalari hamda yollanma xodimlarning manfaatlarini ifoda etuvchi nufuzli kasaba uyushmalari birgalikda boshqaradigan sug'urta kassalarining "o'zini o'zi boshqarishi" mazkur modelning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Ishsizlik yuz bergan holda kafolatlangan to'lovlar miqdori mehnat stajiga, to'lovlar muddati esa sug'urta badallarini to'lashning davomiyligi, ularning miqdori va xodimning yoshiga bog'liq, bo'ladi. Ko'pgina mamlakatlarda ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lash davri 50 yoshdan katta shaxslar uchun oshirilgan.

Sotsial-demokratik model (u ba'zan solidar model deb ham ataladi) aholini himoyalashda, davlat yetakchi rol o'ynashini nazarda tutadi.

Aholining daromadlari darajasini tenglashtirish va aholini yalpi ish bilan ta'minlash davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor vazifalari hisoblanadi. Bu model Skandinaviya mamlakatlari-Shvetsiya, Norvegiya, Finlyandiya, Daniyada, shuningdek, Gollandiya va Shveytsariyada o'zining amaliy ifodasini topgan. Iqtisodiyotning rivojlangan davlat sektori ijtimoiy sohani moliyalashtirish negizi bo'lib xizmat qiladi. Bu negizni mustahkamlashga soliq solish darajasi juda yuqori ekanligi ham ko'maklashadi. YaIMda davlat xarajatlarning ulushi Shvetsiyada 66%, Daniyada 61%, Finlyandiyada 56% ni tashkil etadi. Bu xarajatlarning asosiy qismi ijtimoiy ahamiyatga molik ob'yektlarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltiriladi. Bu xarajatlar orasida transfert to'lovlarining ulushi ham ancha katta bo'lib, ularning yordamida milliy mahsulotni aholining kam ta'minlangan tabaqalari foydasiga qayta taqsimlash amalga oshiriladi.

Ushbu modelning boshqa o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardir:

- ishlab chiqarish demokratiyasining rivojlangan tizimi;
- mehnat munosabatlari ayrim korxonalar yoki tarmoqlar darajasida emas, balki umummilliy miqyosda tartibga solinishi;
- ishsizlik darajasini mumkin qadar kamaytirishga imkoniyat yaratadigan ta'sirchan vositalardan foydalanilishi.

Shvetsiyada qabul kilingan ijtimoiy davlat doktrinasi ayniqsa mashhurdir. U ko'pincha egalitar doktrina deb ataladi. U davlatning o'z fuqarolariga g'amxo'rlikni milliy siyosat darajasiga ko'taradi, ularga xavfsizlik va ishonchlilikni, xavf tug'ilgan hollarda himoya qilishni, shuningdek, himoyani tashkil etish va unga rahbarlik qilishni va'da qiladi. Shvetsiyada qarindosh-urug'lari, xayriya faoliyati yoki bozorga qaram bo'lishlariga hojat yo'q. Beshikdan qabrgacha ularga davlat g'amxo'rlik qiladi.

Bu maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun 1977 - yilda Shvetsiyada ijtimoiy idora qayta tashkil etildi va ijtimoiy xizmatning ancha keng qamrovli, biroq aniq va aholiga tushunarli vazifalari ta'riflandi. Ularning orasida to'rt asosiy yo'nalishni qayd etish mumkin:

- daromad olishni kafolatlash;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;

- aholiga xizmatlar ko'rsatish (shu jumladan sog'liqni saqlash);
- mehnat muhitini muhofaza qilish.

Har bir yo'nalish uchun muayyan ijtimoiy institut javob beradi.

Yuqorida qayd etilgan uch model jahonning biron-bir mamlakatida sof holda uchramaydi. Ijtimoiy davlatning "ideal tiplari" sifatida qaraladigan bu modellarning har biri o'z afzalliklari va kamchiliklariga ega. Amalda liberal, korporativ va sotsial-demokratik modellar ko'rinishlarining muayyan uyg'unligi ko'p kuzatiladi. Masalan, Kanadada sug'urta pensiyasi bilan bir qatorda "xalq pensiyasi" ham mavjud. Shunga o'xshash pensiya Avstraliyada ham joriy etilgan. AQSHda ijtimoiy sug'urta kassalaridan tashqarida to'lanadigan juda ko'p nafaqalar mavjud. Bu yerda moddiy yordam ko'rsatishning 100 ga yaqin dasturlari amal qiladi. Ularning aksariyati besh federal vazirlik (sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar vazirligi, qishlok xo'jalik vazirligi, mehnat vazirligi, uy-joy qurilishi va shaharni rivojlantirish vazirligi, ichki ishlar vazirligi), shuningdek, iqtisodiy imkoniyatlar bo'yicha qo'mita, faxriylar ishlari boshqarmasi, Temiryo'lchilar pensiya ta'minoti kengashi va Noharbiy xizmat komissiyasi homiyligida amalga oshiriladi. Ayni vaqtda, bunday dasturlar aholining ayrim tabaqalari orasida ijtimoiy boqimandalikni ham rag'batlantiradi: bu yerda ikki-uch avlod jamoat manfaatlarida bir kun ham ishlamagan kishilarning katta-katta guruhlari yuzaga kelgan.

Ko'rsatib o'tilgan dasturlarning yana bir kamchiligi shundaki, ular oiladagi munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi, xususan, er-xotin ajralishi, ota-onaning alohida yashashiga turtki beradi, chunki moliyaviy yordam olish oilaviy holatga bog'liqdir.

Ijtimoiy soha doimo xalqaro tashkilotlarning diqqat markazidadir. Ular bu sohani xalqaro-huquqiy tartibga solish va muvofiqlashtirish masalalariga katta e'tibor beradi.

1966 - yilda qabul qilingan BMTning Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro bitimida ijtimoiy ta'minot sohasidagi huquqlarga bag'ishlangan bir nechta moddalar mavjud. Bu bitimga qo'shilgan mamlakatlar unga rioya etishlari shart.

Bu sohada Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) muhim rol o'ynaydi. U o'z kuch-g'ayratini ijtimoiy adolat umumiy tamoyillarini ayrim mamlakatlarning qonunchiligiga joriy etishga qaratadi. Mazkur tashkilot ratifikatsiya qilingan konvensiyalarning bajarilishi ustidan xalqaro nazorat olib borishning eng mukammal tizimlaridan biriga ega.

1952 - yilda XMT ijtimoiy himoya konsepsiyasi ifodalangan 102-son konvensiyani qabul qildi. Ushbu hujjatda barcha fuqarolar mehnat staji va to'langan sug'urta badallarining miqdoridan qat'iy nazar, ijtimoiy yordam olish huquqiga ega ekanligi e'lon qilingan va mazkur yordam ko'rsatilishi lozim bo'lgan sakkiz yo'nalish qayd etilgan:

- tibbiy xizmat ko'rsatish;
- kasallik bo'yicha nafaqa to'lash;
- qarilik pensiyasi to'lash;
- ishlab chiqarishda jarohatlanganlik uchun pensiya to'lash;
- bola tug'ilishi munosabati bilan to'lanadigan nafaqalar;
- oilaviy nafaqalar;
- nogironlarga to'lanadigan nafaqalar;
- qarovchisini yo'qotganlik uchun to'lanadigan nafaqalar.

Konvensiyada ijtimoiy yordam ko'rsatish chog'ida teng huquqlilikning asosiy prinsipi qayd etilgan: konvensiyani ratifikatsiya qilgan barcha mamlakatlar o'z hududida XMT a'zosi bo'lgan boshqa har qanday davlat fuqarosiga, shuningdek, qochoqlar hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga konvensiyada belgilangan ta'minot turlariga tegishli o'z fuqarolari bilan bir xil huquqlar berish majburiyatini oladilar. Iqtisodiy rivojlanish va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tizimining zarur darajasiga erishmagan mamlakatlarga konvensiyani "istisnolar" bilan ratifikatsiya qilish imkoniyati berilgan.

Yevropa Ittifoqi a'zolari tomonidan 1989 - yilda qabul qilingan Yevropa ijtimoiy xartiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Uning qoidalari 1995 - yil 3 -mayda qabul qilingan Xartiyaning yangi tahririda to'ldirildi va rivojlantirildi. Xalqaro shartnoma maqomiga ega bo'lmagan bu hujjatlarda ishlayotgan fuqarolar, shuningdek, ishlamaydigan, tirikchilik uchun yetarli mablag'larga ega bo'lmagan fuqarolarning ijtimoiy himoyaga bo'lgan asosiy huquqlari haqidagi tavsiya xususiyatiga ega

normalar mavjud. Xartiyani imzolagan tomonlar ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlar tuzish yo'li bilan bir mamlakat xodimlari boshqa mamlakatga migratsiya qilgan holda har bir taraf fuqarolarining ijtimoiy ta'minot sohasida tengligini ta'minlash majburiyatini olganlar.

Ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotga ega bo'lgan ko'pgina mamlakatlarda kafolatlangan eng kam daromad (nafaqa) to'g'risidagi qonun amal qiladi. Daniya bunday qonunni 1933 - yilda, Buyuk Britaniya 1948 - yilda, GFR 1961 - yilda, Gollandiya 1963 - yilda, Belgiya 1974 - yilda, Irlandiya 1977 - yilda, Shvetsiya 1982 - yilda, Luksemburg 1986 - yilda, Fransiya 1988 - yilda qabul qilgan. Xalqaro normalarga muvofiq bu qonun nafaqat tub aholiga, balki mazkur mamlakatda muayyan vaqt yashagan chet elliklarga nisbatan ham amal qiladi. Nafaqa xayriya xususiyatiga ega emas. Muayyan shartlarga rioya qilingan holda u barcha muhtojlarga qonuniy asosda tayinlanishi mumkin. Asosiy shart-umumiy daromad miqdori muayyan kattalikdan kam bo'lishi kerak. Deyarli hamma joyda bolalarga to'lanadigan nafaqa, ayrim mamlakatlarda esa turar joy uchun to'lanadigan nafaqa, alimentlar ham daromad tarkibiga kiritilmaydi. AQSHda faqat oilaning joriy daromadlari hisobga olinadi. Yosh chegaralari ham belgilangan: nafaqaga 30 yoshdan (Luksemburgda-25 yoshdan) oshgan shaxslar da'vogar bo'lishi mumkin; yoshga doir cheklashlar uylanganlar yoki bolali shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi. Nafaqa to'lash muddatining chegaralari qayd etilmagan bo'lib, vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan muhtojlikni tekshirish natijalariga ko'ra uzaytirilishi mumkin.

Ko'pgina xorij mamlakatlarida eng kam ish haqi miqdori va uni iste'mol narxlarining o'sishiga qarab vaqti-vaqti bilan indeksatsiya qilish to'g'risidagi qonun kam ta'minlangan fuqarolarni himoya qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Italiyada indeksatsiya mexanizmi narxlar indeksi bir foizga o'sgan holda, Daniyada 3%ga, Belgiyada 2%ga, Lyuksemburgda 2,5%ga o'sganida ishga solinadi. Ayrim mamlakatlar- AQSH, Kanada, Fransiya, Shveytsariyada indeksatsiya mehnat qiladigan butun aholini emas, balki yollanma xodimlarning bir qismini qamrab oladi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy himoya tizimining funksiyalari(ijtimoiy himoyalash vazifalari) va tamoyillari. Hozirgi vaqtda YI(Yevropa Ittifoqi)ning ko'pgina mamlakatlarida oila daromadini himoya qilish dasturi o'z rivojlanishining yuksak darajasiga yetgan. Skandinaviya mamlakatlarida bunday dasturlarga umumdavlat maqomi berilgan. Markaziy Yevropa mamlakatlarida bunday dasturlar mintaqaviy va mahalliy darajalarda amal qiladi. Yevropa janubidagi mamlakatlarda ular deyarli mavjud emas. Bugungi kunda dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida aholining keksayishi jarayonining rivojlanishi qariyalarning ijtimoiy muhofazasiga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Bunga misol tariqasida Yevropa mamlakatlarini keltirish mumkin. Yevropaning ko'pchilik rivojlangan mamlakatlari Ikkinchi jahon urushidan keyin bu jarayonga yuz tutganligi bois yolg'iz keksa va nogironlarni qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy ta'minot dasturlari ishlab chiqdi va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning maxsus tizimlarini yaratdi. Chunonchi, Buyuk Britaniyada keksa va nogironlarga ijtimoiy-tibbiy yordam ko'rsatuvchi muassasalar sifatida poliklinikalar, shifoxonalar, qariyalar uylari, davlat va xususiy sektordagi hamshira parvarishlash uylari, nogironlar uylari, nogiron va ruhiy kasalga chalingan kishilar uchun mehmonxona tipidagi yotoqxonalar faoliyat ko'rsatadi.

Keksa va nogironlarga yordam ko'rsatuvchi ijtimoiy xodimlar, umumiy amaliyot vrachi, gerontolog, patronaj hamshirasi, psixolog, klinika vrachi, tuman tibbiyot hamshiralaridan tashkil etilgan guruhlar keng tarqalgan.

Bu guruhlar o'z faoliyatida har bir holatga alohida yondoshib, uni har tomonlama va chuqur o'rgangan holda, mijozga uning ehtiyoji e'tiborga olingan shaxsiy reja asosida yordam ko'rsatadi. Shuningdek, mijozning ijtimoiy va ruhiy zaiflik darajasini aniqlash maqsadida uning axloqiy tavsifi ham o'rganiladi.

Buyuk Britaniyada yolg'iz keksa va nogironlarga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'yicha asosiy mas'uliyat mahalliy hokimiyatga yuklatilgan bo'lib, moliyaviy mablag'ning katta qismini ham u ajratadi.

Mamlakatda tibbiy yordam sohasida umumiy amaliyot vrachi faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida “hamshiralik ishi menejeri” lavozimi ta’sis etilgan. Bu mutaxassis yordam ko’rsatish jarayonini muvofiqlashtiradi va zarur xizmatlar bo’yicha maslahatlar beradi.

Yevropaning ko’pchilik mamlakatlarida yolg’iz keksalarga uy sharoitida yordam ko’rsatish tizimi tashkil qilingan. Xususan, Vengriyada yolg’iz qariyalar uchun maxsus kunduzgi muloqotda bo’lish va muolaja uylari faoliyat ko’rsatadi, Fransiyada yolg’iz keksalar oila homiyiligiga olingan, Boltiq bo’yi mamlakatlari Litva, Latviya va Estoniyada esa yolg’iz qariyalarga uy sharoitida yordamning patronaj xizmati rivojlangan. Shuningdek, bu mamlakatlarda maxsus tayyorlangan ijtimoiy xodimlar yolg’iz keksa bemorlarga kerakli tovarlarni xarid qilishda, ovqat tayyorlashda, xonalarni yig’ishtirishda yordam beradi, ular bilan birga mutolaa qiladi va ularga suhbatdosh bo’ladi.

Maltada qariyalarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlashning oilaviy shakli rivojlangan. Bundan 50 yil oldin mamlakatda ko’pchilik oilalar kengaytirilgan tipga tegishli edi. Hozirgi kunda oilaning bunday shakli qishloq joylarida keng tarqalgan. Bu yerda nikoh qurish an’anasiga ko’ra, yosh oilalar odatda ota-onalari bilan qo’shni yashaydi. Bu esa, o’z navbatida, keksalarga oilaviy yordamning ko’p bo’lishini bildiradi. Maltada davlat qariyalarni boqish uchun asosiy xizmatni ta’minlovchi hisoblanadi. Mamlakatda 1987-yilda keksa kishilarning muammolari bilan shug’ullanuvchi departament tuzilgan.

Departament jamiyatdan ajralmagan holda qariyalarga quyidagi qator xizmatlarni taqdim etadi:

- kunduzgi muloqotda bo’lish markazlari – qariyalarga ijtimoiy yolg’izlikdan xalos bo’lishda yordam beradi;
- uy sharoitida yordam ko’rsatish–ovqat tayyorlash, xarid qilish, uy tozalash va idish yuvish, dorixonaga borib kelish;
- usta xizmati–uyda ta’mirlash xizmatlarini taqdim etadi;
- tibbiy xizmat ko’rsatish–bu xizmat odatda, xususi muassasalarda, qisman tibbiyot hamshirasi assotsiatsiyasida ko’rsatiladi;

– “Kartanjan” xizmati – qariyalarga turli xizmat va tovarlar haqini to‘lash uchun diskont kartalar taqdim etadi;

– vaqtinchalik parvarish qilish–qariyaning qarindoshlarini ma’lum muddatga biror yoqqa chiqishiga zarurat tug‘ilganda, uning “St. Vincent de Paule” qariyalar uyida yoki xususiy muassasalarda vaqtinchalik turishini ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Ayni zamonda olimlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, qariyalarning 25 foizi u yoki bu turdagi yordamga muhtoj.

Ko‘pchilik qariyalar ularga o‘z oila a‘zolari va qo‘shnilari yordam berishini ta’kidlashgan. Bu Maltada oilaviy qo‘llab-quvvatlash hozirgacha katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. AQSHdagi qariyalarga xizmat ko‘rsatishning muhim bir shakli – bu qariyalar uyidir – “nursing home”. Qariyalar uyida yashashni xohlovchi 85 va undan katta yoshdagi kishilar juda ko‘p talablarga javob berishlari kerak.

Eng avvalo, kishi yolg‘iz bo‘lishi, ya’ni u bilan birga yashaydigan jufti bo‘lmasligi, davolashga jalb qilingan, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish imkoniyati yo‘q yoki aqliy jihatdan zaif bo‘lishi kerak.

Qariyalarni ijtimoiy himoya qilish borasida xorijiy Osiyo mamlakatlari tajribasi ham e’tiborga loyiqdir. Xorijiy Osiyosining ko‘pchilik davlatlarida qariyalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning davlat, nodavlat va oilaviy yordam kabi shakllari keng tarqalgan.

Xususan, Indoneziyada qariyalarga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy yordam boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardan farqlanib, u davlat va oilaviy yordamdan tashkil topgan. Indoneziyaliklar qariyalarni, oilaning keksa a‘zolarini nihoyatda qadrlashadi.

Ijtimoiy me’yor va qadriyatlar qariyalarni yosh avlodga nisbatan yuqoriroq o‘ringa qo‘yadi. Yoshlar keksa kishilarni hurmat qilish ruhida tarbiyalanadi. 1996 - yilda Virda olimlari tomonidan mamlakatning to‘rtta yirik shaharlarida (Surabaya, Siantar, Timor Tenga Selatan va Djianjar) qariyalarga xizmat ko‘rsatishda oilaning o‘rnini o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan tadqiqot qariyalarni boqish, kiyintirish, ovqatlantirish kabi xizmatlarni ko‘rsatishda oilaning o‘rni deyarli 70 foiz ekanligini ko‘rsatdi. Sigit olimlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha, Indoneziyada qariyalar uchun asosiy

daromad manbai oila hisoblanadi. Tadqiqotda qariyalarning 42 foizi farzandlaridan moliyaviy yordam olishi, 26 foizi oilada nikohda turgan turmush o'rtog'idan va oilaning qolgan a'zolaridan, 32 foizi esa ish haqidan daromad olishi aniqlangan. Mamlakatda qariyalarni qo'llab-quvvatlashning boshqa nodavlat shakllaridan biri - qarindoshlar, qo'shnilar va do'stlar yordami hisoblanadi.

Yaponiyada davlat darajasida ijtimoiy sug'urta qilish jamg'armalari hisobidan yolg'iz keksa va nogironlarni kasal bo'lgan holatlarda uy sharoitida tibbiy xizmat harajatlarini qisman kompensatsiyalash dasturi amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, mamlakatda yolg'iz keksalar va nogironlarni boqishda oilaga vaqtinchalik yordam beruvchi kunduzgi statsionarlar soni ham ko'paymoqda.

Hindistonda qariyalar mutlaq va nisbiy sonining ortishi muhim demografik muammo hisoblanadi. Mamlakat hozirgi vaqtda qariyalar soni bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda turadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1991 - yilda mamlakatda qariyalar (60 yosh va undan yuqori) soni 55,3 mln kishini tashkil etgan bo'lsa, 2000 - yilga kelib ularning soni 75,9 mln kishiga yetgan yoki 37,2 foizga ko'paygan. BMT demograflarining taxminiga ko'ra, 2021 yilda mamlakatda qariyalar soni 136,5 mln kishiga yetadi (jami aholining 10%i). Bu mamlakatda ijtimoiy demografik siyosatni shakllantirish va qariyalar uchun xizmatlarni rejalashtirishga alohida e'tibor qaratish lozimligini taqozo etadi.

Hindistonda muhtoj keksalarga yordam ko'rsatish an'anasi mavjud. Mamlakatda XVIII asrda birinchi qariyalar uyiga asos solingan. Qariyalar, ayniqsa kambag'al, kasal, uysiz qariyalar davlat va har xil ko'ngilli tashkilotlardan yordam oladi.

Hindiston hukumati 1984 - yilda qariyalarga xizmat ko'rsatuvchi birinchi ko'ngillilar tashkilotiga rasmiy mablag' ajratish to'g'risida qaror qabul qilgan. Jamg'arma qariyalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, sog'liqni saqlash, qo'shimcha ta'lim va qariyalar uylariga mablag' ajratadi. 1992 - yilda mamlakatda "Aholi farovonligi" vazirligi tomonidan "Keksa yoshda bardamlik" dasturi ishlab chiqilgan. Uning asosiy maqsadi qariyalar va kunduzgi muloqotda bo'lish uylarida

ishlovchilar uchun zarur subsidiyalar olishda yordam ko'rsatuvchi ko'ngilli tashkilotlar faoliyatini rag'batlantirish, qariyalar uchun bepul tibbiy xizmat ko'rsatishdan iborat bo'lgan.

Hukumatning nodavlat tashkilotlar faoliyatini rasmiy qo'llab-quvvatlashga ajratayotgan moliyaviy mablag'lari mamlakatda aholining keksayishi bilan bog'liq muammolarni yechish uchun hozircha yetarli emas. Bir qator nodavlat tashkilotlar o'z dasturlarini bajarishda ijobiy natijalarga erishgan va bunda xalqaro va milliy donorlarning qo'llab-quvvatlashidan foydalangan.

Hozirgi vaqtda Hindistonda davlat darajasida faoliyat ko'rsatayotgan 5 ta ko'ngilli tashkilot mavjud:

- Bharat Samaj pensionerlar Assosiatsiyasi;
- CARITAS Hind tashkiloti;
- Yoshi bo'yicha pensionerlarning Hind Assosiatsiyasi;
- “Qariyalarga yordam” jamiyati;
- Qariyalarga g'amxo'rlik ko'rsatish jamiyati;

Bharat Samaj pensionerlar Assosiatsiyasi–pensionerlar assotsiatsiyasining Butun Hind federatsiyasidir. Bu tashkilot markaziy va davlat muassasalaridagi, shuningdek, yarim hukumat tashkilotlaridagi pensionerlarni birlashtiradi, tegishli organlar bilan muzokaralar o'tkazadi va oiladagi mojarolarni hal etishga yordam ko'rsatadi.

CARITAS Hind tashkiloti– CARITAS Xalqaro tashkiloti a'zosi bo'lib, butun Hindiston bo'yicha kasaba uyushmalari darajasida faoliyat ko'rsatadi. Bu davlat darajasidagi rasmiy tashkilot bo'lib, kasal, kambag'al va yolg'iz qariyalarga yordam ko'rsatadi. Yoshi bo'yicha pensionerlarning Hind Assosiatsiyasi – bu tashkilot ko'ngilli xayriyehon, shuningdek, hukumat subsidiyasi hisobidan mablag' bilan ta'minlanadi. Assotsiatsiya yoshi bo'yicha pensionerlarga yordam ko'rsatish bo'yicha har xil dasturlarda ishtirok etadi.

“Qariyalarga yordam” jamiyati – muhtojlarga yordam ko'rsatuvchi tashkilot bo'lib, uning asosiy vazifasi yolg'iz keksalarni boqish va ularga har tomonlama yordam ko'rsatish, qariyalarning mehnat faoliyati to'xtashi bilan ularning sog'lom turmush kechirishiga ko'maklashishdir.

Tashkilot qariyalarga moddiy yordam ko'rsatish dasturini ishlab chiqqan bo'lib, 65 va undan yuqori yoshdagi qariyalarga, qishloq joylarida o'ta muhtoj qariyalarga har oyda 100 rupiy, shuningdek, to'satdan mehnatga layoqatliligini yo'qotganda, baxtsiz voqea sodir bo'lganda 500 rupiygacha miqdorda moliyaviy yordam ko'rsatadi.

Qariyalarga g'amxo'rlik ko'rsatish jamiyati–mamlakatdagi eng yirik ko'ngilli tashkilot bo'lib, uning 23 ta mintaqaviy vakolatxonasi mavjud. Tashkilot markaziy hukumat, talabalar va yoshlar, xususiy va jamoatchilik tashkilotlardan yig'ilgan mablag'lar hisobidan faoliyat ko'rsatadi. Tashkilotning asosiy vazifasi qariyalarga yordam ko'rsatuvchi ko'ngilli jamiyatlarga moliyaviy yordam berish hisoblanadi.

Shuningdek, tashkilotning muhim tashabbuslaridan biri qariyalarga tibbiy xizmat ko'rsatish bo'lib, jumladan, u hozirda qishloq joylarida yashovchi yurishi qiyin bo'lgan mingta qariyaga tibbiy xizmat ko'rsatmoqda, ya'ni ularni dori-darmon bilan ta'minlaydi, bepul tibbiy maslahat beradi.

Hindistonda davlat darajasida faoliyat ko'rsatuvchi ko'ngilli tashkilotlardan tashqari, hududiy va mahalliy darajada faoliyat ko'rsatuvchi bir qancha nodavlat tashkilotlar ham mavjud:

- Ijtimoiy yordam ko'rsatish jamiyati;
- “Oila farovonligi” jamiyati;
- “Insoniy qadr-qimmat” jamiyati;
- “Taraqqiyot, farovonlik, tadqiqot” jamiyati;
- “Ko'chma oshxona”.

Bu tashkilotlarning faoliyati qariyalarga hayotining faol davrini uzaytirishga yordam ko'rsatishga qaratilgan. 1999 - yilda mamlakatda Ijtimoiy ishlar vazirligi tomonidan “Baxtli keksalik” jamg'armasiga asos solingan. Jamg'arma asosan kam ta'minlangan qariyalarga klub tizimida faoliyat ko'rsatadi. Klub huquqiy maslahatlar beradi, moliyaviy yordam ko'rsatadi, zarur tibbiy xizmatlarni tashkil qiladi.

Hindistonda keksa erkaklarni parvarish qiluvchi 20 ta, keksa ayollarga xizmat qiluvchi 68 ta, keksa erkak va ayollarni parvarish qiluvchi aralash tipdagi 230 ta markaz faoliyat ko'rsatadi. Mamlakatda

qariyalar uchun qurilgan jami uylarning 46 foizi barcha qariyalar uchun, 35 foizi faqat muhtojlar uchun, 11 foizi nochorlar uchun, qolgan 8 foizi esa kasal va nogironlar uchun mo'ljallangan. Qariyalar uylarining 66,5 foizida bepul, qolganlarida esa kirish badallari hisobidan xizmat ko'rsatiladi.

Jahon mamlakatlarida yolg'iz keksalar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish tajribalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, har qanday mamlakat ijtimoiy himoya qilish tizimini rivojlantirish orqali aholi bu guruhining ijtimoiy muammolarini hal etish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy ta'minot tizimi ustuvorliklari o'zgarishini belgilab bergan omillar orasida tug'ilishning kamayishi va umrning uzayishi natijasida aholining tez qarishi qayd etiladi. G'arbiy Yevropa mamlakatlari uchragan iqtisodiy kiyinchiliklar va ularning oqibatlari davlatning bir qancha ijtimoiy dasturlarini to'xtatishiga katta ta'sir o'tkazdi. Iqtisodiy inqiroz o'sib boruvchi byudjet taqchilligi, ishsizlar va qashshoqlar sonining ortishi, aholining qarishi, to'liq bo'lmagan oilalar sonining oshishi va boshqa omillar davlat ijtimoiy siyosatidagi o'zgarishlarga olib keldi.

Buyuk Britaniyada ijtimoiy ishning turlarini guruhlariga bo'lish uchun shu ish yo'naltirilgan ob'yekt asos vazifasini bajaradi.

Buyuk Britaniyada: a) individ bilan olib boriladigan ijtimoiy ish; b) o'xshash vaziyatlarga tushib qolgan odamlar guruhi bilan olib boriladigan ijtimoiy ish; v) jamoa bilan olib boriladigan ijtimoiy ish.

Kasbiy faoliyat sifatidagi ijtimoiy ish turlarining kelib chiqishi ko'p jihatdan mamlakatlar taraqqiyotidagi madaniy va milliy xususiyatlar, turli ijtimoiy institutlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir xususiyatlari, ijtimoiy ong, madaniyat, fan, ta'limning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

Har bir mamlakatdagi davlatning ijtimoiy ko'mak berish tizimi shu yerdagi tarixiy shart-sharoitlardan kelib chiqib shakllantirilgan bo'lib, bajarilayotgan vazifalarning o'xshashligi va bir xilliligiga qaramasdan ulardagi yondashuvlar, uslublar va tashkiliy shakllarda tafovut mavjud. Bu tafovutlar ijtimoiy ishdagi Yevropa va Amerika modellarini qiyoslaganda ko'zga ayniqsa yaqqol tashlanadi.

Bugungi kunda Buyuk Britaniya aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha dunyoda 9-o'rinni egallaydi. Ushbu masalalarga ajratilayotgan davlat xarajatlari 30%dan ortig'ini tashkil etmoqda. Har yili aholining yordamga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoyalash uchun davlat byudjetidan 101.2mlrd funt sterling ajratilmoqda.

Yevropa qit'asida ijtimoiy ta'minot tizimining rivojlanishi uzoqroq tarixga ega. U jamoalar o'rtasidagi jamoalararo aloqalar uzilishiga bog'liq tarzda shakllandi. Yevropaning ko'pchilik mamlakatlarida ijtimoiy siyosat va ijtimoiy ta'minot dasturlarini amalga oshirish, turli ijtimoiy guruhlarni qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan rasmiy tuzilmalarning yaratilishida davlat tashabbuskor bo'ldi. Amerikaga ko'chib borganlar uchun xos belgi esa o'zining kuchiga, shaxsiy tashabbusiga va davlat tuzilmalarining ta'sirini maksimal darajada kamaytirishga intilish bo'ldi. Bunday individualistik yondashuv hozirgi kungacha aholini ijtimoiy muhofaza qilishda unchalik katta rol o'ynamaydigan Buyuk Britaniyada davlat ijtimoiy siyosatining shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Buyuk Britaniyadagi aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining xarakterli xususiyati va Yevropa modellaridan asosiy farqi uning nomarkazlashtirilganidadir.

Boshqaruv organlari tomonidan tartibga solinadigan turli ijtimoiy dasturlardan iborat. Bundan tashqari, alohida dasturlar mahalliy hokimiyatlar tomonidan ham qabul qilinadi. Bunday yondashuv muayyan mintaqada ijtimoiy ko'makka bo'lgan yehtiyojni etarlicha to'la va tezkor aniqlash imkonini beradi.

Buyuk Britaniyadagi ijtimoiy ta'minot davlat tizimi ikki shaklga asoslanadi: ijtimoiy sug'urta va davlat tomonidan ko'rsatiladigan ko'mak, ular o'zaro moliyalashtirish manbalari bilan farqlanadi. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlar mehnatkashlardan ham, tadbirkorlardan ham olinadigan ijtimoiy sug'urta solig'i shakllantiradigan sug'urta jamg'armalari hisobiga amalga oshiriladi. Davlat tomonidan beriladigan ko'mak federal byudjet mablag'lari, shtatlar byudjeti yoki mahalliy hokimiyat organlari byudjetlari mablag'i hisobidan amalga oshiriladi.

Buyuk Britaniyaning ijtimoiy sug'urta haqidagi qonuniga ko'ra ijtimoiy sug'urtaning ikki turi: qarilik nafaqasi va ishsizlarga

to'lanadigan yordam puli belgilangan. Qonunda kambag'allarning ba'zi toifalari, birinchi navbatda nogironlar va yetimlarga yordam berish ham ko'zda tutilgan. Vaqt o'tib borishi bilan ijtimoiy sug'urtaning yangi shakllarini tatbiq etish ko'zda tutilgan ko'plab tuzatishlar kiritib borildi: boquvchisini yo'qotganda beriladigan nafaqa; ishlab chiqarishda shikastlanish bilan bog'liq bo'lmagan mehnat qobiliyatini yo'qotish tufayli beriladigan nafaqa; 65 va undan katta yoshlilarga beriladigan tibbiy sug'urta huquqi va boshqalar.

Ijtimoiy muhofazaning Buyuk Britaniya davlat tizimidagi yana bir tarkibiy qismi kambag'allarga beriladigan ko'makdir. Bu tizim 60-yillardan boshlab keng rivoj topdi. Ijtimoiy sug'urtadan farqli o'laroq, ijtimoiy ko'mak tizimida yordam olish uchun oldindan maxsus to'lanadigan badallar talab qilinmaydi. Uni olish uchun asosiy mezon - muhtojlik.

Ko'mak berish tizimining asosiy vazifalari quyidagilar: kafolatlangan daromadni ta'minlash, yordamga muhtoj bolali oilalarni qo'llab-quvvatlash, oziq-ovqat, turar joy va tibbiy yordam ko'rsatish.

Kafolatlangan daromadni ta'minlash dasturi keksayib qolganlar va nogironlarni qamrab oladi. Aholining bu toifasiga federal hukumat ular uchun kafolatlangan daromad deb ataladigan yashash vositalarining minimumini ta'minlash maqsadida pul mablag'lari to'laydi. Bu mablag'lar "qashshoqlik chegarasi"ga to'g'ri keladigan summaning taxminan 60 %ini tashkil qiladi.

Bolali oilalarga yordam dasturi kam daromad oladigan, oila boshlig'i, eridan ajralgan yoki yolg'iz beva bo'lgan ko'p bolali oilalarga yordam ko'rsatishni nazarda tutadi.

Oziq-ovqat yordami doirasida muhtojlarga oziq-ovqat talonlari berish juda keng tarqaldi. Ular bepul yoki arzonlashtirilgan narxlarda beriladi. Boshqa oziq-ovqat dasturlari – maktab nonushtalari, bir yoshgacha bolasi bor onalarga beriladigan yordam va boshqalar. Turar joy subsidiyalari kam daromadli oilalarga beriladi. Ijtimoiy sug'urtaning xususiy tizimlari davlat tizimini to'ldirib turadi va ular muayyan murvatlar yordamida davlat tomonidan tartibga solinadi. Buyuk Britaniyada xususiy sug'urtaning ikki turi–ish joyidagi jamoaviy va

individual turlari mavjud. Yetakchi shakl jamoaviy shakl hisoblanadi. Kasaba uyushmalari va tadbirkorlar o‘rtasidagi jamoaviy shartnomalar, odatda, muayyan ijtimoiy to‘lovlar va kafolatlarni ko‘zda tutadi. Sug‘urtaning shunga o‘xshash turlari kasaba uyushmalari bo‘lmagan ko‘pgina sohalar va firmalarda ham mavjud.

Mehnatkashlarning katta qismi uchun xususiy nafaqalar muhim ahamiyatga ega. Jamg‘armalarning sezilarli o‘shishiga qaramasdan xususiy nafaqa tizimi davlat tizimiga qaraganda uch marta kamroq shaxslarni qamrab oladi. Gap shundaki, davlat pensiyalari miqdorini hisoblaganda ish joyidan qat’iy nazar, umumiy staj hisobga olinadi, xususiy nafaqaga ega bo‘lish uchun esa ishchi yoki xizmatchi bitta firmada odatda, kamida 10 yil uzluksiz ish stajiga ega bo‘lishi lozim. “Korporatsiya” maxsus federal agentligi xususiy pensiyalarning kafolati sifatida amaldagi pensiya jamg‘armalarining to‘lov qobiliyatini kuzatib boradi va kompaniyalar bankrotlikka uchragani taqdirda, ularning qatnashchilariga beriladigan to‘lov miqdori va tartibini belgilaydi.

Yevropa mamlakatlarining ijtimoiy qonunchiligi Amerika qonunchiligidan davlatning ijtimoiy siyosat yo‘nalishlarini belgilash, rejalashtirish, moliyalashtirish va hayotga tadbiiq etishdagi ishtirokining yuqoriroq darajasi bilan farqlanadi. Bunda ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatishdagi mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining muhim roli hamda aholining ko‘proq qismini ijtimoiy xizmatlar va yordam turlari bilan qamrab olinishini ta’kidlash lozim.

O‘zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Glossariy
Ijtimoiy-tibbiy xodim	Социально - медицинский работник	Social and health care worker	kasalxonadagi, kasalxonadan chiqqan yoki uyda davolanayotgan bemorlarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi xodim.
Tibbiy sug‘urta	Медицинское страхование	Medical insurance	aholiga sog‘liqni saqlash tizimida ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirishni kafolatlash bo‘yicha sug‘urta shakli.
Majburiy tibbiy	Обязательное медицинское	Compulsory medical	ishchilarning ish haqidan sug‘urta badallari va ish beruvchilardan

sug'urta	страхование	insurance	ijtimoiy to'lov shaklida majburiy undiriladigan mablag'lar hisobidan ishchi yoki uning oila a'zolari sog'lig'i bilan bog'liq xarajatlarni qoplashni kafolatlashga yo'naltirilgan davlat ijtimoiy siyosat shakli.
Ixtiyoriy tibbiy sug'urta	Добровольное медицинское страхование	Voluntary medical insurance	ishchi yoki uning oila azolari sog'lig'i bilan bog'liq risklarni qoplash maqsadida ishchi yoki ish beruvchi tomonidan ixtiyoriy ravishda xususiy sug'urta kompaniyalarining tibbiy sug'urta xizmatlaridan foydalanish.
"Mediker" dasturi	Программа "Mediker"	Medicare Program	AQSHda 65 yoshdan oshgan keksalarga tibbiy xizmat ko'rsatishni moliyalashtirish maqsadida tuzilgan ijtimoiy dastur.
"Medikeyd" dasturi	Программа "Medikeyd"	Medicaid Program	AQSHda kam daromadli aholi qatlamlariga (ishsizlar, qashshoqlar va nogironlar) uzoq muddatli tibbiy xizmatlar ko'rsatishni moliyalashtirish maqsadida tuzilgan ijtimoiy dastur.

Nazorat savollari

1. Xorijda aholini ijtimoiy himoya qilish tushunchasi xususiyatlarini aniqlang.
2. Xorijda aholini ijtimoiy himoya qilishning maqsadini ta'riflang.
3. Xorijda aholini ijtimoiy himoya qilishning vazifalarini aytib bering.
4. Xorijda aholini ijtimoiy himoya qilishning turlarini ayting.
5. Chet ellar ijtimoiy himoya liberal modelini ta'riflang.
6. Chet ellar ijtimoiy himoya sotsial-demokratik modelini ta'riflang.
7. Chet ellar ijtimoiy himoya konservativ (korporativ) modelini ta'riflang.
8. Chet ellar ijtimoiy himoya: liberal, sotsial-demokratik, konservativ (korporativ) modellarini ta'riflang.

9. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy himoya tizimining funksiyalarini aniqlang.
10. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy himoya tizimining prinsiplarini aniqlang.
11. O‘zbekistonda ijtimoiy ta‘minotning asosiy manbalari aytib bering?
12. Fuqarolarga qanday ijtimoiy nafaqalar beriladi?
13. O‘zbekistonda ijtimoiy ta‘minotning rivojlanish konsepsiyasi nimalardan iborat?

7-MAVZU: OILALAR, YOSHLAR VA BOLALAR BILAN IJTIMOIIY ISH.

Reja:

7.1. Oila va oilaviy o‘zaro munosabatlar.

7.2. Oiladagi muammolar.

7.3. Oilada ijtimoiy ish (oila muammolariga aralashish, mulkka oid munosabatlarni taqqoslash, oilaviy terapiya).

Oila va oilaviy o‘zaro munosabatlar. Oila muhim ijtimoiy tizim hisoblanadi. Oilada uning a‘zolari o‘zaro mustahkam ishonch munosabatlari bilan bog‘liq holda shakllanadi. Oila shunday muqaddas qo‘rg‘onki, bu maskanda inson tarbiya topadi. Shuningdek, inson o‘z oila a‘zolaridan muhabbat va qo‘llab-quvvatlash kabi tuyg‘ularni his qiladi. Biroq bu zamonaviy tez o‘zgaruvchan dunyoda, oila katta qiyinchiliklar bilan ham to‘qnash kelmoqda. Ayniqsa, ba‘zi zamonaviy oilalarda bolalar moliyaviy etishmovchiliklar oqibatida azob chekyaptilar, hammadan ko‘proq holatda, ota-onalarining doimo ish bilan bandliklari tufayli bolalarda, jismoniy yoki ruhiy zo‘ravonlikni qanday yengishni bilmaydigan vaziyatlar paydo bo‘lmoqda.

Oilaviy muammolarni bartaraf etishni bilmasdan, oila a‘zolarining ba‘zilari alkogol yoki narkotiklar ta‘siriga uchramoqdalar, buning ayanchli oqibatlari esa oilalardagi zo‘ravonlikni keltirib chiqarmoqda, shu kabi nizolar uzoq davom etishi oilalarda ajralishlarga olib kelyapti. Ba‘zi ota-onalar o‘z psixo-ruhiy holatlaridan kelib chiqib, bola va yoshlarning hayot kechirish bosqichlarida ular bilan qanday murosa qilish yo‘llarini bilmasdan, o‘z farzandlarini to‘liq moddiy-ma‘naviy ta‘minlamasdan, ularning ehtiyojlarini qondira olmayaptilar. Ayniqsa, bunday holatlarni oilaviy inqirozlar vujudga kelgan paytlarda, oila azolarining jiddiy kasal bo‘lganlarida yoki ota-onalardan birining o‘limi holatlarida yaqqol sezilmoqda.

Tabiiyki, har qanday oila boshqa oilalar bilan yaqin do‘stona yoki qon-qardoshlik aloqalarida bo‘ladi. Shu sabab, ular orasida yaxshi munosabatlar o‘rnatilsa, oilalar bir-biridan ibrat olib, qo‘lidan keladiganicha ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish yo‘llarini o‘rganadi.

Namunali va yaxshi turmush kechiruvchi, ibratli oilalar atrofidagi boshqa oilalarga ijobiy ta'sir qiladi. Bunga mahalladagi oilaviy tinch-totuv yashash namunalari keng misol bo'la oladi. Mahalla tizimidagi rahbarlar, oqsoqollar, xotin-qizlar qo'mitalari yosh oilalardagi ijtimoiy vaziyatga ijobiy ta'sir ko'rsata oladi. Eng asosiysi, oiladagi muammolarga befarq bo'lmaydi. Bunday holatni chuqur tadqiqot bilan o'rgangan bir qator chet el olimlari va mutaxassisleri ham o'z ilmiy tadqiqotlarida alohida ko'rsatib o'tishadi³³.

Hozirgi kun nuqtai nazaridan qaraganda oila nima? Bu murakkab ijtimoiy munosabatlarni o'zida jamlagan aniq tizim: nikoh va qarindoshlik munosabatlarini, jamiyatdagi ijtimoiy muhitni o'zida aks ettiruvchi muhim ijtimoiy borliqdir. Shunga qaramasdan, oila haqidagi tushunchaning turlicha izohlari ham mavjud. Bunday qarashlarda oilani ijtimoiy institut deb qabul qiluvchilar, shu bilan bir qatorda, oilani kichik ijtimoiy guruh deb e'tirof qiladiganlar ham bor. Masalan, ingliz tadqiqotchilaridan bir guruhi oilani faqat "nikoh aloqalari va yagona uy-ro'zg'or munosabatlari birlashtiradi" degan tushunchani o'z tadqiqotlarida yoqlab ko'rsatishadi³⁴. Ba'zilar oilada faqat uy-ro'zg'or xo'jaligining birligi birlamchi va muhim rolni egallaydi deb hisoblashadi³⁵.

Biz ushbu ta'riflarning barchasi oilaning to'liq mohiyatini ochib bera olmaydi deb o'ylanmiz. Oila - bu nafaqat uy-ro'zg'or xo'jaligi munosabatlari, balki farzandlar tarbiyasi uchun ham o'ta muhim deb o'ylaymiz. Jamiyat farzand kamoli bilan yashaydi, rivojlanadi. Bu esa, ota-onalar bilan va bolalarning o'z akalari, ukalari va opa - singillari

³³ Berkes, F., Golding, J., & Folke, C. (Eds.). (2002). Navigating social-ecological systems: Building resilience for complexity and change. New York: Cambridge University Press; Duncan, S. F., & Goddard, H. W. (2005). Family life education: Principles for effective outreach. Thousand Oaks, CA: Sage Publications.; Ambrosino R., Ambrosino R., Heffernan J., Shuttlesworth G. Social Work and Social Welfare: An Introduction. Sixth Edition. – Thomson Brooks/Cole, 2008. – P.320-321.

³⁴ James W. Coleman and Harold R. Kerbo, Social Problems, 8th ed. (Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall, 2002), p. 634

³⁵ Charles Zastrow. Introduction to Social work and social welfare. Empowering People. George Williams College of Aurora University. Printed in Canada: Brooks/Cole, Cengage Learning, 2010. – C.177.

bilan va boshqa qarindoshlari bilan birgalikda farovon umrguzaronlik qilishini belgilaydi. Qolaversa, oila muhitida katta ota va onalarning farzand tarbiyasida, oila rivojidadagi o‘rni va roli ham nihoyatda muhim.

O‘zbekistonda oila milliy qadriyat hisoblanadi. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda aholining o‘ndan to‘qqiz foizi oilada istiqomat qiladi. Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma’naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag‘ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta’minlanish bilan kifoyalanish – ongsiz va ruhsiz mahluqotga xos, ma’naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo‘lmish odamzotgagina xos fazilatdir.

Haqiqatan ham jamiyat hayotida oila asosiy o‘rin egallaydi. Oila va jamiyat bir-biriga chambarchas va uzviy bog‘liq bo‘lib, jamiyatning o‘zi ham oilalardan tashkil topadi. Oila ham, o‘z navbatida, jamiyat bag‘rida vujudga keladi, rivojlanadi. Ayni paytda oilaning ham jamiyatda o‘z vazifalari mavjud. Ular oilaning avlod yaratish, farzandlarni tarbiyalash, ularni kamolga yetkazish, oiladagi iqtisodiy muammolarni hal etish, oila a’zolarining dam olishini va salomatligini tiklash, tabiatga, jamiyatga bo‘lgan o‘zaro munosabatlarni shakllantirishdan iborat. Har bir inson, har bir oila, jamiyatning muqaddas vazifasi, eng avvalo, qobiliyatli farzandlarni o‘stirish, ularni jismoniy va ma’naviy jihatdan yetuk, vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. Shuning uchun ham mustaqil O‘zbekistonimizning birinchi Konstitutsiyasi 63 - , 64 - , 65 - , 66 - moddalarida “oila-jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, onalik va bolalik davlat tomonidan himoyalani, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar ota-onalariga g‘amxo‘rlik qilishlari shart”,³⁶ deb ko‘rsatib o‘tilgan. Bu ishonchli, huquqiy kafolatlarda xalqimiz bosib o‘tgan uzoq va yorqin tarixiy yo‘lning betimsol sabog‘i, qadim ana’analarimiz aks etib turadi.

Ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi huquqiy munosabat, ularning bir-biriga bo‘lgan mehr-oqibati, birinchi navbatda oilada namoyon bo‘ladi.

Aksari hollarda, ayrim oilalarda maishiy buzuq, spirtli ichimliklar yoki giyohvandlik moddalarini suiiste’mol qiluvchi, shuningdek, boshqa

³⁶ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2019. – 12 бет.

salbiy sabablari bilan ota-onalik nomiga dog‘ tushirayotganlar ham yo‘q emas.

Bu kabi noxushliklarning oldini olish yoki ularga muayyan ta‘sir choralari ko‘rish maqsadida qonunchiligimizda bir qator tarbiyaviy choralar nazarda tutilgan. Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquqlarini himoya qilish ana shunday choralar jumlasiga kiradi.

Ota-onalar bolalarining jismonan va ruhan yetuk, barkamol bo‘lib voyaga yetishlari uchun ularga hech qanday tazyiq, ruhan ta‘sir yetkazishlari mumkin emas. Aks holda, “voyaga yetmagan, muomalaga layoqatsiz bola ota-onaning unga bo‘lgan qo‘pol munosabatidan, uning huquqi poymol etilishidan aziyat chekib, bir umrga ruhan nosog‘lom bo‘lib qolishi mumkin”³⁷. Bolaga yetkazilgan ma‘naviy azob uchun ota-onalar qonun oldida javobgar hisoblanadilar. Oila – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas‘uliyat hamda o‘zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi. “Jamiyat” va “oila” tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Bu bog‘liqlik jamiyatning oilalarsiz mavjud bo‘lmasligi hamda, o‘z navbatida, oilaning ma‘lum bir jamiyat tarkibida vujudga kelishi va yashovchanligida ko‘rinadi. Oila hamda jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar ikki tomonlama aloqadorlik xususiyatiga ega. Har bir oila umumjamiyat talablari asosida faoliyat yuritadi. Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa uning bag‘rida mavjud bo‘lgan oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy qiyofasining shakllanganlik darajasiga bevosita bog‘liqdir. Chunonchi, ijtimoiy borliqning oilalar zimmasiga qo‘yadigan talablari ularning manfaatlariga zid bo‘lmasa, aksincha, oilalar farovonligi, tinchligini ta‘minlashga yordam bersa, oilalar tomonidan ijtimoiy talablarning qo‘llab-quvvatlanishi, ularning amaldagi ijrosini ta‘minlash ko‘rsatkichi shuncha yuqori bo‘ladi.

Ilmiy-pedagogik, demografik, psixologik, fiziologik hamda tarixiy-falsafiy asarlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo‘lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi.

³⁷ Нечаева А.М. Правонарушения в сфере личных семейных отношений. -М.: 1991.–С. 45.

Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi.

Oilaviy munosabatlar—ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlardir. Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqishlari hamda faoliyat doirasi kengayadi, o'zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya'ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini ko'rish holati ro'y beradi. Shaxsning ma'naviy sifatlarga ega bo'lishi, unda ma'naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'lishida oila tarbiyasi asosiy rol bajaradi. Oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir.

Oiladagi muammolar. Aslini olganda, oilaning mohiyati va vazifalari dunyodagi barcha xalqlar uchun bir xildir. Lekin uning tashkil topishi, taraqqiy etishi va oila vazifalarining bajarilish jarayoni turli xalqlarda turlichadir. Bu har bir holda alohida olingan xalqlarning mintaliteti, mahalliy urf-odatlar va an'analari bilan uzviy bog'liqdir. Shunisi faxrlanarliki, mazkur masalada millatimiz dunyo millatlari, xalqlari orasida oldingi o'rinlarni egallaydi. O'zbekistonda mavjud 34 mln. aholi 6,5 mln. atrofidagi oilada istiqomat qiladi. Sirasini aytganda, oddiy o'zbek uchun oila deb atalmish tushunchaning mazmun-mohiyati, yuki-vazni o'zgachadir. O'zbek oilasida ota bilan bola o'rtasidagi, ona bilan qizlar o'rtasidagi, bobo-buvilar bilan nabiralar o'rtasidagi munosabatlar o'ziga xosdir. Afsuski, so'nggi paytlarda biz oilaviy-huquqiy masalalarda o'ta maqtanadigan darajada bo'lmay qoldik. Qaysidir ma'noda, kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, oila, nikoh deb atalgan muqaddas tushunchalarga "darz ketmoqda". Bunga ko'plab sabab va omillarni ko'rsatish mumkin. Eng umumiy holda, bunday darz ketishlarning sabablarini quyidagicha tasniflash mumkin: ijtimoiy, tabiiy

va iqtisodiy omillar. Shu ma'noda oila masalalari orasida so'nggi vaqtlarda ota-onalik huquqidan mahrum qilish bilan bog'liq ishlar paydo bo'lib qoldi. Nafaqat paydo bo'lib qoldi, balki ko'payib boryapti. Bu bir jihatdan O'zbekistonning mustaqillikka erishib, dunyo eshiklari ochilib, dunyo xalqlari bilan o'zaro fikr almashib, bordi-keldilarning yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, O'zbekiston shunday bir baynalmilal o'lkaki, undagi 34 milliondan ortiq aholi 139 millat va elatga mansubdir. Shunisi e'tiborliki, bu sohada biz qudratli Xitoy davlatidan ko'ra, baynalmilalroq ekanmiz³⁸. Ammo, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ko'ra, O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi. Demak, mamlakatimizdagi etnik globalizatsiyaning o'zi ham murakkabdir.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 148-moddasida ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish asoslari aniq qilib belgilab qo'yilgan³⁹. Unga binoan:-ota-ona vafot etganda, ota-onalik huquqidan mahrum etilganda, ularning ota-onalik huquqlari cheklanganda, ular muomalaga layoqatsiz deb topilganda, kasal bo'lganda, uzoq muddat bo'lmaganda, ota-ona bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tovlaganda, shu jumladan ota-ona tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalari va shunga o'xshash boshqa muassasalardan bolasini olishdan bosh tortganda, shuningdek, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatiladi.

Ota-onalar o'zlarining voyaga yetmagan farzandlarini to'laqonli moddiy jihatdan ta'minlab, ularning ma'nan va ruhan sog'lom bo'lib voyaga yetishlarida bevosita ishtirok etishlari lozim. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasining qonunlari bilan tartibga solinadigan munosabatlar bir taraflama holatni

³⁸ Маълумотларга қараганда, Хитойдаги 1 млрд. 450 млн.дан ортиқ аҳоли 56 миллатга мансуб экан.

³⁹Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси. <https://www.lex.uz/docs/104720>

ochib bersa ham, uning mazmun-mohiyatida asosiy e'tibor – bolaning har taraflama yetuk, to'laqonli shaxs bo'lib yetishishini kafolatlashdan iboratdir.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlarining himoya qilinishiga yana bir sabab shuki, ota-onalarning o'z ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortishlari yoinki bo'lmasa, aliment to'lashdan bo'yin tovlashlari hisoblanadi. Ushbu holat bo'yicha, qator mutaxassis olimlar o'zlarining fikr-mulohazalarini, takliflarini berib o'tganlar. Jumladan, rus olimasi, M.V.Antokolskayaning fikricha, ota-onalar ota-onalik huquqidan mahrum qilinib, bolalari bilan birga yashayotgan (aksari hollarda ota yoki ona ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'ladi) va farzandi uchun zarur bo'lgan barcha qulayliklarni moddiy ta'minot bilan ta'minlamasa, aliment to'lashdan bo'yin tovlasa, ushbu holat bo'yicha ota-onalik majburiyatlarini suiiste'mol qilish hisoblanadi⁴⁰.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish sud tartibida amalga oshiriladi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar ota(ona)ning, prokurorning, shuningdek, voyaga yetmagan bolalarning huquqlarini himoya qilish majburiyati yuklatilgan organ yoki muassasalarning da'vosiga binoan ko'riladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar prokuror hamda vasiylik va homiylik organi ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rishda bolaning ta'minoti uchun ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onadan aliment undirish masalasini hal qilishi lozim bo'ladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-ona qaysi bolaga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa, shu bolaga nisbatan bo'lgan qarindoshlik faktiga asoslangan barcha huquqlardan, shu jumladan, undan ta'minot olish, shuningdek, bolali fuqarolar uchun qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish huquqidan mahrum bo'ladi.

⁴⁰ Антокольская М.В. Семейное право. -М.: 1997.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onaning bundan keyin bola bilan birgalikda yashash-yashamaslik masalasi sud tomonidan uy-joy to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilinish ota-onani o'z bolasiga ta'minot berish majburiyatidan ozod etmaydi.

E'tibor bergan bo'lsangiz, davlatimizning Konstitutsiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, Konstitutsiyamizning XIV bobi faqat oila masalasiga bag'ishlangan. Ushbu bobning so'nggi moddasi "...voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar", deb tugallanadi. Ma'lumki, jamiyatimizda ota-onaga bo'lgan mehr-muhabbat, g'amxo'rlik milliy qadriyatlarimiz o'zagiga aylangan. Milliy qadriyatlarimiz ramzi sifatida asosiy qomusimiz ushbu modda bilan jahonda yagonadir.

Muborak Hadisi shariflarda ham inson o'z ota-onasiga itoatkor va mehribon bo'lishligi ko'p bor takrorlangan. Rasululloh Sallollohu alayhi va sallam ham "Ollohga shirk keltirmoq va ota-onaga oqlik (itoatsizlik) qilmoq eng katta gunohi azim", deb ataydi. Oilada har bir ota-ona o'z farzandlarining to'kis yashashi va kamol topishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga harakat qiladi. Demak, farzandlar ham, o'z navbatida, ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishlari lozim. Aslida jamiyatda ota-onaga g'amxo'rlik qilish har bir kishining, eng avvalo, farzandlik burchi bo'lib, axloqiy majburiyati hisoblanadi.

Ana shu qoidaning Konstitutsiyaga kiritilishi ushbu axloqiy majburiyat qonuniy burch sifatida mustahkamlanib, Oila kodeksining qator moddalarida o'z ifodasini topgan. Ularning ruhidan voyaga yetgan har bir farzand mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o'z ota-onasiga ta'minot berishlari va ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari shartdir, – degan ma'no kelib chiqadi.

Fuqarolik qonunchiligiga ko'ra voyaga yetgan farzandlar deganda, 18 yoshga to'lgan aqli raso shaxs tushuniladi. Demak, farzandlar o'z ota-onalari to'g'risida g'amxo'rlik qilishga, ularga moddiy va ma'naviy yordam berishga hamda ko'maklashishga majburdirlar. Ular ota-onalari turmushidan xabardor bo'lib, sihat-salomatliklariga har doim e'tibor berishlari lozim.

Ota-onasining davlat va nodavlat muassasalari qaramog'ida ekanligi voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarni ota-ona haqida g'amxo'rlik qilish va ularga moddiy yordam ko'rsatish majburiyatidan ozod etmaydi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, voyaga etgan farzandlar va ota-onalar o'rtasida nafaqat majburiyat vujudga kelgan yoki kelmaganidan qat'iy nazar, ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishlari shart.

Oila qonunchiligiga ko'ra, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar o'z ota-onasiga ixtiyoriy ravishda moddiy yordam berishdan bo'yin tovasalar, ta'minot miqdori bolalarning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olgan holda sudning hal qiluv qaroriga asosan belgilanadi.

Ota-onaning bolalar yordamiga muhtojligi esa ularning mablag'lari o'zlarining moddiy sharoitlarini tirikchilik minimumi darajasida saqlashlari uchun yetmagan vaqtda vujudga keladi.

Farzandlar ixtiyoriy ravishda ota-onalarini moddiy ta'minlamasalar, sud orqali aliment undirilsa-da, farzandlar ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilmaganliklari uchun hech qanday qonuniy choralar belgilanmagan. Lekin odatda, bunday insofsiz, ota-onasi oldida o'z farzandlik burchlarini eslaridan chiqarib qo'ygan farzandlarga nisbatan sud xususiy ajrim chiqarib, yashash yoki ishlash joylariga ularning ma'naviy qiyofasini muhokama qilish uchun sud ajrimini yuborishi mumkin.

Ota yoki onaning bolani o'z tarbiyasiga olib berish haqidagi da'vosi rad qilingan holda bu ota yoki ona otalik yoki onalik huquqidan mahrum qilinmaydi.

Sud amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, nikohdan ajarashyotgan er va xotinlar farzandlarini o'z tarbiyalariga va ta'minotiga olish haqidagi kelishmovchilik natijasida bolalariga nisbatan otalik yoki onalik huquqidan mahrum qilinmoqdalar.

Ushbu toifadagi fuqarolik ishlari yuzasidan tegishli tuman (shahar) vasiylik va homiylik organlarining sudga bergan arizalari asos qilib olinmoqda. Tomonlar ajrashgandan so'ng, otalik yoki onalik huquqidan mahrum qilish haqida sud tomonidan chiqarilgan qaror noqonuniydir.

Nega deganda, ota-onalik huquqidan mahrum qilish tartibi va sharti Oila kodeksining 79-moddasida o'z aksini topgan. Biz bular haqida yuqorida aytib o'tdik.

Ota-onalik huquqi fuqarolarning eng oliy va daxlsiz huquqlaridan biri hisoblanib, ular bu huquqdan yuqorida sanab o'tilgan asoslar mavjud bo'lgan alohida hollarda, oxirgi chora sifatida mahrum qilinishlari mumkin.

Ko'rsatilgan hollarda, albatta, ota-ona xulqida ayb mavjud bo'lgani, ya'ni ota-onalarning voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash bo'yicha o'z majburiyatlarini to'g'ridan-to'g'ri bajarmaganliklari, bolalarga salbiy ta'sir o'tkazuvchi xulq-atvorlari bilan shug'ullanishlari nazarda tutiladi.

Ota-onalik majburiyatlarini to'g'ridan-to'g'ri bajarmaslik – voyaga yetmagan bolalariga aliment to'lashdan qasddan bo'yin tovlash, bolalarga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri harakatlar sodir qilishga esa, bolalarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish, shafqatsiz muomalada bo'lish, ularning hayoti va sog'lig'iga qarshi qaratilgan jinoyat sodir qilish kabi harakatlar misol bo'ladi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, ota-ona tomonidan o'z majburiyatlarini bajarish bola tarbiyasining yaxshilanishiga yetarli ta'sir o'tkazmaganligi ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun asos bo'lmaydi.

Qoida tariqasida, ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun ota-onaning xulq-atvorida ayb mavjud bo'lishi shart. Faqatgina muttasil ichkilikbozlikka yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lgan ota-onalar, ayblari bor-yo'qligidan qat'iy nazar ota-onalik huquqidan mahrum qilinishlari mumkin. Chunki bunday ota-onalarning harakatlari voyaga yetmagan bolalarning xulq-atvoriga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkinligini esdan chiqramaslik kerak.

Nikohdan ajralish ishida ota yoki onaning bolani o'z tarbiyasiga olib berish haqidagi da'vo rad qilinishi mumkin. Sharoitlar o'zgarganda, ya'ni, ota yoki ona bilan bola o'rtasidagi munosabatlar tiklangan, bolaning yashash sharoiti yomonlashgan va boshqa hollarda manfaatdor

ota yoki ona bolani o'z tarbiyasiga olib berish haqida qaytadan da'vo qo'zg'atish huquqini saqlanib qoladi.

Voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini har tomonlama himoya qilish maqsadida sud ishda aniqlangan holatlarga muvofiq, Oila kodeksining 44-moddasi 2-qismidagi qoidani hisobga olgan holda da'vo qo'zg'atilgan yoki qo'zg'atilmaganligidan qat'iy nazar, bolalar tarbiyasi uchun nafaqa undirish masalasini muhokama qilishi mumkin⁴¹.

Sud ishni ko'rishni boshqa kunga qoldirgan va er xotinga yarashish uchun muhlat berganda, FPKning 263-moddasi va Oila kodeksining 112-moddasiga ko'ra ish ko'rilgunga qadar bolalar ta'minoti uchun nafaqa undirish masalasini muhokama qilishga haqli.

Ma'lumki, oila huquqi oila a'zolari o'rtasida vujudga keladigan shaxsiy va mulkiy munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi va uning hayotga to'g'ri tatbiq etilishini huquqiy jihatdan mustahkamlab beradi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish tushunchasi ham oila huquqining muhim huquqiy institutlaridan hisoblanadi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish masalasi shunchalik bir oddiy, axloqiy masala bo'lmay, balki rasmiy huquqiy masala sanaladi. Shu ma'noda, ota-onalik huquqidan mahrum qilish sud tartibida amalga oshiriladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish, aslini olganda, ota –ona uchun eng og'ir jazo hisoblanadi. Shu sababli, ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun ota yoki onaning, farzandlikka olgan shaxslarning (yoki ulardan birining) aybli harakati bo'lishi shart. Ota-onalikning har qanday majburiyatlarini bajarmaslik ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun asos bo'lmaydi. Shuning uchun ham ota-onalik huquqidan mahrum qilish sud tartibida amalga oshiriladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar ota (ona) ning (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning, ya'ni, bobo-buvi, boshqa qarindoshlarning), prokurorning, shuningdek voyaga yetmagan bolalarning huquqlarini himoya qilish majburiyati yuklatilgan organ yoki muassasalarning (vasiylik va homiylik organi, voyaga yetmaganlar

⁴¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарорлари тўплами. –Т.: Шарқ. 1999. 136-бет.

bilan ishlash komissiyalari, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar muassasalari hamda boshqa muassasalarning) da'vosiga binoan ko'riladi. Da'vo, ya'ni nizoli moddiy-huquqiy munosabatdan kelib chiqadagan va muayyan protsessual tartibda ko'rish va hal qilishi uchun sud yoki boshqa vakolatli organda qo'zg'atilgan talab tushunchasi bilan da'voga bo'lgan huquq tushunchasi chambarchas bog'liqdir.

Ma'lumki, vasiylik va homiylik ota-onalik huquqidan mahrum bo'lgan bolalarni ta'minlash, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish, shuningdek ularning shaxsiy, mulkiy huquqlari va manfaatlarini himoyalash maqsadida belgilanadi⁴².

Ayni vaqtda sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishda bolaning ta'minoti uchun ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onadan (yoki ularning biridan) aliment undirish masalasini ham hal qiladi.

Agar sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish ishlarini ko'rishda ota-ona (yoki ulardan biri)ning harakatida jinoyat alomatlari mavjudligini aniqlasa, bu haqda xususiy ajrim chiqarish yo'li bilan prokurorga xabar berishi shart. Ayni vaqtda sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan keyin uch kun ichida ushbu qarorning ko'chirmasini bolaning tug'ilganligi davlat tomonidan ro'yxatga olingan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuborishi shart.

Yuqoridagi holar ota-onalik huquqidan mahrum qilish va uning huquqiy tabiatini ochib beradi.

Demak, yuqoridagilardan birinchidan, shunday xulosaga kelish mumkinki, ota-onalik huquqidan mahrum qilish quyidagi hollarda amalga oshiriladi va buning natijasida ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalalarning huquqlari davlat, jamiyat tomonidan muhofaza qilinadi:

⁴² Ўзбекистон Республикасида “Василий ва хомийлик тўғрисида”ги Низом. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 12-апрелдаги 171-сонли қарорига 2-илова. -Т.: Адолат. 1999 йил.

1.Ota-ona (ulardan biri) ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan muassasalaridan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa;

2.Ota-onalik huquqini suiiste'mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lsa, shuningdek, jismoniy kuch ishlatsa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa;

3.Muttasil ichklikbozlik yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lgan bo'lsa;

4.O'z bolalarining hayoti yoki sog'lig'iga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsalar ota-onalik huquqidan mahrum qilinishlari mumkinligi qonunchiligimizda belgilab qo'yilgan.

Ikkinchidan, ota-onalik huquqidan mahrum qilish bilan bog'liq ishlar shunchaki oddiy, axloqiy - maishiy jarayon bo'lmay, balki sud tartibida amalga oshiriladigan jarayon hisoblanadi.

Asosiy qonunimizning 63-moddasida "Oila-jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega" deb yozilgan. Ma'lumki, oila jamiyatning muhim bo'g'ini sifatida bolalar tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Oiladagi ota-ona hamda farzandlar o'rtasidagi munosabat nafaqat oila qonunchiligi bilan balki jamiyatda muhim qadriyat sifatida shakllangan axloq normalari bilan ham tartibga solinadi.

Oila a'zolarining bir-birlariga bo'lgan izzat-hurmati, muomalasi oiladagi madaniyatni ifodalaydi. Bunday oiladagi madaniyat farzandlarning yaxshi tarbiya olishlarida muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 19-moddasiga muvofiq er-xotin oilada teng huquqlardan foydalanadilar va ular teng majburiyatlarga egadirlar, deb ko'rsatib o'tilgan. Demak, ota-ona o'z farzandlariga nisbatan ham teng huquq va majburiyatlarga ega hisoblanadilar. Har bir ota-ona o'z farzandini tarbiyalash va kamolati uchun javobgar hisoblanadilar. Ular o'z bolalarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shart.

Muqaddas Hadisi Sharifda ham "farzandlaringizni izzat-ikrom bilan birga axloq-odobini ham yaxshilanglar" deb xitob qilingan.

Ota-onalik huquqi bolalar manfaatiga xilof ravishda amalga oshirilishi mumkin emas. Bolalarning huquq va manfaatlari qonun bilan himoyalaniib, baxtiyor yoshlikni ta'minlanishi ko'zda tutiladi. Bizning hayotimizda bolalarni tarbiya qilishda oilaning roliga alohida ahamiyat beriladi. Mamlakatning yosh fuqarosi qanday bo'lib yetishishi ko'p jihatdan oilaga, ayniqsa, onaga bog'liqdir. Jamiyatning boshlang'ich yacheykasi bo'lgan oilada kishilar ma'naviy yetuklik oladi, hayotdagi o'z o'rnini chuqur tushuna boshlaydi.

Oila kodeksining 65-moddasiga ko'ra, har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilishi, ularning g'amxo'rligidan foydalanishi, ular bilan yashash huquqiga ega ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Shunday ekan, bolalarning huquq va manfaatlari himoya qilish bo'yicha ota-onaning quyidagi huquq va majburiyatlari bor: bolalarning huquq va manfaatlari himoya qilish ularning ota-onasi zimmasiga yuklatilishi;

Ota-onalarning o'z bolalariga nisbatan qonuniy vakil ekanliklari hamda har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo'lgan munosabatlarda, shu jumladan sudda alohida vakolatsiz ularning huquq hamda manfaatlari himoya qilishlari va shu kabilar qonun bilan mustahkamlanib qo'yilgan.

Vasiylik va homiylik organi tomonidan ota-ona va bolalar manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik borligi aniqlanganida, ota-ona o'z bolalarining manfaatlarini himoya qilishga haqli emas. Ota-onalar va bolalar o'rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo'lganda vasiylik va homiylik organi bolalarning huquq va manfaatlari himoya qilish uchun vakil tayinlashi shart. Ota-onalik huquqini amalga oshirishda ota-ona bolalarining jismoniy va ruhiy sog'lig'iga, axloqiy kamolotiga zarar yetkazishga haqli emas. Bolalarni tarbiyalash usullari mensimaslik, shafqatsizlik, qo'pollikdan, insoniy qadr-qimmatni kamsituvchi muomaladan, bolalarni haqoratlashdan xoli bo'lishi kerak.

O'z ota-onalik huquqini bolalarining huquq va manfaatlariga zid tarzda amalga oshirayotgan ota-onalar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Bolalarning ta'lim-tarbiyasiga taalluqli barcha masalalar bolalar manfaatidan kelib chiqqan va ularning fikrini hisobga olgan holda ota-ona tomonidan o'zaro kelishuv asosida hal etiladi. Agar ota-ona o'rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo'lsa, ular bu kelishmovchiliklarni hal qilish uchun vasiylik va homiylik organiga yoki sudga murojaat qilishga haqlidirlar.

Ota-ona alohida yashaganlarida bolalarning qaerda yashashi ota-onaning kelishuviga binoan belgilanadi. Ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, nizo sud tomonidan bolalar manfaatlaridan kelib chiqib, ularning fikrini hisobga olgan holda hal etiladi. Bunda sud, bolalarning ota-onadan, aka-uka, opa-singillaridan qaysi biriga bog'lanib qolganligini, bolaning yoshini, ota-onasining shaxsiy fazilatlarini, ota-onaning ahloqiy va boshqa shaxsiy fazilatlarini, ota-onaning har biri bilan bola o'rtasidagi munosabatlarni, bolani tarbiyalash va uni kamoloti uchun shart-sharoitlar yaratish imkoniyatini hisobga oladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bilan berilgan bolalar va ota-onalarning huquq va manfaatlarini qonunlar bilan himoya qilinadi.

Ota-onalik huquqini suiiste'mol qilish deganda bolalar manfaatlariga zid ishni tutishni, masalan, o'qishga, jamoat topshiriqlarini bajarishga to'sqinlik qilishni, tilanchilik, spirtli ichimliklar va narkotik moddalar iste'mol qilishga undashni, uni jinoiy harakatga jalb qilishni tushunmoq kerak.

Bolaga nisbatan ota-ona emas, oilaning boshqa a'zolari shafqatsiz munosabatda bo'lsalar, ota-ona bunga qarshilik qilmasa, bu holda ota-onalik huquqi Oila kodeksining 83-moddasiga muvofiq cheklanishi mumkin.

Bolani ota-ona yoki ularning biri bilan qoldirish ota-onaga yoki ularning biriga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra (ruhiyatning buzilishi yoki boshqa surunkali kasallik, og'ir holatlarni boshdan kechirish va boshqalar) bola uchun xavfli bo'sa, ota-onalik huquqini cheklashga yo'l qo'yiladi.

Agar bolani ota-ona (yoki ularning biri) bilan qoldirish oqibatida ularning xulq-atvori bola uchun xavf tug'dirsa, ularni ota-onalik

huquqidan mahrum qilish uchun yetarli asoslar aniqlanmagan taqdirda ham ota-onalik huquqini cheklashga yo‘l qo‘yiladi.

Ota-ona yoki ularning bir o‘z xulq-atvorini o‘zgartirmasa, vasiylik va homiylik organi ota-onalik huquqini cheklash to‘g‘risida sudning hal qiluv qarori chiqarilganidan keyin olti oy o‘tgach, ota-onalik huquqidan mahrum etish to‘g‘risida da’vo taqdim etishi shart bo‘lib hisoblanadi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to‘g‘risidagi ishlar ota (onaning) yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning, ya’ni, bobo, buvi, boshqa qarindoshlarning, shuningdek, prokurorning, voyaga yetmagan bolalarning huquqini himoya qilish majburiyati yuklatilgan organ yoki muassasalarning (vasiylik va homiylik organi, voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyalari, yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar muassasalari hamda boshqa muassasalarning) da’vosiga asosan ko‘riladi. Da’vo, professor Sh.Shoraxmetovning fikricha, “huquqning yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatning himoya qilinishi to‘g‘risida sudga yoki boshqa vakolatli tashkilotga murojaat qilinishi”⁴³ hisoblanadi.

Bu yerda da’vo qo‘zg‘atish huquqi fuqarolar, davlat manfaatlarini va tashkilotlarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini birinchi instansiya sudida himoya qilishning protsessual vositasi bo‘lib ko‘rinadi.

Ayni vaqtda, shuni ham eslatish o‘rinliki, FKning 11-moddasiga binoan bir qator buzilgan fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari normalanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- huquqni tan olish;
- huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug‘diradigan harakatlarning oldini olish;
- bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash;
- davlat organining yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish;
- shaxsning o‘z huquqini o‘zi himoya qilishi;
- burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish;

⁴³ Ш.Шорехметов. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал ҳуқуқи. -Т.: Адолат. 2001. -149 б.

- zararni to'lash;
- neustoyka undirish;
- ma'anviy zararni qoplash;
- huquqiy munosabatni bekor qilish yoki o'zgartirish;
- davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining qonunga zid hujjatini sudning qo'llamasligi⁴⁴.

Bular orasida bir qator usullar, chunonchi, huquqni tan olish, huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug'diradigan harakatlarning oldini olish, ma'anviy zararni qoplash kabilar o'ziga xos ahamiyatga egadir. Shuningdek, ushbu usullar orasida davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish, davlat organining yoki fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organining qonunga zid hujjatini sudning qo'llamasligi kabi usullar mustaqillik davrida alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash joiz. Zero, muqaddam sobiq totalitar tuzum hukmronlik qilgan yillarda fuqaroning buzilgan huquqlarini tiklashning bu kabi usullari haqida umuman gap-so'z bo'lishi ham mumkin emasdi.

Mazkur masalalarga to'xtalar ekanmiz, yana shuni ham aytmoqchimizki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bugungi islohatlarning tub maqsadi–inson va uning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan. Sho'ro zamonida davlat o'z huquqini yaxshi bilgan va manfaatlarini mustahkam himoya qilgan, davlat manfaatlari jamiyat va inson manfaatlaridan doimo yuqori qo'yilgan. Bugungi asosiy vazifa ushbu uchala sub'yektning asosiy markaziy figurasi hisoblangan shaxs, ya'ni fuqaro manfaatini oliy o'ringa qo'yishdan iboratdir. Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimizda inson va uning sha'ni, qadr-qimmatini, manfaatlari oliy qadriyat hisoblanib, u daxlsizdir⁴⁵.

Fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari haqida gap ketganda, davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish usuliga ham alohida to'xtalib o'tish lozim deb hisoblaymiz. Chunki, biz qurayotgan jamiyat kuchli davlatdan

⁴⁴ Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. -Т.: Адолат. 1996. -9-10 бетлар.

⁴⁵ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 5 бет..

kuchli fuqarolik jamiyati saridir. Zero, bunday jamiyatda fuqarolar o'z haq-huquqlarini bilishlari, ularni realizatsiya qila olishlari juda muhimdir. Yana amaliyotga murojaat qiladigan bo'lsak, shunday manzaraning guvohi bo'lishimiz mumkinki, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bola qaysi ota yoki onaga nisbatan mahrum qilingan bo'lsa, undan meros, ta'minot olish huquqini saqlab qoladi. FPKning 239-moddasiga ko'ra, ota-onalik huquqidan mahrum qilish bilan bog'liq ishlar oila-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan turkumdagi ishlarga kiradi. Yuqoridagi kodeksning 149-moddasiga binoan berilgan da'vo arizasida quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- ariza berilayotgan sudning nomi;
- da'vogarning nomi (famiyasi, ismi, otasining ismi) va yashash joyi;
- javobgarning nomi (famiyasi, ismi va otasining ismi) yashash joyi;
- da'vogarning talabi;
- da'vogar o'zining talablariga asos qilib ko'rsatayogan holatlar va bu holatlarni tasdiqlaydigan dalillar;
- arizaga ilova qilingan hujjatlarning ro'yxati.

Ariza da'vogar yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. Boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida prokuror, davlat boshqaruv organlari, tashkilotlar yoki ayrim fuqarolar tomonidan beriladigan arizalarda, shuningdek ariza kimning manfaatini ko'zlab berilgan bo'lsa, o'sha shaxsning nomi (famiyasi, ismi va otasining ismi) va manzili ko'rsatilishi lozim.

Mazkur turkumdagi ishlar sudga da'vogar tomonidan ariza topshirilishi bilan boshlanadi. Sudya ishning murakkabligi va xususiyatiga qarab, da'vogarning arizaga ilova qilingan hujjatlarning nusxalarini ham javobgarlarning soniga mutanosib miqdorda taqdim etishga majbur qilishi mumkin. Arizalar sudlarda sudning raisi, uning o'rinbosari yoki sudya tomonidan qabul qilinadi. Fuqarolik ishi qo'zg'atish masalasini sudya hal qiladi va bu haqda sud ajrim chiqaradi.

Quyidagi hollarda sud arizani qabul qilishni rad etadi:

- ariza sudda ko‘rishga tegishli bo‘lmasa;

- sudning aynan o‘sha taraflar o‘rtasida, aynan bir predmet to‘g‘risida va aynan bir asoslar bo‘yicha chiqqan nizo yuzasidan qabul qilinib, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoxud da’vogarning arz qilgan talablaridan voz kechganligini qabul qilish yoki taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlash to‘g‘risidagi ajrimi mavjud bo‘lsa;

- sud aynan o‘sha taraflar o‘rtasida, aynan bir predmet to‘g‘risida va aynan bir asoslar bo‘yicha chiqqan nizo yuzasidan ish yuritayotgan bo‘lsa;

- ish shu sudning sudloviga taalluqli bo‘lmasa;

- ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo‘lsa;

- manfaatdor shaxs nomidan arizani ish yuritish vakolatiga ega bo‘lmagan shaxs bergan bo‘lsa.

Sudya arizani qabul qilib, fuqarolik ishi qo‘zg‘atganidan so‘ng, ishni o‘z vaqtida va to‘g‘ri ko‘rib chiqish hamda hal qilish maqsadida uni sudda ko‘rishga tayyorlaydi. Sudya ishni yetarlicha darajada tayyorlangan deb topgach, uni sud majlisida ko‘rishga tayinlash to‘g‘risida ajrim chiqaradi, taraflar va jarayon boshqa ishtirokchilariga ishni ko‘rish vaqti va joyi haqida ma’lum qiladi.

Fuqarolik ishi ishda ishtirok etuvchi shaxslarni, albatta, xabardor qilgan holda sudning ochiq majlisida ko‘riladi. Yopiq sud majlisi qonunda nazarda tutilgan hollarda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning talabi bilan yoki sudning tashabbusi bilan o‘tkaziladi.

Ishda ishtirok etuvchilar qatorida prokurorning o‘rni alohida ahamiyatga egadir. Ishda ishtirok etuvchi prokuror ishning to‘la mohiyati bo‘yicha o‘z xulosasini beradi, prokurorning boshqa shaxslar huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida bergan arizasi bo‘yicha qo‘zg‘atilgan ishlar bundan mustasno.

Oilada ijtimoiy ish (oila muammolariga aralashish, mulkka oid munosabatlarni taqqoslash, oilaviy terapiya). O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida fuqarolarda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usining qaror topganligi, o‘tmish qadriyatlarini o‘rganishga bo‘lgan

qiziqishning ortganligi oilaning shaxs kamolotida tutgan o‘rni va rolini xolisona baholash imkonini berdi.

Ijtimoiy ishda oilaviy aralashuvda deganda oila atrofidagi ijtimoiy muhitning farovonligiga e‘tibor kuchaytiriladi. Chet el mutaxassisleri ushbu yo‘nalishda uchta tarmoqni ajratib ko‘rsatishadi:

- mavjud imkoniyatlardan foydalanish;
- ijtimoiy ish brokerlari xizmatidan keng foydalanish;
- advokat va ijtimoiy ishda malakali mutaxassislar ko‘magidan oilaviy muhitni barqarorlashtirishda foydalanish.

Ijtimoiy ishda jismoniy shaxs va oila bilan bevosita shug‘ullanish (Casework) qo‘laniladi. Agar ijtimoiy ish xodimi mavjud imkoniyatlardan o‘rinli foydalanib, oila muammolarini hal etishga faol aralashib, yetarli darajada oila tinchligi va salomatligiga yordam bera olsa, bunday usul ijtimoiy terapiya deb baholanadi. Bunday usul ko‘p holatlarda ijtimoiy himoyaning (sud amaliyotida) stress holatlaridan chiqarishda ham keng qo‘llaniladi.

Shuni ham alohida ta’kidlash zarurki, oilaviy terepiyada informatsiyaning asosiy o‘chog‘i – bu genogramma – oilaning qarindoshchilik va hayot yo‘llarining tomirlari qayerlarda tutashganligini bilish bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi talab etiladi. Ijtimoiy ish xodimidan har bir oila a’zosining qanday mavqe yoki pozitsiyani tutishini bilish ham nihoyatda muhimdir. Ijtimoiy ish xodimidan oila hayot yo‘lining kechagi kuni, buguni va kelajagini sezish talabi ortadi. Ayni paytda O‘zbekiston oilalarida mentalitet bilan manzilli ijtimoiy yordam ko‘rsatishning birlashuvi sezilmoqda⁴⁶. Ayniqsa ijtimoiy himoyaning sezilarli o‘rni va jamiyatimizdagi oshib borayotgan nufuzini yosh oilalar ilan ijtimoiy himoyaning qo‘llanilishida ko‘rmoqdamiz⁴⁷. O‘zbekistonda oila va yoshlar ijtimoiy himoyasi o‘zining davlat darajadagi siyosati bilan ham ijobiy tomondan namoyon bo‘lmoqda.⁴⁸

⁴⁶ГаниеваМ.Х. Основные принципы социальной работы с детьми в Узбекистане / «Ўзбекистонда замонавий ижтимоий-маданий жароёнларни ёритишда ижтимоий тарихни ўрни. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. Май, -Т.: 2015. – Б. 387-391.

⁴⁷ Ганиева М.Х. Развитие социальной работы в Узбекистане // Фалсафа ва ҳуқуқ. Илмий-назарий, маърифий журнал. №1. 2013. – Б. 50-55.

⁴⁸ Камалов О.А. Молодая семья в современном обществе: Учебно-методическое пособие. – Ташкент: Академия МВД Республики Узбекистан, 2013. – 28 с.

O‘zbekistonning aksariyati o‘zining shaxsiy farovonligi to‘g‘risida emas, balki oilaning, qarindosh - urug‘lari va yaqin odamlarining, qo‘shnilarining omon-esonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa eng oliy darajada ma‘naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir. Davlatning oilaga nisbatan g‘amxo‘rligi qabul qilinaëtgan qonun va qarorlarda o‘z ifodasini topmoqda. Respublikada “Oila” ilmiy-amaliy markazi tashkil etilganligi buning yorqin dalilidir.

Oila tarbiyasida ob‘yektiv va sub‘yektiv omillarning roli katta. Oilaning moddiy ta‘minoti va farovonlik (maishiy turmush) darajasi, oila byudjetining mavjud holati, undan oqilona foydalanish borasidagi tajriba, sog‘lom ruhiy muhitning barqarorligi va hokazolar ob‘yektiv omillar sanalsa, oiladagi shaxslararo munosabatlar mazmuni, oila a‘zolarining fiziologik, psixologik, madaniy jihatdan komillik hamda ma‘lumot darajasi, ularning qiziqishi va ehtiyojlari o‘rtasidagi mutanosiblik, oilaviy hayotni tartibga solish borasidagi o‘zaro yordam, hamkorlik, birlik tamoyillariga tayanish kabilar sub‘yektiv omillar sirasiga kiradi. Bolalarda ijtimoiy-dunyoviy bilimlarni egallashga bo‘lgan intilish, ijtimoiy faoliyatning shakllanishida ota-onalarning samarali ishtirok etishlari hal qiluvchi omil bo‘lib, bu oila tarbiyasini muvaffiqiyatli amalga oshirishning zarur shartlaridan biri. Oila tarbiyasida bolalar hayotini to‘g‘ri yuritish ularni vaqtdan to‘g‘ri va unumli foydalanishlarining asosiy garovidir. Bolalarning oiladagi vaqtini o‘yin, mehnat va o‘qish faoliyatlari bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlash nihoyatda muhimdir. Oila jismoniy va psixologik jihatdan sog‘lom, ma‘naviy barkamol, mehnat, ijtimoiy hamda oilaviy hayotga tayyor shaxsni shakllantirib berishi lozim. Oila tarbiyasining mazmuni bolalarga ijtimoiy tarbiyaning mazkur yo‘nalishlari – jismoniy, axloqiy, aqliy, estetik, mehnat, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy-g‘oyaviy hamda jinsiy ta‘lim berish, ularda faoliyat ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirishdan iborat. Oila muhitida tashkil etiladigan jinsiy tarbiya o‘zida bolani jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o‘rgatish, o‘z sog‘ligi uchun g‘amxo‘rlik qilish va mas‘uliyatli bo‘lishni ta‘minlashga qaratilgan harakatlarning mazmunini ifoda etadi.

Bolalarning sog‘lom bo‘lishlarida ularning kundalik hayotiy rejimga amal qilishlari nihoyatda muhimdir. Ota-onalar yoki oilaning katta vakil avlodlari bolalarning mehnat qilishlari va dam olishlarini tartibga solishga ahamiyat berishlari kerak. Organizmning bir maromda ishlashi bola salomatligini saqlash va mustahkamlashgagina yordam berib qolmay, shu bilan birga, uning barcha yumushlarni tartibli va sifatli bajarishi uchun imkon yaratadi.

Markaziy asab tizimining mustahkamlanishi uchun yaxshi dam olish talab etiladi. Tiniqib uxlash bosh miya asab hujayralarini to‘la orom olishini ta‘minlaydi. Bu esa butun organizmning mo‘tadil o‘shishiga, uning ish qobiliyatini saqlash va qayta tiklashga yordam beradi. Inson salomatligini saqlashda ertalabki badan tarbiyaning ahamiyatini bolalarga tushuntirish hamda ularning ertalabki badan tarbiya bilan shug‘ullanishga ko‘niktirib borish ota-ona nazoratini talab etadi. Badan tarbiya bolani saranjomlik, intizomga ham o‘rgatib boradi. Ovqatlanishning to‘g‘ri tashkil etilishi ham bolaning sog‘lom bo‘lib o‘shishining asosiy omillaridan biridir. Ota-onalar tomonidan bolaning belgilangan muayyan soatlarda ovqatlanish, ovqatlanishdan avval qo‘lni yuvish, ovqatdan keyin og‘izni chayish, shuningdek, kuniga ikki marta (ertalab va kechqurun) tish tozalash, haftada bir marta vanna (yoki dush, hammom)da cho‘milish, qo‘l va oyoq tirnoqlarini olishga odatlantirib borishlari zarur. Ushbu holatlar bolalarda jismoniy madaniyat unsurlarini shakllantiradi. Oila tarbiyasida bolalarni aqliy jihatdan tarbiyalash ham muhim o‘rin tutadi. Bu boradagi dastlabki va muhim vazifa ota-ona tomonidan bolaning qiziqishi va ehtiyojlarini ko‘ra bilish asosida tasavvur, idrok, tafakkur, xotira hamda diqqatni takomillashtirishga yordam beruvchi mashg‘ulotlarga jalb etishdan iborat. Shuningdek, ma‘lum yo‘nalishlar bo‘yicha bolada qiziqishni uyg‘ota olish, uni rivojlantirib borish ham talab etiladi. Bu borada ota-ona yoki oilaning boshqa a‘zolarining dunyoqarashi, ehtiyoji va qiziqishlari doirasi hamda ular tomonidan ko‘rsatilayotgan namuna muhim tarbiyaviy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Oila muhitida bolaning aqliy jihatidan tarbiyalab borishda konstruktorlik o‘yinlari (kubiklar yordamida uylar qurish, kesmalar

asosida tasvirlar hosil qilish va boshqalar), fikr doirasini kengaytirishga yordam beruvchi sport o'yinlari (shaxmat, shashka)ni tashkil etish, turli mavzulardagi krossvord, chaynvord va rebus topishmoqlarini hal qilish, teatr, muzey va ko'rgazmalarga tashrif buyurish hamda ilm-fan, texnika va texnologiya taraqqiyoti yuzasidan suhbatlarning uyushtirilishi bu borada o'zining ijobiy samarasini beradi.

Axloqiy tarbiya oila tarbiyasining o'zagini tashkil etadi. Oilada uyushtirilajak axloqiy tarbiyaning maqsadi bolalarda eng oliy axloqiy sifatlar ota-ona hamda oilaning boshqa a'zolari, shuningdek, atrofdagilarga nisbatan mehr-muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat, kamtarlik, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, saxovat, insonparvarlik, adolat, vijdon, or-nomus, g'urur, intizom, ijtimoiy burchni anglash va hokazolarni shakllantirishdan iboratdir. Shaxsda mazkur sifatlarning qaror topishida oiladagi sog'lom muhit, oila a'zolarining psixologik jihatdan o'zaro yaqinliklari, ehtiyoj, qiziqish va hayotiy yondoshuvilaridagi umumiylik, bir-birlarini har qanday vaziyatda qo'llab-quvvatlay olishlari, ota-onalar tomonidan barcha farzandlariga nisbatan qo'yilayotgan talablar, shuningdek, ularga ko'rsatilayotgan e'tiborning bir xil bo'lishi oila tarbiyasida ijobiy natijalarga erishishning omillari sanaladi. Oilada muayyan an'ananing qaror topganligi, unga oila a'zolari tomonidan bildirilayotgan hurmat, shuningdek, keksa avlod vakillarining shaxsi, ularning ijobiy sifatlari, mehnatda erishgan (garchi u oddiy bo'lsa ham) yutuqlari, atrofdagilar bilan munosabati borasidagi suhbat yoki xotiralarning tashkil etilishi bolalarda hayotiy e'tiqodning shakllanishini ta'minlaydi. Oilada tashkil etiladigan estetik tarbiya bolalarda go'zallikni his qilish, undan zavqlanish, tabiat go'zalliklaridan bahra olish asosida his -tuyg'u, idrok, tasavvur hamda qarashlarni yuzaga keltirish, ularni hayotni sevishga o'rgatishdek vazifalarning ijobiy hal etilishini nazarda tutadi. Axloqiy va estetik qarashlar mazmuni o'zgargan bir sharoitda oilada axloqiy va estetik tarbiyaning to'g'ri va samarali tashkil etilishi ayniqsa muhimdir. Bolalar juda yoshligidanoq soxta go'zalliklar (yarim yalang'och yoki yalang'och badan, me'yoridan ortiq qo'llanilgan pardoz, urfga kirib borayotgan kosmetik operatsiyalar "mahsuli", o'ta darajadagi yaltiroq

mato yoki taqinchoqlar) go‘zallikning timsoli emasligini anglab yetishlari lozim. Bola tasavvurida haqiqiy, tabiiy go‘zallik (yam-yashil tabiat, nafis qor uchquni, nozik gullar, beg‘ubor osmon, viqorli tog‘lar, tiniq zilol suv, toza, musaffao havo, bepoyon dalalar, qushlarning yoqimli ovozi, sharqiroq suv, “chuchvara”lar hosil qilayotgan yomg‘ir tomchilari, kamalak jilosi, shuningdek, ochiq, xushsurat, chiroyli tabassum, shirali ovoz, ta’sirchan badiiy va san’at asarlari, yuksak mahorat bilan yaratilgan o‘yinchoqlar, bolaning asabini junbushga keltiradigan elektron o‘yinchoqlar emas, yarashqli liboslar va boshqalar)ning namoyon bo‘lishi uchun shart-sharoit yaratib berish maqsadga muvofiqdir. Bolalarda haqiqiy go‘zallikni his etish tuyg‘usi tabiat bag‘rida, muzey, ko‘rgazma, kino va teatrlarda bo‘lish tufayli shakllanadi. Shu bois maktabgacha ta’lim muassasalari hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan tabiat bag‘riga, muzey, ko‘rgazma, kino va teatrlarga uyushtiriladigan ekskursiya va tashriflar katta tarbiyaviy kuchga egadir.

Mehnat tarbiyasi ham oila tarbiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Shaxsning mustahkam xarakter va qat’iy iroda egasi bo‘lib voyaga yetishida mehnatning roli kattadir. Bolalarni oilada to‘g‘ri tarbiyalashda oila xo‘jaligining odilona tashkil etilishi, bolalarni oila xo‘jaligini yuritish ishiga jalb qilish katta ahamiyatga ega. Bolalar tomonidan bajariladigan oilaviy yumushlar ularning jismoniy va aqliy kamoloti darajasidan ortiq bo‘lmasligi, ularning tezda toliqishlari yoki mayib bo‘lishlariga sabab bo‘lmasligi lozim. Bolalar zimmasiga ularning yoshi, rivojlanish darajasi, jismoniy quvvatiga muvofiq yumushlarning taqsimlab berilishi, berilgan topshiriqlarning bajarilishi va ularning sifatini kattalar tomonidan nazorat qilib turish, bajarilgan topshiriqlarning haqqoniy bahosiga ega bo‘lgan havasini oshiradi, unda o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchni yuzaga keltiradi.

Oilada mustaqil ravishda, ayrim yumushlarning hamjihatlikka asoslangan holda bajarilishiga erishish katta ahamiyatga ega. Mehnatni tashkil etishda ota-onalarning shaxsiy namunasi, aka-opalarning ibrati, shuningdek, ota-onaning bola bilan birga ishlashlari katta tarbiyaviy kuchga egadir. Oilada tashkil etilgan mehnat bolalarni farosatli bo‘lish,

ishni rejali olib borish, vaqtdan unumli foydalanish, tejamkor bo'lish, shuningdek, o'zgaralar mehnati, inson mehnatining mahsuli bo'lgan ne'matlarni asrab-avaylashga o'rgatadi. Oilada, shuningdek, atrof-muhit muhofazasi (ekologiyasi)ga oid tarbiyaviy ishlar ham tashkil etiladiki, bu jarayonda bolalarda "inson–tabiat-jamiyat" tushunchalari o'rtasida yuzaga keluvchi o'zaro muvofiqlik borasidagi g'oyalarning qaror topishiga zamin hozirlaydi. Oila muhitida tashkil etilayotgan hovli sahnini supirib-sidirish, gulzorlarni tashkil etish, ko'chatlarni o'tkazish va ularni parvarish qilish, maishiy chiqindilarni bartaraf etishga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish kabi harakatlar bolalarda tabiatni asrashga nisbatan mas'ullik tuyg'usini shakllantiradi.

Oilaviy hayotning me'yorida bo'lishi ko'p jihatdan oila byudjetining holatiga ham bog'liq. Shu bois oila a'zolari mehnati evaziga yaratilayotgan moddiy mablag'larni tejab-tergab, ulardan o'rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bois bolalarni ham yoshlikdan pul bilan muomala qilishga o'rgatish, o'zining shaxsiy hamda oila a'zolarining buyumlari, shuningdek, oila mulkiga nisbatan mas'uliyatli yondashishga ko'niktirib borish muhim ahamiyatga egadir. Bolalarga pulning inson mehnatiga to'lanadigan qiymat ekanligini tushuntirib berish, uni oilaning eng muhim ehtiyojlari uchun ishlatish lozimligini uqtirish, ular tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Oilada tashkil etiladigan iqtisodiy tarbiya bolalarda iqtisodiy savodxonlik hamda tafakkurning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Bolalarda iqtisodiy tafakkurni hosil qilishda ota-ona, oilaning katta yoshli a'zolarining namunasi katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga egadir.

Oila sharoitida uyushtirilayotgan suhbatlar alohida diqqatga sazovordir. Ommaviy axborot vositalari orqali aholi e'tiboriga havola etilayotgan huquqiy mavzulardagi maqolalar, ko'rsatuv, eshittirish, shuningdek, ommaviy-huquqiy adabiyotlar hamda ularda ilgari surilgan g'oyalar yuzasidan o'tkaziladigan suhbatlar bolalarda huquqiy tasavvur, idrok, savodxonlik, tafakkur, faollik, mas'ullik, e'tiqod va salohiyatni qaror topishiga olib keladi. Oila muhitida bolalarga ularning burchlari to'g'risidagi ma'lumotlarni berib borish, o'z navbatida huquqlaridan foydalanish yo'llarini ko'rsatib berish bu borada yaxshi samara bera

oladi. Oila bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini hosil qiluvchi o'ziga xos maskan sanaladi. Bolalar "Vatan", "xalq" tushunchalarining mohiyatini dastlab ana shu maskanda o'zlashtiradilar. Binobarin, oilaning o'zi Vatanning bir bo'lagidir. Oila sha'nini himoya qilish, uni saqlash to'g'risida qayg'urishning Vatanning sha'ni, el-yurt manfaati uchun kurashish tuyg'ulari bilan uzviy bog'liq bo'lishiga erishish oilada tashkil etilayotgan ijtimoiy-siyosiy tarbiyaning asosi bo'lishi lozim.

Yuqorida qayd etilgan tarzda oila tarbiyasini tashkil etish komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish muvaffaqiyati uchun poydevor bo'ladi. Farzandlarning har tomonlama etuk bo'lib voyaga yetishlarida ota-ona, oilaning boshqa a'zolarining dunyoqarashlari, hayotiy yondoshuvlari va ma'naviy dunyosi o'ziga xos o'rin tutadi. Shuningdek, ota-onalarning muayyan darajada pedagogik bilimlarga ega bo'lishlari ham ahamiyatlidir. Oila va ta'lim muassasalari o'rtasida tashkil etilgan hamkorlikning bosh g'oyasi ota-onalar uchun pedagogik yordam ko'rsatishdan iboratdir.

Farzand dastlabki ma'lumot va ijtimoiy me'yorlarga amal qilish borasidagi ko'nikmalarga oilada ega bo'ladi. Chunki oilaviy ijtimoiy munosabatlar, xususan, madaniy-maishiy, iqtisodiy-moliyaviy, mulkiy munosabatlar hamda mehnat faoliyatini tashkil etishda farzandlar o'zlari sezmagani, mohiyatini tushunib yetmagan holda mazkur ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etadilar, demakki, ijtimoiy masalalar bilan to'qnash keladilar, natijada bu tarzda muloqotlarning doimiy, qisqa muddatlarda takrorlanib turishi ular uchun ota-onalar, farzandlarning huquq, burch, majburiyat va mas'uliyatlarini tushunib etishga yordam beruvchi ijtimoiy ob'yektiv shart-sharoitlarni yaratadi.

Oila tarbiyasining farzandlarga tarbiya berish, ularda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash yuzasidan bir qator tadbirlar amalga oshiriladi. Shu borada ota-onalar bilan olib borilgan ijtimoiy ishlar hamda o'tkaziladigan tadbirlardan ayrimlarini namuna sifatida keltiramiz:

- ota-onalar bilan olib boriladigan ijtimoiy ishlar;
- ota-onalar bilan o'tkaziladigan ijtimoiy suhbatlar.

Suhbatlar yakka va umumiy tarzda olib boriladi. Ilk suhbat chog'ida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ma'naviy-axloqiy madaniyat unsurlarini qaror toptirish muvaffaqiyatini ta'minlash kafolati bo'lgan ota-onalar va farzandlarning ijtimoiy onglik hamda faollik darajasini aniqlashga yordam beruvchi anketa so'rovlarini o'tkazish mumkin.

Shu jihatdan Ijtimoiy ishga kirish fani oldiga milliy va hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda tarixan tarkib topgan oila - ta'lim muassasasi - jamoatchilik tarzidagi uchlikning ijtimoiy-ma'rifiy roli ular o'rtasidagi o'zaro birlik, aloqadorligini asoslash, bolalarda idrok va tafakkurni shakllantirishda oila va jamoatchilik imkoniyatlarini aniqlash hamda ulardan unumli foydalanish talabi o'rtaga qo'yilmoqda.

O'zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Glossariy
Oila	Семья	Family	bu nikohga yoki qon-qarindoshlikka asoslangan kishilar ijtimoiy birligining birlamchi yacheykasi, sinflar, millatlar, davlatlardan ancha ilgari paydo bo'lgan eng qadimgi ijtimoiy institutlardan biridir.
Nikoh	Брак	Marriage	bu huquqiy shakl bo'lib, u orqali jamiyat ayolning huquqlarini va erkakning majburiyatlarini tartibga soladi va mustahkamlaydi.
Tarbiya	Обучение	Training	bu – insonning o'zi va o'z xulqi haqidagi tasavvurining to'g'ri va xolis bo'lishini ta'minlovchi murakkab jarayon bo'lib, u bevosita uni o'rab turgan insonlardan, oila a'zolari, mahalladoshlari, yor-do'stlaridan ayri tushunilmaydi.
Genogramma	Генограмма	Genogramma	oilaviy shajara manzarasi. U diagramma shaklida bo'lib, oilaga mansub ayollar doira, erkaklar to'rtburchak shaklda tasvirlanadi. Oilaning kasallikka chalingan a'zolari shakllari ustidan chiziq

			o'tkaziladi. Gorizontaal chiziqlar nikoh munosabatlari yoki birgalikdagi turmush tarzini bildiradi. Kvadratlar va doiralarni birlashtiruvchi vertikal chiziqlar farzandlar mavjudligini anglatadi. Muammoli munosabatlar to'liqsimon chiziq bilan belgilanadi.
Oila terapiyasi	Терапия семьи	Therapy of family	oilaviy munosabatlarni yo'lga qo'yish, maqsadga erishish va birgalikda harakat qilishga yordam berish uchun mavjud bo'lgan usul va strategiyalar. Oila terapiyasining tizimlar nazariyasiga asoslanadi.

Nazorat savollari:

1. Oila qanday tarkibiy tuzilishga ega?
2. Farovon oila bilan ehtiyojmand oilaning qanday farqlari bor?
3. Bolalar va yoshlarga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordamning qanday o'ziga xos xususiyatlari bor?
4. Oilaning, onalik, otalik va bolalikning muhofaza qilinishini qanday tushunasiz?
5. Ijtimoiy xizmatchilar bolalar, yoshlar va oilalar bilan qanday ishlarni olib boradilar?
6. Oila tushunchasi
7. Jamiyat va oila tushunchalari
8. Oilaning ijtimoiy muammolari
9. O'zbekistonda oila siyosati
10. Yoshlar bilan ijtimoiy ish
11. Oila va yoshlar muammolari bilan ijtimoiy ish.
12. Oila tarbiyasida axloqiy tarbiyaning o'zagini nima tashkil etadi.
13. Oilada mehnat tarbiyasining asosiy yo'nalishlarini sanab o'ting.
14. Oila tarbiyasi va ijtimoiy himoyalashni tashkil etishning shakl, metod va vositalari haqida nimalarni bildingiz?

15. Oilada ijtimoiy ishning oila muammolariga aralashish nima?
16. Oilada ijtimoiy ishning mulkka oid munosabatlarini taqqoslash nima?
17. Oilada ijtimoiy ishning oilaviy terapiyasi nima?

8-MAVZU: IJTIMOIIY ISHDA SALOMATLIK VA NOGIRONLIKNI O‘RGANISH.

Reja:

8.1. Salomatlik tushunchasi. Salomatlikka doir muammolar.

8.2. Nogironlik tushunchasini tavsiflovchi omillar va yondoshuvlar.

8.3. Nogironlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning chet ellardagi va O‘zbekiston tajribalari.

Salomatlik tushunchasi. Salomatlikka doir muammolar.

Ijtimoiy ish xodimlari aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga ko‘mak berishlari bilan birgalikda, aholini salomatligi bilan bog‘liq muammolarini hal qilishga ham e‘tibor qaratadilar. Salomatlik–umuman organizmning hamda uning barcha organlarining o‘z funksiyalarini bajarishga to‘la qodir bo‘lgan holati, kasallikning mavjud emasligidir.

Inson salomatligini muhofaza qilish (sog‘liqni saqlash)–davlat tomonidan aholini ijtimoiy himoyalash vazifalaridan biridir. Jahon miqyosida insoniyat salomatligini muhofaza qilish muammolari bilan Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti shug‘ullanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining Ustavi salomatlikni “Inson organizmining organlari va tizilishini o‘rab turgan ishlab chiqarish va ijtimoiy muhit bilan mutanosib bo‘lganida to‘la jismoniy, ma’naviy, ijtimoiy sog‘ligining holati” sifatida talqin etadi⁴⁹.

Ushbu tushunchada salomatlikning uchta: jismoniy, psixik va ijtimoiy tarkibiy xususiyatlari qamrab olingan.

Jismoniy salomatlik–organizm barcha organlari va tizimlari me‘yorida amal etib turgan tabiiy holatdir.

Psixik salomatlik deyilganda fikrlash darajasi va sifati, diqqat va xotiraning hamda irodaning rivojlanganligi, hissiy barqarorlik darajasi anglanadi.

⁴⁹Сайт Всемирной организации здравоохранения:
<http://www.who.int/features/factfiles/ageing/ru>.

Ijtimoiy salomatlik inson ijtimoiy hayoti asosini tashkil etadigan axloq prinsiplari asosida belgilanadi, ya'ni bu insonning muayyan jamiyatdagi hayot faoliyatidir. Mazkur xislatlar, eng avvalo, insonning mehnatga munosabati axloqqa va turmush tarziga zid xulq va odatlarga faol qarshi turishini nazarda tutadi.

Tibbiy-sanitariya statistikasida shaxsiy darajadagi salomatlik deyilganda insonda kasalliklarning mavjud emasligi, jamiyat darajasida esa o'lim, kasallanish va nogironlik darajasining pasayishi jarayonlari tushuniladi. Bunda quyidagi tushunchalar o'zaro farqlanadi:

- shaxsiy salomatlik–alohida insonning salomatligi;
- guruh salomatlik–ijtimoiy va etnik guruhlarning salomatligi;
- mintaqaviy salomatlik–ma'muriy hududlardagi aholining salomatligi;
- ijtimoiy salomatlik–umuman jamiyat salomatligi.

Ijtimoiy salomatlikni baholash uchun quyidagi tibbiy-demografik ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

1. Aholi tabiiy harakatining ko'rsatkichlari:

- tug'ilish;
- umumiy va yosh guruhlaridagi o'lim;
- aholining tabiiy ko'payishishi;
- nikoh va hokozolar.

2. Aholining mexanik harakati ko'rsatkichlari:

- migratsiya;
- immigratsiya;
- integratsiya.

3. Kasallanish va uning tarqalishi to'g'risidagi ma'lumotlar.

4. Nogironlik darajasi.

5. Aholining jismoniy holati va rivojlanishi ko'rsatkichlari.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, salomatlikning holatiga turmush sharoitlari va turmush tarzi, ovqatlanish, irsiyat, tashqi muhit, tabiiy sharoitlar va sog'liqni saqlashning ahvoli ta'sir ko'rsatadi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti nuqtaui nazaridan odamlarning salomatligi–ijtimoiy xususiyatdir, shuning uchun ijtimoiy salomatlikni baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi:

- yalpi ichki mahsulot hajmida sog‘liqni saqlashga xarajatlar ulushi;
- birinchi tibbiy-sanitariya yordamdan foydalanish imkoniyati;
- aholini emlash darajasi;
- homiladorlarning malakali personal tomonidan tekshirilishi darajasi;
- bolalarni ovqatlantirish ahvoli;
- bolalar o‘limining darajasi;
- kutilayotgan o‘rtacha umr davomiyligi;
- aholining sanitar-gigienik savodxonligi.

Sog‘liqni saqlash xizmatlari bilan qamrab olishning ko‘rsatkichlari tibbiy yordamga muhtoj aholining sog‘liqni saqlash sohasida eng muhim choralar bilan amalda qamrab olinganligi darajasini ifoda etadi. Bunday choralarga quyidagilar kiradi:

- ayollarga homiladorlik va tug‘ish paytida malakali tibbiy xizmat qo‘rsatish;
- reproduktiv salomatlik sohasidagi xizmatlar;
- bolalarning yuqumli kasalliklarga chalinishining oldini olish maqsadlarida emlash;
- bolalarning A guruhi vitaminlari bilan ta‘minlanishi;
- bolalar, o‘smirlar va katta yoshdagilarning kasalliklarini davolash.

Odatda bunday qamrab olish qo‘rsatkichlari muayyan kasalliklardan davolangan yoki profilaktikadan o‘tgan odamlar sonini tibbiy yordam olish huquqiga ega yoki tibbiy yordamga muhtoj aholi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi. Masalan, bir yoshgacha bo‘lgan bolalarni emlash bilan qamrab olish ko‘rsatkichi u yoki bu aniq bir vaksina olgan bolalar sonini har bir mamlakatdagi bir yoshgacha bo‘lgan bolalar umumiy soniga bo‘lish orqali hisoblab chiqiladi. Umuman, salomatlik ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi global hisobotlarda asosiy e‘tibor mamlakat bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlarga qaratiladi.

Shu bilan birga, mamlakat ichkarisida hamda aholining turli guruhleri salomatligi va sogʻliqni saqlash xizmatlari koʻrsatkichlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar ham muhimdir. Ushbu maʼlumotlar sogʻliqni saqlash sohasidagi tengsizlikni aniqlashga yordam beradi. Bunday tengsizlikka ijtimoiy-iqtisodiy ahvol (taʼlim darajasi, mashgʻulot turi, farovonlik yoki uy xoʻjaliklari daromadi darajasi), geografik joylashish, etnik mansublik, jins kabi omillar sabab boʻlishi mumkin.

U yoki bu mamlakat aholisi salomatligining ahvoli toʻgʻrisida tugʻilgan paytda kutilayotgan umr davomiyligi, shuningdek, besh yoshgacha boʻlgan bolalar oʻlimi (tugʻilganidan bir yoshga hamda besh yoshga toʻlgunicha oʻlim ehtimoli) hamda katta yoshdagi aholi oʻlimi (15-60 yoshda oʻlim ehtimoli) koʻrsatkichlari boʻyicha xulosa chiqarish mumkin.

Jamiyatdagi sogʻliqni saqlash ahvolini toʻgʻri baholash uchun bolalar oʻlimi darajasi va bu sohadagi tendensiyalar nihoyatda muhim. Chunki jahonda barcha oʻlimlarning deyarli 20,0% besh yoshgacha boʻlgan bolalar ulushiga toʻgʻri keladi. Neonetal oʻlim (tugʻilgandan keyin dastlabki 28 kun ichida oʻlim holatlari) koʻpgina mamlakatlarda, ayniqsa daromad darajasi past boʻlgan mamlakatlar aholisi oʻrtasida tez-tez uchraydi.

Kutilayotgan umr davomiyligi mazkur vaqtda aniq bir sharoitlarda mavjud oʻlim koeffitsienti hisobga olingan holda u yoki bu odam necha yil umr koʻrishi mumkinligini baholash imkoniyatini bersa ham mazkur shaxsning butun umri davomidagi salomatligi aholi toʻgʻrisida biror maʼlumot bera olmaydi. Oʻlim toʻgʻrisidagi statistika maʼlumotlarining oʻzi aholi turli guruhleri salomatligining ahvolini baholash va taqqoslash uchun yetarli emas. Chunki ularda salomatlik uchun oʻlimga olib bormaydigan oqibatlar toʻgʻrisida biror maʼlumot mavjud emas.

Aksincha, “tugʻilgan paytda kutilayotgan umr davomiyligi” koʻrsatkichi odam kasallanish yoki jarohat olishi oqibatida nosogʻlom boʻlsa ham oʻrtacha necha yil umr koʻrishi mumkinligidan dalolat beradi. Shu sababli ushbu koʻrsatkich salomatlik uchun oʻlimga olib keladigan va olib kelmaydigan oqibatlar va nogironlik turlarini hisobga

olmaydi. Bunday xastalik va nogironlik holatlari orasida jahonda eng tarqalganlari-karlik, ko‘zi ojizlik va ruhiy-asab kasalliklardir.

Zamonaviy jamiyatlarda sodir bo‘layotgan transformatsion jarayonlar inson hayotiy faoliyatining barcha sohalarida tarixan shakllangan ijtimoiy-madaniy me‘yor va qadriyatlarning o‘zgarishiga, turmush tarzi, kundalik hayot va mehnat faoliyati, turli guruhlar va qatlamlarning mavqeyi va maqomiga o‘z ta‘sirini o‘tkazmoqda. Odatda bu kabi o‘zgarishlar va burilishlar aholining ijtimoiy ojiz qatlamlari, jumladan, nogironligi bor kishilar ijtimoiy-huquqiy, tibbiy-fiziologik holatida keskin aks-sado beradi.

So‘nggi yillarda yolg‘iz keksalar va nogironlik muammosi ayniqsa dolzarb va keskin tus oldi. Bu nogironlarning mutlaq va nisbiy sonini ko‘payishi, shuningdek, jamiyatning jumladan nogironlarning o‘zlarining ushbu muammoga nisbatan munosabatining o‘zgarishi bilan bog‘liq. Butunjahon Sog‘liqni saqlash tashkilotining 2011 - yildagi ma‘ruzasiga ko‘ra, jahonda 1 mlrd. dan ortiq kishi nogironlikning u yoki bu shaklidan aziyat chekmoqda. Bu jahon aholisining 15%ni tashkil etib, 15 yosh va undan katta yoshdagi 110 mln (2,2%) dan 190 mln (3,8%) gacha bo‘lganlar hayotiy faoliyatida turli mashaqqatlarni boshidan kechiradi. Bu ko‘rsatkichlar rivojlangan davlatlarda aholi qarib borishi va surunkali kasalliklar salmog‘ining oshib borishi bilan kuzatilmoqda⁵⁰. Ularning taxminan 80 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi. Ko‘plab davlatlarda nogironlar malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, ta‘lim olish, jamoat transportida yurish, ayniqsa, ishga joylashishda muammolarga duch kelmoqdalar. Bu ko‘rsatkichlar 1970 - yilda 10%ni tashkil qilgan bo‘lib, shu davr maboynida dunyo miqyosida nogironligi bor insonlar yana 5%ga ko‘payganligi aniqlangan. Sababi, dunyo miqyosida aholi qarishi (ayniqsa rivojlangan davlatlarda), surunkali kasalliklar ko‘payishi kuzatilmoqda. Nogironlikni belgilashning ilmiy metodologiyasi takomillashmoqda va aniq tashxislash o‘lchovlari

⁵⁰Всемирный доклад об инвалидности / Всемирная организация здравоохранения; Всемирный банк, 2011. <http://www.who.int/features/factfiles/disability/ru/>. Дата обращения к ресурсу 26.12.2016.

amalga oshirilmoqda. Istiqbolda esa nogironlikning yanada keng tarqalishi bashorat qilinmoqda⁵¹.

Hozirda nogironlik yoki invalidlik (lot. - invalidus - soʻzma-soʻz “kuchli emas”) insonning hayotiy faoliyatini jismoniy, aqliy, sensorli yoki ruhiy ogʻishlar natijasida cheklanganligini anglatadi. Xalqaro Sogʻliqni saqlash tashkiloti Ustaviga koʻra sogʻliq insonning bosh huquqlaridan biri boʻlib-u nafaqat kasallik va jismoniy nuqsonlardan xolilik, balki jismoniy, maʼnaviy va ijtimoiy muvaffaqiyat, farovonlik holatidir⁵².

Ijtimoiy sogʻlomlik esa—aholining biologik va ijtimoiy omillar majmuasi taʼsirida shakllangan salomatligi boʻlib, u mavjud ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tuzilma xususiyatlaridan kelib chiqib mehnat, maishiy, oziq-ovqat, hordiq, taʼlim va madaniyat, sogʻliqni saqlash kabi sohalarning barqaror faoliyati mahsulidir.

Nogironlik tushunchasini tavsiflovchi omillar va yondoshuvlar.

BMT Nogironlar huquqlari Deklaratsiyasi tomonidan 1975 yilda qabul qilingan taʼrifga koʻra “nogironlik deganda – shaxsning jismoniy va aqliy imkoniyatlarini tugʻma yoki ortirma yetishmovchilik tufayli mustaqil holda shaxsiy yoki ijtimoiy ehtiyojlarini butunlay yoki qisman taʼminlay olmasligi” tushuniladi⁵³. Nogironlik - jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor (sezgi) rivojlanishida nuqsonlari sababli ijtimoiy, madaniy, qonunchilik va boshqa toʻsiqlarga duch kelishi oqibatida jamiyatga integratsiyalashuvida murakkabliklarga duch keladi va oilaviy yoki ijtimoiy hayotda toʻlaqonli ishtirok etish imkonining cheklanganligidir.

Nogironlarga teng imkoniyatlar yaratishning Standart qoidalariga koʻra, “nogiron” atamasi, ijtimoiy himoya tizimi sohasi, qoʻllanilishida bir qator cheklanishlarga ega sanaladi. Individ jismoniy, aqliy yoki sensor nuqsonlari yoki sogʻligʻining holati yoki psixik kasalliklar bois nogiron boʻlib qolishi mumkin. Bu kabi nuqsonlar oʻz xususiyatiga

⁵¹Всемирный доклад об инвалидности / Всемирная организация здравоохранения; Всемирный банк, 2011. URL: http://www.who.int/disabilities/world_report/2011/summary_ru.pdf. Дата обращения к ресурсу 26.12.2016.

⁵²<http://www.who.int/features/factfiles/disability/ru/>

⁵³Думбаев А.Е., Попова Т.В. Инвалид, общество и право. Алматы: Верена, 2006. –17 с.

ko‘ra, doimiy yoki vaqtinchalik bo‘lishi mumkin⁵⁴. Nogironlikning yuqorida ko‘rsatilgan rasmiy ta‘riflari mavjud bo‘lishiga qaramasdan ilm-fan vakillari bu talqinlar nogironlikning asl mohiyatini batafsil izohlay olmaydi, deb biladilar. Shu bois fan olamida ushbu hodisa atrofida turli bahs-munozaralar hamon davom etmoqda.

1991- yilda qabul qilingan “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 1-moddasida ushbu tushunchaga quyidagicha ta‘rif beriladi: “Jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj bo‘lgan shaxs nogiron hisoblanadi. Shaxsning turmush faoliyati cheklanganligi uning o‘z-o‘ziga xizmat qilish, yurish, yo‘lni topa olish, muloqot qilish, o‘z xatti-harakatini nazorat etish, shuningdek, mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish qobiliyati yoki imkoniyatini to‘la yoxud qisman yo‘qotganligida ifodalanadi”⁵⁵.

Nogironlik tushunchasiga ta‘rif bergan E.R.Yarskaya-Smirnova va E.K.Naberushkinalarning fikriga ko‘ra “Nogironlik–nogiron insonlar organizmidagi turli kasalliklarning og‘ir kechuvchi oqibati bois me‘yoriy rivojlanishida buzilishlar, tashqi ko‘rinishda nuqsonlarga egaligi oqibatida shakllangan alohida ehtiyojlariga tashqi muhitning moslashtirilmaganligidir”⁵⁶. Demak, nogiron inson–bu sog‘lig‘ida tug‘ma yoki orttirma buzilishlari tufayli ijtimoiy etishmovchilikka ega shaxslar bo‘lib, ularning ehtiyojlarini qondirilishi va mustaqil faoliyat yuritishiga to‘siqlik qiluvchi ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy, ma‘naviy-axloqiy va boshqa imkoniyatlari cheklangan. Ammo, jamiyatda hamon bu kabi insonlarning me‘yoriy rivojlanishiga to‘siq bo‘luvchi aqidalar, stereotiplar talaygina.

“Nogiron” va “imkoniyati cheklangan shaxs” tushunchalari qonunchilik va me‘yoriy hujjatlarda qo‘llanilishiga qaramasdan

⁵⁴Стандартные правила обеспечения равных возможностей для инвалидов. Приняты резолюцией 48/96 Генеральной Ассамблеей от 20 декабря 1993 года // Информационная система по документам по правам человека и тематическим публикациям [URL] <http://www.echr-base.ru/invalidation.jsp>. Дата обращения к ресурсу 21.01.2017

⁵⁵«Ногиронларни ижтимоий химоя қилиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 1991 йил. 1-модда.

⁵⁶Ярская-Смирнова Е.Р., Наберушкина Э.К. Социальная работа с инвалидами. Саратов, 2003. –7 стр.

Rossiyalik ko'pgina tadqiqotchilar ushbu atamalar qo'llanilishidan voz kechish zaruriyatini ta'kidlamoqdalar. Xususan, T.F.Maslova, V.K.Shapovalov, B.C.Tkachenkolar ko'rsatishicha, bu ma'noda "nogironlikka ega kishilar" yoki "nogiron kishilar" tushunchasi o'rinlidir. Mualliflar quyidagi ta'rifni taklif etadilar: "Hayotiy faoliyatning ijtimoiy va individual darajasida nogironligi bor kishilar—bu og'ir hayotiy vaziyatdagi kishilar bo'lib, yuzaga kelgan turmush muammolarini mustaqil hal etishda yetarli shart-sharoitga ega emaslar"⁵⁷. Ammo, ushbu ta'rifda nogiron kishilar og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan boshqa aholi qatlamlari, masalan, daydilar, yetimlar, kam ta'minlanganlardan farqlanib ko'rsatilmaydi. Shuningdek, "nogironlik" va "mehnatga layoqatsizlik" tushunchalarining qo'llanilishida chigalliklar mavjud. Ammo, «mehnatga layoqatsizlik» keng tushuncha bo'lib, u «nogironlik»ni ham qamrab oladi. Nogironlik bilan bog'liq mehnatga layoqatsizlik boshqalar qatorida jamiyat hayotida ishtirok etish imkoniyatining yo'qotilishi yoki cheklanishini anglatadi. Yana bir xorijlik olimlarning tadqiqotida, nogironlik tushunchasini beshta kategoriyaga bo'lib o'rganishni taklif etiladi, bular: anomaliya yoki nuqson, klinik holat, funksional cheklanganlik, me'yordan og'ish va yetishmovchiliklardir⁵⁸. Sanab o'tilgan kategoriyalar mazkur atamani batafsil izohlamasdan, turli vaziyatlarda qo'llanilishi mumkin. Masalan, anomaliya sifatida nogironlik oyoq-qo'llarning yo'qotilishi, eshitish va ko'rish yoki boshqa qobiliyatlarning cheklanganligini anglatada, insonning mehnatga butkul layoqatsizligi va faolligi cheklanganligining belgisi emas. Klinik holatda ba'zi kasalliklarni tashxislash murakkabligi natijasida ushbu maqomining o'rnatilishida chigalliklarga yo'l qo'yilishi mumkin.

Ma'naviy va jismoniy muhitning tegishli tarzda shakllantirilmaganligi yoki tashkillanmaganligi oqibatida funksional cheklanganlik yuzaga kelsada aksincha holat yuz berganda nogiron

⁵⁷Маслова Т.Ф., Шаповалов В.К., Ткаченко В.С. Концепция исследования интеграции людей с инвалидностью в общество // Интеграция людей с инвалидностью в российское общество: теория и практика / под ред. В.К. Шаповалова. - М.: Муравей, 2006. -74 с.

⁵⁸Каранг: Оливер М., Сэпей Б. Социальная работа с инвалидами. 2-еизд. - М.: , 1999. - 42-43 с.

inson faoliyatini aslo cheklamaydi. Masalan tegishli moslama va qurilmalar bilan jihozlangan binoda nogiron inson o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli amalga oshirilishi mumkin. Nogironlik tushunchasining me‘yordan og‘ish sifatida talqin etilishi jamiyatning ijtimoiy-madaniy ustqurmasidagi mavjud ijtimoiy adolat tamoyillarining buzilganligidan darak beradi. Nogironlikni nuqson, yetishmovchilik sifatida qabul qilishda esa ushbu kategoriyaga nafaqat jismoniy balki ijtimoiy ojizlik omillariga bog‘liq boshqa qatlamlar, masalan, ayollar, bolalar, keksalar va boshqalar ham kirib ketishi mumkin.

Jamiyatda nogironlikni ijtimoiy institut sifatida shakllantirish va qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan guruhli xatti-harakat sifatida ko‘rsatishga moyilliuk ustinlik qiladi. Ular nogironlikni ikki darajali ijtimoiy voqelik sifatida talqin qilganlar va ijtimoiy xizmatni nogironlik tabiiy hodisa (ijtimoiy dalil) bo‘lib, ikkiyoqlama xususiyatga ega, ya‘ni individual–bu biologik (psixofiziologik) asos va noindividual–ijtimoiy tizimlar faoliyati bilan bog‘liq asosga ega deb tushuntiradilar.

Ijtimoiy hodisa sifatida nogironlik jamiyatning ijtimoiy differensiallashuvi asosida yotadi va o‘zgacha xususiyatli maqom sifatida institutsionallashgan huquq va majburiyatlar majmuasiga ega bo‘ladi. Ularning ijtimoiy mas‘uliyatiga bo‘lgan talablar susaytiriladi va alohida ehtiyojlarini qondirilishida davlat ijtimoiy siyosati tomonidan legitimlashgan qo‘shimcha vositalar talab etiladi.

Nogironlikning ijtimoiy institut sifatida shakllanishidagi bosh omillar quyidagilardan iborat: 1) nogironlik guruhining belgilanishi va fuqarolarninig ijtimoiy himoya chora-tadbirlariga, jumladan, ijtimoiy reabilitatsiyaga bo‘lgan ehtiyojining belgilanishi; 2) sog‘lig‘ida turg‘un buzilishlar bo‘lgan shaxslarning alohida ehtiyojlarining qondirilishi; 3) nogironligi bor shaxslarning jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdan kelib chiqib, me‘yoriy turmush darajasini ushlab turish; 4) nogironligi bor shaxslarni ijtimoiy himoyalashda turli to‘lovlar to‘lash va taqsimlash; 5) nogironligi bor shaxslarni ijtimoiy integratsiyasi va adaptatsiyasi chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishdir deb ko‘rsatiladi.

Shu tariqa xorij tajribisiga asosan nogironligi bor inson faoliyati ijtimoiy faoliyatning rasmiy va norasmiy qoidalarini o‘rnatuvchi ijtimoiy institutlar doirasida kechadi. Ushbu qoida va me‘yorlar doirasida nooddiy ijtimoiy, psixologik yoki jismoniy xususiyatlarga ega alohida individ va ijtimoiy guruhlarini qabul qilish stereotiplari shakllanadi. Xulq-atvor namunalari va stereotiplar jamiyatning ijtimoiy madaniy rivojlanishi jarayonida jamoatchilik ongi tuzilmasi va alohida individning kundalik hayotiy amaliyotida mustahkam o‘rinishadi.

Xalqaro Sog‘liqni saqlash tashkiloti ustaviga ko‘ra sog‘liq insonning bosh huquqlaridan biri bo‘lib, u nafaqat kasallik va jismoniy nuqsonlardan xolilik, balki jismoniy, ma‘naviy va ijtimoiy muvaffaqiyat, farovonlik holatidir⁵⁹.

Ijtimoiy sog‘lomlik esa–aholining biologik va ijtimoiy omillar majmuasi ta‘sirida shakllangan salomatligi bo‘lib, u mavjud ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tuzilma xususiyatlaridan kelib chiqib, mehnat, maishiy, oziq-ovqat, hordiq, ta‘lim va madaniyat, sog‘liqni saqlash kabi sohalarning barqaror faoliyati mahsulidir.

Shunday qilib, nogironlik ijtimoiy hodisasi jamiyat institutsional tuzilmasida muqim o‘rinishib ulgurganligi bois qisman rasmiylashgan ijtimoiy institut sanaladi. Nogironlik ijtimoiy institut sifatida birinchidan, jamiyatda sog‘liqni saqlash, ijtimoiy rehabilitatsiya, ijtimoiy himoya, tibbiy-ijtimoiy ekspertiza va hakazo kabi butun bir ijtimoiy tizimga mushtarakligini ta‘minlaydi.

Ikkinchidan, nogironlik integral ijtimoiy institut sanaladi va o‘ziga xos tizim hosil qiluvchi funksiyalarni bajaruvchi institutlar, muassasalar, tashkilotlar faoliyatini yo‘naltiradi. Mazkur institutning asosiy unsurlari moddiy to‘lov (pul, moddiy va nomoddiy vositalar), va nomoddiy vositalar-maxsus qurilmalar, transport, aloqa vositasi, kompyuterlar va hakazolardir.

Uchinchidan, nogironlikning ijtimoiy institut sifatidagi ikkinchi komponenti–bu alohida institutsional xizmat vazifalarini bajarishga yo‘naltirilgan alohida guruhlar va tashkilotlar faoliyatidagi uyg‘unlikdir. Ushbu guruhlar qonun va qonunosti hujjatlar shaklida huquq va

⁵⁹<http://www.who.int/features/factfiles/disability/ru/>. Дата обращения к ресурсу 02.02.2017.

vakolatlaridan kelib chiqib ushbu ijtimoiy institutning nafaqat legitimligini, balki uning faoliyati shakli legitimligini belgilab beradi.

To'rtinchidan, ushbu faoliyat, avvalo, fuqarolarning nogironligini tan oluvchi davlat xizmatlari va ularga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatuvchi davlat tuzilmalari tomonidan, shuningdek, nogironlarning nodavlat jamoatchilik birlashmalari tomonidan amalga oshirilib, uning doirasida nogironlarning muvaffaqiyatli ijtimoiy integratsiyasi uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Beshinchidan, ijtimoiy institut tuzilmasidagi uchinchi komponent—bu institutning ijtimoiy maqsadlarini ro'yobga chiqaruvchi subyektlar bo'lib, ular nogironligi bor shaxslarning ijtimoiy himoyasi, ta'limi, mehnat faoliyati va boshqalarni ta'minlaydi.

Nogironlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning chet ellardagi va O'zbekiston tajribalari. Nogironlar orasida qashshoqlik darajasining yuqoriligi—nogironlik kishining uy xo'jaligi doirasida qolib ketish ehtimolini oshiradi. Natijada ularda oziq-ovqat tanqisligi, uy-joy sharoitlarining yomonligi, maishiy tizim sifatining pastligi muammolari bilan yashashga majburdirlar. Ular o'zlarini qo'llab-quvvatlash, tibbiy parvarish, qo'shimcha qurilmalar uchun qo'shimcha xarajatlarni amalga oshira olmaydilar. Masalan, mustaqil harakatlanish imkonining o'ta cheklanganligi, o'zgalar yordamiga bog'liqlik—AQSHdagi 1 505 nogironligi bor kishilar orasida o'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, ularning 42%i o'zgalar ko'magisiz yotgan joyidan turaolmasligini bildirganlar. Ammo, ko'pchilik hollarda nogironlarga ko'maklashishda oila a'zolarining roli katta. AQSHda nogiron bolasi bor oila a'zolari ish kuni cheklangan yoki mehnat faoliyatini tugatish ehtimoli baland ekanligini ko'rsatib o'tish mumkin. Bu, ayniqsa, oila a'zolari yoshining qarib borishi bilan keskinlashadi. Natijada ular jiddiy moliyaviy muammolarga duch keladilar. Ushbu muammo haqida ijtimoiy ish sohasini tadqiq etuvchi olimlarning konkret fikr-mulohazalari bayon etilgan. Bu esa, xorij tajribasida nogironlikni anglash inson sog'lig'ida nimadir muammo borligi bilan izohlanadi. Bu kabi fikrlar imkoniyati cheklanganlikni birgina jismoniy rivojlanishdagi buzilishlarga tenglashtirib qo'yadi. Bunga ko'zi ojizlik, eshitish

imkoniyati cheklanganlik, tayanch-harakatlanish tizimi qisman yoki butunlay ishlamasligi, psixik kasalliklar, Daun sindromi va epilepsiya kabi holatlar kiritiladi.

Jismoniy imkoniyati cheklanganlikka bunday munosabat odatda nogironlikning tibbiy modeli sifatida qabul qilinadi. Tibbiy modelda ruhiy-jismoniy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan kishilarga me‘yordan og‘ish holati sifatida reabilitatsion aralashish uchun mijoz yoki tibbiy muolajalarga tobe insonlar sifatida qaraladi. Bunda insonning cheklangan imkoniyatlarining ijtimoiy oqibatlarini aynan nogironlik natijasida jamiyatdan uzilib qolishning oqibati sifatida ta‘riflanadi. Demak, nogironlik ushbu modelga ko‘ra sof tibbiy muammo sifatida qabul qilinarkan ekan, uni faqatgina tibbiy davolash yoki reabilitatsiya orqali bartaraf etish mumkin, deb tushuniladi⁶⁰. Bu kabi tushunchalar ko‘pchilik hollarda nogironligi bor insonning institutsional muassasalarda izoyatsiyada, ya‘ni yakkalanib, jamiyatdan uzilib qolishiga olib keladi.

Ijtimoiy himoyaga nogironlikni ta‘riflashning ijtimoiy modeliga, yuqorida keltirilgandek, yondashiv eskirdi, shu bois uning an‘anaviy yondashuvi tanqid ostiga olinib, bu model Buyuk Britaniyada XX asrning 70 - yillarida imkoniyati cheklangan kishilarning nogironlikka an‘anaviy yondashuviga qarshi harakat asosida yuzaga kelgan. Bu harakat individuallashgan tibbiy nazariyaning radikal muqobil shaklini taklif etadi. Unga ko‘ra, imkoniyati cheklangan odamlarning noxush holatlari ulardagi kasalliklar tufayli emas balki, ularga ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy to‘siqlar ta‘siridagi cheklashlar, o‘zlarini o‘rab turgan muhitning ijtimoiy to‘siqlarini sabab qilib ko‘rsatadilar. Bunday aniq ifodaga binoan nogironlik tushunchasi salomatlik yoki patologik holatlar bilan emas, balki ijtimoiy muhit tomonidan kamsitishlar va ijtimoiy cheklashlar bilan bog‘liqdir. Ijtimoiy modelning istiqboli nuqtayi-nazaridan nogironlik ijtimoiy-siyosiy muammodir deb ko‘rsatiladi⁶¹.

⁶⁰ЧичеринаЯ.Е., ИсмаиловаР.Н. Ногиронлиги бўлган болалар билан ижтимоий иш курси бўйича хрестоматия. – Тошкент: JA‘HON PRINT, 2012. – Б-5 .

⁶¹ЧичеринаЯ.Е., ИсмаиловаР.Н. Ногиронлиги бўлган болалар билан ижтимоий иш курси бўйича хрестоматия. – Тошкент: JA‘HON PRINT, 2012. – Б-6 .

Ushbu yondashuvga ko‘ra, nogironligi bor insonlarning xitobi “Bizni kasallik emas, jamiyat nogiron qiladi” degan iboradan iborat bo‘lib, ushbu ibora ijtimoiy model xususiyatini o‘zida yaqqol ifoda etadi.

Shu tariqa ijtimoiy model nogironligi bor insonlarni boshqalar qatorida teng huquqli ekanliklari va buning uchun kurashish g‘oyasi atrofida birlashtiradi. Ijtimoiy model imkoniyati cheklangan inson tibbiy muolajalarga tobe passiv inson emas, aksincha o‘z taqdirLARining ijodkor egalari bo‘lish zaruriyatini rivojlantiradi. Bu modelning kuchli tomoni shundaki, xorijlik mutaxassislarning ijtimoiy ishga zamonaviy yondoshuvi tufayli, nogironlikning sababi qashshoqlik emas, himoyasizlik paydo bo‘lishining ildizi biologik kelib chiqishda emas, balki, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasida ekanligini isbotlaydi.

2000 yil Rio de Janeyro shahirda BMTning nogironlik bo‘yicha maxsus komissiyasi ma‘ruzachisi Bengt Lindkvist xalqaro reabilitatsiya muammolariga bag‘ishlangan XIX kongressda nogironlikning ijtimoiy modeli xususiyatlarini yaqqol ifodalovchi quyidagi nutqini so‘zlaydi: “Nogironlik–bu inson huquqlari muammosidir! Men takror aytaman: nogironlik inson huquqlari muammosi. Nogiron insonlar o‘z atrofdagilarning o‘zlariga nisbatan layoqatsiz, go‘yoki koinotdan tushgan g‘alatilar sifatida munosabatda bo‘lishlaridan to‘yib ketishgan. Ammo, biz teng qadriyatli insoniy mavjudotmiz va biz ham teng huquqqa da‘vogarmiz...”⁶². Ushbu xitob imkoniyati cheklangan insonlarning qalbida chuqur iz qoldirgan ijtimoiy to‘siqlarni yengishga ijtimoiy ishchilarni ham ruhlantirdi.

Ijtimoiy himoyaning xorij tajribasiga ko‘ra, yolg‘iz keksalik va nogironlikning ijtimoiy modeli imkoniyati cheklanganlik to‘g‘risidagi tasavvurlarga yangicha yondashuvni keng omma orasida rivojlantirishga chorlov bo‘ldi. U imkoniyati cheklangan insonning hayotda ijobiy o‘zgarishiga turtki bo‘ldi. Bu borada, nogironligi bor insonlar manfaatlari muhofazasi uchun kurashuvchi nodavlat notijorat tashkilotlarining faolligi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu tashkilotlar bu kabi insonlarning asl ehtiyojlarining mazmun mohiyatini davlat

⁶²www.unhchr.int/features/factfiles/disability/ru. Дата обращения к ресурсу 27.01.2017.

muassasalari va siyosatchilar diqqatiga yetkazilishi va hukumat darajasidagi o'zgarishlarga turtki berdilar.

Yolg'iz keksalar va nogironlikning ijtimoiy modeli imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan jamoatchilik munosabatining o'zgarishiga sabab bo'ldi. Shu bois, nogironligi bor kishilar hayotining turli bosqichlarida ularga munosib munosabat bildirish, tegishli ijtimoiy yordam bilan ta'minlashga e'tibor kuchaydi.

Xalqaro Sog'liqni saqlash tashkilotining 67-sessiyasida "Nogironligi bor insonlarni qo'llab quvvatlashning 2014-2021 - yillarga mo'ljallangan global Rejasi" qabul qilindi. Ushbu reja dunyo miqyosida nogironlikning turli shakllaridan aziyat chekayotgan 1 mlrd. kishi hayoti sifatining yaxshilanishiga turtki bo'lib xizmat qiladi. Ushbu reja bo'yicha harakat dasturi uch vazifadan iborat:

- sog'liqni saqlash xizmatlari va dasturlaridagi to'siqlarni bartaraf etish va teng imkoniyatlarni yaratish;

- rehabilitatsiya, abilitatsiya, ko'makchi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va mustahkamlash;

- nogironlikni tadqiq etishni qo'llab-quvvatlash, uning xalqaro ko'lamda tashkil etilishiga yordamlashish.

Nogironlik buzilgan salomatlik hamda munosabat va muhit to'siqlari o'zaro munosabatlari natijasi bo'lib, bu nogironlarni jamiyat hayotida boshqalar bilan teng va samarali ishtirok etishiga xalaqit beradi. Xalqaro hamjamiyat buni hisobga olgan holda, nogironlarning o'ziga xos xususiyatlarini hurmat qilish va buni insoniy turfa xillikning tarkibi va insoniyatning uzviy ajralmas bir qismi sifatida qabul qilish, ularning jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida to'laqonli ishtirok etishlarini ta'minlashning huquqiy asoslarini yaratgan.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida har bir inson irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoxud boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy yoxud tabaqaviy yoki boshqa sharoitidan qat'iy nazar, barcha huquqlar va erkinliklarga ega bo'lishlari shart ekanligi belgilab qo'yilgan. Bu nogironlarga ham bevosita va to'la taalluqlidir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh assambleyasi tomonidan 2006 - yil 13 - dekabrda 61/106-rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” hamda “Nogironlarning huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaga Fakultativ protokol” ana shu xalqaro hujjatlarning asosiylari hisoblanadi. Ularda nogironlarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatlarini rag‘batlantirish va himoya qilish, shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini va bu huquqlardan boshqalar bilan teng ravishda foydalanish imkoniyatlarini kafolatlash tamoyillari belgilab qo‘yilgan.

Ushbu Konvensiyada ishtirok etuvchi davlatlar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining ustavida e‘lon qilingan insoniyat oilasining barcha a‘zolariga xos qadr-qimmat va qadriyatlar hamda ularning teng va ajralmas huquqlari tamoyillari ozodlik, adolat va yalpi tinchlikning asosi deb e‘tirof etiladi.

Ushbu Konvensiyaning maqsadi barcha nogironlarning insonning barcha huquqlari va asosiy erkinliklarini rag‘batlantirish, himoya qilish hamda to‘la va keng amalga oshirilishini ta‘minlash, shuningdek, ularga xos qadr-qimmatni hurmat qilishni rag‘batlantirishdir.

Nogironlarga turli to‘siqlar bilan o‘zaro munosabatda ularning boshqalar bilan teng holda jamiyat hayotida to‘la va samarali ishtirok etishiga xalaqit beradigan barqaror jismoniy, psixik, intellektual yoki sensor⁶³ buzilishlari bo‘lgan shaxslar taalluqlidir.

Ushbu Konvensiyaning 2-moddasida undan ko‘zlangan maqsadlari uchun “muomala” - tillardan, matnlardan, Brayl alifbosi, taktil⁶⁴muomalasi, yirik shrift, foydalanish imkoniyati bo‘lgan multimedia vositalari, ayni vaqtda bosma materiallar, audiovositalar, suxandonlarning odatiy tili, shuningdek, muomalani kuchaytiruvchi va muqobil usullari, vositalari va shakllari, shu jumladan, foydalanish imkoniyati bo‘lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qamrab oladi.

⁶³Сенсор(инглизча “sensor”) - ўлчаш, сигнал бериш, мувофиқлаштириш, бошқариш тизими унсури.

⁶⁴Тактил (лотинча “tactilis” - “англанадиган” сўздан) - бу ерда ногиронлар англашини осонлаштирадиган Брайль алифбосида бўртма тарзда тайёрланадиган лавҳалар назарда тутилмоқда.

“Nogironlik belgisi bo‘yicha kamsitish” - maqsadi yoki natijasi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqaro yoki har qanday boshqa sohada boshqalar bilan teng holda insonning barcha huquqlari va asosiy erkinliklarining e’tirof etilishi yoki amalga oshirilishini kamsitadigan yoki rad etadigan har qanday tafovut, istisno yoki cheklashni anglatadi. U kamsitishning barcha shakllarini, shu jumladan, oqilona moslashtirishdan voz kechishni qamrab oladi. “Oqilona moslashtirish” - nogironlarning boshqalar bilan teng ravishda barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklarini amalga oshirish maqsadlarida aniq bir holatda zarurat bo‘lganda mos kelmaydigan yoki oqlanmaydigan yuk bo‘lmaydigan zarur va muvofiq modifikatsiyalar va tuzatishlar kiritishni anglatadi. “Universal dizayn” - barcha odamlar uchun moslashtirish yoki maxsus dizaynni talab etmaydigan holda eng yuqori imkoniyat darajasida yaroqli qilishga da’vat etilgan buyumlar, sharoit, dastur va xizmatlar dizaynini anglatadi. “Universal dizayn” zarurat bo‘lganda aniq bir nogironlar uchun assistiv⁶⁵qurilmalarni istisno etmaydi.

Ushbu Konvensiyaning tamoyillari quyidagilardan iborat:

- insonga xos bo‘lgan qadr-qimmatni, uning shaxsiy mustaqilligi, shu jumladan, mustaqil tanlovi erkinligini hamda mustaqilligini hurmat qilish;

- kamsitmaslik;

- jamiyatga to‘la va samarali jalb etish va qo‘shish;

-nogironlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hurmat qilish va buni insoniy turfa xillikning tarkibi va insoniyatning bir qismi sifatida qabul qilish;

- imkoniyatlarning tengligi;

- to‘siqsiz foydalanish;

- erkaklar va ayollarning tengligi;

- nogiron bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatlarini hurmat qilish va nogiron bolalarning o‘z shaxsiy xususiyatlarini saqlab qolish huquqini hurmat qilish. Ishtirok etuvchi davlatlar barcha nogironlar tomonidan nogironlik belgisi bo‘yicha hech qanday kamsitishsiz

⁶⁵Ассист (лотинча “assist” -“мавжуд бўлган” сўзидан) - бу ерда ногиронларга нарсаларни англашда ёрдам берадиган белгилар ҳақида гап борапти.

insonning barcha huquqlarini amalga oshirish va asosiy erkinliklarini ta'minlash va rag'batlantirish majburiyatini oladi.

Ushbu Konvensiyada nogironlarning huquqlari va asosiy erkinliklari, xususan, ularning yashash, fuqarolik, huquqiy himoyalash, ta'lim olish, salomatliklarini saqlash, boshqalar bilan teng ravishda mehnat qilish, siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayotda, bo'sh vaqtni o'tkazish, dam olish va sport bilan shug'ullanishda ishtirok etish, o'zlari va oilasi uchun yetarlicha turmush sharoitiga ega bo'lish va ijtimoiy yordam huquqlari e'tirof etilgan va ularni amalga oshirishning huquqiy kafolatlari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi hukumati Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"ni imzolagan. Mamlakatimizda nogironlarning barcha huquq va erkinliklarini ta'minlashning mustahkam huquqiy asoslari ham yaratilgan. 2008 - yilda mamlakat parlamenti yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi Qonunni qabul qilinib, uning 3-moddasiga ko'ra, nogiron-jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor (sezgi) nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb topilgan hamda ijtimoiy yordamga va himoyaga muhtoj shaxsdir⁶⁶ deb belgilangan.

Ushbu Qonunning 5-moddasida "Davlat nogironlar turmush faoliyatining cheklanganligini baholash asosida ularning ijtimoiy yordam hamda himoya chora-tadbirlariga bo'lgan ehtiyojlari hisobga olinishi ta'minlanishini, nogironlarni rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy himoya qilishning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan turlaridagi dasturlar amalga oshirilishini, nogironlarning jamiyat bilan uyg'unlashishi uchun sharoitlar yaratilishini, nogironlarni kamsitishning barcha shakllaridan himoya qilishni ta'minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rilishini kafolatlaydi"⁶⁷ deb belgilab qo'yilgan. Mamlakatimizda ijtimoiy himoyalash tizimining ustuvorligi imkoniyati

⁶⁶“Ўзбекистон Республикасида ногиронларни ижтимоий ҳимоя қилиш тўғрисида”ги ЎЗР 11.07.2008 й. ЎРҚ-162-сон Қонунининг 3-моддаси.

⁶⁷“Ўзбекистон Республикасида ногиронларни ижтимоий ҳимоя қилиш тўғрисида”ги ЎЗР 11.07.2008 й. ЎРҚ-162-сон Қонунининг 5-моддаси

cheklangan nogironlarni ijtimoiy faollashtirish masalasini hal qilishga keng yo'l ochadi.

Bugungi kunda taraqqiy etayotgan O'zbekiston o'zini turli guruh aholisi qatlami qatorida nogironligi mavjud shaxslarni ham rivojlantirishga e'tiborini qaratgan. Masalan, nogiron shaxslarning bir qismini uy mehnatiga jalb qilish hamda oilaviy biznesni yo'lga qo'yishda ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida mehnat va aholi bandligi vazirligi qoshida bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Markazlari yiliga o'rtacha besh mingdan o'n ming nafargacha nogironlarni ishga joylashtiradi. Jumladan, ular tikuvchilik, kosiblik, zardo'zlik, quroqchilik, kompyuter texnikasini ta'mirlash xizmatlari kabi yo'nalishlarda uy mehnati bilan band.

O'zbekiston Respublikasining "Shahar yo'lovchi transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to'g'risida"gi Qonunida 1941-1945-yillardagi urush nogironlari, I-guruh urush nogironini kuzatib borayotgan shaxs, ko'zi ojiz nogironlar va ularni kuzatib borayotgan shaxs shahar yo'lovchi transportidan (taksidan tashqari) bepul foydalanish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 - yil 26 - fevraldagi Farmoniga ko'ra, bolalikdan nogironlarga, I va II-guruh nogironlariga, 1941-1945 - yillardagi urush nogironlariga, Chernobil AESidagi falokat oqibatlarini bartaraf etishda qatnashgan shaxslarga respublika ixtisoslashtirilgan markazlarida davlat byudjeti mablag'lari hisobidan tibbiy yordam ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 - yil 15 - fevraldagi Qaroriga asosan, yosh bolasi bor oilalarga, bolaga qaraganlik uchun nafaqa hamda moddiy yordam tayinlashda bolalarning ota-onasidan biri yoki har ikkalasi nogiron bo'lgan, shuningdek, nogiron farzandi bor oilalarga ustunlik beriladi. "Nogironlar va keksalarni bepul sanatoriya-kurort yo'llanmalari bilan ta'minlash tartibi to'g'risida Yo'riqnoma"ga ko'ra, 1941-1945 - yillardagi urush nogironlari, I guruh urush nogironini kuzatib borayotgan shaxs, I va II guruh nogironlari, I guruh ko'zi ojiz nogironni kuzatib borayotgan shaxs, Chernobil AESi

falokati oqibatida nogiron bo‘lib qolgan fuqarolar bepul yo‘llanmalar bilan ta‘minlanadi.

Mamlakatimizda Prezidentning 2011 - yildagi qarori bilan 2011–2015 - yillarda yolg‘iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilishni yanada kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarning belgilanishi, shuningdek, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi manzilli ijtimoiy muhofazani yanada kuchaytirishda, yolg‘iz keksalar, pensionerlar va nogironlarning turmush darajasi va sifatini oshirishda, ularning ijtimoiy ta‘minoti tizimini takomillashtirishda, shuningdek, tibbiy-ijtimoiy muassasalar moddiy-texnik bazasini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

“O‘zbekiston Respublikasida nogironlarning ijtimoiy muhofazasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni nogironlarga o‘z huquqlari, erkinlik va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, boshqa fuqarolar bilan bir xilda va teng imkoniyatlar ta‘minlanishiga erishish uchun jamoat birlashmalarini tuzish huquqi beradi. Bugungi kunda mamlakatimizda o‘nlab ana shunday jamoat tashkilotlari faoliyat olib bormoqda. O‘zbekiston nogironlar jamiyati, O‘zbekiston milliy paralimpiya assotsiatsiyasi, O‘zbekiston nogiron ishbilarmon ayollar milliy assotsiatsiyasi va boshqalar shular jumlasidandir. Mazkur jamoat birlashmalarining faoliyati nogiron kishilarning har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishini ta‘minlashga, ularning ta‘lim olishi, sport bilan shug‘ullanishi, kasb egallashi uchun keng imkoniyatlar yaratishga yo‘naltirilgan.

Xuddi shu kabi, “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasiga ko‘ra, nogironlar va jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslar, shuningdek, yuqori darajada ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlari o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ko‘maklashish jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi. Shuningdek mazkur Qonunning 6-moddasida davlatning jismoniy tarbiya va sport vositalaridan aholining, shu jumladan, ayollar

va yoshlarning, shuningdek, nogironlarning sog‘lig‘ini mustahkamlash maqsadida foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratishi, nogironlarning va jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslarning paralimpiya hamda surdlimpiya o‘yinlarida, nogironlar o‘rtasidagi maxsus olimpiadalar va boshqa sport tadbirlarida ishtirok etishini rivojlantirish hamda ta‘minlashga ko‘maklashishi belgilab qo‘yilgan. Paralimpiya harakatini rivojlantirish maqsadida paralimpiya sportining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, mamlakatimiz sportchilarining nufuzli xalqaro musobaqalarda munosib ishtirok etishlarini ta‘minlash uchun zarur chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Natijada paralimpiyachilarimiz xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashishmoqda. Jumladan, 2010 - yilda Guanchjou shahrida bo‘lib o‘tgan ParaOsiyo o‘yinlarida yengil atletika, kamondan otish, dzyudo, o‘q otish, pauerlifting kabi sport turlarida 25 nafar paralimpiyachimiz Vatanimiz sharafini himoya qilib, jami to‘qqizta medalni qo‘lga kiritishdi. Shu o‘rinda futbol bo‘yicha nogiron-amputantlar o‘rtasida uch karra jahon chempioni bo‘lgan terma jamoamizni alohida tilga olib o‘tish lozim. 2016 - yil Braziliyaning Riode-Janeyro shahrida bo‘lib o‘tgan XV yozgi paralimpiya o‘yinlarida sportchilarimiz jami 31 ta medalni qo‘lga kiritishgani esa alohida tahsinga loyiq.

2015 - yil 10 - avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Keksalar va nogironlarni manzilli ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga ko‘ra, 2016 - yil yanvar oyidan 17 ming nafardan ziyod o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz yashayotgan hamda yolg‘iz keksalar va nogironlar uchun yakka tartibda shakllantiriladigan ijtimoiy xizmatlar dasturi ishlab chiqildi. Dasturlar yolg‘iz keksalar va nogironlarning beshta sohadagi ehtiyojlarini qondirishni qamrab olgan, bular: sog‘lomlashtirish, uyida parvarishlash, uy-joy maishiy sharoitlarini yaxshilash, ijtimoiy va huquqiy himoya, muloqot va dam olish doirasini kengaytirish. Uyida parvarishlash bo‘yicha xizmatlar yangicha tartibda taqdim etiladigan bo‘ldi: agar avvallari ijtimoiy xizmatchining uyda parvarishlash uchun kelib-ketishi davriyligi va muddati keksa kishi yoki nogironning

sogʻligʻi qay darajada buzilganiga yoki oʻz - oʻziga xizmat koʻrsata olish qobiliyatiga bogʻliq boʻlmagan boʻlsa, endi xizmatlar hajmi va kelib-ketishlar davriyligi Bartel va Lauton shkalasi boʻyicha belgilanadigan boʻldi. Mazkur shkalalar yordamida insonning mustaqil ravishda ovqatlanish, choʻmilish, oʻziga qarash, kiyinish, hojatga chiqishini nazorat qilish, harakatlanish, zinadan koʻtarilish va tushish, xaridlar qilish, roʻzgʻor yuritish boʻyicha imkoniyatlari baholanadi. Yolgʻiz keksalar va nogironlarga har oyda yetkazib beriladigan oziq-ovqat mahsulotlari va shaxsiy gigiena tovarlarining soni 9 tadan 15 nomga koʻraytirilgani, shuningdek, ularni oluvchiga jami toʻplanning belgilangan umumiy qiymati doirasida mahsulotlar va tovarlar turlari hamda miqdorini tanlash huquqi berilganligi ijtimoiy yordam sohasida yangilik boʻldi.

Mamlakatimiz oʻzbek xalqining tarixiy-madaniy qadriyatlarini qayta tiklash va buyuk ajdodlarimizning maʼnaviy-axloqiy merosini toʻla oʻrganish asosida fuqarolik jamiyati qurishni oʻzining strategik maqsadi qilib qoʻydi. Ushbu vazifani bajarish yoʻllaridan biri – jamiyatda tarixiy-madaniy hayot tarziga mos keladigan sogʻlom maʼnaviy-axloqiy muhitni shakllantirishdir. Bularning barchasi, madaniyat, maʼnaviyat, qadriyatlar, ijtimoiy ideallar, urf-odatlar, anʼanalar, eʼtiqod, mentalitet, axloq normalari insonning ichki ruhiy olami inʼikosidir. Ularda insonlarning orzu-umidlari, his-tuygʻulari, kechinmalari, intilishlari, maqsad va muddaolari mujassamlashgan. Bundan tashqari, ular insonlarning hayot yoʻlini ham belgilab beradi. Mustaqillik yillarida ijtimoiy himoyalash tamoyili qatʼiylik bilan amalga oshirib kelinmoqda. Bu kuchli davlat siyosatining muhim bir yoʻnalishi nogironlarga, xususan, imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy himoyalashga, ularni turli metod va vositalar bilan qoʻllab-quvvatlashga qaratilganligi bilan alohida eʼtiborga molik masaladir.

Oʻzbekcha	Ruscha	Inglizcha	Glossariy
Sogʻliqni saqlash tizimini moliyalashtirish	Финансовые системы здравоохранения	Financing of the health care system	aholiga tibbiy xizmatlarni koʻrsatish uchun zarur boʻlgan moliyaviy resurslarni shakllantirish va ularni

			taqsimlash jarayoni.
Davlat byudjetidan moliyalashtirish	Финансирование из государственного бюджета	Funding from the state budget	Sog‘liqni saqlash tizimini barcha ko‘rinishdagi va darajadagi umumiy soliq daromadlari hisobidan moliyalashtirish.
Reabilitatsiya	Реабилитация	Rehabilitation	kasallik, baxtsiz tasodif yoki biror aks holat yoki voqeadan keyin o‘ziga kelish jarayoni.
Ekzotizim	Экзосистема	Ekzosistema	bola bevosita tarkibiga kirmaydigan ammo, mikrotizimlar orqali ta’sir ko‘rsatadigan ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, OAV va institulardan iborat.
Ekoxarita	Экокарта	Ecocard	turli xil ijtimoiy ishchilar ishlatiladigan va markaziy insonning ijtimoiy vaziyatini tasvirlaydigan diagramma. U nafaqat oila va qarindoshlarni (Genogramga qarang), balki insonga muhim bo‘lgan boshqa odamlarni ham o‘z ichiga oladi. Ko‘pgina hollarda muhim va ta’sirli odamlar oila tashqarisidan, masalan, o‘qituvchilar va oilaning do‘stlari kelishi mumkin. Endi ba’zi muammolar qisman bo‘lsa ham oila tashqarisidan kerakli odamlarni jalb qilish orqali bartaraf etiladi.

Nazorat savollari:

1. Salomatlik tushunchasini ta’riflang.
2. Salomatlikka doir muammolar nimalardan iborat?
3. Nogironlik tushunchasini ta’riflang.
4. Nogironlik tushunchasini tavsiflovchi omillar va uning xususiyatlarini aniqlang.

5. Nogironlik tushunchasini tavsiflovchi yondoshuvlar va uning xususiyatlarini aniqlang.
6. Nogironlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning chet ellardagi tajribalari.
7. Nogironlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning O'zbekistondagi tajribalari va uning xususiyatlarini aniqlang.
8. Mamlakatdagi sog'liqni saqlash tizimi holati va aholining sog'lig'i darajasiga qanday omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin?
9. Aholi kasallanish holatini tavsiflash uchun qanday ko'rsatkichlar qo'llaniladi?
10. Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning qanday shakllari mavjud?
11. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini isloh etish zaruriyati, amalga oshirish bosqichlari va ustuvor yo'nalishlari.

9-MAVZU: KEKSA KISHILARGA IJTIMOIIY XIZMAT KO'RSATISH

Reja:

9.1. Aholining keksayish muammolari.

9.2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining keksa kishilarga munosabat prinsiplari.

9.3. Keksalar bilan ijtimoiy ish.

Aholining keksayish muammosi. Keksalik inson umrining eng so'nggi bosqichi hisoblanib, u kishida namoyon bo'lgach, surunkali kasalliklarga tez-tez yo'liqadigan aholi guruhini tashkil etadi. Chunki, inson organizmining jismonan qarishi oqibatida kishining tashqi o'zgarishlar va noqulay holatlarga moslashishi susayadi va tez-tez kasalliklarga chalinadigan bo'lib qoladi. Keksa kishi mehnatga layoqatsiz va o'zgaralar yordamiga muhtoj bo'ladi.

Inson organizmida ro'y beradigan o'zgarishlar: jismoniy quvvatning zaiflashuvi, ish qobiliyatining susayishi, tashqi ta'sirlarga moslashish va javob reaksiyalarining sekinlashuvi va boshqalar 55-60 yosh chegarasidan yuzaga chiqadi. Demak, keksalik davrining boshlanishiga shartli ravishda mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lgan aholi - 55 va undan yuqori yoshdagi ayollar, 60 va undan yuqori yoshdagi erkaklarni qariyalar guruhiga kiritish mumkin.

So'nggi yillarda inson umrining keksalik davrini tasniflash bo'yicha xilma-xil yondoshuvlar paydo bo'ldi. Masalan, gerontologlar tasnifiga ko'ra, 60-74 yoshdagilar-qariyalar, 75-84 yoshdagilar-keksalar, 85 va undan yuqori yoshdagilar-katta yoshdagilar, juda keksalardir.

Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tasnificha, 60-74 yoshdagilar-qariyalar, 75-89 yoshdagilar-keksalar, 90 va undan yuqori yoshdagilar-uzoq umr ko'ruvchilar deb hisoblanadi. Bu mezonlarni dunyodagi barcha mamlakatlar aholisi uchun tadbiq etib bo'lmaydi. Chunki, har bir davlatdagi tug'ilganda kutilayotgan hayot davomiyligi har xildir. Masalan, dunyoda o'rtacha umr davomiyligi

67 yil bo'lsa, Mozambikda—40 yil, Afg'onistonda—43 yil, Zambiyada—35 yil, O'zbekistonda—73,5 yil, Norvegiyada—80 yil, Yaponiyada—82 yildan iboratdir. O'zbekistonda o'rtacha umr davomiyligi ko'rsatkichining nisbatan yuqoriligini hisobga olgan holda, qarilik davrini uch bosqichga, jadvaldagi keksalik yoshi tasnifiga qarab ajratish mumkin

Keksalik yoshi tasnifi

Yosh guruhlari	Insonning yosh davrlari
60-74 (erkaklar) 55-74 (ayollar)	Qariyalar
75-90 yosh	Keksalar
90 yoshdan yuqori	Uzoq umr ko'ruvchilar

Keksa kishilar hayotining ijtimoiy sharoitlari quyidagi asosiy muammolar bilan tavsiflanadi:

- hayot faoliyatining sog'liq bilan bog'liq holda cheklanganligi (eng ko'ptarqalgan surunkali kasalliklar—artirit, yurak-qon tomir kasalliklari, qon bosimi kasalligi, arteroskleroz, ortopedik kasallar);

- bandlik (odatda keksalarning 75 %i ishlamaydi yoki qisman band bo'ladi);

- moddiy ahvoli (pensiya miqdorining ish haqidan ancha pastligi, inflyatsiya darajasining yuqoriligi, tibbiy xizmat ko'rsatishning qimmatligi, ijtimoiy ta'minot tizimining cheklanganligi);

- ruhiy salomatlik (ruhiyatdagi me'yorsizlik, ya'ni ruhiy jarayonlar harakatchanligining susayganligi).

Keksaygan yoshda faol mehnat faoliyatining to'xtashi munosabati bilan turmush sharoitlari va tarzida, oilaviy va ijtimoiy mavqeyida o'zgarishlar yuz beradi. Kishi keksaygan vaqtda ko'pincha mustaqil turmush kechiruvchi bolalaridan ajraydi, ayrim hollarda yolg'izlanib qoladi. Bunga yana jamiyat, yaqinlar bilan aloqalarning susayishi muammosi qo'shiladi, do'stlari va tanishlarini ular hayotdan ko'z yumganligi munosabati bilan aloqlar, bordi-keldi aloqalarini yo'qotadi.

Keksaygan sayin yolg'izlanib qolishlik kuchli ruhiy muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun, keksa yoshdagi fuqarolarga nisbatan davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishi

yolg'iz keksa-qariyalarning ijtimoiy ta'minlanib, osuda, farovon yashashlari, jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari, uzoq umr ko'rishlari maqsadida davlat tomonidan olib boriladigan choralarga (siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, tibbiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy, axborot-targ'ibot) qaratilgan bo'ladi. Mazkur siyosat doirasiga keksa yoshdagi fuqarolar, shuningdek, siyosat dasturini amalga oshiruvchi muassasalar va subyektlar, barcha toifadagi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlar kiradi.

Qariyalarga g'amxo'rlik qilishning markaziy tamoyili sifatida quyidagilar qabul qilingan: qariyalarning jamoatchilik hayotida to'la ishtirok etishlari, ular haqida jamoachilik va davlat muassasalarining g'amxo'rliqi, ehtiyojlarini qondirish va hayoti davomida to'plagan bilim, tajribalarini ro'yobga chiqarish uchun huquqiy sharoitlar yaratishni ijtimoiy siyosatga to'g'ri keladigan va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda uyg'unlashtirishdir.

Keksa fuqarolarga nisbatan davlat ijtimoiy siyosatining maqsadi—keksa insonlarning turmush darajasi va hayot sifatini qat'iy ko'tarishdir. Bunda ijtimoiy adolat, birdamlikka tayanish, aholining barcha demografik guruhlarining ehtiyojlarini hisobga olish, moliyaviy va boshqa resurslardan oqilona foydalanish zarur.

Keksa avlodga nisbatan davlat ijtimoiy siyosati hayot ilgari surayotgan muammolarning muhimligini amaliy baholab, davlatning moliyaviy va boshqa resurslarini hisobga olgan holda quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- barcha keksa avlod fuqarolarining tengligi tamoyili—murakkab vaziyatlarda himoya va yordamga, ijtimoiy kelib chiqishi, holati, millati, turar-joyi, siyosiy va diniy qarashlari, iqtisodiy ahvolidan qat'iy nazar o'zining hayoti va faoliyati bilan bog'liq masalalarda bir qarorga kelishga teng huquqli bo'lishi, ijtimoiy-mehnat sohasi va jamoatchilik faoliyatida o'zini namoyon etish uchun teng imkoniyatlarga ega bo'lishi;
- davlatning javobgarligi tamoyili—jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga moslashgani holda keksa avlodni ijtimoiy muhofaza qilish, ijtimoiy ahvolini yaxshilash uchun sharoitlar yaratish;

– ijtimoiy samaradorlik tamoyili–qariyalarning turmush tarzini yaxshilash,ijtimoiy ta’minlash, ularning ijtimoiy mavqeyini yuqori darajada tutish, ijtimoiy aloqalarini yaxshilash, mustahkamlash, ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan choralarning yo‘naltirilganligi;

– keksa avlod fuqarolariga bo‘lgan munosabatda siyosatning yaxlitligi tamoyili – qariyalarni ijtimoiy himoyalashga bo‘lgan qarashlarning umumiyligi, boshqaruvning barcha darajalarida qariyalarning birinchi darajali muammolarini hal etish uchun mablag‘larni jamlash;

– ijtimoiy hamkorlik tamoyili – keksa yoshdagi aholining turmush tarzini yuksaltirish yoki ko‘tarish, ijtimoiy ahvolini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishdavlat, jamoatchilik va qariyalarning bir-biri bilan aloqada bo‘lishlari,qariyalargayordam ko‘rsatayotgan oila, jamoatchilik uyushmalari, diniy, xayriya muassasalari,tashkilotlari bilan doimiy hamkorlik qilish.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining keksa kishilarga munosabat prinsiplari. BMTning statistik ma’lumotlariga ko‘ra bugungi kunda dunyoning qator mamlakatlarida aholining keksayishi jarayoni avj olmoqda. Bu jarayonining rivojlanishi, aholi tarkibida qariyalar salmog‘ining oshishi, bu toifa fuqarolarning davlat va jamiyatning alohida e’tiboriga muhtojligi, ularning turli xil tibbiy-ijtimoiy xizmat turlariga ehtiyojining ortib borishi bilan tavsiflanadi. Aholining keksayish jarayoni va uning intensivligi qariyalarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning rivojiga, bu borada qo‘llanib kelinayotgan uslub va mexanizmlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Asosan qariyalar surunkali kasalliklarga chalinishi, kasalliklar kechishi bilanvujudga keluvchi asoratlarni tufayli muntazam tibbiy xizmatga, rehabilitatsiya texnik vositalari–nogiron aravachalari, xodunoklar, hassa va qo‘ltiq-tayoqlarga, ko‘rish va eshitish qobiliyatining yoshga doir pasayishi hamda tish-jag‘ a’zolarining sekin-asta ishdan chiqishi tufayli optik ko‘zoynaklar, eshitish moslamalari va sun’iy jag‘ga muhtoj bo‘lib qoladi. Shu bilan birga, ularning ko‘pchiligi kundalik ehtiyojlarini birovlarining yordamisiz

qondira olmasligi tufayli moddiy yordamga, o'zgalarning parvarishiga, qolaversa, hamdardga muhtojdirlar (Yolg'iz keksa-qariyaning ehtiyojlari jadvaliga qarang).


Yaqin kelajakda keksalarning ehtiyojlarini hisobga olib, ijtimoiy himoyasiga doir quyidagi masalalarni bosqichma-bosqich yechish lozim:

– qariyalarga manzilli yordam va keng qamrovli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish;

– keksalarning sog'lig'ini yaxshilovchi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotini ta'minlovchi mavjud institutsional tuzilmalarni qayta tashkil etish;

– keksa insonlarga nisbatan hurmat, jamiyatning e'tiborli a'zosi sifatida qarashlarni tasdiqlash.

Yolg'iz keksa-qariyaning ehtiyojlari



Yuqorida qayd etilgan masalalar keksa yoshdagi fuqarolarning mustaqilligini, faol ijtimoiy ishtiroki, ularga g'amxo'rlik qilish uchun sharoit yaratadi. Shunday qilib, keksa avlodga nisbatan olib boriladigan davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlari jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan uchta jihat: ijtimoiy himoyalash; ahvolini yaxshilash va faol ijtimoiy ishtirokka jalb qilishning yagonaligi nuqtayi nazaridan bayon etilgan. Shu bilan bir qatorda, davlat ijtimoiy siyosatining asosiy strategik maqsadiga erishish uchun keksa yoshdagilarning haq-huquqlarining me'yoriy-huquqiy jihatlarini, pensiya bilan ta'minlashni takomillashtirish, sog'liqni saqlash, kuchi yetgan sohalarda ish bilan ta'minlash, qariyalarga keng qamrovli

ijtimoiy xizmat, manzilli yordamni taqdim etish bo'yicha qator tadbirlarni amalga oshirish lozim. Ma'lumki, keksa yoshdagi kishilarning sog'lig'i va kasallanish xususiyatlari boshqa yosh guruhlaridan jiddiy farq qiladi. Yosh o'sgan sari surunkali kasalliklarning soni oshib boradi va ularning sababini aniqlash ancha qiyin bo'ladi. Keksalar nafaqat surunkali kasalliklar bilan, balki kelib chiqishiga ko'ra har xil patologik 2-5 xil kasalliklar bilan kasallanadi. Shuning uchun, keksa yoshdagi kishilarga tibbiy yordamning maxsus shakli—geriatrik yordam ko'rsatiladi. Bunday yordam majmualari, ya'ni tibbiy-ijtimoiy ahamiyatga ega yordam hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda tibbiyotda keksa bemorlarni davolash bo'yicha ilmiy kuzatishlar va amaliy tajribalar olib borilmoqda. Keksalar yoshdagilarga tibbiy yordam ko'rsatishning asosini quyidagi tamoyillar tashkil qiladi:

- geriatrik yordam davolash-profilaktika choralari umumiy tizimining tarkibiy qismi hisoblanishi lozim;
- tibbiy yordam keksalarga maksimal darajada yaqinlashgan bo'lishi shart. Buning uchun tibbiy-ijtimoiy muassasalar va hududiy poliklinikalar qoshida geriatrik markazlar va maslahat geriatrik markazlar tashkil qilish, ularga geriatrik bemorlarni qabul qilish vaqtlarini kiritish lozim;
- uchastka terapevti geriatrik bemorlarni boshqarish jarayonida asosiy o'rinni tutishi zarur. Chunki, u bunday mijozlar bilan doimiy aloqada bo'ladi va davolashning choralari ishlab chiqadi, muassasa va mutaxassisga yo'llanmaberadi.

Keksalar yoshdagi aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishda geriatrik markazlarning o'rni katta. Geriatrik markazlar ambulatoriya-poliklinika muassasalarining yangi shakli hisoblanib, ular o'z vazifasi va faoliyatiga, hajmiga ko'ra ikki xil bo'lishi mumkin: hududiy poliklinikalar qoshida tashkil etilgan maslahat geriatrik markazlar va geriatrik markazlar.

Maslahat geriatrik markazlar viloyat, tuman, shahar poliklinikalari, qishloq vrachlik punktlari qoshida tashkil etiladi. Bunday markazlarning asosiy vazifasi keksalarga tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha faoliyat

ko'rsatish, barcha tuman poliklinikalarida davolash-maslahat yordami va tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshirish hisoblanadi.

Markazda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

– geriatriya bo'yicha uchastka vrachi va boshqa mutaxassislarning malakasini tizimli turda oshirish, geriatrik bemorlarni davolash bo'yicha ilmiy-nazariy anjumanlar o'tkazish, qarish profilaktikasi va davolashning zamonaviy geriatrik usulini, geroformokologiyaning so'nggi yutuqlarini amaliyotga tatbiq qilish;

– vrachlar keksalar uchun rejali turda maslahat o'tkazish va tashkil etish;

– tuman (shahar)da yashovchi keksalar ro'yxatini tuzish, surunkali keksa bemorlarni davolash va ular doimiy kuzatishda bo'lishi lozim.

Geriatrik markazlar keksalarga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatish darajasini oshirish uchun ijtimoiy ta'minot organlari, Qizil yarim oy jamiyati va boshqa tashkilotlar bilan tizimli aloqani amalga oshiradi, kasallikni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi, barvaqt qarishga qarshi kurashish masalalari bo'yicha aholi o'rtasida sanitar-ma'rifiy ishlar olib boradi.

Yosh o'sishi bilan keksa kishining umumiy zaifligi va harakatchanligining cheklanganligi ularga uy sharoitida tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatishni taqozo etadi. Keksalar uchun uy sharoitida tibbiy yordam quyidagi masalalar: shaxsiy gigiyena to'g'risida maslahat, to'g'ri ovqatlanish, davolash badan tarbiyasining harakatlantiruvchi rejimi bo'yicha tavsiyalar berish lozim. Gerontolog mutaxassislarning ta'kidlashicha, uy sharoitida keksa bemorlarga faol xizmat ko'rsatish shifoxona kuyka fondini tejashning ichki zahirasi hisoblanadi.

Geriatrik xizmat ko'rsatishning muhim bir shakli – bu kunduzgi geriatrik shifoxonalar hisoblanadi. Bunday shifoxonalarda geriatrik bemorlarga kunduzi tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatiladi. Bemor shifoxonaga ehtiyojiga qarab har kuni yoki belgilangan kunlari kelib ko'rinadi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, kunduzgi geriatrik shifoxonalarda bemorlarning parvarishiga ketadigan xarajatlar miqdori odatdagi shifoxonalarga qaraganda 53 foiz kam bo'ladi.

Bugungi kunda dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida tibbiy-ijtimoiy ta'minot xizmatining faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida tibbiy-ijtimoiy markazlar tashkil qilingan. Ularning asosiy vazifasi keksa yoshdagi kishilar va nogironlarga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatishni nazorat qilish va muvofiqlashtirish, keksalarning jismoniy va ruhiy sog'lig'ini mustahkamlash, ishlab chiqarish va ijtimoiy faolligini oshirish, ijtimoiy-huquqiy, kasbiy-gigienik masalalar bo'yicha maslahatlar tashkil qilishdir. Shuningdek, tibbiy-ijtimoiy markazlar o'z faoliyatida sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, bandlikka ko'maklashish, kommunal, maishiy xizmat ko'rsatish, savdo, umumiy ovqatlanish, madaniyat va boshqa tashkilot, muassasalar bilan aloqa o'rnatadi.

Keksalar va nogironlarga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatishda davolash - sog'lomlashtirish majmuasining yangi shakli -salomatlik zonalari katta ahamiyatga ega. Uning asosiy vazifasi keksa yoshdagi aholini va nogironlarni sog'lomlashtirish, sog'lig'ini tiklash va hayotining faollik davrini uzaytirishdir. "Salomatlik zona" sining asosiy omillari iqlim bilan davolash, davolash badantarbiyasi, mehnat terapiyasi, fizik davolash va boshqa davolash usullaridir. "Salomatlik zona" sini nafaqat sog'lomlashtirish ishlarining qulay shakli, balki keksa kishilar bo'sh vaqtini samarali tashkil qilishning asosiy shakli sifatida ham baholash mumkin. Bunday joylarda keksalarning bo'sh vaqtlarini jismoniy sog'lomlashtirish tadbirlari, mehnat terapiyasining qat'iy o'rnatilgan rejimi to'ldiradi, shuningdek, badantarbiya mashqlari maxsus tuzilgan, fiziologik asoslangan dastur bo'yicha o'tkaziladi.

Keksa bemorlar va nogironlarni davolash tizimida tiklash terapiyasi-reabilitatsiya alohida o'rin egallaydi. Bunda choralar majmuasi kasallanish davrida nogironlikning oldini olish va nogironlarga jismoniy, ruhiy, kasbiy mukammallikka erishishga yordamlashishga yo'naltirilgan bo'ladi. Keksa yoshdagi kishilarni reabilitatsiya qilish katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Sababi, sog'liqni tiklash muolajasiga ehtiyoj yosh o'sgan sari oshadi. Reabilitatsiya jarayonida keksa kishilarga xizmat ko'rsatish tibbiy va ijtimoiy choralarni muvofiqlashtirishni taqozo etadi. Shuning uchun

reabilitatsiya bo‘limi yoki markazlari umumiy tipdagi shifoxonalar, geriatric markazlar qoshida tashkil qilinadi. Ularda davolash statsionar yoki ambulatoriya sharoitida o‘tkaziladi.

O‘zbekistonda qariyalar bilan ijtimoiy ish. Bugun O‘zbekiston barcha jabhalarda g‘ururlansa arziydigan yutuqlarni qo‘lga kiritib, taraqqiyot yo‘liga chiqib oldi. Mamlakatimizda, keksalarni hurmat qilish, ularga e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish jamiyatimizning o‘ziga xos yuksak ma‘naviy va madaniy belgisiga aylandi. Mustaqillik yillarida keksalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi shakllantirildi. Shu bois, bir demografik haqiqatni ochiq aytish kerak. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston aholisi 1,5 martaga ko‘paydi va hozirgi kunda (2020 - yil boshi) 33905,8 ming kishini tashkil qiladi⁶⁸. Bunda ham keksa avlodning xizmati katta. Ayni paytda O‘zbekiston jami aholisining 2 million 873 mingtasining yoshi 60 dan oshgan kishilar bo‘lib, shulardan 225 ming nafari 80 yoshdan, 44 ming nafari 90 yoshdan, 8700 nafarining yoshi 100 yoshdan oshgan kishilarni tashkil etadi. Demak, O‘zbekiston aholisining tarkibiy tuzilishida qari kishilar salmog‘i 9,1 foizni tashkil etadi. Hozirgi zamon jamiyatining ijtimoiy demografik tuzilishida, barcha mavjud bo‘lgan ijtimoiy qatlam va guruhlar ichida ijtimoiy himoyaga ko‘proq muhtoj bo‘lganlar ichida eng asosiy kategoriyalardan biri bu keksa kishilar hisoblanadi.

Qariya, keksa va uzoq umr ko‘ruvchilar ijtimoiy demografik qatlam sifatida o‘z ichki strukturasi ko‘ra har xil sotsial demografik tuzilmalardan tashkil topadi. Shu bilan birga, ushbu ijtimoiy qatlamning o‘ziga xos ajralib turuvchi xususiyati, bu uning yoshi bilan bog‘liq ko‘rsatkichidir. O‘zbekiston aholisining tarkibiy tuzilishida qari, keksa va uzoq umr ko‘ruvchi kishilar salmog‘i (9,1 foiz)ni chet ellardagi demografik holat bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, allaqachon Rossiya Federatsiyasi aholisining 23-24 %ni qariyalar tashkil etsa, BMT va BSS tashkilotlari ekspertlarining bashoratlariga ko‘ra, 2025 yilga kelib, dunyodagi jami aholi tarkibida qariyalarning soni 1,2 milliarddan oshib

⁶⁸ Ўзбекистон аҳолиси 2019 йил. <https://stat.uz/uz/press-sluzhba/novosti-gks/8335-demografik-holat-7>

ketadi. Ayniqsa, qariyalar orasida 80 yoshdan kattalar salmog‘i ko‘payib ketadi⁶⁹.

Yuqorida qayd etilgan qariyalarga oid ilmiy farazlar, quyidagi asoslarga tayanadi. Darhaqiqat, hozirgi davrda qariyalar salmog‘i oshib bormoqda. Chunki inson mehnatga yaroqli yoshdan nafaqa yoshiga o‘tishi uning hayotida keng sotsial o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Natijada inson jamiyatda bir ijtimoiy guruhdan ikkinchi guruhga o‘tishi yuz beradi.

Ushbu tendensiyaning barqaror shakllanishiga quyidagi omillar sababchi bo‘lmoqda:

- dunyo aholisining demografik turmushida o‘ziga xos o‘zgarishlar ro‘y bermoqda (insonlar balog‘atga yetgach ham katta yoshlarda, kech nikohga kirmoqda, aholi tarkibida tug‘ilish ko‘rsatkichlarining pasayishi kuzatilmoqda va h.k.);

- ikkinchidan, aholiga tibbiy ko‘mak berish sifatining oshishi, ko‘proq yangi tibbiy muolaja texnologiyalaridan foydalanishning samarasi natijasida, o‘rtacha umr ko‘rish ko‘rsatkichlarining oshishiga olib kelmoqda;

- uchinchidan, sotsial xizmat sohasida qariyalarga nisbatan e‘tiborning kuchayishi, bu sohaning sezilarli darajada rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Jamiyatda aholi turmush farovonligi oshib, qariyalarning ijtimoiy himoyasiga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘paymoqda. Masalan, O‘zbekistonda mustaqillik yillarida o‘rtacha umr ko‘rsatkichlari oshdi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 1990 - yilga nisbatan o‘rtacha umr ko‘rish 67 yoshdan 73,5 yoshgacha ortdi.

Zamonaviy jamiyatimizda aholining qarishi bilan bog‘liq bo‘lgan demografik tendensiyalar kuchaymoqda. XXI asr qariyalar asri bo‘lishi mumkin degan farazlar ham aytilmoqda. XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida aholining yosh tarkibida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi dunyoda, shu jumladan, O‘zbekistonda ham

⁶⁹Теория практика социальной работы: Методические материалы. / Отв. ред. Попов А.М., Холостова Е.И. – М.: Ин-т Соц. работы, 1997. – С. 71.

aholi tarkibida bolalar ulushining kamayish tendensiyasi sezilmoqda va qariyalar sonining ortishi kuzatilmoqda. Bu holat esa, o‘z navbatida, aholi tarkibida keksayish jarayonining boshlanganligini ko‘rsatmoqda⁷⁰. Aholining keksayishi bir qator iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra O‘zbekistonda 3 milliondan ko‘proq pensionerlar, 700 mingdan ortiq nogironlar, 20 mingga yaqin yolg‘iz pensionerlar ijtimoiy ta’minotdan foydalanadi. Ayni paytda vazirlikda keksalarni ijtimoiy himoyalashning 2016–2020 - yillarga mo‘ljallangan rejasi tuzilgan bo‘lib, ushbu dasturdan keksalar uchun maxsus pandus(yo‘lak)lar qurish, jamoat joylarida maxsus sanuzellar bunyod etish muammolarini hal etish amalga oshirilmoqda. Shundan kelib chiqib, ijtimoiy ish xodimi qariyalarga xos bo‘lgan asosiy muammolarni quyidagicha belgilab olishlari mumkin:

1. Qari kishilar umrining cheklanganligi. Qariyalik davrining boshlanishi bilan insonlarga xos bo‘lgan umrguzaronlik faoliyati qari kishilarda asta-sekin pasayib boradi. Qarilikning boshlanishi bu kishilarning faoliyati susayishidir. Ushbu muammo juda nozik masala bo‘lib, qari kishilarning yoshi tobora ulg‘aygan sari turli kasalliklar paydo bo‘lishi bilan qarilik yoshidagilarning faoliyatini cheklab qo‘yadi. Bu holat esa, o‘z navbatida, qari kishilarning o‘z atrofidagi kishilar bilan yaqin munosabatlarning har tomonlama cheklanishiga sabab bo‘ladi.

2. Jamiyatda qari kishilarga nisbatan o‘ziga xos munosabatning shakllanishi. Qari kishilarning faol ijtimoiy hayotdan chetlanishi, ularning mehnat qilish qobiliyatining pasayishi oqibatida, qari kishilarga nisbatan turli xil munosabatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Jamiyat seza boshlaydiki, qarilarga nisbatan qaratilgan qo‘shimcha ijtimoiy himoya mablag‘lari qaytarilmaydi, ularning haddan ortiq ijtimoiy himoyasi oqibatda ishga layoqatli bo‘lgan yosh va o‘rta qatlam aholi uchun ortiqcha yukka aylanadi.

⁷⁰ Абдурахмонов Қ.Х., Абдурахмонов Х.Х. Демография. – Т.: “Ношир”, 2011, - 90–96 бетлар.

3. Ijtimoiy faoliyatdagi sustkashlik qariyalarning o‘zlariga ham salbiy ta’sir qiladi. Qari kishilarning tobora keksayib borishi bilan ularda emotsional, psixiologik va hattoki fiziologik buzilish holatlari paydo bo‘ladi.

4. Qari kishilarda bo‘sh vaqtning ko‘pligi muammosi paydo bo‘lmoqda. Nafaqaga chiqqunigacha ishlab yurgan davrda yaxshi ishlab, yetarli mablag‘ topib yurgan, salomatligi yaxshi bo‘lgan kishilar ko‘pchilik hollarda ikki xil vaziyatga duchor bo‘lib qolmoqda. Birinchi vaziyatda, ularga yaqinlari tomonidan Siz dam oling! Shuncha yillar ishladingiz, endi yetadi, biz Sizni ta’minlaymiz, - deyishadi. Oqibatda, bunday vaziyatga duchor bo‘lgan qariyalarda: - Men endi ishga butunlay yaramay qolibman-da? – degan qo‘rquv bilan bog‘liq his-tuyg‘ular paydo bo‘ladi. Ikkinchi vaziyatda, Siz endi bo‘shadingiz! Uy-ro‘zg‘or yumushlaridan uni qiling, buni bajarishga mas’ulsiz! Nabirangizni u yoqqa olib boring, va hokazolar deb, uydagi “xizmatchi” holatiga solish vahimalari sodir bo‘ladi⁷¹.

Demak, barcha qarilikka xos muammolardan kelib chiqqan holda aytish joizki, qarilarni ijtimoiy himoya qilishni tashkil etishda quyidagi dastur-amallarni hisobga olish zarur:

Birinchidan. Qari kishilarning mehnat qobiliyatlari keskin pasayadi degan qarashlardan voz kechish kerak. Pensiya olish, nafaqaxo‘rlik davrida qariyalarni faqat uy ishi yoki nabiralarga qarash bilan band qilib bo‘lmaydi. Bugungi kunda ko‘pchilik qariyalar oliy ma’lumotga ega, ishlagan davrida rahbar kadr sifatida el-yurt oldida hurmatga sazovor bo‘lgan kishilardir. Shu bois, ularga nisbatan ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlarini amalga oshirishda alohida yondoshuv talab qilinadi. Bunday qariyalarga nisbatan, kelgusida “arzon ishchi kuchi” sifatidagi yondoshuv umuman to‘g‘ri kelmaydi. Qarilar bunga hech ham ko‘nmaydilar.

Ikkinchidan. Qariya, keksalar bilan ijtimoiy ish olib borishda, eskirgan metodlar yordamida ishlab bo‘lmaydi. Ayniqsa, an’anaviy usul

⁷¹ Основы социальной работы. Отв. ред. Павленок П.Д. – М.: ИНФРА-М. – 2001. – С. 216.

yoki texnologiyalar bilan ijtimoiy ishni tashkil etish zinhor mumkin emas.

Har qanday davlatning kuch - qudrati nafaqat uning armiyasi bilan, balki mamlakatda hukm surayotgan tinchlik, osoyishtalik, fuqarolarning ahilligi, hamjihatligi, vatanparvarligi, yoshi ulug‘ insonlarga ko‘rsatilayotgan e‘tibor va g‘amxo‘rligida ham namoyon bo‘ladi. Bu muqaddas zamin - O‘zbekistonda inson azizdir.

Shunga muvofiq, mamlakatimizda ijtimoiy ish xodimlari tomonidan olib borilayotgan ishlarda ijobiy samaralarga erishilyapti. Masalan, har yili o‘rtacha 1,8 million nafar fuqaroga nafaqalar tayinlanmoqda, 600 ming fuqaro esa ishga joylashtirilmoqda. Shuningdek, 6800 nafardan ziyod yolg‘iz keksalar, pensioner va nogironlarga “Saxovat va Muruvvat” uylarida tibbiy- ijtimoiy hamda maishiy xizmat ko‘rsatilyapti. 21 ming nafarga yaqin yolg‘iz pensionerlar uylarida ijtimoiy-maishiy xizmat yo‘lga qo‘yilgan. Hozirgi paytda ham respublikamida 33 ta “Saxovat hamda Muruvvat” uyi, 11 nogironlar uchun tibbiy - ijtimoiy va kasbiy rehabilitatsiya markazi, 8 ta sihatgoh hamda nogironlar uchun ixtisoslashtirilgan 2 ta kasb - hunar kolleji mavjud bo‘lib, ularning barchasi yolg‘iz keksalar, pensioner va nogironlarga sifatli xizmat ko‘rsatmoqda.

Ayni chog‘da fuqarolarning o‘zini - o‘zi boshqarish organlari hamda bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari ham bu borada izchil ish olib bormoqda. Hozirgi sharoitda aholining ijtimoiy himoya turlari kengayib, uning qo‘llanish asoslarini tubdan o‘zgartirish talab qilinayotgan bir paytda xizmat ko‘rsatilayotgan aholi soni va sarflanayotgan mablag‘ miqdori jihatidan pensiya ta‘minoti aholini ijtimoiy himoyalashda asosiy o‘rinni egallaydi. Barcha nazariyalar insonlarning qarish jarayonining turli tomonlarini tahlil va tavsif qilishga, uni har tomonlama ilmiy kuzatishga yoki o‘rganishga harakat qiladi.

Xullas, qariya, keksa va yoshi ulug‘ insonlarni manzilli ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab - quvvatlashni kuchaytirish borasidagi chora tadbirlarni amalga oshirish, yosh avlodni keksalarga hurmat ruhida tarbiyalash, bu borada tegishli me‘yoriy - huquqiy bazani

takomillashtirishga ko‘maklashish ijtimoiy ish xodimlarinng va bu sahada kadrlarni tayyorlashga hissa qo‘shayotgan ijtimoiy ish kasbi professor -o‘qituvchilarning bugungi kundagi asosiy vazifalaridan biri bo‘lib sanaladi. Qariya, keksa va yoshi ulug‘larga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish usullari va texnologiyalari deganda, jamiyat va uning boshqaruv apparati bo‘lmish davlat tomonidan, ushbu ijtimoiy demografik tuzilmaga nisbatan ijtimoiy xizmat ko‘rsatilishini yanada takomillashtirish, uni yanada yuksak saviyalarga yetkazish, hamda baland darajalarga ko‘tarish tushuniladi.

Aholini, shu jumladan keksa, qariya va yoshi ulug‘ kishilarni ijtimoiy himoyalash masalalari ijtimoiy ta‘minot organlari bilan birga Mehnat, Moliya, Sog‘liqni saqlash, Aloqa vazirliklari, Pensiya jamg‘armasiga hamda jamoat tashkilotlari bo‘lgan Ko‘zi ojizlar, Kar-soqovlar, Nogironlar, Qizil yarimoy jamiyatlari, “Mehribonlik”, “Sog‘lom avlod uchun” kabi xayriya jamg‘armalariga ham yuklatilgandir.

O‘zbekistonda keksalar himoyasining demografik xususiyatlarini nazarda tutgan bu siyosat, aniqrog‘i, keksalar haqida davlat g‘amxo‘rliqi siyosati shunchaki aytilgan so‘zlar emas, balki davlat faoliyatining o‘ziga xos dasturidir. Bunday siyosat yuritish O‘zbekiston Respublikasi davlatining mohiyatidan, uning insonparvarligi va adolatparvarligidan kelib chiqayotgani aniq. Bu sohadagi ishlarni rivojlantirishda, eng muhimi, jamiyatda qariya, keksa va uzoq umr ko‘ruvchilarni ijtimoiy himoya qilish tizimi tobora takomillashib borsa, nur ustiga a‘lo nur bo‘ladi.

O‘zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Glossariy
To‘xtovsizlik nazariyasi	Теория непрерывности	Incessantly theory	bu nazariya inson hayoti boshlanishida o‘ziga xos xususiyatlarining paydo bo‘lishi bilan belgilanadi va umri moboynda jiddiy o‘zgarmaydi.
Faoliyat nazariyasi	Теория деятельности	The theory of activity	inson umri davomida shug‘ullanadigan faoliyat turi hisoblanadi.

Rivojlanish nazariyasi	Теория развития	The theory of development	inson umrining har bir davriga ko‘nikish va ijtimoiy hayotga moslashishi tushuniladi.
Almashinish nazariyasi	Теория обмена	The theory of exchange	bu yerda yoshlikni keksalikka, oylik ish haqini pensiyaga, ya’ni boshqaruvni boshqa shaxslarga berib, o‘zlari ularga muhtoj bo‘lgan davr boshlanishi tushuniladi
“Qariyalarga yordam” jamiyati	Общество “Помощь для пожилых людей”	“Help for the Elderly” society	muhtojlarga yordam ko‘rsatuvchi tashkilot bo‘lib, uning vazifasi yolg‘iz keksalarni parvarishlash va ularga har tomonlama yordam ko‘rsatish, qariyalarning mehnat faoliyati to‘xtashi bilan ularning sog‘lom turmush kechirishiga ko‘maklashishdir.

Nazorat savollari

1. Aholining keksayish muammolari nimalardan iborat?
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining keksa kishilarga munosabat tamoyillarini aniqlang.
3. Keksalar bilan ijtimoiy ish nimalardan iborat?
4. Keksalar fuqarolarga nisbatan davlat ijtimoiy siyosatining maqsadi nimalardan iborat?
5. O‘zbekistonda qariyalar bilan ijtimoiy ish nimalardan iborat?
6. Keksalar kishilar hayotining ijtimoiy shart-sharoitlarida qanday muammolar mavjud, ularni sanab bering.
7. “Aholi qarishi” global muommosi mohiyati nimadan iborat?
8. Keksalar yoshdagilarga tibbiy yordam ko‘rsatishning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
9. Aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatishda geriatric markazlarning o‘rni nimalardan iborat?

10-MAVZU: AQSH VA G‘ARBIY YEVROPA MAMLAKATLARIDA DEVIANT XULQ-ATVORLI O‘SMIRLAR VA BOLALAR BILAN IJTIMOIIY ISH.

Reja:

10.1. Deviant xulq atvor tushunchasi: sabablar va ko‘rinishlar.

10.2. Yevropa davlatlarida xulqiy og‘ishlari bo‘lgan o‘smirlar va bolalar bilan ijtimoiy ish.

10.3. “Xatar guruhi”dagi o‘smirlar va voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan ijtimoiy ish.

10.4. Xulqida muammolari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda asosiy individual yondoshuv.

Deviant xulq - atvor tushunchasi: sabablar va ko‘rinishlar.

Deviant so‘zi-lotinch a “deviatio” so‘zidan olingan bo‘lib, chekinish, buzilish degan manoni anglatadi. Deviant xulq-atvor, mavjud jamiyatda o‘rnatilgan axloq meyorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisadir.

Deviant xulq-atvor-jamiyatda o‘rnatilgan axloq me‘yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo‘lib, yolg‘onchilik, dangasalik, o‘g‘irlik, ichqilikbozlik, giyohvandlik, o‘z joniga qasd qilish va boshqa ko‘plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi. Deviant xulq deganda, quyidagilar nazarda tutiladi:

a) jinoyatchilik. Muayyan davlatda o‘rnatilgan qonun va me‘yorlarga nisbatan ayrim shaxslarning salbiy munosabati jinoiy faoliyat, mazkur shaxs esa jinoyatchi hisoblanadi;

b) ichkilikbozlik. Bu borada ilmiy adabiyotlarda bir necha tasniflar mavjud:

1) alkogolni har-har zamonda iste‘mol qilish;

2) alkogolni ko‘p iste‘mol qilish-spirtli ichimliklarni muntazam, ya‘ni haftada bir martadan bir necha martagacha yoki birvarakayiga o‘rtada tanaffus bilan ko‘p miqdorda (200 ml. dan oshiq). Bu ko‘pincha alkogolizmga olib keladi;

3) alkogolizm-spirтли ichimliklarga patologik (muttasil) o'rganib qolish bilan tavsiflanuvchi kasallik;

v) giyohvandlik. Giyohvand yoki unga tenglashtirilgan vositalarga doimiy ruju qo'yish va tibbiy ko'rsatmalarsiz iste'mol qilish;

g) fohishabozlik. Fanda rasmiy nikohsiz jinsiy aloqa ikki turga bo'lib o'rganiladi:

1. konkubinat-nikohsiz birga yashash.

2. fohishabozlik-pul uchun o'z tanasini sotish. G'arbda asosan ikkinchisi qoralansada, Sharqda ikkala holatga ham meyordan og'ish sifatida qaraladi.

Bulardan tashqari, xalqimizda mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, boqimandachilik kabi salbiy holatlar ham meyordan chekinishning diqqattalab ko'rinishlaridan hisoblanadi.

Deviant xulq-atvor bir shaxsning salbiy xulq-atvordan iborat faoliyatini, shuningdek, muayyan guruhning og'ma xulq-atvorlarini ham ifodalovchi tushunchadir.

Ma'lumki, insoniyat tarixining dastlabki davrlarida ijtimoiy deviantlik va xulq-atvor og'ishining yuz berish jarayonlari axloqsizlik sifatida qaralgan va asosan diniy me'yorlar orqali tartibga keltirib turilgan. Turon xalqlari ham qadim-qadimdan ijtimoiy deviantlik holatlariga salbiy munosabatda bo'lishgan va ushbu munosabat zardushtiylik, budda va boshqa qadimgi Turonda mavjud boshqa diniy ta'limotlarda aks etgan.

“Deviant xatti-harakatlar” tushunchasi jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy tartib-qoidalardan chetga chiqish degan ma'noni bildiradi va ushbu tartib-qoidalarga rioya qilmaslik, ularni buzish bilan xarakterlanadi. Deviant xatti-harakat ayniqsa, voyaga yetmaganlar uchun xosdir. Ushbu davrda voyaga yetmagan yoshlarning shaxsiy xislatlari shakllanadi, uning o'z-o'zini anglashi, dunyoni bilishi qaror topadi. Biroq shaxsning shakllanishi va rivojlanishi murakkab jarayon bo'lib, o'ziga xos qiyinchiliklar va og'ishlar, ichki qarama qarshiliklar hamda ijtimoiy hayotdagi turli vaziyatlarga ko'nika olmasliklar bilan kechishi mumkin. Deviant xarakterga ega bo'lgan yoshlar ko'pincha maktabdagi darsga bormaydilar, uydan qochib ketadilar, daydilik

qiladilar, tilanchilik bilan shug'ullanadilar, ichkilik ichadilar, giyohvandlikka ruju qo'yadilar. Natijada qonunbuzarlikka moyil bo'lib, jinoyatga qo'l uradilar.

Shuningdek, jamiyat va deviansiya, ijtimoiy ish fanining maqsad va vazifalari, deviant xulqlilar bilan ishlash, deviant xulq-atvor muammolarini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari, me'yordan og'ishning ko'rinishlari, deviant xulqlilar bilan ishlashda ijtimoiy himoya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy yordam tushunchalari hamda deviant xulqlilar bilan ijtimoiy ishning huquqiy asoslari yoritib beriladi.

Yevropa davlatlarida xulqiy og'ishlari bo'lgan o'smirlar va bolalar bilan ijtimoiy ish. Jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqish holatlarini o'rganuvchi deviant xulq-atvor masalasi O'zbekistonda o'rganilmagan sohalardan biridir. Yuqorida qayd etilganidek, deviant xulq - atvor - bu jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy axloq me'yorlaridan chetga chiqqan, bu me'yorlarga mos kelmaydigan insonlar faoliyati, xatti-harakati va boshqa ijtimoiy hodisalaridagi turlicha munosabatlari, fikr-mulohazalari hisoblanib, ularning jamiyatda xulq-atvori harakati-faoliyatiga muvofiq atalib, ularni yolg'onchi, dangasa, o'g'ri, bezori, "yozuvchi", hasadchi, baxil, giyohvand, tovlamachi, firibgar, iymonsiz, e'tiqodsiz, behayo, fohisha, orsiz, qasd qilish va hokazo so'zlar bilan nomlanib, ko'plab shu kabi ijtimoiy me'yorlar talabiga zid kelguvchi xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi.

Bizda esa, 1991 – yildan milliy mustaqillik tufayli, ilmiy va nazariy jihatdan o'rganilishi uchun imkoniyat yaratilib, o'rganila boshlandi. Ammo jamiyatda deviansiyaga, xulq-atvoriga manba bo'la oladigan holatlar jahondagi boshqa xalqlarga nisbatan Markaziy Osiyo halqlarida uzoq o'tmishda qadimdan oldin paydo bo'lgan bo'lib, ijtimoiy me'yordan chetga chiqishlik, axloqiy me'yorlardan chekinish holatlariga qat'iy chek qo'yilgan, buzilishiga yo'l qo'yilmagan, harakatdagi qonundan ham ta'sirchan kuchga ham dunyoviy, ham diniy yo'l bilan, insonlar ruhiyatiga ta'sir etguvchi kuchga aylangan va hozir ham xalqimiz ana shu ijtimoiy me'yorlar doirasida yashamoqda. Istiqloq

tufayli yanada ta'sirchan kuchga aylanishi tobora takomillashib bormoqda.

Deviant xulq-atvor G'arbda, ayniqsa, AQSHda keng ko'lamda ijtimoiy fanlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ilmiy-amaliy jihatdan chuqur o'rganilmoqda. XVIII asarga kelib yangi davr mutafakkirlari ijtimoiy me'yor va deviant holatlar muammosini yanada chuqurroq tahlil qildilar. Sh.L.Monteske, J.J.Russo, Ch.Bekkaria, K.Gelvetssiy, D.Didro, P.Golbax, Morelli va Sh.Furelar o'z ilmiy izlanishlarida turli g'oyalarni ilgari surdilar. Xususan, Monteske barcha ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarni topishga intildi.

Yevropa mutafakkirlaridan I.Kant va uning shogirdlari I.G.Fixte, jinoiy huquqning asoschisi hisoblanuvchi L.Feerbax, Gegel ham jamiyat muammolarini tadqiq qilish jarayonida jamiyatning doimiy dolzarb muammosi bo'lgan ijtimoiy me'yor va undan chekinishlarga ham alohida e'tibor berdilar. Klassik yo'nalish vakillari garchi deviant xulq-atvorni sotsiologik tushuntirishda ancha ilgarilab ketishgan bo'lsalarda, ushbu nazariyalarning amaliy tadqiqotlar bilan mustahkamlanmaganligi natijasida, ularning nazariyalari XIX asrga kelib biologik yo'nalish vakillari tomonidan osongina inkor qilina boshlandi. XIX asr oxirlarida tabiiy fanlarda erishilgan ilmiy yutuqlar ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xususan, ijtimoiy xulq-atvor tadqiqotchilari klassik yo'nalishdagi "tabiiy huquq", "erkin iroda" kabi g'oyalardan voz kechib, ijtimoiy deviantlikning "sababiyligini" yoqlab chiqdilar. Italiyalik psixiator Chezare Lombrozoning 1876 - yilda chop etilgan "Jinoyatchi shaxs" asari bu boradagi dastlabki qadam bo'lib hisoblanadi.

Ch.Lombrozo (1835-1909) Italiyada psixiatr bo'lib ishlar ekan, o'n yil davomida 14 ming mahbusni tekshirib, ular ustida tadqiqot olib boradi. O'z kuzatishlari asosida Lombrozo xulq-atvor sababiylikka ega degan xulosaga keladi. Uning g'oyasi "sabab-o'zaro aloqador sabablar zanjiridan iborat", degan qarashdan iboratdir. U jinoyatchilarni 4 guruhga bo'ladi:

- 1.Tug'ma jinoyatchilar.
- 2.Ruhiy kasal jinoyatchilar.

3. E'tiqodga ko'ra jinoyatchilar (siyosiy jinoyatchilar ham shular jumlasidandir).

4. Tasodifiy jinoyatchilar.

Lombrozo o'z g'oyalarida qasddan qilinadigan jinoyatchilik, fohishabozlik va ichkilikbozlik kabi illatlarning tug'ma bo'lishligiga urg'u beradi. "Tug'ma individual omillar-jinoiy xulqning asosiy sabablaridir" deb yozadi. Lombrozo o'z asarlarida deviant holatlarning tug'ma bo'lishini qat'iylik bilan ta'kidlab kelsa - da, ba'zi o'rinlarda ijtimoiy deviantlikning namoyon bo'lishida boshqa omillarning ham ta'sirini e'tirof etadi. Xususan, u o'zining "Jinoyatchi va fohisha ayol" asarida aytadi: fohisha uchun erkak bilan qovushish-ruhiy jihatdan ham, jismoniy jihatdan ham o'ta oddiy holat va u ushbu kasbga yaxshi haq to'lashgani uchun o'z tanasini sotadi", ya'ni iqtisodiy omil ustunlik qiladi.

Lombrozo o'z tadqiqotlari orqali bir narsaga, axloq va axloqsizliklarning tug'ma bo'lishini isbotlashga bag'ishladi. Garchi biologiya, sotsiologiya va psixologiya fanlarida erishilgan keyingi yutuqlar buni to'la inkor eta olgan bo'lsa - da, uning uzoq yillar mobaynida olib borgan amaliy tadqiqotlari natijalari, deviant holatlarning o'ziga xos klassifikatsiyalari o'sha davrdagi ijtimoiy deviantlikning amaliy tavsifi keyingi davr olimlari uchun ajoyib qiyosiy material vazifasini o'tab kelmoqda. Masalan, Lombrozo yuqorida aytilgan "Jinoyatchi va fohisha ayol" asarida tahlil qilib bergan fohishabozlik va jinoyatchilikning yoki ichkilikbozlikning "hamkorlik" nuqtalari hozirgi kunda ham kuzatiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek Ch.Lombrozoning asarlarida inson tabiiy omillar oldida ojiz maxluqqa aylantirib qo'yiladi, shaxs shakllanishida ijtimoiy muhit va tarbiyaning o'rni yo'qqa chiqarilgan.

Jamiyat taraqqiy etib borgan sari mavjud jamiyatda amal qilinib kelinayotgan me'yorlar ham zamonasiga muvofiq o'zgarib, yangilanib, davrga moslashib, omma ongiga singib, amalda qo'llanila boradi, eskilari tarkibiga yangilari tobora kiritilib, amal qilinaboradi, ijobiy ijtimoiy me'yorlar tarkibini kengaytira boradi. Albatta, bu o'zgarishlar bevosita jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, hatto iqtisodiy tizimlarining

siyosiy boshqarish u amal qiladigan qonunlarga ham bog'liqdir. Bir jamiyatda me'yoriy hisoblangan ijtimoiy me'yorlar boshqa bir jamiyatda me'yordan og'ish hisoblanishi mumkin. Bunga misol qilib G'arb va Sharq turmush tarzini keltirishimiz mumkin. Ko'rinishlari deviant deb qabul qilingan xulq-atvor, yozilgan va yozilmagan me'yorga mos kelmaydigan har qanday xatti-harakat va faoliyatni nazarda tutadi. Ayrim jamiyatlarda an'analardan chetga chiqish jiddiy xato, nojo'ya ish kabi keskin qoralangan. Masalan, ayrim jamiyatlarda inson sochining uzunligi ham, ko'rinishi ham, xulq-atvori ham nazorat ostida bo'ladi.

Deviatsiyaga qarshi kurash aksariyat holda his-tuyg'ular, fikr va xatti-harakatlar turli-tumanligiga qarshi kurashga aylangan. Odatda, bu narsa hech qanday natija bermagan, ya'ni deviatsiya yanada yorqinroq ifodalanishi mumkin. Masalan, o'tgan asrning 80-yillarida yoshlar G'arb modellariga taqlid qilgan, jamiyat bunga qarshi hech narsa qila olmagan.

Ko'p jamiyatlarda deviant xulq-atvor nosimmetrik bo'ladi: yomon tomonga og'ish qoralanadi, yaxshi tomonga og'ish qo'llab-quvvatlanadi. Jamiyatda odamlarning aksariyat qismi deviant bo'lishi mumkin (bunga o'g'rilar ham, aldanganlar ham, ishga kechikkan, avtobusda bilet olmagan, mumkin bo'lmagan yerda sigaret chekkanlar ham kiradi). Bunday sharoitda me'yordan chetga chiqish miqdori yoki shakliga e'tibor berish kerak. Deviant xulq-atvor turlari ko'p bo'lib, ularga oddiy, elementar tartib buzishdan tortib katta jinoyatlargacha kiradi.

Alkogolizm va giyohvandlik millat genofondini jismoniy majruhlik va degradatsiya tomon yetaklaydi, shuningdek, u jamiyatning ijtimoiy salomatligini buzadi.

JSST (Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti) bahosiga ko'ra, alkogolli ichimliklarni iste'mol qilish umumiy o'limlar miqdorining uchdan bir qismini tashkil etadi. Ajralishlarning 25-30 foizi er-xotinlardan birining ichkilikbozligi tufayli yuz beradi.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, o'spirinlarning 2,5 foizida ota-onasi bo'lmagan, 97,5 foizida esa oilasi bo'lgan, 55 foizida ham otasi, ham onasi bo'lgan. Yoshlarning 45 foizida yo otasi, yo onasi, shundan 66,2 foizida faqat onasi bo'lgan. Voyaga yetmaganlarning faqat 3,8 foizi

otasi bilan yashaydi. Bundan kelib chiqadiki, voyaga yetmaganlarning qariyb 50 foizi to‘liqsiz oilada tarbiyalanishgan.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga sabab bo‘ladigan shart-sharoitlar quyidagilar:

- nazoratsizlik—ota-onalar va ular vazifasini bajaruvchi shaxslar tomonidan o‘smirlar ustidan zarur bo‘lgan nazoratning yo‘qligi;
- voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan sodir etgan huquqbuzarlik yoki jinoyati uchun ta’sir chorasi yoki jazo belgilanmasligi;
- o‘smirlarning huquqiy tarbiyasidagi muammolar;
- voyaga yetmaganlar jinoyatlarining yuqori latentligi;
- bolalar va o‘smirlar himoyasizligi, huquqsizligi;

Me’yordan og‘ish va me’yorning o‘zi ko‘pincha test yoki eksperimental usullar yordamida aniqlanadi. Biroq, og‘ayotgan xulq-atvorning barcha ko‘rsatkichlarini nazariy jihatdan talqin qilish va o‘lchash imkoni yo‘q. Shunday hollarda simptomatik kuzatish amalga oshiriladi.

Og‘ayotgan (asotsial, deviant) deb ijtimoiy me’yorlardan chetga chiqish hollari muntazam kuzatilayotgan xulq-atvorga aytiladi:

- g‘arazli yo‘naltirilganlik (moddiy, pul, mol-mulk manfaatini ko‘zlab sodir etilgan xatti-harakat va huquqbuzarliklar: o‘g‘irliklar, o‘zlashtirishlar, chayqovchilik va h.k.);

- agressiv yo‘nalishdagi (shaxsga qarshi yo‘naltirilgan xatti-harakatlar: haqorat qilish, bezorilik, kaltaklash, zo‘ravonlik qilish, qotillik);

- ijtimoiy-passiv yo‘nalishdagi (faol ijtimoiy hayotdan chetga chiqishga intilish, o‘z majburiyatlari va burchini bajarishdan qochish, o‘zining shaxsiy va ijtimoiy muammolarini hal qilishni istamaslik: ishlash va o‘qishni xohlamaslik, daydilik, alkogolli va giyohvand moddalar, toksik vositalar iste’mol qilish, o‘zini-o‘zi o‘ldirish, suitsid).

Deviant xulq-atvorli o‘smirlarga u yoki bu ta’sirga beriluvchan bolalarning qaysi toifalari kirishi maxsus tadqiqot jarayoni hisoblanadi.

Deviant xulqlilar toifasiga:

1. Chekishga moyilligi bo‘lgan bolalar.
2. Spirtli ichimliklarga moyilligi bo‘lgan bolalar.

3. O'g'irlikka, yolg'onchilikka moyilligi bo'lgan bolalar.
4. Intizomsiz, ishyoqmas, dangasalikka moyilligi bo'lgan bolalar.
5. Psixotrop moddalarga moyilligi bo'lgan bolalar.
6. Narkomaniyaga moyilligi bo'lgan bolalar.
7. Axloqiy va maishiy buzuvchilikka moyilligi bo'lgan bolalar.
8. Poraxo'rlikka moyilligi bo'lgan bolalar.
9. Diniy ekstrimizmga moyilligi bo'lgan bolalar.
10. Fanatizmga moyilligi bo'lgan bolalar.
10. Agressiv, millatchilikka moyillik.
11. Mahalliychilikka moyillik.
12. Narkobiznesga moyillik.

“Xatar guruhi”dagi o'smirlar va voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan ijtimoiy ish. “Xatar guruhlari”-shunday toifa odamlarki, ularning ijtimoiy ahvoli u yoki bu mezonlarga ko'ra, barqarorlikka ega emas, ular o'zlari yolg'iz hayotda vujudga kelgan va ularning ijtimoiy mavqeyi, ma'naviyati, axloqiy qiyofasi yo'qolishiga, biologik halokatiga olib kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni amalda yengib o'ta olmaydilar. Hozirgi kungacha “hech kimniki bo'lmagan” bolalar toifasi mavjud bo'lib kelmoqdaki, uning miqyosi ancha katta. Ular ota-onalari bilan bir xonadonda turmush kechirsalar ham, oilaviy aloqalar juda zaiflashgan yoki mutlaqo barbod bo'lgan. Tegishli qarov va parvarishning yo'qligi, rivojlanib kelayotgan shaxs ehtiyojlari va manfaatlariga beparvolik, ota-onalar tomonidan shafqatsiz munosabatda bo'lish qarovsiz bolaning psixofizik rivojlanishiga, axloqiy taraqqiyotiga jiddiy tahdid tug'diradi. Maktab ana shunday bolalarni ijtimoiy muhofaza va rehabilitatsiya qilish muammosini to'la hal etish imkoniyatiga ega emas. Bunday bolalar ko'pincha qarovsiz bolalar guruhiga o'tib qoladi. Ular vokzallarda tunashadi, ko'pincha och-nahor yurishadi, rivojlanishda esa anomaliyalarga ega.

Rossiya Federatsiyasida ham so'nggi yillarda o'smir-bomjlarning anchagina miqdori paydo bo'ldi. Ko'pincha ular jinoyatchi tashkilotlar tomonidan o'g'irlab ketiladi, ulardan qishloq xo'jalik ishlab chiqarishidagi qullarcha mehnatda, stixiyali bozorlarda foydalaniladi, ular bolalar fohishaligiga va giyohvandlikka tortiladi, bu esa

OITS(orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi) epidemiyasi tarqalishi ehtimolini oshirib yuboradi. Rossiyadagi har bir shaharda qarovsiz bolalardan foydalanadigan mafiya tuzilmalari mavjud. Yana bir xavf-bir burda non ilinjida amalga oshirilgan bezorilik, mayda o'g'rilik, bosqinchilik va qalloblikdir. Ijtimoiy xodim maktabdan chetda qolgan bolalarni nazardan qochirmasligi, ularga o'z vaqtida yordam ko'rsatishi zarur. Ushbu sohani tadqiqot sifatida o'rgangan mutaxassislarning ta'kidlashicha, o'smirlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shu yosh uchun xos bo'lgan quyidagi xossalalar bilan bog'liq:

1. Tengdoshlari bilan birgalikda guruhlarga ajralish. Vaqt o'tgan sari o'zlariga zarar bo'luvchi mojaro va sarguzashtlarga o'ralashib qolishlari. Achinarlisi, bekorchi o'smirlar bo'sh qolib, kayfiyatni ko'tarish uchun spirtli ichimliklar iste'mol qilishi. O'smirlar ba'zilar qiziquvchanlikdan "kattalardek bo'lish", boshqalari esa qolganlaridan qolib ketmasligi uchun ham ichishga ruju qo'yadilar. Bu nafaqat o'g'il bolalar, balki qizlar orasida ham ushraydi.

2. Imitatsiya (o'xshatish)bu doimo kimgadir taqlid qilishdir. Bunday o'smirlar o'z tengdoshlari yoxud kattalarning xatti-harakatini takrorlaydilar. Atrofdagilardan birortasi spirtli ichimlik, giyohvand modda iste'mol qilsa, unga taqlid qiluvchilar ko'payadi. Ko'pgina o'smirlar o'ziga "namuna" qilib kino qahramonini, aktyorlar, sozandalarni tanlaydilar va ularga taqlid qiladilar. Agarda taqlid qilinayotgan qahramon salbiy qahramon bo'lsa, unda ota-ona va pedagoglar turli noxushliklarga tayyor turishlari darkor. Ayniqsa, "namuna" uchun tanlangan inson real shaxs bo'lsayu, u ichkilikboz, giyohvand, jinoyatchi bo'lsa, undan juda katta kulfatlarni kutish mumkin, chunonchi, ko'pgina giyohvandlar, katta pul kerakligidan turli jinoyatlarga o'ralashib qolishadi.

3. Inkor reaksiyasi(qarama-qarshi tuyg'u).O'smirlar uchun xos bo'lgan tuyg'u. Xulqning qarama - qarshi xususiyatlari yaqinlarining dilsiyohligi, shaxs oriyatiga tegishi, uni xafa qilishi, talablarining qoniqtirmasligida namoyon bo'ladi. Qarama-qarshi ruhdagi harakatlar ko'pincha ota-ona, kattalarga qaratilgan bo'ladi. Oilada muammoli vaziyat yuzaga kelganda, bolaning ichki va tashqi "meni" kichik yoki

bo'rttirilgan huquqbuzarliklar bilan namoyon bo'ladi. Bunday isyonkorlik ruhidagi harakatlarga ota-onalarning bolaga nisbatan loqaydligi, shaxs sifatida uni hurmat qilmasligi, qiziqishlariga to'sqinlik qilishi sabab bo'ladi. Ota-onaning bolasiga qo'ygan o'ta yuqori talablari, uni "vunderkind" - o'ta yuqori cho'qqilarni egallovchi shaxs qilishdek orzulari ham sabab bo'ladi. O'smir dushmanlik hissini berkitib, kattalarga bo'lgan norozilik, xafaligini, undan ruhan begonasirashini namoyon qiladi. U o'ziga do'stlarni tashqaridan izlay boshlaydi va ko'pincha ichuvchi, chekuvchi to'daga kirib qoladi.

4. Rivojlanish tuyg'usi(emansipatsiya)o'smirning o'z erkinligi, mustaqilligi uchun kurashi. U kattalar nazoratidan tezroq ozod bo'lishni xohlaydi. Uni qancha nazorat qilishsa, u shuncha erkinlikka talpinadi. Kattalarga u ataylab mustaqil harakatlarini namoyon qiladi. Ota-ona yoxud o'qituvchi unga biron harakatni majburiy singdirmasa, balki u o'zi ham ixtiyoriy ravishda shu harakatni bajargan bo'lar edi. Bu o'smirning qaysarligi bilan bog'liq. Ruhan sog'lom o'smirlarda o'ta qaysarlik xislatlari vaqti bilan o'tadi. Agarda kattalar o'ta shafqatsizlik va so'zsiz bo'ysunishni so'rashsa, unda o'smirlar o'ta keskin xarakter namoyon qiladilar. Eng xavotirga soladigani shuki, o'smirlarning xatti-harakati bunday holatlarda uydan qochish va daydichilik bilan tugallanadi.

5. Rad etish tuyg'usi bu o'yinlarga, ovqat yeyishga, uy ishlari, jamoat ishlariga qo'shilishini inkor etish tuyg'usi. Bunday voqelikda ota-onalar o'smirlarning ba'zilariga ma'lum bir tengdoshlari bilan muloqot qilishni taqiq etadilar. Ota-ona o'z farzandini ichuvchi, chekuvchi tengdoshlaridan himoya qilish maqsadida boshqa maktabga, boshqa hududga ko'chirishga ham majbur bo'ladi, natijada o'smir o'z ota-onasini tengdoshlaridan ajratganligida ayblab, ulardan arazlaydi.

Deviant xulqning oldini olish faoliyati umumiy va maxsus tadbirlardan biri, ular ijtimoiy faoliyati turli darajalarini qamrab oladi. Muvaffaqiyatli profilaktik ishlarning asosiy shartlari: uning ixcham yig'ilganligi, ketma-ketligi, uzviyligi, dolzarbligini, toifaga to'g'ri bo'linganligi. "Xatar guruhi"dagilar bilan ijtimoiy ishda Umumjahon

sogʻliqni saqlash tashkiloti birlamchi, ikkilamchi va uchinchi darajadagi profilaktika ishlarini belgilab boʻlgan.

Birinchi darajadagi profilaktika ishlari - nomaʼqul xossalarning taʼsirini yoʻqotishga, shu xususiyatlarga nisbatan immunitet hosil qilishga qaratilgan chora - tadbirlardir.

Bu tadbirlar oʻsmirlar orasida keng yoʻlga qoʻyilishi mumkin. Asab-ruhiy tizim buzilishini ilk davrda aniqlab, uni tuzatishga “xavfli guruh”dagi oʻsmirlar bilan ishlashga, endi shakllanayotgan deviant feʼlga ega oʻsmirlarni qayta tarbiyalash ishlarini olib borishga qaratilgan. Uchinchi darajadagi ishlar - bu asab-ruhiy tizim buzilishidan kelib chiquvchi xulq-atvor illatlarini davolash boʻyicha olib boriladigan maxsus faoliyat deviant xulqli oʻsmirlarning oʻta ogʻir feʼl-atvorni namoyon qiluvchi qilmishlarining oldini olishi mumkin. Ruhiy profilaktika ishi 3 darajali oldini olish choralaridan iborat boʻlishi mumkin. Qanday uslubda amalga oshirilayotganiga qarab, ruhiy profilaktika ishi quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- ijtimoiy-ruhiy va axloqiy treninglar;
- namunaviy dasturlar;
- ruhiy maslahatxonalar;
- ishonch telefonlari;
- komplekslik jamlangan, umumlashgan;
- manzil - adreslik, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi;
- ommaviy-guruhlashishni ilgari surish;
- maʼlumotlarning xolisligi;
- salbiy xotimani iloji boricha chetlab oʻtish;
- qatnashuvchilarning shaxsiy manfaatlari va javobgarligi;
- kelajakka intilish istiqboli, reja asosida harakatlanish.

Deviant xulqli oʻsmirga koʻrsatiladigan yordam ikki yoʻnalishda boʻladi. Ruhiy jihatdan oldini olish, ruhiy tuzatmoq va oqlamoq. Ruhiy tashxis qoʻyish psixodiagnostika kerakli boʻlgan, ammo hayotiy zarurat hisoblanmagan faoliyatdir. Oʻsmir yoshlar bilan ruhiy profilaktika ishini olib borishning turli shakllari bor. Ilmiy ommabop adabiyotlarga asoslanib, ularni yettita shaklga umumlashtirilgan holda amalga tatbiq

etish mumkinki, aynan shu shakllar, nafaqat chet davlatlarda, balki qisman Vatanimiz O‘zbekistonda ham qo‘llanib kelinmoqda.

Birinchi shakl - ijtimoiy muhitni tashkil qilish. Uning asosida atrof - muhitning deviant xulqli o‘smirlarga bo‘lgan ta’siri haqidagi tasavvurlari yotadi. Atrofdagi muhitga ta’sir qilib, shaxsning salbiy xulqini o‘zgartirish mumkin. Bunda o‘smirning deviant xulqini muhokama qiluvchi jamoatchilikning ta’siri ham ish berishi mumkin.

Faoliyat davomida oilaga, alohida shaxsga suyanish mumkin. Yuqoridagi shakl negizida sog‘lom turmush tarzini, jismoniy tarbiyani, sport bilan shug‘ullanishni targ‘ib qilish bilan deviant xulqqa bog‘lanib qolishning oldini olish ham mumkin. Ayniqsa, bola o‘z bo‘sh vaqtini o‘tkazadigan joylarda profilaktika ishlarini olib borish kerak. Ko‘chalarda lider o‘smirlar tayyorlash orqali yoshlar bilan ishlashni yo‘lga qo‘yish mumkin. Shu ishlar zamirida o‘smirlarni nomaqbul xatti-harakatlaridan himoya qilish, ularni qo‘llab turuvchi qayta tarbiyalovchi hududlarni yaratish yotadi.

Lekin bu ishlarning asosiy kamchiligi - bu ijtimoiy holat bilan deviant xulqning bog‘liqligi yetarlicha o‘rganilmaganligi hisoblanadi. Umuman olganda birinchi shakl asosida faoliyat olib borish yaxshi natija beradi.

Ikkinchi shakl bo‘yicha ruhiy profilaktikani olib borish usuli - axborot yetkazish. Bu ancha ommalashgan yo‘nalish usuli bo‘lib, unda leksiya, suhbat, maxsus adabiyotlar va telefilmlardan foydalaniladi. Bunday yondashuvning asosiy maqsadi shaxsning bilish qobiliyatiga va qiziqishlariga ta’sir qilib, unda kerakli, to‘g‘ri xulosa chiqara olish qobiliyatini tarbiyalash. Buning uchun, masalan, giyohvand moddalarning sog‘liqqa va shaxsga qanchalik halokatli ta’sir qilishi haqidaga aniq faktlarga asoslangan statistik ma’lumotlarga o‘xshash misollardan keng foydalanish zarur. Ko‘pincha bunday ma’lumotlar qo‘rqitish tusida bo‘ladi. Shuningdek, ta’sir qilish davomida giyohvand moddalarning yomon oqibatlari sanab o‘tiladi va deviant xulqli o‘smirlarning fojiiyaviy taqdiri, shaxs sifatida tanazzulga yuz tutish hollari tasvirlab beriladi. Bu shaklda profilaktika ishini olib borish axborot bilish jarayoniga ta’sir qilishi mumkin, ammo shaxs o‘z xulqini

tubdan o'zgartirmasligi ham kuzatiladi. O'z ta'siri bo'yicha bilish jarayoni deviant xulqning darajasini pasaytirmaydi. Aksincha, salbiy deviant holatlar bilan tanishuv, ba'zi o'smirlarni unga qiziqtirib qo'yadi. Chunonchi, ko'pincha ma'lumotlar o'z vaqtida emas, juda erta, yoki juda kech qolib beriladi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, giyohvandlikning zararlari, halok etuvchi oqibati haqidagi suhbatlarni 14 yoshdan oldinroq olib borish kerak. Bu suhbatlarni tuzishda shunga e'tibor berish kerakki, suhbat davomida giyohvand modda to'liq tasvirlanib, uning beradigan kayfu-safosi haqida so'z yuritilmasin. Suhbat mazmuni deviant xulqning ayanchli oqibatlari va unga qarshi kurashish, hayotiy pozitsiyaga ega bo'lish kabilarga olib kelishi kerak. Bunday profilaktika shaklini rivojlantirish, ta'sirini oshirish uchun qo'rqitish ruhidagi ma'lumotlarni kamaytirib, qolgan ma'lumotlarni yoshga, jinsga, ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishiga qarab ishlatishni taqazo qiladi.

Profilaktika ishlarning uchinchi shakli - ijtimoiy zarur bo'lgan ko'nikmalarni faol o'rgatishni singdirish. Bu shakl bo'yicha ishlashda guruhlarda trening o'tkazish vositasidan foydalaniladi. Hozirgi davrda treninglarning quyidagi shakllari mavjud. Salbiy ijtimoiy ta'siriga qarshi bo'lgan rezistentlik treningi. Treningning maqsadi: deviant xulqning yo'nalishini yaxshi xususiyatlari tomon burish. Buning uchun o'smirda quyidagi ko'nikmalar shakllantiriladi: ba'zilarning salbiy ta'siriga qarshi o'z fikriga ega bo'lish, ba'zi ichuvchi kattalar ta'siriga tushmaslik, kimdir ta'sir, bosim o'tkazayotganida yo'q deyishni ham bilish. Assertivlik va affektiv qimmatli bilim berish bu deviant xulqqa emotsional holati ta'sirini ko'rsatuvchi faoliyat. Ruhiy zo'riqishlar oqibatida kelib chiquvchi muammolarning oldini olish uchun o'smirlarning ruhiyatini o'rganishga, stress holatlarda o'zini munosib tuta olishga o'rgatishadi.

Guruhda ishlash davomida qaror qabul qilish o'z-o'zini to'g'ri baholash, o'zini o'rganish va hayotiy qadriyatlarngi qadriga yetish kabi ko'nikmalar shakllantiriladi. Hayotiy ko'nikmalarning shakllantirilishi treningi. Hayotiy ko'nikmalar deganda - shaxs uchun kerakli bo'lgan ijtimoiy bilish jarayoni tushuniladi.

Avvalambor, bular - muloqot qilish, do'stona aloqada bo'lish va muammolarni do'stona hal qilishlardir. Shuningdek, buning zamirida javobgarlikni his qilish, maqsad qo'yishi, o'zining qiziqishlari, pozitsiyasini himoya qila olishlari bor. Nafsilambirini aytganda, asosiy kerakli ko'nikma - bu o'zini boshqara olish, o'ziga qat'iy ishonch, o'zini o'zgartira olish, atrofga ta'sir o'tkaza olishdir. Aynan shu shakl o'smirlar bilan ishlashda eng sermahsulidir.

Profilaktika ishlarning to'rtinchi shakli - deviant xulqqa muqobil xulq-atvorni shakllantirish. Bu shaklda deviant o'smirlar bilan ishlash deviant xulqning o'rnini bosuvchi xulqni topishi bilan bog'liq. Masalan, giyohvand moddalarga bog'liqlik o'rnini o'z-o'ziga ishonch ruhiga o'zgartirish juda katta yutuq hisoblanadi. Chunki, ko'pgina giyohvandlar aynan psixotrop moddalarning kayfiyatni ko'tarish xususiyatiga qiziqadilar, kayfiyatning maqbul yo'llar bilan o'zgartirilishi profilaktika ishining asosidir. Muqobil shaklda kayfiyatni ko'tarish usullari:

- sayohatlar, tog'larga chiqish;
- alpinizm;
- ekstremal sport turlari;
- sevgi;
- kerakli muloqot;
- ijod;
- faoliyat;
- diniy marosimlar;
- xayriya ishlari;

Bu mashg'ulotlardan istagan vaqtda foydalanish mumkin.

Oila quchog'ida olib borilayotgan profilaktika ishlaridan quyidagilar asosiylaridir: muntazam qiziqishlarning erta boshlanishi, tarbiyalash, yaxshi ko'rish va yoqimtoy bo'lish qobiliyatini shakllantirish, mehnat qilish va bo'sh vaqtini unumli o'tkazishni bilish. Ota-onalar shuni bilishlari zarurki, shaxsni tarbiyalash bolaning yoshlik chog'idan sport, san'atga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan boshlanadi. Agar o'smir yoshgacha bolada ijodiy qobiliyatlar tarbiyalanmasa, bunday shaxs yillar o'tgani sari yomonliklarga o'ch bo'ladi.

Profilaktika ishining beshinchi shakli - sogʻlom turmush tarzining shakllantirilishi. Bu oʻsmirning nechogʻliq oʻz sogʻligi, atrof - muhit bilan garmoniyasiga, oʻz organizmiga javobgarligi bilan belgilanadi. Insonning oʻz sogʻligiga ehtiyotkorona munosabati, kasal keltiruvchi omillardan chetlashib yura olishi, ayniqsa, shaxsning yaxshi xislatlaridan deb baholanadi. Sogʻlom turmush tarzi deganda yaxshi, vitaminli taomlarni eyish, muntazam jismoniy faoliyat bilan shugʻullanish, mehnat va damning ketma-ketligiga rioya qilish, tabiat bilan garmoniyada yashash, ortiqcha dabdabavozliklarga yoʻl qoʻymasliklar tushuniladi. Bunday hayot tarzi ekologik tafakkurga va jamiyatning rivojlanish darajasiga ham bogʻliq.

Profilaktikaning oltinchi shakli - shaxsiy resurs (quvvat)larni safarbar qilish. Artterapiya shaxsning ijobiy sifatlarini faollashtirish, masalan, sport bilan faol shugʻulanish, ijodiy faoliyat, guruhlar, fan klublarida boʻlish kabilar. Oʻz navbatida yuqoridagidek ishlar shaxsning sogʻlom va faol ijobiy, ijodiy hayotda ishlashiga zamin boʻlib xizmat qiladi.

Profilaktika ishining yettinchi shakli - deviant xulqining salbiy oqibatlarini yoʻqqa chiqarish (minimizatsiya). Bu shakllardagi ishlar shakllanib boʻlgan salbiy feʼl-atvorga nisbatan qoʻllaniladi. Bu faoliyat yomon feʼl-atvorning oqibatlarini yoʻqotishga qaratilgan. Masalan, giyohvandlarga kerakli tibbiy yordamni koʻrsatish, uning ayanchli oqibatlarini aniqlashtirish kabilar. Deviant xulqli oʻsmirlar bilan olib boriladigan profilaktika va tuzatish ishlari ijtimoiy-ruhiy xususiyatlarga ega. Deviant xulq ustida olib boriladigan ishda dastlab yakka tartibdagi ishlarni olib borish maqsadga muvofiq, chunki, guruhda oʻsmirlar bir-biriga salbiy taʼsir qilishi mumkin. Shu paytning oʻzida oila bilan ham ishlash kerak. Oiladagi munosabatlarning ahvolini tahlil qilib boʻlgandan soʻng, individual ish bilan birga guruhda ham ish olib borish kerak. Tuzatish ishlari olib borilganda, oʻsmirning ijtimoiy qadriyatlarini, qarashlar va qobiliyatlarini hisobga olish kerakki, aynan shu mezonlar shaxsning dunyoqarashini shakllantiradi. Shaxsning boʻsh vaqtini iloji boricha foydali ishlar bilan band etib, uni ijobiy shakllanish vositalari: kitob oʻqish, oʻz-oʻzini takomillashtirish, internetda muloqot,

uy ishlari, musiqa, sport bilan tarbiyalash kerak. Shuni hisobga olish kerakki, deviant xulqli o'smirlarga nisbatan olib borilgan tarbiyaviy - profilaktik ishlar faqatgina o'smirlarning o'zlariga qaratilgan bo'lishi mumkin emas.

Xulqida muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlashda asosiy individual yondoshuv. Barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish konsepsiyasi har bir bolaning tug'ma imkoniyatlari, layoqat, qobiliyatlari va talantlarini to'g'ri diagnostika qilish, unga bor imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun iqtisodiy-ma'naviy, psixologik, ijtimoiy sharoitlar yaratib berishni dolzarb, milliy xarakterdagi vazifa qilib qo'ymoqda. Bu esa kelgusida bevosita deviant xulqli bolalar tug'ilishining oldini olishda katta ahamiyat kasb etadi.

Afsuski, biogenetik, ekologik, biz bilgan va hali bilib ulgurmagan ijtimoiy-iqtisodiy sabablar tufayli deviant xulq-atvorli bolalarning tug'ilishi davom etmoqda. Va biz ularning hammalarini ham davomli davolash, ijtimoiylashtirish orqali jamiyatdagi me'yorlarga moslash, normal hayotga qaytarish ishlarini uddasidan chiqa olmayapmiz. Kundalik ijtimoiy-pedagogik hayotni aniqlovchi tajribalar orqali tekshirish shuni ko'rsatmoqdaki, bu hol birinchi navbatda deviant xulq-atvorli bolalarning ota-onalari individual-hayotiy, ijtimoiy-kasbiy faoliyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Deviant xulq-atvorli bola nafaqat o'zigina me'yorlarga moslasha olmaydi, balki o'zi anglamagan holda ijtimoiy normalarga, me'yorlarga moslashgan ota-onalari, yaqinlari faoliyatini ijtimoiy me'yorlardan og'ishiga sabab bo'ladi.

O'smirni to'liq tuzatish uchun uning atrofidagi muhitni o'zgartirish darkor. Deviant xulqli o'smirga jamoatchilik tarafdin ta'sir qilinishi quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin: huquqiy choralar, tibbiy aralashuv, pedagogik ta'sir, ijtimoiy himoya va ruhiy yordam kabilar. Deviant xulqli o'smirning og'ir fe'li va davomli illatlari sababidan tuzatish, qayta tarbiyalash ishlarini olib borishni yaxshi tashkil qilingan ijtimoiy pedagogik va ruhiy faoliyat ketma-ketligi kabi qurish talab etiladi.

Profilaktika ishlarining - samarasi quyidagi belgilar darajasi bilan baholanadi: salbiy xulqning kamayishi darajasini ko'rsatuvchi obyektiv

belgilar (misol uchun: giyohvand modda qabul qilishning kamayishi, yo‘qqa chiqishi).

Salbiy xulqning kamayishi darajasini ko‘rsatuvchi subyektiv o‘zgarishlar (misol uchun: sog‘lom turmush tarzida yashashni xohlash). Ijobiy o‘zgarishlarning asosiy mezonidan biri - ijtimoiy munosabatlarni to‘g‘ri qurishga bo‘lgan ko‘nikmaning shakllana boshlashidir.

Deviant xulqli o‘smirlar va voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan yakka tartibdagi korreksiya ishlarini quyidagi uslublarda olib borish tavsiya etiladi:

1. “Psixoterapevtik oyna” vositasi - o‘zini tashqaridan ko‘rishga imkoniyat yaratib, shartli ravishda o‘zini tushunishni rivojlantirish.

2. “Muqobil yo‘llar” vositasi - noto‘g‘ri axloq-odob me‘yorlarini namoyon qilgan o‘smirga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish.

3. “O‘rniga o‘rin” vositasi - xarakterida, fe‘l-atvoridagi bo‘shanglik, iroda va kuchli ruhiy quvvat kabilar bilan o‘rniga-o‘rin almashtirish, to‘ldirish taklif qilinadi.

4. “Ijobiy ijtimoiy faoliyatni singdirish” vositasi - ruhshunosning salbiy dunyoqarashni o‘zgartirib, ijobiy fikrlashga ta’sir qilishi;

5. “Ma’naviy immunitet hosil qilish” usuli - namunaviy, ideal axloq-me‘yorlariga ega bo‘lishni maktabdan, hayotdagi misollardan keltirish, ba’zi insonlarning salbiy ta’siriga qarshi immunitet hosil qilish.

6. “Ko‘rsatmalar, qoidalar” usuli - oilaviy ruhiy terapiya vositasida oila a’zolarining qilishi kerak bo‘lgan ishlari qonun-qoidasini belgilaydi. Ko‘rsatmalar turlicha bo‘lishi mumkin: nimadir qilish, nimanidir qilmaslik. Bu qonun-qoidalar to‘g‘ri va qarama-qarshi ko‘rinishdagi qonun-qoidalar.

7. “Ishontira olish” vositasi - ta’sir o‘tkazish sifatida harakatlanayotgan pedagogning boshqa ta’sir etuvchi insonning xulqiga, o‘ziga bo‘lgan munosabatiga, boshqalarga bo‘lgan munosabatiga, muammoni yaxshilikcha hal qilishga xizmat qiluvchi axborot vositasi.

8. “Ijtimoiy me‘yorlarning to‘g‘rilanishi” vositasi - insonning shaxsiy shakllangan dunyoqarashlari, xususan, “o‘qishga, ishga”, “o‘ziga”, “boshqalarga”, “kelishmovchiliklar”ga bo‘lgan qarashlarini to‘g‘rilash. Agar shu vosita yordamida faoliyat olib borilsa, unda

muvaffaqiyatga erishish uchun kerakli dunyoqarashni shakllantirishga urinish kerakki, bunday dunyoqarash namunasi xulq-atvor qoidalarini madaniy, ijtimoiy majmuasining ideal shakli bo‘lib xizmat qilsin.

Deviant xulqli o‘smirlar axloqi va shaxsiy xususiyatlarini to‘g‘rilash ishlarida ijobiy xislatlarni shakllantirish, rag‘batlantirishi muhimdir. Quyidagi ishlar tavsiya etiladi:

1. Ongli va ongsiz ravishda yomonlikka intilish bor ekan, deviant xulq namoyon bo‘laveradi. Deviant xulqli o‘smirlarning xulqini o‘zgartirish murakkab, ular ijobiy o‘zgartirishlarga turlicha qarshilik bildirishadi. Shuning uchun deviant xulqli o‘smirni qayta tarbiyalash uchun ularda ijobiy tomonga o‘zgartirishni xohlash tuyg‘usini uyg‘otish juda muhim.

2. Ijobiy o‘zgarishlarni istash hissini uyg‘otish, uni rivojlantirish uchun ruhiy maslahatlar, treninglar katta ahamiyatga ega.

3. O‘smirni kelajakni deviant xulq bilan va usiz qarshi olish holatlarini tasvirlashga chaqirish yaxshi natija beradigan ruhiy vositadir.

4. Mijozning muammosini ishlab chiqish asosiy ustuvor vazifadir.

5. Agar shaxs qat’iy turib, muammolarni inkor etib, yaxshi tomonga o‘zgarishni istamasa, faol bo‘lganlarga murojaat qilinadi. Uning oilasi va referent guruhi (unga ta’sir qiluvchi odamlar) bunda hamkor bo‘lishlari kerak. Ko‘pchilik bo‘lib, unga ta’sir qilish o‘z samarasini beradi. Buning uchun deviant xulqli o‘smirga qadrli bo‘lgan insonlar yig‘iladi.

6. Ba’zi hollarda, nechog‘liq og‘ir bo‘lsa ham o‘z xoliga qo‘yish usuli ham natija berishi mumkin. Usulning ma’nosi - o‘smirning xulqiga, xulq-atvor oqibatlariga o‘zini mas’ul va javobgar qilish.

Shuningdek, o‘smirga ta’sir qilishning barcha usullarini to‘xtatib, uni qo‘llashdan umuman yuz o‘girish.

Shu daqiqalardan boshlab, inson o‘zini-o‘zi eplay olishi kerak, yo‘qsa, achinarli bo‘lsa ham oilasi undan voz kechishi ham mumkin.

Bu usuldagi ishlarni olib borishda atrofdagilar o‘smirga qattiqqo‘llik bilan qarashlari darkor. Uning gaplariga ishonchsizlik bildirib, yordam bermay qo‘yishlari kerak. Agar u oila quchog‘ida yashab qolsa, uning talablarini faqat oila tarbiyachilariga bo‘ysunsagina

bajarish kerak. Masalan, u giyohvand moddalarini iste'mol qilishini davom ettirsa, uni ma'lum muddatga pul va boshqa ehtiyojlarini qoniqtirishdan voz kechishlarini bildirishlari kerak. Ota-ona giyohvand o'smirga hatto jazo tariqasida ovqat berishdan, boshpana berishdan voz kechishi mumkin. Ba'zi hollarda o'smir maxsus yordamga rozi bo'ladi. Deviant xulqli o'smirlar bilan ishlashda ularni tuzatish, to'g'rilash davomida o'smir xulqining kelib chiqishi sabablarini bilish kerak.

Ijtimoiy ish xodimlari o'z mijoziga kerakli bo'lgan usul va vositalarini taklif qiladiki, bu vositalar ijobiy o'zgarishlari olib kelsin. Albatta, o'smir bilan ijtimoiy ish xodimi hamkorlikda faoliyat olib borishi uchun oradagi munosabat halollikka, javobgarlikka, mas'uliyatlikka, bir - birini qo'llab-quvvatlash, hurmat qilishga asoslangan bo'lishi lozim.

O'zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Glossariy
Shaxs	Человек	Person	bu ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi ongli faoliyat yurituvchi, faol faoliyat bilan shug'ullanuvchi betakror odam.
Tarbiya	Обучение	Training	bu – insonning o'zi va o'z xulqi haqidagi tasavvurining to'g'ri va xolis bo'lishini ta'minlovchi murakkab jarayon bo'lib, u bevosita uni o'rab turgan insonlardan, oila a'zolari, mahalladoshlari, yordostlaridan ayri tushunilmaydi.
Sotsializatsiya	Социализация	Socialization	bu individning ijtimoiy muhitga qo'shilishi, ijtimoiy ta'sirlarni o'ziga singdirishni va aktiv ravishda muloqot sistemasiga kirib borish jarayonidir.
Bola huquqlari	Права детей	Rights of children	Huquqiy-normativ me'yorlar asosida bola manfaatlarining himoya qilinishi.
Yo'riqnomasi	Инструкция	Instruction	oilasi turmush tarzi va shart-sharoitini baholash mezonlari asosida yaratilgan ko'rsatma.

Nazorat savollari

1. Deviant xulqli bolalar deganda qanday toifadagi bolalar tushuniladi?
2. Bolalar va yoshlarga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordamning qanday o'ziga xos xususiyatlari bor?
3. Bolalarni ijtimoiy muhofaza qilishning ijtimoiy zaruriyati nimadan iborat?
4. Qanday omillar bola ruhiy salomatligining buzilishiga sabab bo'ladi?
5. Deviant xulq – atvor tushunchasining mohiyati nimadan iborat?
6. Deviant xulq - atvor tushunchasining sabablarini izohlang?
7. Deviant xulq - atvor tushunchasining ko'rinishlarini aniqlang.
8. Yevropa davlatlarida xulqiy og'ishlari bo'lgan o'smirlar va bolalar bilan ishlashda ijtimoiy ish xodimining vazifalarini ko'rsating.
9. "Xatar guruhi"dagi o'smirlar va voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan ijtimoiy ish xodimining ijtimoiy ishini izohlang.
10. Xulqida muammolari bo'lgan bolalarda qanday xulqlar namoyon bo'ladi?

11-MAVZU: IJTIMOIIY ISHNING GLOBALLASHUVI.

Reja:

11.1. Global tinchlik va globallashuv.

11.2. Ijtimoiy ish-globallashuv chaqirig‘iga javob.

11.3. Xalqaro ijtimoiy ish va globallashuv. Ijtimoiy ishchilarning milliy tashkilotlari.

Global tinchlik va globallashuv. Bugungi kunda "globallashuv" atamasi ko‘pchilik uchun sehrli bir so‘zga aylandi. Global tinchlik va globallashuv xuddi kelajakning sirli eshiklarini ochadigan kalit so‘zlardek uni hamma takrorlaydi. Globallashuv fenomenining asosiy omili sifatida esa inson bilish jarayonining mislsiz rivojlanishi, ya’ni, ilmiy-texnikaviy bilimlarning yuksalishi va buning natijasida insonning yer yuzining xohlagan nuqtasidagi obyektlarni yoki yuz berayotgan hodisalarni individual ravishda bilib olish imkoniyatlarining paydo bo‘lishi deb tushuntirmoqdalar.

Ba’zilar uchun “globallashuv”-bu baxt uchun zarur bo‘lgan tushuncha, boshqalar uchun bu barcha baxtsizliklarning sababchisiga aylangan hodisadir. Ammo, globallashuv bu dunyomizning qaytarib bo‘lmaydigan barchaga, har bir kishiga teng ravishda ta’sir qiladigan jarayondir. Biz - hammamiz “globallashganmiz” va “globallashuv”ning ta’siri ostidamiz. Bugungi kunda ijtimoiy ish ta’lim tizimi va uning ajralmas atributi bo‘lgan “Ijtimoiy ishga kirish”fani ham globallashuvda muhim o‘rin egallab bormoqda. London iqtisod maktabi direktori E.Giddensning fikricha, faqat o‘zining hududida faoliyat olib borayotgan universitetlarning kelajagi tugaydi. Bu hodisa ularning o‘rnini internet tipidagi universitetlar egallashi tufayli yuz bermaydi. Chunki internet har qancha rivojlanmasin professor-o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro aloqa saqlanib qolayveradi. Shunday qilib, globallashuv talablariga ko‘ra universitetlar global tarmoqning bir qismiga aylanib qoladi. Bunday universitetlarda ikki xil shakldagi ta’lim o‘rtasidagi antogonizm o‘rnini konvergensiya egallaydi.

Hozirgi davrda Samarqand universitetida, respublikamizning boshqa bir qator universitetlarida, chet ellardagi mashhur

universitetlarda ham global tarmoq hamkorligida faoliyatlar yuritilmoqda. Globallashuv tushunchasi keyingi paytlarda ijtimoiy ish sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar tomonidan ham, insoniyatning asosiy qismini moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy - siyosiy va madaniy aloqalarini yagona, ilg‘or va yangi telekommunikatsiya hamda axborot texnologiyalari asosida boshqarishga o‘tish deb tushuntirilmog‘dalar. Globallashuv murakkab integratsion jarayonlarning birlashuvi bo‘lib, u borgan sari insoniyat jamiyatining barcha sohalarini qamrab olaveradi.

Globallashuv jarayonining o‘zi esa obyektiv bo‘lib, insoniyat sivilizatsiyasining muayyan tarixiy taraqqiyotining natijasidir. “Globallashuv” atamasi birinchi marta 1983 - yilda amerikalik iqtisodchi Teodor Levitt tomonidan, uning “Bozorlarning globallashuvi” (The Globalization of Markets) maqolasida ishlatilgan. T.Levittonning fikriga ko‘ra, globallashuv bu yirik xalqaro kompaniyalarning mahsulotlari uchun alohida bozorlarni birlashtirish zarurligini tushuntirish ma’nosini anglatar edi. Hozirgi vaqtda globallashuv muammolari ham ijtimoiy, ham tabiiy fanlar tomonidan o‘rganilmoqda. Har bir fan globalizatsiya haqida “o‘z tilida” gapiradi va uning predmetiga xos bo‘lgan xususiyatlarni aniq belgilaydi. Masalan, taniqli sotsiolog N.Smelserning ta’kidlashicha, “globallashuv tushunchasi juda ko‘p mas’uliyatlar yuklanganligini tushuntiruvchi jarayon, aslida esa hech kim bu jarayonni qanday anglatish zarurlini bilmaydi”⁷² –deb izohlaydi.

Ayni paytda global bozorning mavjudligi va kattaroq mablag‘lar jamg‘arish maqsadida uchinchi dunyo mamlakatlari xalqlarining kuchidan noqonuniy foydalanish, arzon tabiiy resurlar uchun kurash, noqonuniy migratsiya oqibatida dunyo mamlakatlari boy va qashshoq regionlarga ajralib ketdi. Jamiyatni boshqarishning yangi, to‘g‘ri boshqaruv modellarini yaratishda universitetlarga talab yanada kuchayib bormoqda. Barchaga ma’lumki, davlat boshqaruvi yakka hokimlik qiladigan jamiyat to‘g‘ri boshqarilayotgan jamiyatlar turkumiga

⁷² Сведберг Р., Смелсер Н. Социологический подход к анализу хозяйства // Экономическая социология. – 2003. – Т. 4. – № 4. – С. 48–61.

kirmaydi. Bozor qonunlari va tadbirkorlar boshqarayotgan, shuningdek, tadbirkorlar boshqaruvi orqali kirib keladigan tengsizlik, adolatsizlik kabi illatlar ham jamiyatni izdan chiqaradi. Bunday jamiyatda fuqarolarga faqat iste'molchi sifatida munosabat hosil bo'ladi. Ilg'or jamiyatda fuqarolarning ijtimoiy faolligiga, har bir fuqaroning jamiyat hayotidagi o'rniga alohida e'tibor beriladi. Aynan kishilarda bunday munosabatlarning tarkib topishida universitetlar katta rol o'ynaydi.

Globallashuv davrida universitetlarning baynalmilallik xususiyati kuchayib boradi. Chunki internet tizimida e'lon qilinayotgan ta'lim loyihalarida qatnashish erkinligi tufayli talabalarda turli mamlakatlar va turli tillarda o'qish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Bunday universitetlar faoliyati natijasida fuqarolik jamiyati qurishning global muammolarini yaratish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Lekin dunyo universitetlarining paydo bo'lishi, o'z navbatida, kadrlar qo'nimsizligiga, yirik mutaxassis va olimlarni mashhur universitetlarga ko'chib kelishi va ularning o'zlari yashaydigan hududlarida muammolarni o'z vaqtida yechilmay qolishiga, buning oqibatida taraqqiyotning sekinlashuviga sabab bo'lmoqda. An'anaviy ta'lim va an'anaviy oliy o'quv yurtlari bugungi dunyodagi mavjud qashshoqlik va boyluk, ekologik muammolar, xalqaro jinoyatchilik, kishilarning bir-biridan begonalashuvi kabi global muammolarni yakka o'zi hal qila olmaydi.

Globallashuv dunyoni haqiqatan ham birlashtiradi. Va bu birdamlik, paydo bo'layotgan konflikt va urushlarga yo'l qo'ymaslikda ham namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda biron bir urushni bir yoki ikki davlatning shaxsiy ishi deb hisoblash mumkin emas. Chunki bugun xalqaro hamjamiyat o'z e'tiborini urushlarga yo'l qo'ymaslikka qaratib, dunyoda xalqaro tinchlikparvar kuchlarning ta'siri tobora kuchayib bormoqda. Shu bilan birga, dunyoni global yaxlitlikka aylantirish jarayonida insoniyat yangi tahdidlarga duch kelmoqda. Bular giyohvand moddalar, qurollarni sotish va noqonuniy migratsiyani qo'llab-quvvatlash uchun global tarmoqlarni tashkil etuvchi xalqaro jinoyatchilik sindikatlari paydo bo'lishida kuzatilmoqda. OITS va grippning yangi turlari (ebola, koronavirus pandemiyasi) kabi ommaviy infeksiyalar butun dunyodagi odamlarga tahdid solmoqda. Ekolog

olimlar tabiatning og‘ir metal tuzlari bilan ifloslanishi natijasida “issiqxona effekti” deb nomlangan global falokatdan ogohlantirmoqdalar.

Insoniyatning alohida yana bir global tashvishi - bu ommaviy qirg‘in qurollari, ayniqsa yadroviy qurollarning nazoratsiz tarqalishi bilan bog‘liqdir.

Bugungi kunda, tobora ko‘proq davlatlar “yadro” quroliga ega bo‘lgan davlatga aylanmoqda va o‘zlarining harbiy kuchlarini yadro quroliga ega bo‘lgan armiyaga aylantirish yo‘lidan bormoqdalar. Harbiy qurollanish poygasining rivojlanishi bilan birgalikda, xalqaro terrorchilik tashkilotlari uchun biologik va kimyoviy qurollarga egalik qilish imkoniyatlarining ortishi xavfi tobora keskin tus olmoqda. Terroristlar sayyoramizning butun aholisiga tahdid solmoqda, chunki terrorchilarning maqsadi yuzlab va minglab begunoh insonlarning jonlariga qasd qilish bilan qo‘rqitib, ommaviy xurujlar yordamida xalqlarni va hukumatlarni qo‘rqitish.

Globalashuv va ijtimoiy ish mavzusiga oid adabiyotlar tahlili “global muammolar” tushunchasini aniqlashda ikkita ekstremal nuqtayi nazarni ajratib ko‘rsatishimizga imkon beradi. Birinchi qarashga ko‘ra, bunday muammolar sonini cheksiz ravishda kengaytirish tendensiyasi mavjud. Ammo bu holda, tushunchaning o‘zi ma‘nosini yo‘qotadi. Boshqa nuqtayi nazarga ko‘ra, global muammo tushunchasining mohiyatini ijtimoiy himoyalani tashkil etadi. Demak, ijtimoiy ish kasbini o‘rganishda, global muammolar ro‘yxatini to‘g‘ri shakllantirish va buning uchun global muammolar toifasiga kiruvchi masalalarni ajratib ko‘rsatish mezonlarini aniqlash kerak. Yuqoridagilardan kelib chiqib, muammo global deb tasniflanishi mumkin, agar u:

- butun insoniyat manfaatlariga ta’sir qilsa, o‘zini jamiyat rivojining obyektiv omili sifatida namoyon etsa;
- insoniyat kelajagiga tahdid solsa, ishlab chiqaruvchi kuchlarning kelgusidagi rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatsa;
- muammoni bartaraf qilish uchun butunjahonhamjamiyatining sa’y-harakatlarini talab qilsa.

Globalashuv muammolari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Masalan, dunyo oilalarida bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning kuchayishi, qashshoqlikning ortishi, qurolli mojarolar, qochqinlar, koronavirus pandemiyasi, OIV yoki OITS kabi xavfli kasalliklarning keng tarqalishi. Darhaqiqat, zamonamizning globalashuvi va ijtimoiy ish nihoyatda muhim dolzarb mavzudir.

Ijtimoiy ish-bu globalashuv chaqirig‘iga javobdir. Globalashuv tufayli insoniyat faoliyatida, uning turmush tarzida va avvallari turli - tuman bo‘lgan uning madaniyatida yangi, jahon standartlari paydo bo‘ldi. Zamonaviy insoniyat millatidan qat’iy nazar bolaligidan o‘quvchilar uchun bir xil televeziyon dasturlarni, o‘smirlik va yoshlik davrida bir xil musiqiy kliplarni, o‘rta yoshda esa bir xil seriallarni tomosha qiladi. Odamlar bir xil yangiliklarni o‘xshash sharhlar bilan tinglaydilar, kiyim- kechakda bir xil urfga amal qilib kiyinadilar, bir xil taom(fast-fudlar, pitssalar, kirieshka, chipsi)lar bilan ovqatlanadilar, bir xil tilda gapirishga harakat qiladilar, bir xil jihozlangan ofislarda ishlaydilar. Buning oqibatida yangi turkum “global fuqaro”, ya’ni qarashlari, qiziqishlari va maqsadlari bir xil odamlar paydo bo‘lishi mumkin. Ma’lumotlarga ko‘ra XXI asr davomida 6 mingta til iste’moldan chiqib ketadi⁷³.

Insoniyat madaniyatining xilma-xilligi, uning milliy qadriyatlari, urf-odat va an’analari, milliy, axloqiy tamoyillari yo‘qolish arafasida turibdi. Jamiyatining bosh bo‘g‘ini bo‘lgan oilaning asosi, demakki, jamiyatning asosi yuqoridagi qadriyatlarga tayanadi va shular tufayli yashaydi. Hozirda har birimiz, jumladan, ijtimoiy ish kasbi xodimlari, bularning bir qismining yo‘qolganiga guvoh bo‘lib turibmiz.

Iqtisodiy, texnologik va ilmiy taraqqiyot jamiyat ma’naviy taraqqiyotidan ko‘ra tezlashib ketdi. Internetdan foydalanayotgan “global fuqaro” ning yashashdan maqsadi, zamonaviy avtomobil, yaxshi uy-joy, qimmatbaho jihozlar va dunyoni sayohat qilishdan iborat. Avvallari bolalikdan inson ongiga singdiriladigan mehr-oqibat, odob-axloq, yaxshilik, go‘zallik, adabiyot, san’at, diniy axloq bergan

⁷³ Howard M. America and the World. St. Louis: Washington University. TheAnnualLewinLecture, 5 April 1984. P. 6.

ma'naviy boyliklarni global madaniyat bera oladimi, zamonaviy odam jamiyatdagi ma'naviy talablarga javob bera oladimi? Bugungi oliy ta'lim tizimidagi ijtimoiy himoya ishi mutaxassislari turli ijtimoiy qatlamdagi insonlarni ma'naviy boyliklarni saqlab qolishga va uni targ'ib qilishni jamiyat miqyosida ishlab chiqishga harakat qilishi kerak. Mazkur sohadagi ishlarni boshqarish va amalga oshirish bo'yicha, vazirliklar, ilmiy markazlar, bir qancha NNT tashkilot va muassasalar tuzildi va ular faoliyat olib bormoqda.

Hozirgi tez o'zgaruvchan hayotda bu sotsial muammoning yagona yechimi barcha xalqlarda mavjud bo'lgan milliy an'analar va qadriyatlar, mavjud moddiy manba-resurslar asosida insonni tarbiyalash, insonlar ijtimoiy himoyasini saqlab qolishga qaratilgandir. Faqat shu orqaligina globallashuv davrida inson mavjudligini saqlab qolish mumkin. Ayni paytda, globallashuv davr, barcha fuqarolarda shakllantirish zarur bo'lgan, umuminsoniy qadriyatlar ham mavjud bo'lib, bulardan birinchisi rostgo'ylikdir, aynan rostgo'ylik o'zaro aloqaning asosini tashkil etishi lozim. Rostgo'ylik jamiyatdagi barcha aloqalarni biriktiruvchi asos, poydevor bo'lib xizmat qilishi zarur.

Globallashuv davrida butun yer kurrasi aholisi, ayniqsa, qashshoqlikda yashayotgan yoki tabiiy ofat tufayli zarar ko'rgan xalqlar uchun mehr-muruvvat va saxiylik zarur qadriyatdir. Globallashuvning raqobat muhitida yashash uchun zarur bo'lgan ma'naviy fazilat mehnatsevarlikdir. Hozirgi davr ishlab chiqarishidagi raqobatga bardosh berish uchun murakkab vaziyatlarda, turli qarama-qarshiliklarni yengib o'tish va o'zining fikrlarini o'tkazish uchun ijtimoiy himoyalanish nuqtayi-nazaridan katta mashaqqatli ruhiy-psixologik mehnat talab qilinadi.

Hozirgi davrda biror bir korxonaning rivojlanishi, raqobatbardoshligi va, umuman, yutuqlarga sabab bo'luvchi yana bir umuminsoniy fazilat u yerda faoliyat yuritayotgan xodimlarga, do'stlarga va, umuman, insonlarga nisbatan adolatli bo'lishdir. Bu fazilatlar maktabgacha va maktab yoshidagi ta'limdan shakllantirib borilishi shart. Ko'pincha, o'quvchilar ijtimoiy tarbiyasining eng faol davri bo'lgan uch-to'rt yoshligi ularga e'tiborsizlik bilan o'tkazib

yuboriladi, bunga ota-onalarning bolalarni kichik yoshda qanday tarbiyalash zarurligini bilmasligi ham sabab bo'ladi. Hozirgi davrda avvalgiga nisbatan, bu yoshda o'quvchilarning axborotni qabul qilish, o'zlashtirish faoliyati tezlashgan bo'lib, asosiy amaliy va dunyoviy fanlar to'g'risida tushunchalar berish mumkin. Maktabgacha ta'limning tayyorlov guruhlarida va kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ko'pincha o'rgatilinayotgan narsaga qiziqmasligining guvohi bo'lamiz. Bizning fikrimizcha, bu yoshdagi o'quvchilarga o'qishni o'rgatishdan ko'ra, qanday qilib o'qish yo'llairni uqtirish lozim. O'quvchilarda o'qish qobiliyati va tafakkurini shakllantirish, ularga berilgan materialni eslab qolishdan ko'ra ko'proq samara beradi. Maktabgacha ta'lim, maktab, litsey, texnikum va kasb– hunar kolleji davridagi tarbiyaning natijasida esa o'quvchilar tez muloqotga kirisha oladigan, insonni ardoqlaydigan, ko'p o'qiydigan, bo'layotgan voqea - hodisalarni qiziqish bilan kuzatib, ijtimoiy himoyalash haqida fikr bildiradigan, milliy qadriyatlarni hurmat qiladigan va eng muhimi o'z mustaqil fikriga ega bo'lib, boshqalarning gapini takrorlamaydigan bilim egalari sifatida o'quv dargohlarini tugatishlari kerak.

Umumiy ta'limda globallashtirishning sivilizatsiyalar o'rtasidagi munosabatlarni kuchayishini nazarda tutgan holda, tarix, geografiya, san'at, musiqa va ijtimoiy fanlarni o'qitishga e'tiborni kuchaytirish zarur. Bu mamlakatlar tarixi, iqtisodiy yo'nalishlari, ijtimoiy hayoti haqida chuqurroq ma'lumotlar berish orqali o'quvchi yoshlarning boshqa mamlakatlar navqiron avlodlariga nisbatan munosabatini to'g'ri shakllantirishi mumkin.

Globaldashuv davrida ijtimoiy ish kasbi mutaxassislari oldida quyidagi masalalarni hal qilish muammosi turibdi:

- ijtimoiy ish mutaxassislarini tayyorlashda ta'limni baynalmilallashtirish, ya'ni talabalar va ilmiy xodimlarni yangilab borish tizimini keng joriy etish, birgalikda tadqiqot ishlari olib borish, simsiz axborot tizimini o'rnatish, yetakchi universitetlarga tenglashib borish;

- global muammolarni hal qilish bilan birgalikda, o'z milliy taraqqiyotiga oid muammolarni, ayniqsa, ijtimoiy ish kasbi

mutaxassislarini tayyorlashni ko'paytirib borish; taraqqiy topgan va ilm - fan sohasida global yutuqlarga ega davlatlar oliy ta'lim muassasalari bilan ijtimoiy himoya sohasida dialogda bo'lish va bu aloqa natijalariga asoslangan yangiliklar yaratish;

- yoshlarga ta'lim jarayonida global bozorning salbiy natijalari bo'lgan global migratsiya, kriminal iqtisod, global jinoyatlar(narkotrafik, odam savdosi, terrorizm va h.k.) haqida tushunchalar berib borish, talabalar o'rtasida bu haqda doimiy (masofaviy, onlayn va bevosita muloqot) ilmiy–nazariy-amaliy konferensiyalar tashkil etish;

- oliy ta'lim tizimiga ijtimoiy siyosat fanini kiritish, shuningdek, barcha ishlab chiqarish va sanoat korxonalarida, davlat muassasalarida ijtimoiy ish va himoyalash kabi ma'rifatni targ'ib qiluvchi manbalar yaratish. Hozirgi kunda O'zbekiston milliy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar aynan global davr talablari asosida yaratilgan. Bizning fikrimizcha, bu islohotlarni amalga oshirishda barcha ta'lim tizimi xodimlari birdek qatnashganida yanada ko'proq samaraga erishish mumkin.

Bugungi dunyoda ijtimoiy ish xodimlari zimmasiga katta mas'uliyatlar yuklatilgan. Ijtimoiy himoyalash kasbi egalari yoki ijtimoiy ishchilar, o'ta xavfli sharoitlarda turib, quvg'inlar, urushlar, ochlikka duchor bo'lganlarni va siyosiy to'qnashuvlar qurbonlari bo'lganlarning, majburiy migratsiya va immigratsiya ta'siridan azob chekayotganlarning hayot sifatini yaxshilashda muhim rol bajarishmoqda. Ijtimoiy ishchilar butun dunyo bo'ylab odamlarning hayot sifatini yaxshilash uchun boshqa turli kasb mutaxassislari bilan birgalikda ishlaydilar. Bu odamlar butun dunyo bo'ylab ijtimoiy ish tamoyillarini targ'ib qilish uchun tinmay mehnat qiladilar. Demak, bugungi global muammolar sharoitida xalqaro ijtimoiy himoya ishlarini, dunyo bo'ylab ijtimoiy xavfsizlik va ijtimoiy adolat kelajagi va ijtimoiy ish kasbining istiqbolli yo'nalishlari bilan bog'liq asosiy muammo hamda masalalar haqida qisqacha to'xtalamiz.

Xalqaro ijtimoiy ish va globallasuv. Ijtimoiy ishchilarning milliy tashkilotlari. Xalqaro ijtimoiy xavfsizlik-bu dunyoning barcha

mamlakatlarning sa'y-harakatlari sharoitida odamlarning asosiy farovonligini rivojlantirish bilan bog'liq amaliyot sohasi. Ijtimoiy ishchilar xalqaro amaliyoti to'g'risida bilimga ega bo'lishining, shuningdek, ularning boshqa mamlakatlarda ishlash qobiliyati bo'lishi kerak. Ijtimoiy xavfsizlikning xalqaro madaniyatlararo ta'limi, muqobil iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy xavfsizlikning ufqlarini kengaytirishi mumkin.

Boshqa mamlakatlarning madaniyatini tushunish va qadrlashga, shuningdek, o'z qadriyatlari, mafkuralari va madaniy imtiyozlari to'g'risida xabardor bo'lish globallashuv davrida yordam beradi:

- xalqaro yondashuv ijtimoiy siyosat va xizmatlarga, umuman, qiyosiy nuqtayi nazardan ko'proq tanqidiy qarashga imkon beradi, chunki, ijtimoiy himoya va yordam ko'rsatishning muqobil variantlari mavjud;

- ijtimoiy ishchilar va xizmat ko'rsatish sohasidagi boshqa mutaxassislar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik innovatsiyalar va ijtimoiy ish sohasida o'zgarishlar uchun ko'plab imkoniyatlarni ochib beradi.

Shunday qilib, globallashayotgan dunyoda ijtimoiy ishning bir qator xalqaro tashkilotlari vujudga kelgan. Xalqaro ijtimoiy ishchilar federatsiyasi (XIIF) 1928 - yilda Parijda tashkil etilgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'lgan edi. Ammo 1950 - yilda dunyodagi bir qator mamlakat (Avstriya, Belgiya, Kanada, Daniya, Angliya, Fransiya, Germaniya, Gretsiya, Niderlandiya, Shveysariya va AQSH)larning kasaba uyushmalaridan vakil bo'lib kelgan ijtimoiy ish kasbi xodimlari xalqaro ijtimoiy ishchilar federatsiyasining faoliyatini qayta tiklash tashabbusi bilan chiqdilar. Xalqaro ijtimoiy ishchilar federatsiyasi (XIIF) 1956 - yil 9 - avgustdan rasman ishini boshlagan. Ushbu tashkilotga hozirgi kunda dunyo bo'ylab 80 ga yaqin ijtimoiy ishchilar uyushmalari a'zo bo'lgan. Muntazam ravishda XIIF tomonidan har ikki yilda bir marta xalqaro konferenslar o'tkazib turiladi. XIIFning maqsadlari:

- xalqaro hamkorlik orqali ijtimoiy ishni kasb sifatida targ'ib qilish, ayniqsa kasbiy qadriyatlar, standartlar, axloq, inson huquqlarini

e'tirof etish, shu maqsadda ijtimoiy ishchilarni o'qitish va ularga ish sharoitlari yaratish;

- ijtimoiy ishchilar milliy tashkilotlarini yoki ijtimoiy ishchilar maxsus kasaba uyushmalarini va kerak bo'lganda ular mavjud bo'lmagan joylarda milliy muvofiqlashtiruvchi organlarni yaratishga ko'maklashish;

- ijtimoiy ishchilarning ish va mehnat faoliyatlarini rejalashtirish, ijtimoiy siyosatni ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy ishchilarni tan olish, ijtimoiy ishchilarni o'qitish, shuningdek, ijtimoiy ishchilarning malakasini oshirish va professional kasbiy malakasini qayta tayyorlash standartlarini takomillashtirishdagi ijtimoiy ishlarni olib boruvchi tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash.

Ayni paytda, "Ijtimoiy ishchining odob-axloq kodeksi" haqida to'xtab o'tish maqsadga muvofiqdir. "Ijtimoiy ishchilarning odob-axloq kodeksi" Xalqaro ijtimoiy ishchilar federatsiyasi va Rossiya Federatsiyasining "Ijtimoiy pedagoglar va Ijtimoiy Ishchilar ittifoqi" Umumrossiya jamoat tashkiloti tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan. Ijtimoiy ishchining odob-axloq kodeksi butun dunyodagi ijtimoiy soha mutaxassisleri tomonidan o'z kasbiy vazifalarini bajarishi bilan bog'liq ijtimoiy ishlarning asosiy tamoyillari va qadriyatlarini belgilovchi muhim hujjatdir. "Ijtimoiy ishchining odob-axloq kodeksi"ning asosiy maqsadi insonning (mijozning), mutaxassisning (ijtimoiy ishchining) va jamiyat (jamiyatning turli institutlari)ning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishda o'zaro munosabat jarayonida axloqiy pozitsiyalarini aniqlashdir.

Ijtimoiy ish maktablari xalqaro assotsiatsiyasi(IIMXA).Bu tashkilot ham dunyo miqyosida faoliyat olib boruvchi ijtimoiy ishchilar kasbiy faoliyatining ajralmas qismidir.IIMXAning ish amaliyoti ijtimoiy ishda axloqiy munosabatda bo'lish qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ijtimoiy ishchilarga sifatli xizmat ko'rsati loyihalarini ishlab chiqish va taqdim etish bilan shug'ullanadi. Etika sohasidagi IIMXA faoliyatining maqsadi, ushbu tashkilotga a'zo mamlakatlarda ijtimoiy ish bilan shug'ullanadiganlar, shuningdek, ijtimoiy ish institutlarida (fakultetlar, bo'limlar, maktablar) va ijtimoiy

ishlarni o'rganayotgan talabalar o'rtasida uchrashuvlar tashkil qiladi. Bu uchrashuvlarda odob-axloqqa doir munozaralar va mulohazalar eshitaladi. Ijtimoiy ishchilar duch keladigan axloqiy dilemma va muammolarning ba'zilar muayyan mamlakatlar uchun xosdir, boshqalari esa hamma uchun umumiydir.

Xalqaro ijtimoiy ishchilar federatsiyasi (XIIF) va Ijtimoiy ish maktablari xalqaro assotsiatsiyasi (IIMXA) umumiy tamoyillarga asoslanib, qo'shma deklaratsiyalar qabul qiladi. E'lon qilingan qo'shma deklaratsiyalarning maqsadi butun dunyo bo'ylab ijtimoiy ishchilarni ular duch keladigan qiyinchiliklar va dilemmalar haqida o'ylashga undash va har bir holatda qanday harakat qilish to'g'risida qarorlar qabul qilishdan iboratdir.

Xalqaro ijtimoiy ish va globalashuv muammolarini yoritayotgan yekanmiz, ijtimoiy ishchilarning milliy birlashmalaridan nufuzi bo'yicha jahonda etakchi o'rinlarni egallaydigan ijtimoiy ishchilar Buyuk Britaniya va AQSH milliy birlashmalari haqida to'xtab o'tish joiz bo'ladi. Ijtimoiy ishchilarning milliy birlashmalari orasida Buyuk Britaniya Milliy ijtimoiy ishchilar uyushmasining o'rnini alohida nufuzga ega. Buyuk Britaniyaning Ijtimoiy ishchilar uyushmasi (BBIU) mamlakatda ijtimoiy ish xodimlari ishchilarining manfaatlarini ifodalovchi eng yirik uyushmalardan biridir. BBIU 40 yildan ortiq vaqtdan beri mavjud. Yillar davomida u qiyin yo'lni bosib o'tdi, amaliy tajribaga ega bo'ldi. Uyushmaning 8500 dan ortiq a'zolari bor, ularning aksariyati Angliyada istiqomat qiladi va amaliy kasb bilan faol shug'ullanadigan ijtimoiy ishchilar. BBIU ish beruvchilar bilan shartnomalar tuzadi. Bunday bitimlar ijtimoiy xususiy agentliklarning manfaatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Uyushma a'zolari bo'lish barobarida ishchi xodimlar jamoat ishlarida qatnashish va birlashma faoliyatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Britaniya Ijtimoiy ishchilar uyushmasi o'z nizomiga ega. Unda assotsiatsiya a'zolarining vazifalari, asosiy axloqiy tamoyillari bayon qilingan. Uyushmaga a'zo bo'lish ijtimoiy ishchilar tomonidan amalga oshiriladigan xizmatlar doirasini kengaytiradi. Ijtimoiy ishchi litsenziyaga ega bo'ladi va uning kasbiy tayyorgarligi Uyushma a'zolariga qo'yiladigan barcha talablarga javob berishi

kerak. Uyushmaning asosiy vazifasi ijtimoiy himoyani tashkil etish. Shu bilan birga, mijozlarning huquqlari ham, turli darajadagi ijtimoiy ishchilarning huquqlari ham bir xilda himoya qilinadi. Angliyada ijtimoiy ishchilar amaliy ishlarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, o'rta yoki oliy ta'lim olgandan so'ng har bir xodim, davlat tomonidan mustaqil kengashda ro'yxatdan o'tkaziladi, litsenziya oladi. Uyushmaning asosiy roli shundan iboratki, u ish beruvchi va tashkilot mustaqil kengashi oldida ijtimoiy ishchilarning manfaatlarini ifoda etadi, ular ko'pincha litsenziyadan yoki ishlashdan asossiz ravishda voz kechadilar, munozarali masalalar bo'yicha maslahat beradilar, ijtimoiy ishchilarni tayyorlashga zamonaviy talablar darajasi to'g'risida ma'lumot beradilar. Uyushma boshqa alyanslar bilan o'zaro hamkorlikning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish bo'yicha ham ishlaydi. Masalan, ijtimoiy ish maktablari birlashmasi, turli ijtimoiy himoya tashkilotlari direktorlar uyushmasi, bular har xil kasaba uyushmalarining tashkilotlari bo'lishi mumkin.

Xuddi shuningdek, dunyo miqyosida e'tiborga molik bo'lgan obro'ga ega AQSH Milliy ijtimoiy ishchilar uyushmasi ham yetakchi ijtimoiy ishga xizmat ko'rsatuvchi tashkilot sifatida faoliyat ko'rsatadi. Milliy ijtimoiy ishchilar uyushmasi (MIIU) AQSHdagi ijtimoiy ishchilarning professional tashkiloti hisoblanadi. MIIU 2008 - yil yanvar holatiga ko'ra 150 000 dan ortiq a'zolariga ega. MIIU o'z siyosatida inson huquqlariga asoslanib, ijtimoiy ishning butun nazariyasi va amaliyotiga asoslanib ish yuritishadi. Ushbu tashkilotda jamiyatning fuqarolik, siyosiy, madaniy va ijtimoiy hayotni ta'minlashdagi javobgarligi to'g'risida qayg'urishadi. Bu tashkilotda ijtimoiy ishchilar, odamlarga nisbatan qanday munosabatda bo'lishidan qat'iy nazar, ularga nisbatan noinsoniy munosabatda bo'lishlariga doimo qarshi turishimiz kerak-degan tamoilga to'liq amal qilishadi. Yuqorida qayd etilganlarning barchasi ijtimoiy ish va globallasuv jarayonlarini tasdiqlovchi fakt sifatida misol bo'la oladi.

O'zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Glossariy
Globallashuv	Глобализация	Globalization	xalqaro ahamiyatga ega iqtisodiy, siyosiy, madaniy va informatsion omillarning alohida davlatlardagi ijtimoiy voqelikka ta'siri jarayoni.
Immigratsiya	Иммиграция	Immigration	mehnatga layoqatli aholining mamlakat hududiga boshqa mamlakatlardan ko'chib kelishi.
Emigratsiya	Эмиграция	Emigration	mehnatga layoqatli aholining mamlakat hududidan boshqa mamlakatlarga ko'chib ketishi.
Migratsion qoldiq	Миграционное saldo	Migration surplus	immigratsiya va emigratsiya miqdori o'rtasidagi farq.
Reemigratsiya	Реэмиграция	Remigration	emigrantlarning vatanlariga doimiy yashash uchun qaytib kelishlari.
Reemigratsiyani rag'batlantiruvchi dasturlar	Стимулирующие программы реэмиграции	Incentive Programs of Remigration	noqonuniy ravishda kirib kelgan immigrantlarni mamlakatdan majburiy chiqarib yuborishdan tortib vatanlariga qaytishni xohlaydigan immitrantlarga moddiy yordam berish bilan bog'liq choralar

Nazorat savollari:

1. Global tinchlik va globallashuv mutanosibligini izohlang.
2. Ijtimoiy ish-globallashuv chaqirig'i atamasiga javob nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Xalqaro ijtimoiy ish va globallashuv mutanosibligini izohlang.
4. Ijtimoiy ishchilarning milliy tashkilotlaridan qaysilarini bilasiz?
5. Ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassislar tayyorlashning asosiy yo'nalishlarini ko'rsating.
6. Zamonaviy Amerika jamiyatidagi ijtimoiy yordamning asosiy shakllaridan qaysilarini bilasiz?

7. Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida ijtimoiy ishning rivojlanish xususiyatlaridan nimalarni bilasiz?
8. Zamonaviy Amerika jamiyatidagi ijtimoiy yordam tamoyillari va shakllari haqida nimalarni bilasiz?
9. Chet elda ijtimoiy ish: tendensiyalar va o'ziga xosliklar haqida nimalarni bilasiz?
10. Ijtimoiy ish ijtimoiy hodisa sifatida nimalarni bilasiz?
11. Ijtimoiy xizmatlar: tushunchasi, standartlari, turlari va ularning mohiyati.
12. Zamonaviy jamiyatning rivojlanish tendensiyalari va ijtimoiy ish istiqbollari izohlang.
13. Xorijiy mamlakatlarning immigratsion siyosati haqida nimalarni bilasiz?
14. Qochqin(qochoq)lar-majburiy ko'chirish global muammo sifatida nimalarni bilasiz?

12-MAVZU: O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY ISHNING RIVOJLANISHI.

REJA:

12.1. O‘zbekistonda ijtimoiy yordam ko‘rsatishning tarixiy shakllari.

12.2. “Ijtimoiy ish” kasbining rivojlanishi va qo‘llab-quvvatlanishining madaniy va tarixiy zaminlari.

12.3. O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining taraqqiyoti.

12.4. O‘zbekiston ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari.

O‘zbekistonda ijtimoiy yordam ko‘rsatishning tarixiy shakllari. “Ijtimoiy ish” iborasi bugungi kunda nafaqat mutaxassislariga, balki O‘zbekistonning keng qatlam aholisiga ham tanish bo‘lib bormoqda. Bu holat, eng avvalo, jamoatchilik hayotida jamiyatning har bir a‘zosi uchun munosib hayot tarzini ta‘minlash vazifasi asosida ro‘y berayotgan izchil o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Ijtimoiy ish jamoatchilik hodisasi sifatida kelib chiqishiga ko‘ra insoniyat va jamiyat rivojlanishining ilk bosqichlariga borib taqaladi. Aslida qadimdan jamoatchilik tuzilmasining yaqqolroq namoyon bo‘lishi hamda ijtimoiy ko‘mak berishning o‘ziga xos mexanizmi Sharqda paydo bo‘lgan. Uning xususiyati shundan iborat ediki, bunda har bir inson o‘zi yashab turgan an‘anaviy tuzilmalarning himoyasi ostida bo‘lgan. Bu tuzilmalar o‘z a‘zolariga ko‘mak ko‘rsatib kelgan oila va jamoadan tarkib topgan edi.

Bizga tarixiy manbalardan ma‘lumki, insoniyat jamiyati yaratilibdiki, sotsial muammolar mavjud bo‘lgan. Jamiyat rivojlanib borishi bilan sotsial muammolar o‘zgarib borgan, ya‘ni har bir davrning o‘ziga xos sotsial muammolari bo‘lgan. Insoniyat jamiyatining ilk davrlarida sotsial muammolar eng sodda bo‘lib yashash uchun rizq-ro‘z topishdan iborat bo‘lgan. Bu davrda sotsial himoyaga muhtoj bo‘lgan odamlarning taqdiri ularning to‘da bo‘lib yashashlariga, ya‘ni ibtidoiy to‘da va urug‘ jamoasiga bog‘liq bo‘lgan. Ibtidoiy to‘da odamlarni yirtiqich hayvonlardan va boshqa xavf xatardan himoya qilgan, xolos, Odamlarning sotsial ehtiyojlari himoyasiz bo‘lib, bunday yordamga

muhtoj odamlar beshafqat jamiyat tartiblariga dosh berolmay qirilib ketganlar.

Tabiiy ravishda ko'ngildan chiqarib ijtimoiy yordam ko'rsatishning dastlabki ko'rinishlari, o'z "qornini to'yg'azish" imkoniyatiga ega bo'lmagan insonlarga yordam ko'rsatish, o'zgalar haqida qayg'urish kabi ezgu ishlar turli xil jamoatchiliklarga hos bo'lib, ular turli an'analarda namoyon bo'ladi. Qadimgi Misrda ibodatxonalarda diniy marosimlar taomiliga ko'ra ijtimoiy yordam ko'rsatilgan: och-yalang'och odamlarga bepul non tarqatilgan. Qadimgi Gretsiyada, keyinchalik Qadimgi Rimda filantropiya g'oyasi rivojlana boshlagan edi, ya'ni kambag'al qatlam aholi orasida non, kiyim, pul tarqatilishi odat tusiga aylanib borishi kuzatilgan. Turli xil diniy marosimlarga ko'ra ibodatxonalar tomonidan ko'mak berilishi, jamoatchilik va qarindoshchilik, shuningdek, uy xo'jalik yumushlarida yordam ko'rsatish, qarindoshlar, oila va aholi orasida o'zaro qo'llab-quvvatlash va himoyalash rivojlana boshlagan. Keyinchalik, qadimgi slavyanlar orasida ham ijtimoiy ko'mak ko'rsatishning asosiy shakllaridan namunalar bo'lganligi haqida tarixdan ma'lumotlar saqlanib qolgan.

O'rta Osiyo hududida ibtidoiy odamlarning eng dastlabki manzilgohlari g'or va mag'oralardan iborat bo'lgan. Tarixchi olimlarning taxminiga ko'ra, O'rta Osiyo hududida odamlar qadimgi tosh asri davridayoq kelib joylashgan, bu esa ilk paleolit davrining oxirlariga, ya'ni bundan 800-500 ming yillar oldingi payitlarga to'g'ri keladi. Bu davrda odamlar slanes (tog' jinsi) va chaqmoq toshlardan mehnat qurollari yasaganlar, chunki bunday jinlar va chaqmoq toshlar oddiy qo'l bilan ishlov berishga juda qulay bo'lgan.

Milodgacha taxminan 100-40 ming yillar avval (o'rta paleolit) odamning yangi turi-neandertallar paydo bo'ldi. Bu davrda odamlar O'rta Osiyo hududini kengroq egallab olgan edi. Miloddan taxminan 40-12 ming yillar avval, ya'ni kech paleolit davrida hozirgi ko'rinishdagi odamlar shakllana boshladi va ular faqat tog'li joylarda emas, balki pasttekisliklarda ham joylasha boshladilar. Odamlar o'zlariga chayla, yerto'la ko'rinishidagi turar joylar qurishni, olov yoqishni va yanada qatiqroq chaqmoq toshlardan mehnat qurollari

yasashni o'rgana boshlaydilar. Kech paleolit davrida dastlabki mehnat taqsimoti sodir bo'ldi - erkaklar faqat ov bilan, ayollar esa uy yumushlari bilan mashg'ul bo'la boshlaydilar.

O'rta Osiyo xalqlari o'zlarining ko'p asrlik tarixi davomida yer kurrasining boshqa qismlaridagi xalqlar uchun ham xos bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy bosqichlarini boshdan kechirdi. Biroq Yevropa mamlakatlari tarixiga nisbatan O'rta Osiyo xalqlarining o'tmishi o'ziga xos xususiyatlariga egadir.

Birinchi, O'rta Osiyoda dehqonchilik sun'iy sug'orish hisobiga mavjud bo'lib, anhor va ariqlarning butun-butun tarmoqlari yordamida suv dalalarga oqizilgan. Sug'orishning bunday usuli Yevropa hududidagiga qaraganda ko'proq mehnattalab bo'lgan. Farg'ona, Zarafshon va Surxon-Sherobod vohalarida chorvachilik va dehqonchilikni rivojlantirish uchun juda qulay sharoitlar yuzaga keladi. Shamollar serhosil tuproqni butun voha bo'ylab tarqatgan, lekin aynan shu shamollar ulkan qum tog'larini ham o'rnidan jildirib, shudgorlar, turar joylar, anhor - u quduqlar qum ostida qolgan. Shu boisdan ham O'rta Osiyodagi barcha hukmdorlar sug'orish inshootlari barpo etish va ularni muhofaza qilishni birinchi galdagi vazifa deb bilganlar.

O'rta Osiyoga xos bo'lgan bu xususiyat zamirida shu narsa yotadiki, bu yerda ekinbop yerlar hech qachon xususiy mulk bo'lmagan, balki hokimiyat tepasida turgan hukmdorlarning mulki, ya'ni davlat mulki bo'lib kelgan. O'troq dehqon aholi bilan chorvador ko'chmanchilarning bir-biri bilan yaqin qo'shnichilikda bo'lishi ham O'rta Osiyo xalqlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Qadimgi va o'rta asr davrlarida ko'chmanchi xalqlar o'troq aholi uchun ko'p tashvishlar keltirgan. Ko'chmanchilarning dam-badam qilgan xujumlari natijasida gullab-yashnagan vodiylar cho'l - u biyobonga aylangan, goho esa o'troq xalqlarning bir maromda davom etib kelayotgan taraqqiyotini butun bir asrga to'xtatib qo'ygan. Biroq ko'chmanchilar juda foydali qo'shnilar ham bo'lishgan, gap shundaki, ular shahar va qishloqlarning o'troq aholisi bilan savdo-sotiq qilishib, go'sht, sut va boshqa chorva xo'jaligi va hunarmandchilik mahsulotlariga almashtirishgan.

Oʻrta Osiyoda hozir qayd etilgan xususiyatlar natijasida mol ayirboshlash munosabatlari paydo boʻlib, bu esa shaharlarning barvaqt yuzaga kelishiga va ularda hunarmandchilikning rivojlanishiga imkoniyat tugʻdirgan. Shu bilan birga, koʻchmanchilarning dam - badam qilgan xurujlari oʻtroq aholini shahar va qishloqlarni mustahkam devorlar, xandaqlar va minoralar bilan toʻsib olishga majbur etgan. Bu, oʻz navbatida, oʻz davrining ijtimoiy ish faoliyatining shakllanishiga olib kelgan. Bunda koʻchmanchi qabila tomonidan shikastlangan, tazyiq ostida qolgan oʻtroq aholi qatlami bunday muammolarni yechish uchun ijtimoiy hayotlarini tubdan oʻzgartirganlar. Buning natijasida dinga eʼtiqod qilish shakllana boshladi. Birinchi navbatda eng qadimiy otashparastlik dini paydo boʻldi.

Milodgacha I ming yillikning ikkinchi yarmida Oʻrta Osiyo hududlarida zoroastrizm (otashparaslik) dini keng tarqala boshlaydi. Bu dinning asosiy aqidasi yaxshilik bilan yomonlik, ziyo bilan zulmat oʻrtasidagi sira tamom boʻlmaydigan kurashuvga asoslanuvchi taʼlimotdan iboratdir. Sinfy jamiyat paydo boʻlish sharoitlarida bu din xalq orasida ayniqsa keng yoyildi. Zoroastrizm davlat dini maqomini olib, oliy hokimiyatni ulugʻlar, zodagon va ruhoniylarning mehnatkashlar ommasi ustidan hukmronligini qonuniylashtirar edi.

Oʻrta Osiyoda qullar mehnatidan foydalanishning keng rasm boʻlmaganligining yana bir sababi shunda ediki, bu yerda qullarga kiyim-kechak olib berish, ularga boshpana qurish farz hisoblanardi, ularning mehnatidan keladigan daromad esa bu chiqimlarni qoplay olmas edi. Undan koʻra erkin jamoatchilarni ishlatish foydaliroq boʻlgan. Natijada erkin jamoatchilarga qaraganda qullar juda ozchilikni tashkil etardi.

Ijtimoiy tadbirlar borasida muhokama qilish imkonini bergan birinchi manba boʻlib, shubhasiz muqaddas kitob Avesto xizmat qiladi. Unda zoroastrizm dinini tan olgan davlatlarning hayot tarzi hamda ijtimoiy siyosati haqidagi maʼlumotlar qayd etilgan. Zoroastrizm dinining vujudga kelishi tarixi boʻyicha asosiy manba “Avesto” boʻlib, unda otashparastlarning diniy kalimalari, oyatlari toʻplangan. Oʻzining boshlangʻich pallasida otashparastlik eng oliy tangri Axuramazdaga

sig‘inishda o‘z ifodasini topgan. Tangri Axuramazdani ulug‘lash bilan bir vaqtda yana shunday bir qoida (ta‘limot) keng e‘tirof etiladiki, bu ta‘limotga ko‘ra, dunyodagi hamma narsa – tangrilar ham, tabiiy hodisalar ham, ijtimoiy hayot ham, hayvonot dunyosi ham yaxshilik va yomonlikka, haqiqatga va yolg‘onga mansubdir. Ular o‘rtasida nihoyasi yo‘q kurash davom etadi va bu kurash jahondagi barcha jarayonlarning umumiy mazmunini tashkil qiladi. Shunday bir zamonlar ham yetib kelishi kerakki, unda Axuramazda nihoyasi yo‘q kurashning g‘olibi bo‘lib chiqajak va o‘shanda o‘liklar trilajak, barcha nopok narsalar yer yuzidan izsiz yo‘qolib, faqat “yaxshilik” uchun baxtli hayot nash‘u namosini surish navbati yetajak.

Otashparastlik dinida insoniyat ahamiyati shu narsa bilan belgilanadiki, u o‘zining barcha xatti-harakatlari bilan yo yaxshilikni, yo yomonlikni mujassam etadi. Yaxshilik yo‘lini zaminga Zaratushtra olib kelgan haqiqiy din (haqiqat) yoritadi. Yomonlik bilan kurashda yaxshilikka hamkorlik qilishdagi insonning asosiy burchi, eng avvalo, haqqoniy hayot tarzi bo‘lmog‘i kerak, u hamisha “yaxshi fikr” surmog‘i, “yaxshi so‘z” aytmog‘i, “yaxshi ish” qilmog‘i lozim - yomonlik bilan kurashda insonning asosiy yarog‘i ana shulardir.

Otashparastlikning eng mo‘tabar tangrilar ichida Quyosh va Oy tangrisi Mitraning mavqeyi baland turadi. U dehqonlar va ko‘chmanchilarning qudratli homiysi bo‘lib, har yili o‘z rizqmandlariga mo‘l hosil va bisyorlik hadya etadi. Mo‘l-ko‘lchilik va suv tangrisi Anaxita ham bandalarining hojatini chiqarishda Mitradan qolishmaslikka harakat qiladi. Bu dinlarning vujudga kelishi insonlar o‘rtasida mehr - oqibat, sabr - matonat, bir - biriga g‘amxo‘rlik xususiyatlarining uyg‘onishiga olib keldi.

O‘rta Osiyo hududidagi qadimgi jamoalar tarbiya, ish bilan ta‘minlash, dam olishni tashkillashtirish kabi muammolarning sezilarli qismini hal etgan hamda shaxs, oila, guruh darajasida ijtimoiy ko‘makni ko‘rsatish bo‘yicha o‘ziga xos jamoatchilik markazi sifatida mavjud bo‘lgan edi. Xayriya - ehson manzilli yordam ko‘rsatishning usuli sifatida oddiy fuqarolar uchun an‘naviy xulq-atvor qoidasi bo‘lsa, ma‘naviyat vakillari va madaniy tashkilotchilar zimmasiga esa ijtimoiy

xizmatlarning funksiyalari - yordam ko'rsatilishini, xayriya tadbirlarini tashkillashtirish yuklatilgan edi. Hukmdorlar, boy fuqarolar, ibodatxonalar xayriya ovqatlar tarqatilishini tashkillashtirishar, kam ta'minlangan hamda nochor yashayotgan o'z yurtdoshlariga ehson tarqatishardi. Turli xil jamiyatlarda jamoaning umumiy fondi hisobidan qiynalgan oilalarga moddiy yordam ko'rsatilardi.

O'rta Osiyo xalqlari hayotiga musulmon dini kirib kelishi davrlarida ijtimoiy turmushida ma'naviy faollikning ishtiroki davom ettirildi va uning ijtimoiy turlari ko'payib bordi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va yordam berish kabi funksiyalari masjidlariga, shuningdek, diniy jamoatchiliklarga yuklatila boshlandi. Ijtimoiy yordam ko'rsatish yakka tartibda ko'rsatilgan hamda ular guruh shakllarga ega bo'lgan. Yakka tartibda yordam berishning keng tarqalgan shakllaridan biri - bu har bir musulmon tomonidan islom qonun-qoidalariga rioya qilishdir, ular ichida asosiysi - muhtoj bo'lganlarga xayriya-ehson va moddiy yordam berishdan iborat bo'lgan. Ijtimoiy ko'makning jamoatchilik shakllari orasida eng ko'p tarqalgani - bu hashar bo'lib, u jamoa yordami, qurbonlik qilish, tibbiy yordam ko'rsatish, bepul maxsus kasalxonalarni tashkillashtirishdan iborat shaklda uyushtirilgan.

Insoniyat jamiyati rivojlanib boirishi bilan kishilarning ijtimoiy birlashmasi takomillashib, davlat vujudga keldi va odamlarning sotsial muammolari himoya ostiga olinib boshlandi. Jamiyat rivojlanib borishi bilan davlatning sotsial himoyasi kuchayib bora boshlaydi. Davlat qanchalik boy bo'lsa, uning sotsial himoyasi ham shunchalik kuchli bo'ladi.

Ko'p ming yillik tariximizda muhim o'rin egallab turgan, jamiyat gullab-yashnagan va kuchli, boy, markazlashgan davlat tuzgan Amir Temur davriga nazar soladigan bo'lsak, Amir Temur siyosiy sahnaga chiqayotgan vaqtda mamlakatda o'zaro urushlar natijasida shahar va qishloq aholisining ahvoli og'irlashib, iqtisodiyot izdan chiqqan edi. Shuning uchun u markazlashgan davlat tuzish vazifasini asosiy maqsad qilib oladi.

Hayotning barqarorlashuvi nafaqat siyosiy, balki sotsial tadbir bo'lib, iqtisodiyotning gullab-yashnashiga ko'maklashadi. Amir

Temurning jamiyat hayoti va siyosiy tizimiga nisbatan ijtimoiy qarashlari “Temur tuzuklari”da o‘z ifodasini topgan. Asarda jamiyat aholisining sotsial tabaqalari 12 kategoriyaga bo‘linganligi va ularning huquq va majburiyatlari keltirilgan. Markazlashgan davlat iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini va aholini sotsial himoya qilishni ta’minlar edi. Amir Temur “Kuch adolatdadir” degan tamoyili uning ijtimoiy siyosatining asosini tashkil qilgan bo‘lib, jamiyatdagi sotsial muammolarni o‘z vaqtida adolatli hal qilishni ta’minlagan.

Shunday qilib, O‘zbekistonda ijtimoiy ish faoliyatining shakillanish tarixi insoniyatnig paydo bo‘lishi, ijtimoiy hayotni anglab yetishi, mehnat jarayonini o‘zlashtirishi, dinga sig‘inib uni qabul qilishi, yaxshi - yomonni ajratishi, tafakkur va ongining o‘sishi natijasida yuzaga kelgan. Shuni ta’kidlash joizki, o‘zaro ko‘mak ko‘rsatishga intilish insoniyatga xos xususiyatlardandir. Dunyodagi barcha dinlar mohiyatining markazida ijtimoiy ko‘mak ko‘rsatish va xayriya ishlarini amalga oshirish insonning diniy burchi, muhtojlarga gumanitar xizmatlarni ko‘rsatish tizimi sifatida talqin etiladi.

“Ijtimoiy ish” kasbining rivojlanishi va qo‘llab-quvvatlanishining madaniy va tarixiy asoslari. Ijtimoiy ishning rivojlanishida uchta bosqichni ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchi bosqichi ijtimoiy ishning kasb sifatida rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Ikkinchisi -XX asrda Shimoliy Amerika va Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy ishning ijtimoiy ish kasbidan ijtimoiy institutlarga aylanishi davri. Uchinchi bosqich esa - ijtimoiy ishning butun dunyoga tarqalishi bilan tavsiflanadi.

XVIII asrning oxirlari - XIX asrning boshlarida Yevropa va Amerika mamlakatlari sanoatida kechayotgan o‘zgarishlar nafaqat ishlab chiqarish sohasidagi texnik takomillashuv, balki ijtimoiy muammolarning ham keskin ravishda avj olishi bilan kechadi. Bu davrda ijtimoiy differensiallashuv, o‘rta qatlam vakillarining qashshoqlanishi, jinoyatchilikning keskin ortishi, ishsizlikning rivojlanishi ro‘y beradi.

Ijtimoiy muammolarning kuchayishi jamiyatda kambag‘allar toifalarining ortib borishiga sababchi bo‘ldi. Jamoatchilik bu muammoni

turg'unlik hamda tartibning buzilishiga xavf soluvchi omil sifatida talqin etadi. Bu holat Yevropa va Amerika mamlakatlarida nafaqat ijtimoiy sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi ijtimoiy qonunchilikning yaratilishi, balki aholining turli guruhlarini empirik jihatdan o'rganilishini ham taqozo etdi. XIX asrning boshlarida aholi o'rtasida turli xil yozishuvlar, tadqiqotlar amalga oshirila boshlandi, turli xil ijtimoiy muammolarning tahliliy tafsiloti berila boshlandi. Biroq faqat XIX asrning oxirlaridagina ijtimoiy reformatorlar va xayriya tashkilotlarining ilg'orlari kambag'allarga yordam ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi insonlarga maxsus tayyorgarlikning zaruriyati haqidagi xulosaga keldilar.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida pozitivizm va liberalizm oqimi namoyandalarining qarashlari industrial jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda davlatning shaxs oldidagi ma'naviy va axloqiy burchi hamda mas'uliyati haqidagi tushunchalarning shakllanishiga imkon yaratdi.

XIX asrda ijtimoiy ishning kasbiy faoliyat turi sifatida shakllanishi G'arbiy Yevropa mamlakatlarining shiddat bilan industrializatsiyalashuvi va urbanizatsiyalashuvi natijasida vujudga kelayotgan ijtimoiy muammolarning ko'payib ketishidan xavfsiragan filantropik jamoatchilik faoliyati bilan uyg'unlashib ketadi. O'sha davrda odamlar hech qanday maxsus tayyorgarliklarsiz xayriya faoliyati bilan shug'ullanishardi. Bu sohada kuchli jamoatchilik tashkilotlari shakllana boshladi. Bu tashkilotlar diniy faollar va xususiy shaxslar bilan hamkorlikda ijtimoiy muammolarni kamaytirish uchun bor imkonlarini sarflashardi.

Yevropaning ko'pgina mamlakatlarida jinoyati uchun javobgarlikka tortilgan va jazoni o'tash joylaridan ozod bo'lgan insonlarga davlat tomonidan maxsus yordam ko'rsatish shakllari, kasallarga ko'mak beruvchi maxsus tizimlar, ko'r va kar odamlar uchun maxsus yordamning ko'rsatilishi, aholini davlat tomonidan majburiy tarzda o'qitish, ish bilan ta'minlash bo'yicha xususiy hamda davlat ko'magi va shu kabilar paydo bo'la boshladi.

AQSHda ijtimoiy ishning kasb sifatida yuzaga kelishida muhtojlar uchun ajratilgan xayr-ehsonliklarning ortib borishi sabab bo'ldi. Diniy, dunyoviy, ishlab chiqarish, volontyorlik, davlat va boshqa xayriya guruhlari kambag'al insonlar uchun pul, oziq-ovqat, dori-darmonlar va uy-joy ajratar edilar. 1890 - yillarning boshlarida yirik shaharlarda xayriya tashkilotlarining faoliyatini yo'naltiruvchi Jamoatchilik markazi va tashkilotga yaqin mahalliy kichik guruh markazlari ochila boshladi. Ularning vazifasi mahalliy hududdagi xayriya faoliyatlarini muvofiqlashtirishdan iborat edi.

AQSHda ijtimoiy ishning kasbiy faoliyat sifatida shakllanishi 1880 - yillarda emigrantlarning ko'pgina qismi joylashgan yirik shaharlarda boshlangan "Uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha harakat" faoliyati ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ularga yordam ko'rsatish maqsadida shaharlardagi kambag'al emigrantlar joylashgan kvartallarda uylar ochib, u yerlarda mashg'ulotlar o'tkazishar, mazkur mikrorayonda yashovchi kambag'al emigrant oilalari va ularning farzandlariga maslahatlar berishardi⁷⁴.

XIX asrning oxirlariga borib kuchli jamoatchilik tashkilotlari ravnaq topdi. Ularning ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyati cherkov va xususiy shaxslar tomonidan qo'llab-quvvatlanib borilar edi. G'arbiy mamlakatlarda bunday faoliyat xayriya tashkilotlari jamoatchiligi sifatida mavjud bo'lib, bu jamoatchiliklar yordamga muhtoj bo'lganlar bilan bevosita shug'ullanishardi. Xayriya sohasida erishilgan bir qancha yutuqlarga qaramay harakat faollaridagi kasbiy salohiyatning yetishmasligi ijtimoiy muammolarni hal qilishda insonlarga yanada samaraliroq yordam ko'rsatish imkoniyatini bera olmas edi. Shu bilan bir qatorda, davlat ijtimoiy ta'minotida ham kuchli ijtimoiy himoyaga zaruriyat paydo bo'la boshladi, chunki diniy tashkilotlar hamda xayriya muassasalari ijtimoiy sohadagi katta sarf-xarajatlarni amalga oshirish imkoniga ega bo'lmay qoldilar.

XIX asrning oxirlariga kelib Yevropa va Amerika mamlakatlaridagi muhtojlarga davlat tomonidan yordam ko'rsatish

⁷⁴ Русин Т. Профессия социального работника в США. Китоб: Гендерный калейдоскоп. - М.: Академия, 2002. 504-505 стр.

tizimi ikkita asosiy elementni o'z ichiga olardi: qonunchilik sohasini rivojlantirish hamda maxsus organ va muassasalarning barpo etilishi. Ijtimoiy ishchilarni tayyorlash bilan shug'ullanuvchi birinchi o'quv muassasalari xayriya tashkilotlari tomonidan tashkil etila boshladi. Deyarli bir vaqtda 1896 - yilda Angliya va Germaniyada ijtimoiy ishchilarni tayyorlaydigan maxsus kurslar ochildi. Nyu-Yorkdagi filantropiya maktabi 1898 - yilda AQSHda ijtimoiy ishchilarni tayyorlashning boshlanishiga asos soldi. Keyinchalik filantropiya maktabi Kolumbiya universiteti ijtimoiy ish maktabiga aylangach, u muhtojlarga yordam ko'rsatish bilan shug'ullanuvchilar uchun bir yillik o'quv dasturini taklif etadi.

G'arb mamlakatlarining jamoatchilik ongida muhtojlarga yordam ko'rsatish faoliyatining kasbiy salohiyatini oshirish g'oyasi tobora aniqroq anglanilib bordi. U 1899 - yilda ijtimoiy ishchilarni tayyorlash bo'yicha institutga asos solgan Amsterdamdagi ijtimoiy reformatorlar guruhiga tegishli bo'lgan ijtimoiy ishchilarni tayyorlash bo'yicha dunyodagi birinchi institutning barpo etilishi g'oyasi XIX asrning oxirlariga borib amalga oshirila boshladi. Institut dasturi to'liq ikki yilga mo'ljallangan kursdan iborat bo'lib, u o'z ichiga kunduzgi nazariy ta'limni hamda amaliy tayyorgarlikni olardi. Bu dasturda keyinchalik ijtimoiy ish deb nom olgan faoliyat sohasiga o'zini baxshida qilgan erkak va ayollar tahsil olishi nazarda tutilgan edi.

XX asrning birinchi yarim yilligida ijtimoiy ishning rivojlanishi davlat ishtirokining kuchaytirilishi asosida ijtimoiy ishning institutsiiallashuvi bilan tavsiflanadi. Odatda ijtimoiy ishchilar faoliyatining kasbiylashuvi asosi sifatida ular asosiy huquq va majburiyatlarining shakllantirilishi, ish haqining rasmiy tarzda belgilanishi, o'quv muassasalarining faoliyat ko'rsatishi, kasbiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning faoliyati barpo etilishi tushuniladi.

“Ijtimoiy ishchi” kasbi o'z mavqeyiga dastlab AQSHda, keyinchalik G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ega bo'ladi. Birinchi va Ikkinchi jahon urushi davrlari mobaynida ijtimoiy ishchilar maktablari

ko'pgina Osiyo, Yaqin va o'rta Sharq, Sharqiy Yevropaning ko'pgina mamlakatlarida, biroz keyinroq Afrika mamlakatlarida ochila boshladi.

Birinchi ijtimoiy ishchilar o'quv yurtlarida keng sohadagi muammolar bilan shug'ullanishgan. Bu maktablarda immigrantlarni ingliz tiliga o'rgatishdan tortib, industrial jamiyatda ish joyiga ega bo'lish uchun zarur ko'nikmalarni egallashgacha bo'lgan yordamni ko'rsatish ishlari bilan shug'ullanishgan. Ular ijtimoiy adolatsizlikni bartaraf etishga va shu bilan insonlarga o'z muammolarini samarali hal etishga yordam berishar edi.

Ijtimoiy ishchilarning kasbiy manfaatlarini birinchi bo'lib himoya qilgan tashkilot AQSHda paydo bo'lgan. Bu 1917 - yilda tashkil etilgan ijtimoiy ishchilarning Milliy birjasi edi. Keyinchalik ijtimoiy ishchilarning boshqa kasbiy tashkilotlari (tibbiy xodimlar, o'qituvchilar uchun) paydo bo'la boshladi. 1921 - yilda ular birinchi rasmiy registratsiyadan o'tgan Amerika ijtimoiy ishchilari assotsiatsiyasiga birlashdilar.

Ijtimoiy ishning tashkiliy tuzilmalari G'arbning boshqa mamlakatlariga ham keng tarqala boshladi. 1928 - yilda Parijdagi ijtimoiy farovonlik bo'yicha Xalqaro uyushmaga birlashgan yetti Yevropa mamlakatlarining milliy assotsiatsiyasi yaratilishi bilan asos yaratilgan edi. Shu davrdan keyin ijtimoiy ishni tashkil etuvchilar o'zining o'tmishdagi kasbdoshlari kabi xayr-ehson va mehr-muruvvatga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarini asta-sekin jamiyatning muhtoj qatlamlariga ijtimoiy yordam ko'rsatishga qaratilgan ijtimoiy ish kasbi xodimlari tomonidan yuritiladigan manzilli ijtimoiy himoya harakatiga aylana boshladi.

XX asr boshlariga kelib xayriya va jamoatchilik tashkilotlari o'z istaklarini jamiyatning pragmatik maqsadlariga muvofiqlashtirish imkoniga ega bo'lishi uchun ijtimoiy farovonlikni ta'minlovchi usullar, yo'llarining tahlili va tavsifiga jiddiy e'tibor qaratish boshlanadi. Birinchi bo'lib bunga AQSHda Meri Richmond erisha oldi. U o'z diqqat-e'tiborini xayriyaga qaratilgan sa'y-harakatlarni alohida individ va uning oilasiga yo'naltirilgan usul bilan birlashtirishga qaratdi.

Meri Richmond 1915 - yilda chop etilgan “Ilmiy ijtimoiy ish” asarida ijtimoiy ishchilarning hal qilishi lozim bo‘lgan ijtimoiy ishning sifatini baholashning, ijtimoiy muammolarga tashxis qo‘yishning bir qancha sxemalarini taklif etadi. Bu asarning yozilishi turli xil xayriyali intilishlarning anglanilishiga tayanuvchi axloqiy-terapevtik ijtimoiy ishning yaratilishiga olib keladi. Yangi usulning butun tafsiloti olima tomonidan 1917 - yilda nashr etilgan “Ijtimoiy tashxis” kitobida keltiriladi. Bu o‘z o‘rnida ijtimoiy ta’minotga qaratilgan dasturlarning samaradorligini oshirishga xizmat qildi. Meri Richmond o‘z usulini - mijozning ham shaxsini, ham uning ijtimoiy mavqeyi holatining baholanishini inobatga oluvchi ijtimoiy tashxis qilinishi yo‘lini batafsil izohlab beradi.

M.Richmond keyinchalik terapevtik nomini olgan ijtimoiy ish modelining asoschisi hisoblanadi. Mazkur modelga binoan har bir alohida vaziyatda baholashni amalga oshirish, aniq ijtimoiy tashxisni qo‘yish va buning asosida davolash, ya’ni bartaraf etish usulini belgilash ijtimoiy ishchi faoliyatidagi eng ahamiyatli tomoni hisoblanadi. Kambag‘allikni kasallik deb hisoblab, Richmond vrach va ijtimoiy ishchi faoliyati o‘rtasida analogik qiyosni keltirib o‘tgan.

Ijtimoiy ish, uning nazarida, bu barcha sa’y-harakatlarning yakunida mijoz hamda uning atrofidagi ijtimoiy voqelikda kechadigan o‘zgarishlarga qaratilgan faoliyatlarning bir butunligi sifatida qaraladi. Meri Richmond ijtimoiy tadbirlarni o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi ikki usulga ajratadi: bilvosita davolash usuli va bevosita davolash usuli. Bilvosita usul bu insonning tashqi muhitiga ta’sir ko‘rsatish usuli bo‘lsa, bevosita davolash usulida esa hal etish yo‘llarini izlab topish uchun faol harakat qilishga undash maqsadida mijozning o‘ziga ta’sir ko‘rsatish nazarda tutilgan. Klassik mahsul bo‘lgan “Ijtimoiy tashxis” asarida yozilishicha “Yaxshi ijtimoiy ishchi insonlarni kambag‘allikdan olib chiquvchi ish bilan shug‘ullanmay, aksincha, u kambag‘allikdan butkul xalos bo‘lish uchun chora topish haqida o‘ylaydi⁷⁵. Meri Richmonddan

⁷⁵Мақоладан цитата:“Социальная работа как профессия”//Социологические исследования. 1993. № 3. - С. 91.

keyin “o‘rganish, tashxis, davolash” paradigmalari ijtimoiy ishda bosh mezonlar bo‘lib qoldi.

XX asrning birinchi choragi psixiatrik usullar va psixoanalizning bayroqdorligi ostida kechdi. Zigmund Freyd va uning izdoshlarining 20–30 - yillardagi psixoanalitik g‘oyalari ijtimoiy ishda psixodinamik nazariyani oldinga surib chiqdi. Ijtimoiy ish shu davrda biologiya, iqtisod, tibbiyot, psixiatriya, sotsiologiya, statistika, antropologiya, pedagogika, ijtimoiy psixologiyaga va demografiyaga tayangan holda mavjud bo‘lishi kerak, deb hisoblangan. O‘sha davrdan buyon bu ro‘yxat deyarli o‘zgarmagan.

XX asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy ishga tizimli, kompleks yondashuv asosiy yondashuvlardan hisoblangan. Endilikda ijtimoiy ishchidan nafaqat bitta sohadagi tor ixtisoslashuv, balki universalizm, turli usul va sohalarni muvofiqlashtirish bilimi va ko‘nikmasi talab etila boshlandi. Bir vaqtning o‘zida usullardan foydalana olish madaniyati, aniq va ishonchli empirik ma’lumotlarga nisbatan ehtiyoj ham paydo bo‘ldi.

Shunday qilib, bugungi kundagi G‘arbiy Yevropa mamlakatlari rahbariyati tomonidan qo‘llab kelinayotgan tadbir va choralar ijtimoiy ta’minotga ajratilgan davlat xarajatlarining ishlatilishini qattiqroq nazorat qilishga, korrupsiya va haddan ziyod byurokratizm bilan bog‘liq bu sohadagi moliyaviy xarajatlarning qisqartirilishiga yo‘naltiriladigan bo‘ldi. Shu bois, nodavlat pensiya jamg‘armalarining yaratilishi uchun nafaqali imtiyozlar berilmoqda. Nafaqalarning belgilanishida ularni olishga da’vogarlar jiddiy tekshiruvdan o‘tkazilmoqda, ilgari tekin bo‘lgan ko‘pgina xizmatlar endilikda pulli, ya’ni to‘lov asosida ko‘rsatilmoqda, davlat stipendiyalari ko‘pincha qarz bilan almashilmoqda. Ba’zi bir davlatlarda pensiya yoshining ko‘tarilishi haqidagi masala muhokama etilmoqda⁷⁶.

Germaniyada ijtimoiy xizmat deganda ijtimoiy jihatdan nochor aholi qatlami fuqarolarining hayot tarzini yaxshilashga qaratilgan xizmatlar tushuniladi. Bu yerda davlatning o‘zi ijtimoiy himoya garovi bo‘ladi. U nafaqat davlatda yashovchi barcha fuqaro uchun, shuningdek

⁷⁶ Социальная работа. Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. 37-38 стр.

Germaniyada yashovchi chet elliklar uchun ham ijtimoiy xizmatlar tizimining ko'rsatilishini kafolatlaydi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Germaniyada ijtimoiy xizmat deganda faqatgina notijorat muassasalar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar tushuniladi, ya'ni bu xarajatlar taqsimlovchi federal jamg'arma tomonidan moliyalashtiriladi. Germaniyada ijtimoiy xizmatlar uchun sarf- xarajatlar ijtimoiy ehtiyojlar uchun ajratiladigan byudjetning 10 dan bir qismini tashkil etadi. Mazmun jihatidan ijtimoiy xizmatlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: maslahat beruvchi, tibbiy, axborot, huquqiy, umumiy qarov yuzasidan va tashkiliy.

Ayni davrda Germaniyada ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimida muhtojlarga moliyaviy xizmatlari cheklanilmaydigan islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat ijtimoiy ishchilar oldiga mijozlarini ijtimoiy yordam olishga tobelikdan chiqarish, ishsizlarni esa mehnat birjasida kechayotgan jarayonlarga jalb etish vazifasini qo'yimoqda. Shuningdek, ijtimoiy davlatning rivojlanishi bo'yicha quyidagi kabi tamoyillarning amalga oshirilishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda: ijtimoiy ta'minot sohasi bo'icha o'zini boshqaruv tizimi mavjud; qarilik bo'yicha ta'minotga alohida imtiyoz berilgan; xayriya yordami tizimini rivojlantirish nazarda tutilgan.

Rossiyadagi ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimining asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi: manzillilik, ommaboplik, ixtiyoriylik, insoniylik, qiyin hayotiy vaziyatdagi voyaga yetmaganlarga, qariyalar va nogironlarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishning ustuvorligi; konfidensiallik; profilaktik yo'nalganlik; inson huquqlari va manfaatlariga rioya qilish; barcha turdagi ijtimoiy xizmatlarning izchilligi.

“Rossiya Federatsiyasida aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatilishining asoslari haqida”gi federal qonunda ijtimoiy xizmat ko'rsatish qiyin hayotiy vaziyatdagi fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga ijtimoiy, tibbiy, psixologik, pedagogik, huquqiy va boshqa turdagi yordamlarni ko'rsatish bo'yicha ijtimoiy xizmatlarning faoliyati sifatida tushuntiriladi. Qonunda ko'rsatiladigan quyidagi ijtimoiy xizmat turlarining mazmuni ochib beriladi - moddiy yordam, uyda ijtimoiy

ko‘mak ko‘rsatish, statsionar muassasalarda ijtimoiy ko‘mak berish, maslahatli yordam, fuqaro va oilalarni ijtimoiy patronajga olish va boshqalar.

Rossiyadagi ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning zamonaviy tizimining ahamiyatli tomonlaridan biri bu uning dinamik tarzda rivojlanayotgan infrastrukturasi. Mamlakatdagi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yangi ijtimoiy muassasalarning (statsionar, yarimstatsionar va nostatsionar) butun bir tarmog‘i yaratilgan. U yerda muhtoj fuqarolar yuqori darajadagi kasbiy salohiyatli yordam, maslahat, ko‘makni olishlari mumkin. Bunday muassasalar tarkibiga qariya yoshidagi va nogiron fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish markazlari, aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish kompleks markazlari, aholiga psixologik - pedagogik yordam ko‘rsatish markazlari, gerontologiya markazlari, voyaga yetmaganlar uchun ijtimoiy-reabilitatsiya markazlari, bolalar va o‘smirlar uchun ijtimoiy boshpanalar, oila va bolalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha hududiy markazlar va shu kabilar kiradi. Rossiya Federatsiyasida ijtimoiy himoya ishlari vazirligi va joylarda ularning okrug, o‘lka, respublika, shaharlar, rayonlar boshqarmalari tashkil etilgan.

O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining taraqqiyoti. O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi rivojlanishining zamonaviy bosqichi barqaror iqtisodiy o‘shish, aholi hayoti tarzining sifat jihatidan yaxshilanilishiga asoslangan. Hozirgi davrda aholining bandligini va, xususan, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali iqtisodiy faolligini rivojlanishi ijtimoiy himoyalashning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy ish bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Ijtimoiy ish - bu ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning o‘ziga xos bir shakli bo‘lsa, ijtimoiy siyosat esa ijtimoiy ishning o‘zagi, yo‘nalishidir. Huquqiy, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning murakkab yo‘lida mamlakatimiz uchun yangi bo‘lgan faoliyat turini shakllantirish va rivojlantirish, kasbiy salohiyatli ijtimoiy ishchilarni tayyorlash zamon taqozosidir.

Ijtimoiy ish sohasidagi mutaxassislar faoliyatining tavsifi ularga nisbatan talabning yuqoriligi haqida fikr yuritish imkonini beradi.

Respublikaning bozor iqtisodiyoti tizimiga kirishining o'zi ijtimoiy ishchilarga nisbatan ehtiyoj paydo bo'lishini ta'minladi. Bundan tashqari, bugungi kunda respublikadagi barcha faoliyat yurituvchi ijtimoiy boshqarish organlarida ijtimoiy ma'lumotga ega bo'lmagan mutaxassislar ishlab kelmoqda. Ijtimoiy ishchilarning mavjud boshqa turli ta'lim shakllari bo'yicha tayyorlanilishi respublikada davlat ijtimoiy siyosati bo'yicha kadrlarni ta'minlash borasidagi muammolarning hal etilishi imkonini beradi.

O'zbekistonda ijtimoiy ish bu mamalakat ijtimoiy siyosatining muhim yo'nalishi ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanishi, aholi bilan ishlashda fuqarolarni samarali ijtimoiy qo'llab-quvvatlash imkonini beruvchi zamonaviy usul va texnologiyalarning qo'llanilishidir. Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish imkoniyati mahalliy boshqaruv organlari - hokimiyatlar va ijtimoiy ish, ijtimoiy pedagogika va amaliy ruhshunoslik sohasida hududiy ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish va rivojlantirish jihatidan reallashmoqda.

Hozirgi O'zbekiston sharoitida aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimi alohida shaxslar, oila yoki guruhlarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi, moslashuviga yo'naltirilgan ijtimoiy-insonparvarlik faoliyatining alohida usullari tizimi sifatida namoyon bo'ladi. O'tish davridagi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda O'zbekistonda yangi ijtimoiy muassasalar tarmog'i yaratildi, bu yerda muhtoj fuqarolar zarur yordam olishlari va qo'llab-quvvatlanishlari mumkin. Qariyalar, bolalar, nogironlarga g'amxo'rlik Mehnat va ijtimoiy himoya vazirligi tizimi, o'z-o'zini boshqarish jamoatchilik tashkilotlari (mahallalar), IIV muassasalari orqali amalga oshiriladi.

Bunday muassasalar qatoriga turli toifadagi fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlari, aholiga ruhiy-pedagogik yordam markazlari, balog'atga yetmaganlar uchun ijtimoiy-reabilitatsiya markazlari, oila va bolalarga ijtimoiy yordam hududiy markazlarini kiritish mumkin. Xizmatlar ro'yxatini kengaytirish va parvarishga o'ta muhtoj fuqarolarga uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatishni to'liq qamrab olishni ta'minlash maqsadida hukumat qaroriga ko'ra, o'z-o'zini boshqarish organlariga yolg'iz pensionerlar, qariyalar va nogironlarga

uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni bajarish uchun vaqtincha haq to'lanadigan jamoatchilik ishlariga ishsiz fuqarolarni jalb etish huquqi berildi.

Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va mamlakat fuqarolarini ijtimoiy himoyalashni amalga oshirishda nodavlat tarmog'i salmoqli o'ringa ega bo'lmoqda. U kishilarning ijtimoiy ehtiyojlariga qayishqoqlik va tezkorlikda e'tibor beradi. So'nggi yillarda mahalliy va xorijiy nodavlat tashkilotlari doimiy ravishda ortmoqda.

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarida aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatilishi bo'yicha asosiy tamoyillar keltirib o'tiladi. Ular orasida quyidagicha tamoyillar ham keltirib o'tiladi: inson va fuqaroning ijtimoiy xizmat ko'rsatish hamda ularga davlat kafolotlarining ta'minlanishi bo'yicha huquqlariga rioya etilishi. Shuningdek, fuqarolarning ijtimoiy xizmatlarni olishda teng imkoniyatlarga egaligi; ijtimoiy ko'mak ko'rsatilishining manzilliligi va ommabopligi, aholining ojiz, himoyaga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kabi tamoyillar.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yil 1 - dekabrda PF-5270 - sonli "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni doirasida mamlakatimizda keng islohotlar olib borilmoqda.⁷⁷ Bu borada belgilangan chora-tadbirlar izchillik bilan hayotga tatbiq etilishi natijasida faqatgina 2017-yilning o'zida aholining ehtiyojmand qatlamlaridan 100 ming nafar fuqaroga turli xildagi ijtimoiy xizmatlar ko'rsatildi. Tibbiy-ijtimoiy muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi. O'zgaralar parvarishiga muhtoj yolg'iz keksalar, pensioner va nogironligi bo'lgan 15 ming nafar shaxslarga uylarida ijtimoiy xizmat ko'rsatish ishlari amalga oshirildi. 19,5 ming nafar ehtiyojmand fuqaro reabilitatsiya texnik vositalari va protez-ortopediya uskunalar bilan ta'minlandi. Nogironligi bor shaxslar bemalol harakatlanishi uchun bino va inshootlarda pandus va tutqichlar o'rnatilmoqda. Shuningdek,

⁷⁷ Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida <https://www.gov.uz/uz/news/view?id=13283>

35 ming nafar pensioner va nogironligi bo‘lgan shaxs sanatoriyalarga yuborildi. 20 ming nafardan ziyod nogironligi bo‘lgan shaxslarga reabilitatsiya xizmatlari ko‘rsatildi. Ma’lumki, 1941– 1945-yillardagi urush qatnashchilariga o‘z sog‘lig‘ini tiklash uchun har yili sanatoriyaga bepul yo‘llanma beriladi. Agar ulardan birortasi ushbu imkoniyatdan foydalanmasa, ushbu faxriylarga yo‘llanmaning pulini to‘lash joriy qilindi. Bundan maqsad, nuroniylarning tibbiy-ijtimoiy himoyasini kuchaytirishdir. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-martdagi qarori asosida Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etilishi jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoya tadbirlari samaradorligini yanada yuksaltirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu jamg‘arma mablag‘lari nogironligi bo‘lgan shaxslarga ko‘mak berish, reabilitatsiya sifatini oshirish va boshqa tibbiy-ijtimoiy loyihalarga yo‘naltiriladi⁷⁸.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim muassasalari tizimida o‘qitish borasida jahon miqiyosida bir qancha deklaratsiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko‘plab davlatlari e’tirof etdilar. Ammo bugungi kunga qadar ularni hayotga joriy qilish borasida ko‘plab muammolar mavjud. Ba’zi davlatlarda esa umumiy ta’lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta’lim masalasi unga kiritilmaydi. Diskriminatsiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto‘g‘ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim vazifadir.

2019 yilning 1 dekabr kuni, 3 dekabr Xalqaro nogironlar kuni arafasida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonni imzoladi⁷⁹. Farmon orqali “Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini ishlab chiqish va BMTning nogironlar huquqlari bo‘yicha

⁷⁸<http://the.uz/yangiliklar/37195-2017-yilda-20-mingdan-ziyod-nogironligi.html>

⁷⁹Ногиронлиги бўлган шахсларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида <https://www.gov.uz/uz/news/view?id=13283>
<http://uzlidep.uz/uz/positionparty/59>http://ombudsman.uz/uz/press_center/news/uzbekistan/nogironligi-bo-lgan-shaxslarni-qo-llab-quvvatlash-tizimi-takomillashmoqda/

Konvensiyasini qabul qilishga oid takliflar tasdiqlandi. Shuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxslarning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi tizimini takomillashtirishning quyidagi asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi:

- nogironlik belgisi bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda teng sharoitlarni va ularni buzganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta‘minlash;

- nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini ta‘minlash sohasidagi umume’tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish;

- nogironligi bo‘lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish darajasi va sifatini yuqori texnologiyali ixtisoslashgan tibbiy va ijtimoiy yordamdan foydalanish imkoniyatini kengaytirish orqali oshirish;

- nogironligi bo‘lgan shaxslarning oilasi, jamiyat va davlat bilan o‘zaro aloqasini kuchaytirish, ularning qulay muhitda bo‘lishi, shahar yo‘lovchi transporti, ijtimoiy va boshqa infratuzilma obyektlaridan erkin foydalanishi uchun zarur sharoitlar yaratish;

- nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta‘minlovchi inklyuziv ta‘lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish va boshqalar.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ijtimoiy himoya qilishga mas’ul bo‘lgan yagona idoraning mavjud emasligiga ham alohida e’tibor qaratildi. Shu munosabat bilan O‘zbekistonda Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini amalga oshirish doirasida Sog‘liqni saqlash vazirligi huzurida ixtisoslashtirilgan idora tashkil etiladi.

Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi va boshqa manfaatdor idoralarga obyektlar loyihalashtirilishi va qurilishida arxitektura-qurilish nazoratini kuchaytirish, shuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxslarning ulardan erkin foydalanishini ta‘minlash talablariga rioya etmaganlik uchun javobgarlik muqarrarligi tamoyilini ta‘minlash choralarini ko‘rish topshirildi. Hujjatda shuningdek, shahar yo‘lovchi transporti tizimini nogironligi bor shaxslarga moslashtirish orqali ularga qulayliklar

yaratish ham nazarda tutilgan bo‘lib, 2018 - yil 1 - martdan nogironligi bo‘lgan shaxslarga moslashtirilmagan shahar yo‘lovchi transporti vositalarini sotib olish taqiqlanadi.

O‘tgan yigirma to‘qqiz yil davomida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta‘lim muassasalari tizimida o‘qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta‘lim tizimini joriy qilish asosan shaharlar miqiyosida bo‘lib, qishloqlardagi hududlarda hali-hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta‘limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar nogiron farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta‘minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta‘limga jalb etish barcha hududlarda barcha maxsus ehtiyojli bolalarni qamrab olishi ta‘minlanishi lozim.

Nogiron bolalarga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashishi emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta‘lim masalasini rejalashtirayotgan uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ehtiyojini hisobga olgan holda tuzishni talab etadi. Bundan tashqari, inklyuziv ta‘limda nogiron boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda, bilim, ko‘nikmalarga ega qilish, kasb - hunarga o‘rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Bu tamoyilning mohiyatida maxsus ehtiyojli bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi. Maxsus ehtiyojli bolalar ta‘limi boshlang‘ich va o‘rta-maxsus ta‘limni olishlari bilan yakunlanmasligi kerak. Nogiron bolalarning kasb-hunar ta‘limi va oliy ta‘limi ham amalga oshirilishi talab etadi. Chunki inklyuziv ta‘lim tizimining vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta‘minlashdan iboratdir.

O‘zbekiston ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekistonda ijtimoiy ish faoliyatining shakillanish tarixiga nazar tashlar ekanmiz, bunda, eng avvalo, ijtimoiy siyosat tarixiga nazar solib, ayniqsa, hozirgi davrimizga o‘xshash davrlarda olib borilgan ijtimoiy siyosat tarixini o‘rganib, o‘tmishda yo‘l qo‘yilgan xato va

kamchiliklarni anglab olish muhim dolzarob masala ekanligini tushinib olishimiz kerak bo'ladi. Shu bilan birga, ijtimoiy ish siyosati tarixni chuqur, har tomonlama o'rganish O'zbekiston tarixini yoritishda, uning hali o'rganilmagan sohalarini ochib berishda muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekistonda demokratik islohotlar amalga oshirilayotgan hamda bozor iqtisodiyotiga o'tilayotgan bir davrda ijtimoiy muammolarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikaning o'z tiklanish va taraqqiy etish yo'liga asoslangan tamoyillardan biri ham bu kuchli ijtimoiy siyosatdir.

Kuchli ijtimoiy siyosat deganda O'zbekistonning har bir fuqarosi millati, dini va e'tiqodidan qat'iy nazar shaxs sifatida shakllanishi, o'z qobiliyatini namoyon etishi, hayotini yanada farovon, munosib, ma'naviy boyroq qilishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha ijtimoiy kafolat va choralarning ta'minlanishi tushuniladi. Shuni aytishimiz kerakki, ijtimoiy ish siyosatini keng va tor ma'noda tushinish mumkin: keng ma'noda ijtimoiy siyosat, tor ma'noda esa, sotsial siyosat. Ijtimoiy siyosat o'z mazmuniga ko'ra sotsial siyosatga nisbatan ancha kengdir. U ancha murakkab va keng ko'lamlil maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan. Bu maqsad-jamiyat strukturalarini va institutlarini haqiqiy gumanistik munosabatlarni o'zida mujassamlashtirish tomon yo'naltirilgan modifikatsiyalashdan iboratdir. Boshqacha qilib aytganda, tarixan shakllangan boshqarish tizimini iqtisodiy o'sishni va xalq farovonligining o'sish samaradorligini ta'minlovchi murakkab strukturaga aylantirishdan iboratdir.

Sotsial siyosat - u yoki bu sababga ko'ra boshqalarga nisbatan og'irroq ahvolda yashayotgan, muayyan sharoitlardan qiynalayotgan va o'z imkoniyatlari bilan ahvollarini yaxshilay olmaydigan guruh va tabaqalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlatning chora-tadbirlar tizimidir. Ijtimoiy siyosatning nima ekanligini bilib olgandagina uning tarixiga nazar solsak, bu bilan, albatta, ijtimoiy siyosatni kuchaytirishga ilmiy asos yaratgan bo'lamiz.

Mustaqillik yillari mobaynida mavjud real iqtisodiy va demografik vaziyatni inobatga olgan holda bozor iqtisodiyoti sari tadrijiy(bosqichma

- bosqich) o'tish asnosida aholining ijtimoiy himoyalash mexanizmi yaratildi. Dastlabki bosqichlarda bu barcha aholini ijtimoiy himoyalashini ta'minlovchi yo'li bo'lib, u o'z o'rnida insonlar hayoti darajasining keskin ravishda tushib ketishining oldini olish, mamlakatda barqarorlikni saqlab qolish imkoniyatini berdi.

Islohotlarning chuqurlashib borishi barobarida aholiga manzilli yordam ko'rsatilishiga katta e'tibor qaratildi. Barcha nafaqa va yordam turlari oilalarga, mahallalar orqali berila boshlandi, bunda asosiy e'tibor kam ta'minlangan oilalar, qariyalar va bolalarga qaratildi. Aholining turli qatlamlariga differensial yondashish zamonaviy ijtimoiy himoya tizimining o'ziga xos tomonlaridan biriga aylanib bordi.

Mamlakat ijtimoiy siyosatining yutuqlaridan yana biri ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimining vujudga kelishi, aholi bilan ishlashda fuqarolarga natijali ijtimoiy ko'mak ko'rsatish imkonini beruvchi zamonaviy usul va texnologiyalardan keng foydalanish hisoblanadi. Mahalliy o'zini boshqarish organlari - hokimiyatlarda hududiy ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish, ijtimoiy ish, ijtimoiy pedagogika va amaliy psixologiya sohasida mutaxassislarni tayyorlash tizimining tashkil topishi va rivojlantirilishi barobarida aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish imkoniyati ortib boraverdi.

Mamlakat aholisini himoya qilish va qo'llab-quvvatlash kompleks dasturini tashkil etish zarurligi shubhasiz. Mamlakatimizning ijtimoiy siyosati shunga qaratirilgan. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy ish o'zaro uzviy bog'liq. Ijtimoiy ish - ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning o'ziga xos shakli, ijtimoiy siyosat esa ijtimoiy ishning bo'g'ini, mo'ljali. Huquqiy, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning murakkab yo'lida mamlakatimiz uchun yangi faoliyat turini shakllantirish va rivojlantirish, malakali ijtimoiy xodimlarni tayyorlash lozim.

Hozirgi paytda respublikada ijtimoiy himoya va qo'llab-quvvatlash bo'yicha faoliyat turli soha mutaxassislari – sotsiologlar, tarixchilar, psixologlar, pedagoglar, huquqshunoslar va hokazolar tomonidan amalga oshiriladi. Shubhasiz, turli soha mutaxassislarni birlashtirish zarur. Biroq hozir mamlakat yangi marra, ijtimoiy ish institutini yaratishga yaqinlashdi. Bunday institutni yaratish uchun hamma shart-

sharoitlar mavjud: davlatning kuchli ijtimoiy siyosati, mahalliy hokimiyat idoralari ishi, turli jamoatchilik tashkilotlari faoliyati.

Ijtimoiy ish agentlarining sanab o'tilgan turlari orasida bir eng muhim bo'g'in: ijtimoiy ishning nazariy asoslovi yo'q. Ijtimoiy ishning nazariy asoslovini yangi yo'nalishdagi malakali mutaxassislar – ijtimoiy xodimlarni tayyorlashni kengaytirgan holda yaratish lozim.

Mavjud qonunchilik asosida uyda ijtimoiy ko'mak ko'rsatilishiga muhtoj fuqarolarni butunlay qamrab olish va ularga ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lish maqsadida o'zini boshqarish organlariga yolg'iz nafaqaxo'rlar, qariyalar va nogironlarga uyda xizmat ko'rsatish bo'yicha ish bilan shug'ullanish uchun mehnat bilan band bo'lmagan fuqarolarni vaqtincha to'lovli jamoatchilik ishlariga jalb etishga ruxsat berilgan. Shubhasizki, mamlakat aholisini himoyalash va qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks dasturlarning tashkillashtirilishi ijtimoiy himoya tizimini rivojlanishiga xizmat qiladi. Umuman, davlatimizning butun ijtimoiy siyosati yuqorida qayd etilgan islohotlarning barchasiga yo'naltirilgan.

Zamonaviy O'zbekiston sharoitida aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimi alohida shaxslar, oila yoki guruhlarning moslashuvi, ijtimoiy rehabilitatsiyasiga yo'naltirilgan ijtimoiy-gumanistik faoliyatning ma'lum bir uslubi tizimi sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston o'z muhtoj fuqarolarining zarur yordam va ko'magini olishi uchun xizmat qiladigan yangi ijtimoiy muassasalar tizimini yaratish imkoniyatiga ega bo'ldi. Qariyalar, bolalar, nogironlar va barcha ijtimoiy himoyaga ehtiyojmandlar haqida qayg'urish Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, jamoatchilik tarzida o'zini boshqarish organlari (mahalla), IIV tomonidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, Mahalla va oilani qo'llab - quvvaylash vazirligi tashkil etilib, uning tarkibiga turli toifadagi fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlari, aholiga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish markazlari, voyaga yetmaganlar uchun ijtimoiy-reabilitatsiya markazlari, oila, ayollar va bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha hududiy markazlar va boshqalar ham kiradi.

O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha 10 yillik strategiya ishlab chiqilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2019 - yil 21 - noyabr kuni aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazdi. Davlatimiz rahbari hozirgi tizimni “shok terapiyasi” usulida isloh qilish aholining har xil qatlamiga turlicha ta’sir etishini alohida ta’kidlab, mutasaddilarga 2030 - yilgacha aholini ijtimoiy muhofaza qilish strategiyasini ishlab chiqish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Buning uchun 2020 yil birinchi yarmi yakunigacha aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo‘yicha yangi tizimni har bir hududda eksperimentdan o‘tkazish vazifasi qo‘yildi. Yolg‘iz keksalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, yashash joyi bo‘lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlari faoliyatini takomillashtirish masalalariga ham e’tibor qaratildi. Shuningdek, O‘zbekistonda uch darajali pensiya ta’minoti tizimiga o‘tiladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 21 - noyabr kuni o‘tkazgan yig‘ilishda uch darajali pensiya ta’minoti tizimiga o‘tish orqali pensiya badalini to‘lashdan manfaatdorlikni oshirish zarurligi ta’kidlandi.

Bunda, birinchi darajada davlat minimal pensiya miqdorini belgilaydi. Ikkinchi darajada xodimning ish haqidan muayyan summa ushlanib, uning shaxsiy hisob-varag‘ida to‘planadi va Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasidan kam bo‘lmagan foiz hisoblab boriladi. Uchinchi darajada xodim pensiya jamg‘armasiga ajratiladigan mablag‘ miqdorini o‘zi belgilaydi. Bu tizim qo‘llanilsa, fuqaro kafolatli davlat pensiyasini olish bilan birga o‘z xohishiga qarab, pensiya yoshida qancha pensiya olishini o‘zi belgilash imkoniga ega bo‘ladi. Shu bois Moliya vazirligiga Jahon banki va nufuzli moliya tashkilotlari ekspertlari bilan hamkorlikda pensiya tizimini isloh qilish konsepsiyasini ishlab chiqish, shuningdek, ijtimoiy sug‘urta turlarini qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Bundan tashqari, Shavkat Mirziyoyev nogironligi bo‘lgan shaxslarning ishlashi uchun sharoitlar yaratish bo‘yicha topshiriq ham berdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 21 - noyabr kuni aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasiga

bag'ishlangan yig'ilishda aholining ehtiyojmand qatlamini aniqlash va nafaqa to'lashning aniq mezonlarini (indikatorlarini) joriy etish, ijtimoiy yordam oluvchilarning yagona reestrini shakllantirish bo'yicha topshiriqlar berdi. Bu reestrning afzalligi shundaki, soliq, ichki ishlar, kadastr, bank, sog'liqni saqlash, pensiya, mehnat, kommunal va mahalla idoralari ma'lumotlari yagona bazaga birlashtiriladi. Natijada hujjatlarni yig'ishga ketadigan vaqt hozirgi bir necha kundan bir necha soatga qisqaradi, fuqarolar bitta idoraga murojaat qilish bilan barcha masalalarni hal eta oladi.

Ijtimoiy himoya faqat nafaqa to'lash bilan kifoyalanmasdan, balki muhtojlarning "oyoqqa turishi"ga ko'maklashishi lozimligi ta'kidlandi. Misol uchun, nogironligi bo'lgan shaxslarga tegishli mehnat sharoiti yaratib berish orqali ularning 80 foizini foydali mehnatga jalb qilish mumkin.

Sog'liqni saqlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga nogironlik guruhlarini bo'yicha kasblar klassifikatorini qayta ko'rib chiqish, ularning ishlashiga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Mehribonlik uylarida tarbiyalangan yoshlarning ijtimoiy moslashuvi, shu jumladan, ularni ish bilan ta'minlash bo'yicha dastur ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Xuddi shu kabi Prezident o'tkazgan yig'ilishda iste'mol savati va yashash minimumi haligacha joriy etilmagani tanqid qilindi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 21 - noyabr kuni aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishda quyidagilarga e'tibor qaratdi. So'nggi ikki yilda ijtimoiy nafaqa oladiganlar soni 1,3 baravarga, nafaqa miqdori 2 baravarga oshirilgani, ishlayotgan pensionerlarga pensiyani to'liq to'lash tartibi joriy qilingani qayd etildi.

Lekin tizim bilan bog'liq muammolar saqlanib qolmoqda. 2019 - yilning 9 oyida xalq qabulxonalariga ijtimoiy nafaqalar tayinlash bilan bog'liq 36 mingta shikoyat bo'lgani ham shundan dalolat beradi. Masalan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj aholi qatlamini aniqlash, hisobga olishning yagona mezoni yo'q. Pensiya va nafaqalar miqdorini belgilashda muhim omil bo'lgan iste'mol savati va yashash minimumi

joriy qilinmagan. Ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklar bo'yicha bepul davolanish uchun beriladigan orderlar har doim ham ehtiyojmand fuqarolarga yetib bormayapti. Bunday holatlar aholining yordamga muhtoj qismiga uy-joy ajratish, maktabgacha ta'lim muassasalarida otanalar badalidan ozod qilish kabi masalalarda ham uchraydi. Mehribonlik uyida tarbiyalangan yoshlarni uy va ish bilan ta'minlash, yolg'iz keksalarni parvarishlash, doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish borasida ham kamchiliklar bor. Fuqarolarga aniq manzilli va natijali ijtimoiy ko'makni ko'rsatish imkonini beruvchi aholini ijtimoiy himoyalash tizimining vujudga kelishi ushbu yillardagi ijtimoiy siyosatning ibratli yutuqlaridan hisoblanadi.

O'zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Glossariy
IXXF	МФСР	IFSW	Ijtimoiy xizmatchilarning xalqaro federatsiyasi
IFBXK	МСПСБ	ICSW	Ijtimoiy farovonlik buyicha xalqaro kengash
ВМТВJ	ЮНИСЕФ	UNISEF	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi.
Ehtiyojlar	Петребности	Requirements	hayotni ma'lum standartda ushlab uchun zarur bo'ladigan talablar. Ehtiyojga ega bo'lish hayotni ma'lum standartlar asosida yashash uchun nimanidir talab qilish tushuniladi.
Uy sharoitidagi g'amxo'rlik	Забота в местных условиях	Home Care	xizmatdan foydalanuvchilarga kundalik hayot vazifalarini bajarish uchun shaxsiy yordam.
Mahalliy hokimiyatlar	Местные власти	Local authorities	ijtimoiy xizmatlarni mahalliy doirada ta'minlovchi demokratik tarzda saylangan tashkilot.

Mezotizim	Мезосистема	Mesosystem	ikki yoki undan ortiq mikrotizimni o'z ichiga olib, oila, mahalla, maktab, ijtimoiy xizmat agentliklari, qo'shnilar, tengdoshlar kabi guruhlardan iborat;
Mikrotizim	Микросистема	Microsystem	ma'lum muhitdagi shaxsning shaxslararo munosabatlari, faoliyati va rolini o'z ichiga oladi;
Makrotizim	Макросистема	Macrosystem	davlat, jamiyat miqyosidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy qadriyatlar, munosabatlar umumlashmasini o'z ichiga oladi.

Nazorat savollari:

1. O'zbekistonda ijtimoiy yordam ko'rsatishning tarixiy shakllarini izohlang.
2. "Ijtimoiy ish" kasbining rivojlanishi va qo'llab-quvvatlanishining madaniy va tarixiy zaminlarini izohlang.
3. O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining asosiy boshqichlarini ta'riflang.
4. O'zbekiston ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlarini ta'riflang.
5. Xalqaro aholini ijtimoiy himoya qilish va unga globallashtirish jarayonlarining ta'sirini tushuntirib bering.
6. Global ijtimoiy muammolar qanday sabablar tufayli vujudga kelish mumkin?
7. Global ijtimoiy muammolarning qanday turlari mavjud?
8. Ijtimoiy ish xodimlarini global muammolarni hal etishdagi o'rniga baho bering.
9. Xalqaro ijtimoiy ishlovchilar federatsiyasi maqsadi va tarkibini tushuntirib bering.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qonunchilik hujjatlari

1.1 Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 40 б.

1.2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: “Adolat”, 2018. – 112 b.

1.3 Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar. – T.: Adolat, 2004. – B.35.

1.4 Ўзбекистон Республикасида “Василий ва ҳомийлик тўғрисида”ги Низом. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 12-апрелдаги 171-сонли қарорига 2-илова. - Т.: Адолат. 1999 йил.

1.5 O‘zbekiston Respublikasida “Vasiliy va homiylik to‘g‘risida”gi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12-apreldagi 171-sonli qaroriga 2-ilova. -T.: Adolat. 1999 yil.

1.6 O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. -T.: Adolat. 1996.

1.7 «Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 1991 yil.

1.8 “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zR 11.07.2008 y. O‘RQ-162-son Qonun.

1.9 Инсон ҳуқуқлари Умумжаҳон Декларацияси / Муҳаррирлар Ҳувайтов И., Раззоқов С., Имомов А. – Тошкент: Адолат, 2000. – 688 б.

1.10 Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисида Халқаро Пакт // Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар тўплами. Масъул муҳаррир О‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. <https://www.lex.uz/docs/104720>

2. Prezident SH. M. Mirziyoev asarlari

2.1 Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

2.2 Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent : O‘zbekiston, 2017. - 592 b.

2.3 Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – 400 b.

2.4 Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent : O‘zbekiston, 2017. - 56 b.

2.5 Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent : O‘zbekiston, 2017. - 104 b.

2.6 Mirziyoyev Sh.M. Xalqimiz rozilig bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent : O‘zbekiston, 2017. - 351 b.

3. Kitob va turkum nashrlari

3.1 Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти. Дарслик. – Т.: МЕХНАТ, 2009.

3.2 Abduraxmonov Q.X., Abduraxmonov X.X. Demografiya. – Т.: «Noshir», 2011.

3.3 Антоколская М.В. Семейное право. - М.: 1997.

3.4 Axmadshaeva M.A. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va inson huquqlari. –Т.: 2005.

3.5 Баркер Р. Словарь социальной работы/ Р. Баркер. М., 1994.

3.6 Bekmurodov M. Oliy ma`lumotli ijtimoiy xodimlarni tayyorlashda ta`lim muassasalarining roli. - Т.:2008 у.

3.7 Ганиева М.Х. Введение в социальную работу. – Ташкент; НУУЗ, 2011.

3.8 Ганиева М.Х. Основы социальной работы. Учебное пособие. – Ташкент: ЧАШМАПРИНТ, 2009. – 112 с.

3.9 G‘anieva M.X. Ijtimoiy ish asoslari. Metodik qo‘llanma. – Toshkent, RBIMM nashri, 2010. – 30 bet.

3.10 G‘anieva M.X. va mualliflar jamoasi. Ijtimoiy ish etikasi. Darslik. – Toshkent, “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2015.

3.11 Думбаев А.Е., Попова Т.В. Инвалид, общество и право. Алматы: Верена, 2006. –17 с.

3.12 Инсон ҳуқуқлари. - Т.: Адолат, 1997.

3.13 Камалов О.А. Молодая семья в современном обществе: Учебно - методическое пособие / О.А.Камалов, А.Р.Ярмухамедова, А.А.Курбанова, Б.А.Артыков. – Ташкент: Академия МВД Республики Узбекистан, 2013.

3.14 Кравченко А.И. Социальная работа. – М.: Изд-во Проспект, 2008.

3.15 Ким Л., Исаева Д., Таджиева С., Собирова Д. “Болалар ва оилалар билан ижтимоий иш амалиёти” курси бўйича хрестоматия. – Тошкент, - ЖАҲОН ПРИНТ нашриёти. 2012.

3.16 Кукушина В.С. Социальная защита населения. Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2007.

3.17 Латипова Н.М. Социальная защита семей и детей в Узбекистане. – Ташкент, Наврўз, 2018.

3.18 Маслова Т.Ф., Шаповалов В.К., Ткаченко Б.С. Концепция исследования интеграции людей с инвалидностью в общество // Интеграция людей с инвалидностью в российское общество: теория и практика / под ред. В.К. Шаповалова. - М.: Муравей, 2006. – 74 с.

3.19 МОТ: Конвенции и рекомендации, принятые Международной конференцией труда. – Женева: МБТ, 1991.

3.20 Нечаева А.М. Правонарушения в сфере личных семейных отношений. - М.: 1991.

3.21 Оливер М., Сепий Б. Социальная работа с инвалидами. 2-е изд. - М.: 1999.

3.22 Основы социальной работы. Отв. ред. Павленок П.Д. – М.: ИНФРА-М. – 2001. – С. 216.

3.23 Павленок П.Д. Введение в профессию «Социальная работа»: Курс лекций. - М., 1998.

3.24 Русин Т. Профессия социального работника в США. В книге: Гендерный калейдоскоп. - М.: Академия, 2002. 504-505 стр.

3.25 Социальная работа. Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. 37-38 стр.

3.26 Тетерский С.В. Введение в социальную работу. - М., Академический проект, 2003. — 493 б. (элект.вар.).

3.27 Тони Видмар. Валентина Хухлина. Сборник «Практики социальной работы». – М.: Изд-во Моск. гуманит. ун-та, 2018.

3.28 То‘uchieva S., Norbekov A.SH. Ijtimoiy siyosat – O‘quv qo‘llanma– Tashkent, 2010. 102-b.

3.29 Теория практика социальной работы: Методические материалы. / Отв. ред. Попов А.М., Холостова Э.И. – М.: Ин-т Соц. работы, 1997.

3.30 Холмуродов С.Е., Шоюсупова Н.Т. Иқтисодий социология. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДИУ, 2006.

3.31 Хусанова Х.Т. Маҳаллий жамоаларда ижтимоий иш. Ўқув қўлланма. – Тошкент: РБИМИ, 2014. - 88 б.

3.32 Хрестоматия по учебному курсу «Основы социальной работы». Распространение программы переподготовки по социальной работе и продвижение профессии «социальная работа» в Узбекистане». / Составители: М.Х. Ганиева, М.Х. Карамян. - Ташкент: МинВУЗ-РССАД- ТашГИК-ЮНИСЕФ, 2008.

3.33 Русин Т. Профессия социального работника в США. В кн.: Гендерный калейдоскоп. - М.: Академия, 2002. С. 504-505.

3.34 Ўлмасов А., А.Вахабов. Иқтисодиёт назарияси. – Тошкент: «Шарқ», 2008.

3.35 Чичерина Я.Е., Исмаилова Р.Н. Ногиронлиги бўлган болалар билан ижтимоий иш курси бўйича хрестоматия. – Тошкент: ЖАНОН ПРИНТ, 2012.

3.36 Ярская - Смирнова Э.Р., Наберушкина Э.К. Социальная работа с инвалидами. Саратов, 2003

4. Journallardagi maqolalarga havolalar

4.1 Ганиева М.Х. Развитие социальной работы в Узбекистане // Фалсафа ва ҳуқуқ. Илмий-назарий, маърифий журнал. №1. 2013. – Б. 50-55.

4.2 Убайдуллаева Р. Социологический портрет личности аксакала // Общественное мнение. Права человека. – Ташкент, 2004. - №1(25). – С. 147-159.

4.3 Хусанова Х. Ўзбекистонда нодавлат нотижорат ташкилотларининг ижтимоий-иқтисодий фаолияти тўғрисида // СамДУ Илмий тадқиқотлар Ахборотномаси. – Самарқанд, 2002. - №2. – Б. 95-99.

4.4 Шорахметов Ш. Ўзбекистон Республикасида Фуқаролик процессуал ҳуқуқи. - Т.: Адолат. 2001. -149 б.

4.5 Саидов А. Маҳалла – умумий уйимиз // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2003. - №1(21). – Б. 7.

4.6 Ганиева М.Х. Основные принципы социальной работы с детьми в Узбекистане // Ўзбекистонда замонавий ижтимоий-маданий жароёнларни ёритишда ижтимоий тарихни ўрни. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. Май, 2015. – Б. 387-391

4.7 Сведберг Р., Смелсер Н. Социологический подход к анализу хозяйства // Экономическая социология. – 2003. – Т. 4. – № 4.– С. 48–61.

5. CHet tillaridagi adabiyotlar

5.1 Mattison M. Ethical decision making the person in the process. [Soc.Work.](#) 2000 May;45(3):201-12.

5.2 Esping-Andersen G. The three worlds of welfare capitalism. Princeton New Jersey: Princeton University Press, 1993.

5.3 Berkes F., Golding, J., & Folke, C. (Eds.). (2002). Navigating social-ecological systems: Building resilience for complexity and change. New York: Cambridge University Press; Duncan, S. F., & Goddard, H. W. (2005).

5.4 Familylife education: Principles for effective outreach. Thousand Oaks, CA: Sage Publications.

5.5 Ambrosino R., Ambrosino R., Heffernan J., Shuttlesworth G. Social Work and Social Welfare: An Introduction. Sixth Edition. – Thomson Brooks/Cole, 2008. – R.320-321.

5.6 James W. Coleman and Harold R. Kerbo, Social Problems, 8th ed. (Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall, 2002), p. 634

5.7 Charles Zastrow. Introduction to Social work and social welfare. Empowering People. George Williams College of Aurora University. Printed in Canada: Brooks/Cole, Cengage Learning, 2010.– S.177.

5.8 Ambrosino R., Ambrosino R., Heffernan J., Shuttlesworth G. Social Work and Social Welfare: An Introduction. Sixth Edition. – Thomson Brooks/Cole, 2008. – R.34.

5.9 Howard M. America and the World. St. Louis: Washington University. The Annual Lewin Lecture, 5 April 1984. P. 6.

5.10 National Association of Social Workers (approved 1996, revised 1999). Code of Ethics for Social Workers. Washington, DC: NASW; International Federation of Social Workers and International Association of Schools of Social Work. (2004). Ethics in Social Work, Statement of Principles. Retrieved January 2, 2008 from <http://www.ifsw.org>

5.11 Beveridge W. Social Insurance and Allied Services. – London: Report, 1942. – 170 p.

6. Konferensiya ishlariga va OAV ga havolalar

6.1 Саидов К. Проблема бедности в Узбекистане в переходный период // Аҳолини турмуш даражасини кўтариш ҳамда ижтимоий ҳимоясини кучайтириш йўллари ва воситалари: Илмий-амалий конференция материаллари. – Самарқанд: СамДУ, 2002. – 88 б.

6.2 Хусанова Х. Фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари ролининг ошиб бориши // Ижтимоий тараққиёт парадигмаси: миллий ва умумбашарий томонлари: Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Самарқанд: СамДУ, 2001. – 72 б.

6.3 Вафоев У. Ижтимоий ҳимоя йўналишидаги бошқарувни такомиллаштириш қанчалик муҳим? // Халқ сўзи 2020 йил 26 май, №110 (7612).

7. Elektron sahifalar

7.1 <http://ziyonet.uz>

7.2 <https://kun.uz/news/2020/05/27/oqsayotgan-ijtimoiy-himoya-tizimi-xato-qayerda#0>

7.3 <http://www.who.int/features/factfiles/disability/ru/>.

7.4 <http://www.who.int/features/factfiles/ageing/ru/>.

7.5 <http://www.who.int/features/factfiles/disability/ru/>.

7.6 http://www.who.int/disabilities/world_report/2011/summary_ru.pdf.

7.7 <http://www.who.int/features/factfiles/disability/ru/>

7.8 <http://www.echr-base.ru/invalidation.jsp>.

7.9 <https://stat.uz/uz/press-sluzhba/novosti-gks/8335-demografik-holat-7>

7.10 <https://www.gov.uz/uz/news/view?id=13283>

7.11 <http://uzlidep.uz/uz/positionparty/59>

7.12 http://ombudsman.uz/uz/press_center/news/uzbekistan/nogironligi-bo-lgan-shaxslarni-qo-llab-quvvatlash-tizimi-takomillashmoqda/

MUNDARIJA

Kirish	3
1. Mavzu. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minot tushunchalarining mohiyati.....	7
2. Mavzu. Ijtimoiy ish va yordam ko'rsatish kasb sifatida.....	23
3. Mavzu. Ijtimoiy ish sohasining nazariy asoslari.....	48
4. Mavzu. Ijtimoiy ishning odob va axloq muammolari.....	56
5. Mavzu. Ijtimoiy ish kasbining yo'nalishlari. Ijtimoiy ishchining funksiyalari va rollari.....	72
6. Mavzu. Zamonaviy dunyoda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash modellari.....	99
7. Mavzu. Oilalar, yoshlar va bolalar bilan ijtimoiy ish.....	132
8. Mavzu. Ijtimoiy ishda salomatlik va nogironlikni o'rganish.....	161
9. Mavzu. Keksa kishilarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish.....	184
10. Mavzu. AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida deviant xulq-atvorli o'smirlar va bolalar bilan ijtimoiy ish.....	199
11. Mavzu. Ijtimoiy ishning globallashuvi.....	219
12. Mavzu. O'zbekistonda ijtimoiy ishning rivojlanishi.....	233
Foydalanilgan adabiyotlar	260

YUSUPOV R.K.

IJTIMOYIY ISHGA KIRISH

O'quv qo'llanma

Muharrir

O.Sharapova

Musahhih

L.Xoshimov

Texnik muharrir

B.Egamberdiyev

2020-yil 25 dekabrda tahririy-nashriyot bo'limiga qabul qilindi.

2020-yil 28 dekabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog'oz bichimi 60x84._{1/16}. "Times New Roman" garniturasida.

Offset qog'ozi. Shartli bosma tabog'i – 16,5.

Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 415

SamDU tahririy-nashriyot bo'limida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.

